


TOHIR SHERMURODOV

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI



— Toshkent – 2026 —

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TOHIR SHERMURODOV

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

(Uslubiy qo‘llanma)

Toshkent – 2026



UO'K 82.09(072)

KBK 83.3ya73

Sh 47

Shermurodov Tohir.

Adabiyotshunoslik nazariyasi [Matn]: Uslubiy qo'llanma / T.Shermurodov.
– Toshkent: Noble Print, 2026. – 174 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma adabiyotshunoslik nazariyasining muhim masalalarini tizimli yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda so'z san'atining mohiyati, badiiy obraz va obrazlilik, mazmun va shakl munosabati, pafos, poetik tafakkur, adabiy-estetik qarashlar hamda adabiy tahlil tamoyillari nazariy jihatdan izohlangan. Qo'llanmada Sharq va G'arb adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti, mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy nazariy konsepsiyalari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Har bir mavzu nazariy ma'lumotlar, foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar hamda mustaqil ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan boyitilgan.

Uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining filologiya va adabiyotshunoslik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar hamda adabiyot nazariyasi masalalariga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Ilyos Ismoilov – filologiya fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:

Karomat Mullaxo'jayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fayzulla Iskandarov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2026-yil 31-martdagi 10-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8584-7-5

**© Shermurodov T.
Noble Print, 2026.**

DARS REJASI:

- Adabiyot nazariyasi – soʻz sanʼatining ilmi va fani.
- Soʻz sanʼatining xosliklari, oʻrganilishining ahamiyati.
- Sharq va Gʻarb adabiy-estetik qarashlari: oʻziga xosliklar, umumjihatlar.
- Adabiy-nazariy yondashuvda umuminsoniy asoslar.
- Taʼlimotiylik – ilmiy-nazariy tahlil mezon.

Ijodkorlik inson zotiga yaralishida ilohan ato etilgan eng moʻtabar neʼmatlardan biridir. Bu salohiyat koʻplab xoslik va mayllar qatorida faqat inson mohiyatida mujassam va sobitdir. Azizlik va mukarramlilikning bir belgisi, imkoniyatlar hamda ulugʻvorliklar omilidir. Ijodiy harakat, faoliyat sanʼatlarni, uning namunalarini barpo qiladi. Sanʼat turlari ichida badiiy adabiyot cheksiz imkoniyatli soha sifatida eʼtirof etiladi. Buning boisi uning vositasi soʻz, bayon, til boʻlgani uchundir. Adabiyot soʻz orqali moddiy va maʼnaviy olamlarning barcha voqeliklariga kirib bora olish, ularni badiiy yoritish olish, boshqalarda ular haqida taassurot uygʻota olish, zavq hosil qilish, oʻquvchini muayyan xulosalar tomon yoʻllay olish quvvatiga ega.

Tarixi insoniyat tafakkur tarzining oʻziga tengdosh, ilk taraqqiy bosqichi xalqlar ogʻzaki ijodiga borib taqaladigan bu ijodiyotning ham, barcha sohalarda boʻlgani kabi, oʻz munosabatchi ilmi, fani bor boʻlib, u adabiyotshunoslik deb ataladi. Tamaddun qonuniyatlariga mansub ayni soha ham, shubhasiz, dastavval ogʻzaki koʻrinishlardagi jarayon boʻlgan. Bu jarayon bevosita fan yoki ilm tushunchalarini anglatishga qodir boʻlmasa-da, doimo mavjud jarayondir. Ijod mahsulining oʻzi munosabatlarni taqozo etguvchi hodisadir. Barcha xalqlarda, xususan, sharq va gʻarb xalqlarida fan sifatida shakllanishi turli qadim davrlarda har

xil o'ziga xosliklar bilan kechgan adabiyotshunoslikning muhim bir tarmoq fani **adabiyot nazariyasidir**.

Bu fan so'z san'atining mazmun-mohiyatini, maqsad-vazifalarini, taraqqiy asoslarini, dunyo hayotidagi mavqei va ahamiyatini, badiiy asar suyujeti, tuzilishi, uning til xususiyatlarini, tur va janr, shakl va mazmun, milliylik va umuminsoniylik, an'ana va novatorlik, uslub va usul, ijodiy metodlar va adabiy oqimlar, badiiyat mezonlari singari masalalarini o'rganadi, so'z san'ati qonuniyatlarini ochadi va sharhlaydi. Shuningdek, badiiy so'z ijodkorligini, xilma-xil badiiy namunalarning tahlil, talqin qilinish tamoyillarini, bularning metodlarini, baholash (tavsiflash, ta'riflash, tanqidlash) qoidalarini tavsiya etadi.

Ma'lumki, "adabiyot" so'zi keng ma'noda o'qish, bilim olish uchun mo'ljallangan barcha yozuv manbalarini, kitob-u qo'llanmalarni, tor, lekin qo'llanilishiga ko'ra juda faol ma'noda esa san'at sanaluvchi badiiy ijod namunalarini ifoda qiladi. Arab tilidan olingan ushbu so'zda adab – odob, had, axloq, intizom kabi ma'nolarning mujassamligi qadim-qadimdan Sharq xalqlarini, adiblari, olimlarini mohiyatni to'la ifodalovchi, soha vazifasini belgilovchi nom-atama sifatida hushyorlikka chorlab va faxrlantirib keladi.

Badiiy asar hamma vaqt hikmatlilikni, haqiqatgo'ylikni, hayot manzaralari va inson ruhiyatini aks etdirishdagi mahoratni, vaznga solingan, muayyan qoidalarga amal qilingan ijodchilikni, har jihatdan jozibadorlikni talab etadi. Bu san'at milliy maqomda turib umuminsoniy yaxshiliklarni tarannum etish, inson estetik didini, tafakkur tarzini boyitish, inson ma'naviyatini to'g'ri kamol sari boshlash san'atidir. Sharq so'z san'atini, uning fanniy ta'limlarini butun tarix mobaynida botil, tarafkash, buzuq ifodaviylikdan, turfa zalolatlardan saqlagan, uni umumbashariy adabiy-estetik g'oyalar bilan ziynatlagan asos so'nggi va mukammal din bo'lgan islomning barcha mavzularga oid haq ta'limotlaridir.

Haq ta'limotning muqaddas manbasi Qur'oni Karimning, Rasululloh hadisi shariflarining nasihatlarini tufayli hamma ilm-fanlardan tamoman bexabar, faqat she'riyati avj olgan, ammo bu sohasi ham anchayin johilona qurolga aylangan arab badiiy so'z ijodkorligi asta-sekin o'nglana bordi.

O'rta asrlarga kelib, islom o'z e'tiqodiy ilm-fanlarigagina emas, balki barcha dunyoviy bilimlarga keng yo'l ochdi.

Xorun ar-Rashid davrida xalifalikning Markaziy Osiyo va Xurosondagi amiri bo'lgan uning o'g'li Ma'mun keyinroq o'z xalifalik vaqtida Bog'dodda ulkan kutubxona va ilmiy-ma'rifiy markaz tashkil etib, dunyo olimlarini, iqtidorli yoshlarini ishga chorlab Bog'dod va akademiyaning shuhratini olamga taratdi. Movarounnahr va Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvaziy, Marvarudiy, Javhariy singari o'nlab olimlar har jabha ilmining peshqadamlari bo'lib tanildilar. Ilm-fan qadri, olimlarga shart-sharoit va homiylikning bunday namunasini insoniyat tarixi ko'rmagan edi.

9-asrning oxiriga borib Markaziy Osiyo, Xuroson arab xalifaligi tasarrufidan chiqdi. Biroq e'tiqoddan chetlanish, ilm, ijod yo'lidagi sa'y-harakatda sustlashish bo'lmadi. Somoniylar – dastlabki hukumat va keyingi hukmdorliklar davrida Buxoro, Samarqand, Shosh (Toshkent), Ko'hna Urganch, Xiva, Termiz, Marv kabi shaharlar ilm-ma'rifat markazlariga aylandi. Turli mamlakatlar olimlari ham bu joylarga ilm istagida kelishadigan bo'ldi. Bu diyorlarning Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamahshariy, Qoshg'ariy kabi olimlar shuhrati Sharqdagina emas, butun dunyoda e'tibor qozondi. Turkiy davlatlar markaziy shaharlarining deyarli barchasi ilmlarni egallash maskanlari sifatida tan olinadigan bo'ldi. Xorijda xuddi Bog'dodga intilinganidek, O'rta Osiyo, Xuroson, Movarounnahrga intilish kuchaydi. Bu haqdagi e'tiroflar ayniqsa o'sha davr arab olimlarining risolalarida ko'p keladi.

Islom hamma narsaga e'tibor qaratishda mohiyatni birinch o'ringa qo'yishni taklif etadi. Hamma narsa va hodisa zamirida esa ilohiy hikmatlar borligini aytadi. Shuning uchun ham islomiy e'tiqod va ta'limot o'zi shakllantirgan, kamolini yuksak qilgan Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamahshariy va boshqa allomalarga mantiqiy, falsafiy tafakkurlashning barcha yo'llarini keng ochib qo'ydi. Bular salohiyati bo'ylab yuksalish axloqda, diniy, dunyoviy ilm-fanlarda, madaniyat, maktab, madrasalar ta'lim-tarbiyasida – hamma jabhada

baravar, bir vaqtning o'zida davom etdi. Movarounnahrda 8-asr o'rtalaridan boshlab islomiy ilmlar rivoj yo'liga kirdi. Xorazmlik Muborak al-Marvaziy (835-906), samarqandlik Imom Dorimiy (798-869), Hakim at-Termiziy (820-905), Abu Iso at-Termiziy (824-892), Al-Kabir al-Buxoriy (768-832), Imom Buxoriy (810-870) kabi olimlar o'zlarining asarlari bilan butun islom olamining ehtiromini qozondi. Buxoro fiqh, Samarqand hadis markaziga aylanib, uzoq zamon dunyo tolibi ilmlarini o'ziga chorladi. Tafsir ilmining ravnaqi ham ularning nomlari bilan bog'liq. Imom Buxoriyning asarlari, "Jome' us-Sahih" to'plamlari islom dunyosining misli yo'q xazinasini bo'lib qoldi.

11-asrdan boshlab O'rta Osiyoda tasavvuf ilmi, tasavvufiy ta'lim-tarbiya joriy bo'la boshladi. Bu yo'nalish islom obodligiga, xalqning ma'naviyatiga ulkan hissa qo'shdi. Yusuf Hamadoniy tasavvuf ta'limotining mintaqadagi ilk ustozlaridan bo'lib shuhrat topdi. Uning shogirdi Ahmad Yassaviy shogirdlarining g'oyatda ko'pligi, xalqona diniy-ma'rifiy she'rlarining butun islom yurtlariga keng yoyilishi bilan shuhrat qozondi. Hamadoniy ta'limotlari zaminida vujudga kelgan Abduxoliq G'ijduvoniyni xojagon, shular asosida yuzaga chiqqan, asoschisi Bahovuddin Naqshband bo'lgan naqshbandiya, 12-asrda rahnamosi Najmiddin Kubro bo'lgan kubroviya tariqatlari ham islomiy tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyatga molik bo'ldi.

Turkiy xalqlar adabiyotida, uning og'zaki va yozma shakllarida didaktik tamoyillarning, diniy-ma'rifiy tafakkurchanlikning rivojlanishi turli fanlarga doir tadqiqiy manbalarning ko'payishi, dunyo kitoblarining arab tiliga o'girilishi, musulmon olimlarning o'zlari bitgan yuzlab durdona kitoblarning keng tarqalishi bilan ham bog'liq. Shular sirasida hech bir qomusiy olimning nazari va faoliyatidan chetda qolmagan adabiyot ilmlari ham bor. 9-10-asrlarda olimlikning ko'p ilm-fanlardagi bilimdonlik bilan belgilanishi, qomusiylik ijodkorlikning shartlaridan biriga aylanishi kuzatildi. Muayyan salmoqdor asar boblarining turli fan, turli soha masalalariga bag'ishlanib yozilishi, boblardan birining albatta ma'naviyat, ma'rifat, badiiy so'z ahamiyati yoki ilmi adabga qaratilishi, bu yo'sin kitob tartibotining keyingi asrlarda ham an'ana bo'lib qolishi shundan.

Qalbdagi shoirona zavqning, tafakkurdagi falsafiy yuksaklikning san'at qonunlari hamda maxsus qoidalarga bo'ysungan ifodasini Ibn Sinoning doston, g'azal, ruboiy, qit'alari namoyon qildi. Ularning ba'zilari arab, ba'zilari fors tilida yozilgan. Adabiy asarlari bizgacha to'la yetib kelmagan. Saqlanib qolganlarining o'zi ham uning ijodi adabiyotga falsafiy ruhni chuqur o'rnatirganiga dalolat qiladi. Ustozi Forobiyning qalamiga mansub bir necha she'rda, Abu Abdulloh Rudakiy, Abusaid Abulxayr kabi zamondoshlari va boshqalar ruboiyotida ko'zga tashlana borayotgan falsafiylik Ibn Sino ijodida yetakchi motivga aylandi. Haqni tanishga, yakdillikni ulug'lashga, bu dunyo g'animatligini anglatishga chaqiruvchi quyidagi she'r Forobiy ijodidan:

Uzoq yur bo'lsa botil, so'zi yolg'on,
Haqiqat tarqatib ket, bo'lsa imkon.
Bo'lmadi dunyo biz uchun abad uy,
Bas kelmayin o'limga hech bir inson.
Kurraga tushgan chiziqlar bizmikin?
Yel ko'pursa, yo'q bo'lurmiz shul zamon.
Shul ekan hol, bu muxoliflik nechun?
Arzimasga bir-biri birla hamon?
Jondan ajralganlik avlomasmikin
Aylamakdin bunchalik to's-to'palon?!

Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov turkiy adabiyotlar tarixini "Islomgacha bo'lgan davrdagi turkiy adabiyot", "Islomiy turk adabiyoti", "Yangi o'zbek adabiyoti" tarzida davrlashtirib sharhlar ekan, ikkinchi bosqich ("Islomiy turk adabiyoti")ning tamomiy yangichaligi, undagi nazariy, poetik sifatlarning yangichaligi, islomiyligi xususida quyidagi o'rinli xulosalarni bildiradi: "Islom ijtimoiy-siyosiy tafakkurnigina emas, adabiy-estetik qarashlarni ham o'zgartirdi. Olam va odam haqidagi tushunchalarga yangi mazmun berdi. Ularni Yaratganning bir-u borligiga ishonchini mustahkamladi. Ayni paytda, insoniy tuyg'ularni qardoshlik, o'zaro xayrixohlik va komil inson bo'lib yashashning anglanishi bilan boyitdi. She'riyat badiiy ijodning asosiy turi bo'ldi. Vazn, ifoda vositalari, uslub qurilish jihatidan Sharq poetikasi uchun xos bo'lgan xususiyatlar kasb etdi. Yolg'iz poetikada emas,

syujetlar, personajlar, hatto yo'l-yo'nalishlarigacha mushtarak bo'ldi. Ayniqsa, turkiy va forsiy she'riyat o'zaro hamkorlikda bir-biridan quvvat olib rivoj topdi. Shoirларimiz ikki (o'zbek, fors), uch (o'zbek, fors, arab) tilda ijod etdilar. Bu hol adabiyotimiz milliyligiga xalaqit bermadi, aksincha, qiyoslarda o'zligini saqlay olish imkonini yaratdi. Alisher Navoiy Sharq Renessansi (Uyg'onishi) ning buyuk vakili bo'lishini ta'min etdi..."

Adabiy-estetik tafakkur hamda adabiyotshunoslikning shakllanib, taraqqiy topishida diniy, falsafiy, ilmiy, tarixiy asarlarning ahamiyati katta bo'ldi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy kabi qomusiy olimlarning asarlarida adabiyot, san'at, she'r va shoirlik masalalariga keng e'tibor qaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida adabiyot va adabiyotshunoslikka oid fan tarixi uchun juda qimmatli ma'lumotlar bor. Unda 300 dan ortiq ikki va to'rt misrali she'riy parchalar, 300 ga yaqin maqol va matallar lug'atdagi bosh maqola-so'zlar ma'nolarini izohlab keladi.

O'zbek turkolog olimi Jo'ra Xudoyberdiyev o'zining "Devonu lug'otit turk"dagi adabiyotshunoslikka oid ma'lumotlar" maqolasida ushbu qadimiy va nodir lug'atning 11-asr va ungacha bo'lgan turkiy adabiyotning qimmatli namunasi sifatida ham mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinayotganini, xususan, S. Mutallibov, R. Orzibekov, A. Abdurahmonov, B. Valixo'jaev kabi olimlarning "Devon"dagi adabiyotga oid atamalarga e'tibor qaratganliklarini ta'kidlar ekan, e'tibordan chetda qolgan yana bir qator adabiy atama va tushunchalarni sharhlaydi. Olim "Devon"da adabiyotshunoslikka oid termin va tushunchalar 27 ta bosh maqolada berilgan bo'lib, shulardan 12 tasi bosh maqola, 15 tasi bosh maqola sifatida keltirilgan so'zlarning izohida qayd qilingan ekan" degan xulosaga keladi.

Mazkur asrlardagi ajdodlarimizning ilm-fan, badiiy adabiyot, adabiy-nazariy ta'limotlar borasida erishgan yuksak muvaffaqiyatlarini atroflicha o'rgangan jadidchilik davri adabiyotshunosi va munaqqidi Vadud Mahmud (1898-1976) o'zining "Navoiygacha turk adabiyoti", "Alisher Navoiy" (1925-1926) maqolasida shunday yozadi: "Hijriy 5-asr ila 10-asr

orasidag'i besh yuz yilliq bu davr Xuroson va Movarounnahrda islom madaniyatining gullagan mavsumi edi... Mana shu zamonlarda edikim, islom madaniyatining yetishtirg'on hakim va adiblari dunyoda yagonalik tug'ini ko'targan edilar".

Qadimiyluk nuqtayi nazaridan G'arb dunyosi bilan Sharq dunyosi adabiyotlari o'rtasida davriy farqlar yo'q. Ular ildizlarining folklor (og'zaki badiiy to'qimalar)ga borib taqalishi ham isbot talab qilinmaydigan bir xil haqiqat. Poetik va nazariy qarashlarda esa deyarli hamma zamonlarda xilma-xil, bir-biridan farq qiluvchi o'ziga xosliklar bo'lib kelgan. Mazkur farqlanishlar asosi qator mintaqaviy, g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-axloqiy, diniy-ma'rifiy omillar bilan, xususan, har davrda har xil kechgan, goh tanazzul, goh rivojda o'tgan e'tiqodiy sifatlar, darajalar bilan bog'liqdir.

Butun insoniyatga daxldor haq ta'limot nozil bo'lib, u keng ommalashgunga qadar Sharqda ham, G'arbda ham e'tiqodan mahdudlik, adashuv, toyilishlarning son-sanoqsiz ko'rinishlari yuzaga chiqqan. Bularning bari ayni choqda ular adabiy ijodlarida aksini topgan. Ilm-fanlar ularga tarixni chuqur bilmoq va anglatish uchun, ulardan ibrat va saboqlar olish uchun hamma vaqt murojaat etib keladi.

Dialektik tarixiy bu jarayonda adabiy aloqalar, ijodiy ta'sirlar ham hamisha u yoki bu shaklda, maromda mavjud bo'lib kelganini hamda ushbu qonuniyatning ham tabiiy bardavomlilikini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Islom to'la shakllangan davrlardan buyongi Sharq adabiy ijod namunalari va ularga oid ilmlar yagona e'tiqodiy asosda ish yuritadi, barcha qoida-odoblar, o'lchov-mezonlarni shu islom ta'limotlaridan kelib chiqib belgilaydi.

Bu ta'limotiylik islom olami adabiy ijodlari va ilmlarida manguikka manfaatli yagona dastur sifatida qaraladi. Poetik va adabiy-nazariy tafakkurning bu shakli bo'yicha, hayot masalalarining badiiy ifodasiga o'zgacha, masalan, g'arbona yondashuvlarning ayni e'tiqodga foydali, umuminsoniy ahamiyatli tomonlari ehtirom qilinadi. Qadim Sharq adabiyotshunoslik tarmoq ilmlariga G'arbda, eramizdan uch ming yillar avval yunonda asos solingan, jumladan, Aristotel "Poetika" kitobidan namoyon adabiy-nazariy qarashlardan boshlangan. G'arb shu soha

qarashlarining Sharqqa ta'siri ham har doim bo'lib kelayotgan bardavom jarayondir.

Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasini o'z ichiga oluvchi adabiyotshunoslik maxsus fanlar uyushmasi sifatida 19-asr oxirlarida shakllana boshladi. O'zbek adabiyot nazariyasi faniga 20-asr avvalida Abdurauf Fitrat yetakchiligidagi jadid allomalari asos soldilar.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Фитрат. Адабиёт қондалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
2. Адабиёт назарияси. 2 томлик. – Т., 1978, 1979.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т., 2002.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-4-6-жузлар. – Т.: Шарқ, 2008.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Васатия–ҳаёт йўли. – Т.: Шарқ, 2006.
6. Бегали Қосимов. Танланган асарлар. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд, – Т.: Гафур Гулом, 2022.
7. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Ёшлар матбуоти, 2023.
8. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
9. Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2007.
10. Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
11. Иброҳим Ҳақкул. Тасаввуф ва шеърят. – Т., 1991.
12. Жўра Худойбердиев. “Девону луғотит турк” даги адабиётшуносликка оид маълумотлар. – АДУ.: Илмий хабарнома, 2011. 3-сон.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishish, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. G'arb va Sharq adabiyotlari tarixidan istalgan ikki badiiy asarni oqib, mualliflar adabiy-nazariy qarashlarini qiyoslang.
3. Forobiy asarlari taassuroti asosida esse tayyorlang.

DARS REJASI:

- Soʻz – sanʼatkorona ijod vositasi.
- Obrazlilik tushunchasi.
- Obraz, poetik obrazlar koʻlami.
- Adabiyot turlarida obrazlilikning mavqe va darajalari.
- Obraz asar badiiy taʼsirdorligini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida.

Inson hayoti va uning mohiyatida nutq, bayon qanchalik qadriyatga, ahamiyatga molik boʻlsa, adabiy ijod mazmun va shaklida soʻzning oʻrni shu qadardir. Va adabiyotning bu boradagi barcha imkoniyatlari xalqning nutqiy hayotiga tayanadi. Soʻzning nafislanishi, rang-barang maʼno jilolari, obrazlilik, tagmaʼnolilik kabi sifatlar kasb etib, inson ruhiyati, tafakkuriga taʼsir etishi birinchi navbatda real voqelikning oʻziga xos. Demak, bu jihatidan ham adabiyot hayotning oʻzidan oziqlanadi. Farqlanish shundaki, ijod jarayonida hayot materialining eng diqqatga sazovor nutqiy tushunchalari, birliklari, hol-hodisalari tanlanadi, qayta ishlanadi, toʻqiladi, ularga jilo beriladi. Adabiyotdagi obrazlilik shu jarayonning mahsuli sifatida vujudga kelib, soʻz sanʼatiga mansublik daʼvosidagi ijodiy namunani yuzaga keltiradi. Obrazlilik bunda sohaning bosh talablaridan biri sifatida qaraladi va doimiy talablardan biri boʻlib qoladi.

Obrazlilik keng qamrovli tushunchadir. U badiiy asarda gavdalanuvchi qahramonlar siymosidan tortib ramziy, majoziy timsollargacha, koʻchma maʼnolar tashuvchi til birliklaridan tortib ijodkor qandaydir ishoraviy maʼnolar yuklagan predmetlargacha – barcha tasvir elementlarini oʻz ichiga oladigan tushunchadir. Obrazlilik tarkibida dastavval his qilinadigan badiiy inson timsoli adabiyotning bosh maqsadidir va boshqa hamma poetik timsol va shakllardan koʻzda tutilgan

adabiy-estetik muddaolar ham inson obrazi manfaatiga, bu orqali hayotdagi odamlarga qaratilgan bo'ladi.

Obrazlilik salmog'ini ijodkorning o'zi o'z adabiy-estetik didi, niyati, farosatidan kelib chiqib belgilaydi. Tabiiyki, bunda ham oqilona me'yorlar muhim. Ijod jarayonining boshqa masalalari tadbirida bo'lganidek, bunda ham maqsadga muvofiq yo'l tanlanmasa, muayyan hadlardan oshilsa, asar jozibadorlikdan yiroq bo'ladi. Obrazlilik sifati shoir, yozuvchining mahorat, san'atkorlik darajasini belgilaydi. Obrazlilik tasnifini, obrazlilik miqdor-ko'lamini, ma'lum bir obrazlarning an'anaviyligini to'la idrok etmoq ham adabiy-nazariy tafakkurda muhim shartlardan biri sanaladi. Inson obrazisiz, unga daxldorliksiz hech bir adabiy turni va ulardagi janrlarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunonchi, lirik turga mansub asarlarda nasrdagidek aniq nomlangan inson-obraz, uning boqeligi tasvirlanmasa-da, mo'jaz she'r orqali o'quvchi taassurotiga lirik qahramon, uning "men" deb ataluvchi shaxsiyatining, tasvirlanayotgan tuyg'ular egasining hishayajonlari, kechinmalari singadi. Uning munosabati qaratilgan tomonning ham obrazi o'quvchi tasavvurida jonlanadi. Bu jarayonda "men" ham, "u" ham, bor bo'lsa, "sen" ham obraz sifatida qaralishga munosibdir.

Xuddi shunday nasriy matnlar qa'rida ham muallif – roviyning, sizni butun hayotiy-badiiy voqelik bilan tanishtirib borayotgan, nimalardandir qaytarayotgan, ogohlantirayotgan, nimalargadir da'vat qilayotgan, qaylargadir yo'llayotgan hikoyanavis obrazi yashirin turadi. Asarining qabullanishi yashirin adibning ham qabullanishini vujudga keltiradi.

Badiiy asardagi qolgan barcha obrazlar tizimi ochiq-oydin anglashiladigan obrazlardir. Xoh u faol, nafaol bo'lsin, xoh u nabotot, hayvonot, jamodot (jonsiz jismlar) manzarasi, vakili bo'lsin, bejizga tasvirlanmagan bo'ladi va obrazlilik xususiyatlari bilan asarda ishtirok etadi. Ularni idroklash jarayoni o'quvchini fikrlatadi. Ramz, majozdagi, matn zimnidagi ishoratlarni odatda o'quvchining o'z aql-idrokiga havola qilingan bo'ladiki, bu asar maftunkorligini ta'minlash usullaridan biridir. Muayyan detallar, jismlar, tabiat hodisalari, manzaralari ham badiiy adabiyotda obraz maqomida qatnashadi. Buning uchun ular ma'lum bir poetik ma'no tashishga qaratilgan bo'lishlari, o'zlarida ta'sirchanlik quvvatiga ega bo'lishlari joiz.

Dunyo hayotining va ilohiyot haqidagi bilimlarning turli ma'lumotlari, mavjudoti, manzaralari an'anaviy poetik obrazlarga aylanishi adabiy-tarixiy jarayonga xos tamoyillardan biridir. Sharq she'riyatining poetik obrazlarga benihoya boyligi va yuzlab poetik obrazlarning asrlar mobaynida an'anaviy maqomda yashab kelayotganligi buning yorqin misolidir. An'anaviy xarakter kasb etgan mashhur obrazlarning tarixiy ildizlari juda qadim davrlarga borib taqalishini kuzatish qiyin kechmaydi. Arabiy, turkiy, forsiy xalqlar adabiyotlaridagi Majnun, Layli, Xusrav, Farhod, Iskandar, Moniy, Arastu, Suqrot, Rustam singari o'nlab inson-obrazlarning tarixiy asoslari, adabiy boshlanma davrlari bor. Ayniqsa, o'rta asrlar adabiy va fanniy muhiti adabiyotning bu jihatidagi qator tamoyillariga asos solganligini ko'rish mumkin.

O'rta asrlar qomusiy allomalari poetik obrazlarga zalvorli falsafiy ma'nolar yuklash san'atiga, ilohiy haqiqatlarni majoziy yo'sinda tarannum etish, qur'oniy qissalar asosida asarlar yozish (Ibn Sinoning "Yusuf qissasi", "Hayy ibn Yaqzon")i kabi an'analarga asos soldilar. Ayni choqda, o'z davrining arab, fors, turk, hind adabiyotlarini tahlil etishib, so'z ijodkorligining eng maqsadga muvofiq qoidalarini ishlab chiqdilar. Doimo yuksak maqomda bo'lgan mumtoz adabiy hayotning o'sha tajribalaridan Yevropa adabiyotlari ham hamma davrlarda ibrat olib kelgan.

"Ibn Sino, – deb yozadi taniqli adabiyotshunos Ergash Ochilov "Donishmandlar sarvari" maqolasida, – "Risola ut-tayr" ("Qush risolasi"), "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li Tirik"), "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Me'rojnoma" nomli falsafiy mazmundagi qissalari bilan ramziy-irfoniy adabiyotni ham boshlab berdi. Xususan, "Risola ut-tayr" Fariduddin Attorning mashhur "Mantiq ut-tayr" va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonlari yaratilishiga turtki bo'lgan. Bu asar ramz-ishoralar bilan yozilgan bo'lib, allomaning jon, haqiqat, Tangri to'g'risidagi fikrlarini bilishda ham muhim ahamiyatga ega.

"Hayy ibn Yaqzon" qissasi esa buyuk italyan shoiri va mutafakkiri Alig'eri Dantening muazzam "Ilohiy komediya"siga ham ta'sir ko'rsatganligi to'g'risida fikrlar mavjud. Dante, ayniqsa, Ibn Sinoning "Risola fi-l-ishq" risolasiidan ilhomlangan, undagi asosiy fikr va

qarashlardan ta'sirlanib, ularni rivojlantirgan. U dunyo ilmining beshigini tebratgan ulug' donishmandlar qatorida Abu Ali ibn Sinoni ham tilga oladi:

Ko'zimni uzoqqa yugurtdim shunda:
Hisobdan Evklid, Batlimus, Galen,
Gippokrat, Ibn Sino, Ibn Rushd paydo –
Yangi g'oyalarni targ'ib etgan chin".

"Qush risolasi" dunyo va odam munosabatlari haqidagi diniy-irfoniylar qarashlarning ramziy-majoziy voqelik bilan ifodalangan badiiy talqinidir. Uning mazmuni o'quvchini beixtiyor falsafiy mushohadaga yo'llaydi. Syujeti murakkab bo'lmasa-da, Ibn Sino nasrining bu kichik namunasi tafakkurni ulkan hikmatlar idroki sari boshlaydi. Voqealar qushlar hayotida sodir bo'lmoqda va bu qushlardan birining tilidan hikoya qilinmoqda. Ovchilar qushlarga tuzoq (ko'zanak) qo'yishib, o'zlari pichanlar ortiga bekinishgan. Qushlar uchun ne'matlarga boy, serdon joylar juda ko'p. Qushlar to'dasi don ilinjida ovchilar qo'ygan tuzoqqa ilinadi. Endi ularning ahvoli tang, tipirchilashadi, ucholishmaydi, o'zlarini har yonga urib, najot izlashadi. O'zlariga o'xshagan bir guruh qushlarni ko'rishadi. Ular ozod. Ozod bo'lsalar-da, ularning ham oyoqlarida tuzoq izlari bor. Demak, ular ham bir paytlar tuzoq musibatiga duchor bo'lishgan.

Tuzoqqa ilingan qushlar shular yordamida ozod bo'lish yo'llarini bilib olishadi: avvalo, oyoqlarni tuzoqdan bo'shatib olmoq darkor ekan. O'z tajribalari bilan yordam bergan qushlar bularga yana eng to'g'ri yo'lni ham ko'rsatishadi. Lekin bu yo'ldagi maqsadga yetish uchun ko'p dovonlar osha uchish kerak bo'ladi. Oldinda sakkiz tog' bor. So'nggi manzil yaqinida ular bir tog' cho'qqisiga qo'nishadi. Bunda ular yanada boshqacha go'zal qushlar olamini ko'rishadi. Sakkizinchi tog' orasida g'aroyib bir shahar va unda buyuk podshoh bor. Qushlarga arzlarini Unga aytinglar deyilgan. Qushlar aql bovar qilmaydigan go'zalliklarni ko'rishgach, pardalar ochilib, podshoh jamoli namoyon bo'ladi. Jamoldan barcha qushlar hushlaridan ketadi. Uning O'zi qushlarni hushlantiradi. Qushlar arziga javoban U tuzoqni qo'ygan kishidan boshqa hech kim uni yecholmasligini aytadi. Bir elchi yuborishni, elchi ovchilarga tuzoqni

yechishga amr qilishini va'da beradi. Qushlar behad xursand holda elchi bilan birga izlariga qaytishadi.

Ibn Sino qator she'rlarida inson mas'uliyati, dunyo mohiyatini falsafiy poetik talqin qiladi. Forobiy she'rida tarannum qilingan haqiqatni u obrazli falsafa bilan ifodalaydi. G'azallaridan birida u haq so'zni, haqiqatni tip-tiniq boda (may) ga qiyoslab, uni inson ruhiyatining g'izosi (ozuqasi) sifatida vasflaydi. Haqiqatning – mayning bo'yi, tarovati barcha gullar, chechaklar bo'yidan avlo, sadosi Borbad ohanglaridan-da yoqimli. U achchiqdir, ammo foydasining chegarasi yo'q. Kimki uni ichsa, boshiga Humo qushi qo'ngandek baxtiyor. Biroq odamlarda uni tasarruf qilish, undan foydalanish tarzlari xilma-xil. U nodon uchun botil, harom. Bu sharobni ablah kimsalar ichsa, gunohlari haddan oshadi, tilidan lof yog'iladi, "fikri havosi" o'zgaradi. Donolar uchun esa u haloldir:

Aql fatvosi andoqkim, haloldir ichsa donolar,
Vale ahmoqlarga makruh erur kayfi safosi.
Bilimdonga haloldurkim, haromdir ahli johilga,
Hama yaxshi-yomonni ajratur mayning ziyosi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining ilmiy asarlarida she'riy asarlar parchalaridan foydalanish, ularni baholash barobarida shoir qo'llayotgan poetik obrazning ilmiy haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi yoki kelmasligini ham tahlil qiladi. O'zi ham arab tilida she'rlar ijod qilgan. Beruniy ijodining o'z davri va keyingi zamonlardagi barcha tadqiqotchilari uning bevosita she'riyat masalalariga oid bir necha ilmiy-nazariy risolalar yozganini ta'kidlashadi.

Yoqut al-Hamaviy – Beruniyga zamondosh olim o'zining "Mo'jam ul-udabo" ("Adiblar anjumani") kitobida Beruniyning arab tilida barkamol she'rlar yozganinni, Abu Tammom she'rlariga maxsus sharhlar bitganini, uning bevosita adabiyotga doir "Tanlangan she'rlar va asarlar" ("Kitab-u muxtor al-ash'or va al-osor"), "Fazl ahlining She'rlarda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi" ("Kitab at-taallul bi iholat al-vahm fi maani nazm uv lilfazl") borligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Sharq mumtoz se'riyatining o'nlab poetik obrazlar bilan ziynatlanishi, qator obrazlarning an'anaviylashib, yetakchi ramziy ifodalarga aylanishi, ularning xilma-xil she'riy san'atlarga omil bo'lishi hamda teran

ta'sirdorlik ko'lamini barpo qilishi bu adabiyot tarixining ulkan fazilatlaridan biri hisoblanadi. May, -boda, sarv, shamshod, gul, bulbul, yosuman, nasim singari ko'plab hayotiy narsalar, hodisalarning zimnidagi ramziyliklar asrlar bo'yi o'z ma'no tarovatlari bilan forsiy, turkiy xalqlar nazmiga fayz, joziba bag'ishlab kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, butun borliq badiiy adabiyot uchun cheksiz poetik obrazlar xazinasini. Qaysiki milliy so'z san'atida ma'lum bir yaratilgan an'anaviy timsollarga aylanib qolar ekan, bu ulardagi ma'nolarning qotishi, muqimlashib qolishini anglatmaydi. Aksincha, davrlar va hamisha yangilanish ishtiyoqi bilan tirik badiiy tafakkurlar xoh yangi, xoh eski – an'anaviy bo'lsin, poetik obrazlarda ma'no qamrovini kengaytiradi, so'zni qayta kashf qiladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi badiiy tafakkur yangilanishlarini tadqiq etgan adabiyotshunos Ra'no Mullaxo'jaeva "Tafakkur yangilanishi" nomli kitobida bu haqda shunday yozadi: "Poetik obrazning voqe bo'lishida nafaqat shoir badiiy tafakkuri, balki zamon ruhi, turli ijtimoiy qarashlar, estetik mezonlar va muayyan adabiy jarayonning ham muhim o'rni bor. Ushbu omillar u yoki bu obrazning o'zgacha mazmun yuklashiga sabab bo'ladi".

Obrazlilik adabiyotning nasriy va dramatik turlariga ham har tomonlama xos. Ular tafakkuri va tahlil-talqinida tasvirdagi asosiy hamda epizodik qahramonlar, personajlar bilan chegaralanib qolinmaydi. Zotan, badiiy ifodadagi voqelik, tabiat tasviri (peyzaj), til birliklari – tashbehtar, maqollar, iboralar, sheva elementlari, naqlar, kinoya-qochiriq, ironik muloqot kabilar ham obrazlilik tushunchasi doirasidagi adabiy unsurlar hisoblanadi. Va ular ham ushbu turdagi adabiyotga san'at asarlari deb qaralishi nuqtayi nazaridandir. O'zini butun umr islom ummati safidagi inson deb bilgan, amali va dohiyona ijodini shu e'tiqod asosida olib borgan nemis adibi, mutafakkiri Gyote o'z ijodining obrazliliigi haqida shunday yo'zgan edi: "Men meni quvontirgan, qayg'uga solgan, qiynaydigan narsalarning hammasini obrazlarga aylantirishga, poeziya bag'riga joylashga ko'nikib qolganman. Mening hamma asarlarim bitta katta iqrornomaning bo'laklaridir".

Adabiyot tabiatining eng ahamiyatga molik jihatlaridan bo'lgan obraz va obrazlilik borasida fikr yuritganda bu masalalarning asosan san'at

nuqtayi nazaridan ekanligini unutmaslik darkor. Albatta, bu taqozo ham har jihatdan ijod namunasining ma'no-mazmuni manfaati uchundir. Shunga qaramay, badiiy adabiyotning maqsad-vazifalari sirasida eng birlamchi e'tibor qaratiladigan uning ma'naviy-ma'rifiy majburiyati borki, bunda asarning umuminsoniy pafosi, g'oyaviy-badiiy haqiqatlari, hikmatlilik darajasi – mazmuniy quvvat asosiy o'lchov sanaladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дилмурод Куронов. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Мерос, 2004.
2. Дилмурод Куронов ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2010.
3. Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё. – Т.: Шарқ, 2015.
4. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
5. Баҳодир Саримсоқов. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004.
6. Абу Наср Форобий. Шеър санъати. – Т., 1979.
7. Нажмиддин Комилов. Тафаккур карвонлари. – Т.: Шарқ, 2011.
8. Абдуғафур Расулов. Бадийлик – безавол янгилик. Т.: Шарқ, 2007.
9. Жаббор Эшонкул. Фольклор, образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.
10. Раъно Муллахўжаева. Тафаккур янгиланиши. – Т.: Muharrir nashriyoti, 2019.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishish, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Mumoz adabiyotimiz g'azaliyotidan uch shoirning uch g'azalini so'zdagi san'atkorlik nuqtayi nazaridan va obrazlariga ko'ra tahlil qiling.
3. Hozirgi o'zbek she'riyatidan bir shoirning poetik obrazlarini aniqlang va sharhlang.

DARS REJASI:

- Mazmun falsafiy qonuniyat sifatida.
- Mazmunga oid yetakchi xususiyatlar.
- Shakl mazmunning mavjudlik shartidir.
- Shakl va mazmun uyg'unligi – g'oyaviy-badiiy taqozo.
- Pafos – jozibadorlik asosi.

Adabiyotshunoslikdagi barcha tushunchalar, jumladan, shakl, mazmun degan tushunchalar ham asoslari batamom hayotda bo'lgan, inson omilining turli-tuman voqeligi, kechmish va kechinmalarida bo'lgan shakl hamda mazmunning badiiylashtirilgan, qayta ishlangan ko'rinishlarini anglatadi. Tushunchalar borliq va hayotda o'z nufuzlariga ko'ra qanday ahamiyat kasb etsalar, ularning badiiy adabiyotdagi o'rni va darajalari ham sayqal toptirilgan, badiiylashtirilgan namunalari ham shunday mavqelarda baholanadi. Zero, dialektik qonuniyatlar tabiiy hayot tarzining o'zi bilan cheklangan bo'lmaydi, inson faoliyati, ijodkorlik shakllarining ham hammasida sobit, barqaror turadi.

Mazmun insoniyat hayotining katta-kichik, baland-past, ko'zga ko'rinar-ko'rinmas hamma jabhasi uchun eng birlamchi falsafiy kategoriyadir. Tushunchalar olamida unga tenglashuvchi, xizmati unga qaratilmaydigan, ahamiyati uning martabasida bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Mazmundagi muhimlik uning nechog'lik haqiqatga mos-munosiblik, umumbashariylik, hikmatlilik, ilohiy ta'limotlarga hamohanglik darajasi bilan belgilanadi.

Mazmun bu – mantiq, mohiyat, narsa, voqea-hodisaning tub hikmati demak. Alloh insoniyatga yo'llagan barcha dinlari va ularning shariatlarida hamma narsadan avval mazmun-mohiyatga razm solmoqni buyirgan. Inson umrining sifati va salmog'i ham bevosita uning mazmuni bilan

o'lganishi bejiz emas. Jumladan, Alloh Taolo "Kahf" surasida g'or ahli qissasining xabarini batafsil bayon qilgach, bu voqea atrofida odamlarning yillar mobaynida bilib-bilmay tortishib yurishganliklarini, asl mohiyat qolib, voqea ishtirokchilarining nechta ekanligi, mo'jizaning qayerda, qachon sodir bo'lganligi kabi nomuhim masalalarda bahslashib yurishishlarini tanqid qiladi. O'zi aniq bilmagan, guvohi bo'lmagan narsaning ustidan noto'g'ri hukm chiqarmaslikka, g'aybga (tarixga) tosh otmaslikka, doimo mazmun-mohiyatga qarashga chaqiradi. Insonda hikmatlilik sanaladigan oliy maqom ana shu ko'rsatmaga hamma masaladagi muntazam amali tufayli vujudga keladi.

So'nggi islom ta'limoti mazmun-mohiyat masalasining qadrini baland ko'tardi. U ilmlarning, binobarin, adabiyot va u haqdagi qarashlarning shioriga aylandi. Zotan, mazmun birlamchiligi tiriklikning mangu ilohiy qonuniyati bo'lib, undan chetlanib, shakl-suvratga, yuzadagi xulosalarga, biryoqlama qarashlarga berilgan odamlar, jamiyatlar hamma zamonlarda ayanchli tanazzul tomon ketishgan.

Adabiyot ishining hamma vaqt g'arb-u sharqda mantiqiy tafakkur jarayoni, mantiq fanining tarmog'i sifatida qaralgani bejiz emas. Islom bu tamoyilni yanada qat'iylashtirdi. 8-9-asrlardan buyongi barcha olimlarning kitoblarida adabiyot tavsifi mantiq fani tarkibida keladi. Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy va boshqa o'sha davr allomalarining asarlarida badiiy ijodga, asarlarga har qanday yondashuvlar – tahlil, talqin, tanqid, baholash zahirida mazmun bosh mezon sifatida qaralganligining guvohi bo'lamiz.

Beruniy o'zining turli fanlarga doir ilmiy tadqiqotlarida badiiy namunalardan eng unumli foydalangan, ular orqali kashflarini jozibali tarzda ham tasdiqlab borgan, yo'l-yo'lakay haq adabiy-nazariy, tanqidiy mulohazalarni bayon qilgan olimdir. U she'riyatni o'quvchiga lazzat va orom bag'ishlovchi, haqiqatlarni, ma'lumotlarni yodda saqlatuvchi ("Farmakognoziya" – "Saydana"), adabiy namunalarning bejiz **mantiqiy ilmlar** sirasidan emasligi, nasr va nazm mantiqning uzviy qismi ekanligi haqida yozar ekan ("Geodeziya), nasrda ham, nazmda ham nutqning chin mohiyati uning **mazmun**idadir, deydi. Olim mazmunning badiiy ifodasini

ijodning tub mohiyati, mazmunsiz quruq **shakl**, go'zallik chin ijodga xilof – **formalizm** ekanligini alohida ta'kidlaydi.

O'ninchi asrda yashagan Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") kitobi va kam bo'lsa-da, asar muallifi haqidagi ma'lumotlar o'rta asrlar madaniy, ilmiy-ma'rifiy muhitining shunday fazilatlari xususida e'tirof etiladigan barcha ijobiy xulosalarni tasdiqlaydi. Abu Abdulloh Xorazmiyning Qiyot shahrida tug'ilgan, shu yerda voyaga yetgan. Bu davrda mintaqaning Qiyot, Urganch, Xiva, Hozarasp, Safardiz, Nuvzar shaharlari ta'lim, ilm-fan markazlari darajasiga ko'tarilgan edi. U shu joylarda o'qiydi, olim bo'lib taniladi. So'ng Xurosonda yashaydi. Somoniylar hukmdori Nuh II (976-997)ning bosh vaziri Abul Hasan al-Utbiy (977-982) dargohida kotiblik lavozimida ishlaydi. Buxoro, Samarqandda bo'ladi. U shu yillarda davr ilmiy jamoatchiligi orasida qizg'in e'tirof etilgan.

"Mafotih al-ulum" asari – ilmshunoslikka oid nodir tadqiqot. U o'z davrining barcha ilmlari tasnifi va tavsifini yoritib bergan to'laqonli manba bo'lib, fanlarning mazmun-mohiyatini, maqsad-vazifalarini, ulardagi tushunchalar (atamalar)ni ilmiy-ommabop ta'riflaydi. O'rta asrlardagi ilm-fanlarning sanog'i, umumiy hajmini, mavjud holati hamda rivoj darajasini bayon qiladi. O'sha davrdagi an'anaga ko'ra, Abu Abdulloh ilmlarni "arab bo'lgan" va "arab bo'lmagan" ilmlarga ajratib tasniflaydi. Har qaysi ilmni uning o'zidagi atamalar ta'rif asosida tushuntiradi. O'z davridan oldingi ilmlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi, 93 bobda 15 ta fanni, ulardagi bor tushunchalarni sharhlash yo'li bilan tavsiflab beradi. Uning klassifikatsiyasi bo'yicha, arabiy guruhini fiqh, kalom, grammatika (sarf, nahv), ish yuritish, tarix, she'riyat va aruz (besh bob), ajamiy ilmlar guruhini falsafa, mantiq, tibb, arifmetika, handasa, ilmi nujum, musiqa mexanika, kimyo tashkil etadi.

Olim har bir ilmni kerak, maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ula mohiyati ta'rifini xolis, adolatli yoritadi. Ilmlarning rivojlanish bosqichlari taraqqiy darajalari to'g'risida mulohazalar yuritadi. O'z munosabati orqal ilmlarning islomdan oldingi ahvolini ham, adabiyotning mazmunda haqiqat tarannumiga beparvoligini ham his qildiradi.

Olim "Poetika"ni mantiq ilmlari guruhiga kiritadi, uning ma'nosini she'r, she'riyat, badiiy ijod sifatida sharhlaydi. Bu bobda "at-taxayyul" – tasavvur, hayajonning uyg'onishi haqida gap boradi. Maqsadlardan biri eshituvchida biror narsani xohlash yoki biror narsadan qochish istagini uyg'otish, paydo qilish. Olimning fikricha, "at-taxayyul", "at-tasavvur", "at-tamassul" kabi so'zlar poetikaga xos va ular to'g'ri hamda ma'joziy ma'nolarda qo'llaniladi.

Kitobda aruz she'r tizimining o'ziga xos qoidalari sharhlanadi, aruzning bir necha ko'rinishdagi o'n besh turi haqida fikr yuritiladi. She'riy vaznlar, qofiya ko'rinishlari, o'lehovni belgilashdagi ba'zi g'alizliklar tahlil etiladi. Arab she'riyatining namunalaridan foydalanilib, badiiy til xususiyatlari ham talqin qilinadi. Imrul Qays, Abu Tammom, Jarir, Bashshar ibn Burd, Dureyd ibn Samma singari shoirlarning turli mavzudagi she'rlaridan misollar keltiriladi. She'riyat va aruz masalasidagi muhim qarashlardan biri shuki, Abu Abdulloh islomdan avvalgi she'rchilik tamoyillari va uning namoyandalari ijodiga ham, zamonasidagi shuaroning poetik ifodalariga ham murojaat qilib, ularning mazmuniy bahosiga mo'tadil, xolis, adabiy-tanqidiy yondashadi. Uning mulohazalari mohiyatan ijod mas'uliyatiga munosabatning johiliyat davrlariga xos bo'lgan va islomiy hayot tarzi, tafakkuri tufayli o'nglangan holatlari muqoyasasini ham hosil qiladi.

Mazmun adabiy talablarning barchasi bilan aloqador ijodiy hodisadir. Uning qadr-qimmatini ko'plab omillarga bog'liq. Bularning eng muhimlari quyidagilardir: mazmun orqali ifodalanilayotgan g'oyalarning ahamiyatlilik salmog'i; mazkur g'oya yoxud g'oyalar tizimining ommaviylik darajasi; inkor va xayrixohlikning nechog'lik insoniyligi; mazmunning haqqoniyligi – hayotiy voqelikni idroklatishdagi estetik salohiyati; milliy va umuminsoniy yaxshiliklarining uyg'unligi; mazmunning yangichaligi, o'ziga xosligi (originalligi); adabiy jihatdan mavjud mavzuni yangicha g'oyaviy-badiiy talqin etishi; ta'sirchanlik quvvati; o'quvchini, uning fikr-u xayolini, tafakkurini qaysi tomonga yo'llashi.

Mazmun mezonlariga qaralsa, ularning barchasi qaysi uslub, usullardagi asar bo'lmasin, insoniyat uchun ma'naviy manfaatli bo'lgan

tasvirni nazarda tutadi va ularda har jihatdan badiiy haqqoniyat – haqiqat, hikmat ko'zda tutiladi. Mazmunning izchil, barcha masalada bir-birini to'ldiruvchi haqqoniyligi, haqiqat idrokiga yo'naltiruvchanligi muhimdir. Badiiy asar voqeligi san'at qoidasiga ko'ra tabiiy-badiiy voqelikdir. U hayotning o'zi qadar cheksiz manzarali voqelikning cheksiz imkoniyatli voqeligi bo'la oladi. Adabiyot insonga – turfa mayllar va iqtidorlar bilan yaratilgan, aziz va mukarram qilingan, shu bilan birga, ojiz sifatli barpo etilgan zotga hayotni uning batamom o'zidek san'atkorona qamray olish salohiyati berilmagan. San'atning, binobarin, so'z san'atining go'zalligi, maftunkorligi, insonga xush, dardkash hamrohligiga shubha yo'q. Biroq uning muhabbati idroki inson ruhiyatida qanchalik kuchli kechmasin, adabiyot yashashda hayotning o'zi kabi asos, birlamchi bo'lishga qodir emas. Shu ma'noda u imkoniyatida ham muayyan cheklanishi bor bo'lgan, insongagina xos bo'lgan obrazli tafakkur mahsuliligicha qoladi. Haq ta'limot bo'yicha, adabiyot mavqeini birlamchi sanab, uni hayotning o'zidan ustun qo'yish noto'g'ri sanaladi. Boshqa narsa va sohalarga munosabatda ham shunday imoniy yondashuv qoidasi hukmron.

Hayot voqeligi san'at mazmunini belgilar ekan, bu mazmun maydoni va zamon, bu mazmun muammosi va harakati endi tamoman san'atliy voqelikdir. San'atliy ayni voqelikning barcha unsurlari bunda ham hayotning o'zidagi singari **shakllarda** namoyon bo'ladi. Hayotda ham, badiiy asarda ham ma'no, mazmun, mohiyatning shaklsiz namoyon bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Inson ko'zi ko'rishga qodir bo'lmagan mavjudot ham qandaydir suvrat-shakllardadir deb e'tiqod qilinadi. Borliqda shaklning mazmundagi roli, ahamiyati qanday bo'lsa, ularning adabiyotdagi maqomlari ham xuddi shundaydir. Faqat adabiyotdagi mazmunga estetik tafakkur hosilasi deb qaralgani kabi uning bundagi shakliga ham badiiyat, san'at sifatida qaraladi, shunga doir talablar qo'yiladi. Shakl va mazmunga nisbatan teng talabning oliysi ularning bir-biriga uzukka munosib ko'z qo'ygandek o'zaro mutanosibligidir.

Asarning yozma, xilma-xil til boyliklaridan foydalanilgan holda hosil bo'lgan muayyan hajm miqdoridagi ko'rinishi yoki uning eshtilgan holda hislanishi badiiy shaklning inson ongidagi tajassumidir. Lekin bu badiiy shaklning boshlang'ich anglanishi bo'lib, bizning shakl mohiyati haqidagi

mukammal bilimimiz bo'la olmaydi. Chunki shaklning tub asoslari inson obrazi (xarakter)ga, zahirida inson omili, siymosi, uning manfaati ko'zda tutilgan majoziy timsollarga, bir necha unsurlarni o'zida jam etgan syujetga, asarning tarkibiy tuzilishi (kompozitsiya) va mazmunda harakatlanayotgan ziddiyatlar, to'qnashuvlar (konflikt)ga borib taqaladi.

Zotan, o'quvchi o'z-o'zidan va beixtiyor butun g'oya va mazmunni shular vositasida fahmlaydi, ko'z oldiga keltiradi, uning tasavvuriga shular oqib kiradi. Taassurotni shu yaxlitlik – mazmun bilan shaklning butunligi zabt etadi. Demak, ijodkorning ayni masalalar bobidagi mas'uliyati juda keng ko'lamlidir. U inson psixologiyasini chuqur bilmog'i joiz, hayot va odam omilining maqsad-muddaosini eng to'g'ri ta'limotlar asosida idroklay bilishi shart, badiiy bayonini nomuhim narsalardan, botildan, turlicha tarafkashlikka og'ishuvdan, so'zbozlikdan, shirkdan va o'zga illatlardan asray olishi kerak, mazmunga eng munosib shaklni, shaklga boshqa muqobili yo'q mazmunni joylashtira bilishi lozim va hokazo. Shular shakl haqida yana bir muhim xulosani vujudga keltirib chiqaradi: shakl mazmunga qarab o'zgaruvchan, unga ergashuvchan hodisa ham ekan.

Pafos (yunoncha his, ehtiros) – tasvirlanayotgan voqelikka g'oyaviy-estetik, hayajonli munosabat, muallif va o'quvchida mazmunning ta'siri tufayli hosil bo'lgan emotsionallik. Bu termin antik davrdan buyon mavjud. O'sha davr falsafasi, estetika, poetika, ritorikasida u ko'p qo'llanilgan, talqin etilgan. Arastu uni haqli ravishda qalblarning kuchli ta'sirlanish holati sifatida tushuntiradi. Shuningdek, qadim yunon notiqlik san'ati musobaqalarida pafos hosil qilishga berilish shu qadar kuchayganki, unga yolg'on, zo'raki tamoyillar aralashib, hislarni adashtirish hollari sezila boshlagan. Xususan, ritorika sohasidagi shu qusur Sharqning o'rta asrlardagi alloma olimlari tomonidan tanqid qilingan. Zotan, yolg'on, balandparvoz, sun'iy ritorik nutq barpo etuvchi ta'sir vaqtinchalik bo'lib, u inson tafakkurining taraqqiysini haqiqatdan, to'g'ri yo'ldan chalg'itadi.

Pafos tushunchasiga Yevropa faylasuflari, adabiyotshunoslari asrlar mobaynida har xil tavsiflar berib kelishadi. Ba'zilar uni asar qahramonining yuqori darajadagi fojiali onlari, iztiroblar iskanjasida qolish

momentlari mahsuli sifatida talqin qilgan bo'lsa (Aristotel), ba'zilar qalbni junbisha keltiruvchi estetik kuch, san'atning haqiqiy namoyon bo'lish cho'qqisi (Gegel) yoki faqat ijodkorning o'zidagi qoyilmaqom hol (Belinskiy) sifatida sharhlaydi. Pafos inson tabiatida tabiiy bor narsa va unga berilgan turli zamonlardagi turlicha ta'riflar garchi biri biridan boshqachadek ko'rinsa-da, aslida bir-birini ma'naviy to'ldiradi. U inson turmushining o'zidagi kabi notiqlikning ham, badiiy adabiyotning ham estetik unsuridir.

O'tmish olimlarning yuqoridagi pafos xususidagi fikrlari bir-birini inkor etuvchi fikrlar emas. Ular mohiyatni oydinlashtiruvchi, to'ldirib ta'riflovchi qarashlardir. Umuman esa, ijodkorning shaxsiy fazilatlari, falsafiy-estetik dunyoqarashi, badiiy mahorat darajasi kabilarnigina emas, balki o'quvchining ham qalb, tafakkur holatlarini pafos omillari sifatida qarash maqsadga muvofiq ko'rilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Pafosni ro'yobga chiqarishga layoqatli, san'atkor ijodchilar bo'lganidek, hissiz asarlar yozadiganlar ham bor. Pafosga ruhiy olami moyil, uni chinakam didi bilan, bor o'tkirlik darajasiga ko'ra qabullaydiganlar bo'lganidek, qalbi qattiq, uncha-munchaga his, hayajon, hayratga tushmaydigan odamlar ham bor.

Forobiy shunday yozadi: "Qalb shunday bir asosiy a'zoki, u badanning boshqa hech qanday a'zolari bilan idora qilinmaydi. Undan keyin miya keladi... U faqat qalbgagina xizmat qiladi... qalb tug'ma haroratning bulog'idir. Harorat undan boshqa barcha a'zolarga o'tadi, shunday qilib qo'llab-quvvatlanadi, oziq oladi.

...taxayyul quvvati yuzaga kelishiga qalbning harorati chegaralangan bir darajaga kelishi tufayligina bo'ladi... qalb tabiiy haroratning bulog'i bo'lganidan boshqa barcha a'zolarga ham yetmay qolmaydigan va ham ortib qolmaydigan tarzda tarqatish uchun uning harorati haddan tashqari kuchli bo'lishi ham mumkin" ("Ilmlarning kelib chiqishi haqida").

Mazmun hayotda ham, badiiy asarda ham birlamchi bo'lganligi boisdan hamisha milliy, ayni vaqtda umuminsoniy, umidbaxsh, hammani to'g'ri yo'lga, tafakkurga tomon chorlovchi badiiy g'oyani taqozo etadi. Jamiyatning egri siyosiy, mafkuraviy buyurtmalaridan keladigan zararlar ham odatda va birinchi navbatda mazmunning zimmasiga tushadi. Ijod

namunasida g'oya va mazmunning haqiqatga nomuvofiqligi adabiyotshunoslikda ommani adashtiruvchi yolg'onlar sifatida qattiq qoralanadi.

Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" asaridagi muallif iltijolari ichida bunday bir satrlar bor: "Menga shunday haqiqat tuyg'usini berginki, egrini egri deyin, to'g'rini to'g'ri". Bu ijodiy-estetik niyatini shoir quyidagi she'rida ham ifoda etgan:

"Bu rasvo jahonda yashamoq og'ir",
Deb birinchi shoir olamdan o'tdi.
"Yashash yaxshi!" – ikkinchi shoir,
Va dunyodan yigit yoshida ketdi.

Uchinchi shoir ham o'tdi begumon,
Biroq u shunchaki aytmadi qo'shiq.
Nima yomon bo'lsa, atadi yomon,
Nima yaxshi bo'lsa, kuyladi jo'shib.

Shakl mazmunning birdan-bir yashash vositasidir. Usiz mazmunning yaralishi mumkin emas. Adabiy ijod namunasida bu ikkisichalik o'zaro taqozodorlik talab etuvchi hodisa-jarayonni uchratib bo'lmaydi. Shunday ekan, bir-biriga uyg'unlik, mos-mutanosiblik, moslikda mukammallik talabi ham bu masalada ijodchidan katta mas'uliyat, mahorat talab etadi.

Har qanday holda ham mazmun yetakchi, yetakchiligi sobit, barqaror, shakl nisbatan mustaqil, mazmunga itoatkor, uning kayfiyatiga qarab o'zgaruvchan badiiy tamoyillar bo'lib qoladi. Ular haqidagi har qanday chuqur adabiy-nazariy qarashdan mazmun bilan shaklda nafis va mukammal mushtaraklik taqozo etilishi to'g'risidagi xulosalarga kelinadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
2. Баҳодир Саримсоқов. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004.
3. Роик Баҳодиров. Абу Абдуллоҳ ал Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1995.

4. Матёқуб Қўшжонов. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994.
5. Бегали Қосимов. Уйғонган миллат маърифати. Т.: Маънавият, 2011.
6. Мухсин Олимов. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. – Т.: Фан, 1994.
7. Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
8. Яшар Қосим. Бадий фикрнинг уйғониши // Ёшлик, 1995. – №3 – Б. 20–21.
9. Хуршид Дўстмуҳаммад. Концепцияни янгилаш учун // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990. 16 фев.
10. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М., 1978.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi obrazlarni tavsiflang va mazmun, shakl uyg'unligini aniqlang.
3. Shukur Xolmirzayev va O'tkir Hoshimov hikoyalaridan tanlab shakl, mazmun, pafos masalalarini tushintiring.

DARS REJASI:

- Syujet va uning tarkibiy qismlari.
- Syujet rivojida konfliktning roli va ahamiyati.
- Badiiy asar kompozitsiyasi.
- Kompozitsiya syujetga mos tartibot sifatida.
- Syujet va kompozitsiya mas'uliyati.

Syujet san'atning o'zak tushunchalaridan biri bo'lib, "predmet" ma'nosini anglatadi. Uni hayot voqeligi, manzaralarining o'zi asosida anglash oson kechadi. Chunki u mavjud hayotning, borliqning o'zidan, uning o'tmishidan ijodkorona o'zlashtiriladi, obrazli tafakkur natijasida hayotiy taassurotga, xulosalarga unda to'qimaviy ishlov beriladi. Hayotdagi ma'lum bir voqelik, muammo har qanday kishi tomonidan u yoki bu tarzda mushohada qilinib, uning tadbiri qilinganidek, adib-u shoir, dramaturg ham o'z mushohadasi, tafakkur tarzidan kelib chiqib hayotiy manzarani o'zicha qayta badiiy yo'sinda ishlashga kirishadi. Vujudga kelgan asari yana mushohada manbai bo'lib turadi. Asarda tasvirlangan voqea, hol-holat, kechinma, ziddiyat, his-tuyg'ular – hammasi jamuljam bo'lib, yaxlit, quyma syujetni tashkil qiladi.

Kichik nasriy asarlar syujeti nisbatan yagona yo'nalishdagi tor qamrovli voqelikni, katta nasriy janrlardagi asarlar keng hayot voqealarini syujetga aylantiradi. Mazkur qamrov salmoqlari ayni paytda asarlar janrini belgilashda ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, hikoya – kichik nasriy janr. Uning syujeti asosan bir tizimli voqelikni o'z ichiga oladi. Ammo u katta g'oyaviy-badiiy maqsadni ko'zda tutadi. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Murod Muhammad Do'st, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo'ldosh, Isajon

Sulton singari qator adiblarning hikoyachilik ijodlarida ayni janrning g'oyatda jozibador, kichik voqelikning mohirona badiiy talqini orqali katta g'oyaviy masalalarni ko'tarib chiqqan syujetlar bor.

"Turmush" (Isajon Sulton) hikoyasida ota shomga yaqin horib daladan uyga qaytadi, o'n yoshlar chamasidagi qizalog'i bir kosa suv olib keladi, ota simiradi. Hovlisidagi yer hanuz chopilmagan, qozon boshida kuymalanib yurgan xotiniga buni iddao qiladi. Uzluksiz mehnat, qiyinchiliklar ayolni ham anchayin toliqtirgan: "...Kecha bozor edi, o'zingiz chopsangiz bo'lmasmidi?". Ota bu ishni olma tagida turgan o'g'liga buyuradi. U ham qo'rslik bilan rad etadi. Ota uyqu vaqti ayvonga joy soldirib yotadi. Ota o'z oilasidagi mazkur muomala-munosabat ta'sirida chuqur mushohadaga beriladi: "Tavba, hayotimning shunaqa bo'lishini o'ylabmidim? Horib-charchab keldim, bittasi chopib chiqib salom bermasa-ya. Aslida qanaqa bo'lishi kerak edi o'zi? Xotin degan ochiq chehra bilan kutib olsa, xushhol jilmayib qo'ysang-u bolalaringni bag'ringga bossang. Ishmi, ish nima, bo'ladi-da. Bugun yer chopilmasa, ertaga chopilar? Yo bo'lmasa, qopketar? Ust-boshi tuproq bolachalaringni bag'ringga bossang qanday mazza? Bir silkinsang-u ko'chaning tashvishlari yelkangdan tushib ketsa, uyingga jannatga kirganday kirsang. Unaqa bo'lmadi-ku? Gap mana shunda-da, nima uchun?"

"Xotin ham o'ylar edi.

"Xo'mrayishini-chi. Ertalabdan beri shu ahvolda bo'lsam. Na o'zimga qarayman, na bir lahza tin olaman. Ochiq chehra bilan kirib kelsa, o'ladimi? Birov ishlab kelganingga zormi, odamning qorni yarimta non bilan to'yadi, bir og'iz shirin so'z odamni o'ldiribdimi? Qachon qarasang shu: qovog'ini solib o'shqirgani o'shqirgan..."

Oila ahli tushlar ko'radi. Ota tushida bir go'zal malakni ko'radi: ibo-hayosi, nurdan iboratligi aqlini lol qoldiradi. Unga yaqinlashsa, xotini emish. Ayoli u hayotida eshitmagan (islomiy-shar'iy) odoblar, haqlardan gapiradi. Ular muloqotida ayolning erdagi haqlari, erkakning ota-ona oldidagi haqlari xususidagi haq ta'limot o'gitlari o'z ifodasini topgan: "...Ering ne desa itoat etasan, har itoatingda sharaflanasan. Agar shirk bo'lib qolishidan qo'rqilmasaydi, hatto eringga sajda qilish buyurilgan

bo'lardi. Umringning so'ngida shu qadar yuksak maqom olasanki, yer ham, ko'k ham seni sharaflaydi. Bilginki, oroming itoatingdadir, deyiladi. Mening asl qiyofam shu, xo'jam. Neki iroda etsangiz, hukmingizga muntazirman".

Ayol tushda erini toshga aylanib qolgan qiyofada – suratda ko'radi: "Yo'q, toshga aylanmaganman. Sizlarni shamollardan, bo'ronlardan pana qilaman, deb shu ko'yga tushdim-da...". "...Eshityapsanmi, juda olislardan bir qichqiriq bino bo'lib, tobora yaqinlashmoqda. Yetib kelmasidan oldin rozi-rizolik so'rashib olganimiz ma'qulmikin?..". Bu qichqiriq – "Ogoh bo'linglar!", muqarrar bo'lajak qiyomatning xabari bo'lib, uni qizchalari ham tushidagi manzara-voqelikda eshitadi. Qizcha to'xtamay ketayotgan, aslo to'xtatib bo'lmas karvonni ko'radi. Bu ramziy tasvir har avlod qismatidagi oxirat tomon ketish karvonini mushohada qildiradi: "Oy qizim, bu karvonni to'xtatib bo'larmidi? – dermish ota. – Jonim qizim, yorug' jahonim, otang qurboning bo'lsin! Qo'rqma, bu yerda sen kabi qizaloqlar ham bor". Otasi tiriklayin ko'milgan qizchalar deb aytgan bolalar bu ta'rifdagiga aslo o'xshamas emishlar. Ular ulkan bir daraxt ostida soch-soqoli oppoq bir chol bilan o'ynab o'tirar emishlar...

Hikoya nihoyasida oilaning ertalabki nonushta paytidagi suhbatini tasvirlanadi. Unda shunday gap-so'z va yakuniy jumlar bor: " – ...Bir g'ayrat qilib yerni chopib qo'yaqolinglar, ekin ekvolmasak, qop ketadi.

– Xo'p, – dedi xotin.

Shu tariqa xudoning yana bir kuni boshlandi.

Har doimgiday, oddiygina bir kun".

Hikoya syujetining boshdan-oxir mo'jaz, yagona oqim bilan hosil bo'lganini bunda payqash qiyin emas. Biroq oddiy maishiy muomala-munosabatdagi sezilar-sezilmas ahvol tasviri munosabati fonida inson hayotining ikki dunyosi uchun saodat sharti bo'lgan e'tiqodiy muammo o'quvchi qalbi, tafakkurini o'ziga jalb etadi. O'quvchi mangu sharaflanishning, jannatga doxil bo'lishning poydevori o'zida, o'zining bugunida ekanini mushohada qiladi, hushyor tortadi.

Demak, asarda aks etgan insonlararo muomala-munosabatlar, ularning bir-birlariga bo'lgan yaxshi-yomon qarashlari, o'zaro samimiyati, xayrixohligi yoki qarama-qarshiligi, qahramonlarning umri, hayoti,

sajiyasining muhim badiiy tafsilotlari syujetdir. Syujetni, xoh u jismonan harakatli tarzda bo'lsin, xoh u ma'naviy-shuuriy tarzda bo'lsin, favqulodda, kutilmagan, o'ziga xos ziddiyatlar qiziqarli qiladi.

Asar yaxlit, quyma, to'qimaviy syujetning mahsulidir. Syujet o'zidagi rivojni ta'minlovchi oshkor-yashirin tarkibiy qismlar, adabiy unsurlar majmuining mahsuli. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardir:

1. **Ekspozitsiya.** Bu boshlanma bo'lib, roviy (hikoyachi, yozuvchi) badiiy bayon qilib berajak voqelikning ilk lavhasi, manzarasi, epizodi, munosabat ko'rinishidir ("Turmush"dagi dehqon otaning shom tusha boshlaganda hovlisiga kelishi, suv ichishi, chopilmagan yer borasidagi savol-javoblar – to uyqu oldidan boshlangan o'ylargacha bo'lgan tasvir).

2. **Tugun.** Konfliktning ochiq-oydin yuzaga chiqishi, ziddiyatning muhokamaga tortilishi, uning taraqqiysiga turtki berishi – to'laqonli konfliktning ilk ifodasi ("Turmush"da erning, xotinning uyqu oldidagi o'y-xayollari, o'z mavjud qarashlarida aks etayotgan mushohadalar).

3. **Rivoj.** Ziddiyatning voqeyi, mushohadaviy davomiyligi syujet rivoji hisoblanadi ("Turmush"da syujet rivoji tushlarga ko'chadi, obrazlar dunyoqarashi, reallikdagi odob-axloqi, madaniyati bilan bo'lishi kerak bo'lgan asl fitratiy-e'tiqodiy intizomlar ta'limoti qiyoslanib boradi).

4. **Kulminatsiya.** Xarakterlararo va qarashlararo to'qnashuvning eng yuqori vaziyati bo'lib, bu moment ziddiyatning u yoki bu tomon foydasiga hal bo'lishini yaqinlashtiradi ("Turmush"ning tushlardagi voqeligida yashash mohiyatining asl qoidalarini idroklash ruhi g'oyaviy-badiiy jihatdan yuqori nuqtaga yetadi).

5. **Yechim.** Tugunning ilk bosqichida ma'lum bo'lgan, ma'lum bir rivojini namoyish qilgan ziddiyatning, xarakterlar va aqidalar to'qnashuvining manzur yoxud nomanzur yakunlanishi ("Turmush"ning eng so'nggi epizodi).

Syujet tarkibiy qismlarining botartib, har biri o'z o'rnida kelishi joiz degan qoida yo'q. Ularning har biriga munosib o'rinni tayinlash yozuvchining ifoda tadbiri, tushuntirish manerasi, individual uslubi, ko'zlagan usullari hal qiladi.

Yirik nasriy janrlar syujet yo'nalishi qator voqeyi tarmoqlar, epizodik lavhalarni qamrab oladi va ayni qo'shimcha syujetchalar ko'p jihatdan,

mantiqan bosh g'oya, bosh syujet liniyasini quvvatlash, boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy ijoddagi bu taqozo-tadbirning turlicha miqdordagi ko'rinishlarini qissalar, romanlar misolida kuzatiladi. Katta janrlardagi syujetlarga xos bu tamoyilni tasviriyl qamrov deb tushunmoq to'g'ri bo'ladi. Bu xoslik liro-epik degan shartli-nisbiyl adabiy turning janrlarida ham bor. Masalan, dostonda o'z rivoji bilan ketayotgan asosiy voqelik o'rni-o'rni bilan bamisoli to'xtatilgandek bo'lib, oraga boshqa qahramonlar, masalalar ishtiroki o'rnashadi. Ular asosiy syujet yo'nalishiga singishib ketadi. Asardagi portret, peyzaj (tabiat tasviri) singari badiiy talqinlarni ham bosh syujetning qamrovidagi lavhalar sifatida qarash o'rinli.

Deyarli butun jahon adabiyotlari syujetning mazkur unsurlari bilan yuzaga chiqadi va ular adabiy-nazariyl ilmlari ushbu mavjudlikning iqrori bilan cheklanib asar tahlil, talqinini olib boradi. Ammo masalaga islomiy xalqlar adabiyoti, ayniqsa, ularning mumtoz adabiyoti tarixidan kelib chiqib va davom etishi joiz adabiy an'anasi nuqtayi nazaridan yondashilsa, syujet, kompozitsiya, shakl, mazmun, umuman, badiiy asarning hamma tabiiyl borlig'iga doir yana bir qator tushunchalar e'tiborni tortadi. Gap shundaki, islomiy e'tiqod odobi bo'yicha har bir diqqatga sazovor ish Alloh nomi bilan boshlanib ("**bismillah**"), Unga maqtovlar ("**hamdlar**"), payg'ambarlarga, Muhammad sallollohi alayhi vasallamga salomlar, vasflar ("**na'tlar**") yo'llanib, so'ngra ish ijrosiga kirishilganidek, musulmon dunyosi ilmlari hamda adabiyoti ham bu qoidaga qat'iy amal qilgan. Asarlar, devonlar bismillah, hamd, na'tsiz yozilmagan va bu boshlanma, debochalar kitoblar mazmunidan ajratib qaralmagan.

Shuningdek, Navoiydan boshlab devonlarning dastlabki she'rlarini ham ma'rifiyl ruhda qilish, **hamd**, **munojot**, **na't**, **me'roj** g'azallardan tashkil toptirish an'anasi paydo bo'lganki, bu adabiy fazl ham devonlarning umumsyujeti, g'oyaviyl-badiiy mohiyatlaridan ayriча hodisalar emas. Istiqlol davri o'zbek nasrida sho'ro siyosatining tazyiqi tufayli yo'l qo'yilmagan bu imoniy-adabiy qoidalarga amal qilishning tiklangan misollari ham bor. Jumladan, Tohir Malikning "Shaytanat" qissalari va boshqa asarlarida shu qadim an'ananing zamonaviyl ifodasini ko'rish mumkin.

Adabiy hamd, na't, munojot va shu ruhdagi xotimalarni boshqa katta adabiy-nazariy, falsafiy-estetik tushunchalar qamrovida, masalan, sharqona adabiyot syujetining tarkibiy unsuri sifatida o'rganish bugungi adabiyotshunoslikning vazifalaridan biridir. Muhimi ijodkorning ayni e'tiqodiy qoidalarga amali zamirida qancha benazir adabiy imkoniyatlar, asarga yanada tarovat bag'ishlovchi omillar borligini anglashdir. Navoiyshunos olimi Karomat Mullaxo'jayevaning "Badoye ul-bidoya" devonidagi hamd, munojot, na't, me'roj mavzusida bitilgan g'azallar tadqiqi munosabati bilan aytgan quyidagi fikrlari mumtoz adabiyotimizning nasriy asarlari, liro-epik turga kiruvchi dostonlari, nomalari, manzumalariga ham tegishli: "... Diniy-so'fiyona nuqtayi nazardan anglangan dunyoni badiiy asarda ifodalash shoirga ancha keng imkoniyatlar beradi. Dunyoning yaratilishini diniy nuqtayi nazardan idrok etgan shoir Allohning qudrati oldida lol qolsa, so'fiyona qarashlar, ayniqsa, tajalliy nazariyasiga asoslanib fikr yuritayotgan chog'da har bir narsada – gul-u maysada, bud-u nobudda Haqning jilvasini – go'zalligini ko'rib hayratlanadi. Borliqda mavjud o'zi istagan har bir narsani timsol yoxud tashbeh sifatida qo'llay oladi. Haqni anglab borar ekan, borliqni, inson va uning umri – bularning o'tkinchiligi, umrning bebaqoligi singari masalalarni yanada chuqurroq his qila boshlaydi, tashbeh-u timsollarini, istioralarini ana shular bilan bog'laydi..."

Syujet ishiga tegishli mazkur qamrovni asar qismlarini joylashtirishga, ular tartibini maqsadga muvofiq, uzviy, izchil, o'zaro mutanosib belgilashga oid va ayrim asarlargagina xos bo'lgan, kompozitsiya masalasiga tegishli qoliplash usuli bilan aralashtirib yubormaslik kerak bo'ladi. **Qoliplash** – syujet qismlarini joylashtirishning ayricha bir usuli bo'lib, unda bosh syujet oqimi boshqa asarchalarni (bular turli janrlarga mansub bo'lishi ham mumkin) o'z ichga qamrab-qoplab oladi va badiiy voqelik **asar ichida asarlar** tariqasida namoyon bo'ladi. Bu adabiy usul an'anaviyligi, jozibadorlikni kuchlantiruvchanligi bilan ham mashhur. "Kalila va Dimna", "Ming bir kecha", "Sab'ai sayyor" (Alisher Navoiy), "Zarbulmasal" (Gulxaniy), "Chinor" (Asqad Muxtor), "Ozod" (Isajon Sulton) kabi ba'zi asarlarda bu usul muvaffaqiyatli qo'llangan.

Kompozitsiya, demak, asarning tuzilishidir. Tuzilishning har bir qismi komponent deb ham ataladi. Kompozitsiya tushunchasiga mantiqan qaralsa, asarlarning muayyan tur va janr talablariga bo'ysunishining o'zi kompozitsion talablardan biridir. Forobiy ko'pchilik shoirlarning o'z fikr-mulohazalarini boshqalarda qanoat hosil bo'ladigan darajada ifodalashga qobiliyatli bo'lishini ta'kidlagan holda she'r tuzilishida "qonun-qoidalarga rioya qilishning o'zi she'riyatni eng afzal va ulug'vor bo'lishiga sabab bo'lgan narsadir", deydi. Shunday qilib, **kompozitsion qism-komponentlar**:

1. Har qanday obraz (bosh komponent).

2. Syujet (to'laligicha).

3. Har bir detal, monolog, dialog, tabiat tasviri, izoh, sharh.

Syujet va kompozitsiya amaliyoti adabiy ijod jarayonining barcha turlari, janrlariga taalluqli shuuriy hodisalardir. Jahon adabiyotshunosligining tadqiqlarida ko'pincha ularning she'riyatdagi xususiyatlari e'tibordan chetda qoladi. Holbuki, lirik turning barcha janrlari syujet, kompozitsiya talablaridan xoli holda mavjud bo'la olmaydi. Albatta, ularning ishlanishi bu turdagi ijodlarda o'ta daqiq, botiniy kechadi va o'quvchi hamda eshituvchiga asar sirtidanoq tez ayon bo'lavermaydi. Chunki nazm, she'riyat his-tuyg'u, kechinma, ruhiy holatlar voqeligining vaznlarga solingan san'atidir.

Chunonchi, Maqsud Shayxzoda Navoiy g'azaliyotini qadim Sharq g'azalchiligi qamrovida, an'anaviylik, bardavomlik, novatorlik nisbatida qiyosan kuzatar ekan, ilk bora she'riyatga xos favqulodda haqqoniy ilmiy xulosalarni yuzaga chiqaradi. Shayxzoda g'azalnavislik taraqqiyotining badiiy tasvir vositalari arsenaliga Navoiy tomonidan olib kirilgan bir necha "poetik usullar"ni aniqlaydi va shunday yozadi: "Navoiy g'azalining asosiy va birinchi xislati uning mantiqiy tarzda tuzilishi, bir momentning ikkinchi momentdan tug'ilib kelishidir. Bu juda muhim xislatdir. Chunki ko'p g'azalnavis shoirlarda she'r go'zal va alohida baytlardan iborat bo'lib, mexanik ravishda tuzilganligi uchun undagi baytlar oldinma-keyin almashtirilsa, o'qigan kishi bu o'zgarishning farqiga yetmasligi ham mumkin. Shu ma'noda olganimizda, bir qancha g'azalnavislarning she'rlarida syujet ko'rinmaydi".

Darhaqiqat, Navoiyga qadar yashab ijod etgan aksariyat shoirlarning nazmida yagona bir mavzu va obraz asar mobaynida ustuvorlik qilmas yoki mavzuning talqinida baytlar tartibiga o'ta jiddiy yondashilmas, tematik jihatdan bir-biriga yaqin isti'ora, tashbehtar yonma-yon tizilar, natijada nafis, biroq "voqeband", "kechinmaband" bo'lmagan asarlar vujudga kelar edi. Bunday lirik she'rlar, Shayxzoda fikricha, o'zlarida subyektiv hislarning tarqoq jilvalarini namoyon qiladi. Navoiyda esa bu masalada mahorat juda yuqori: hatto eng kichik lirik she'rlarda ham fikriy muddaoning butunligini, obyektiv voqealarning botartib silsilasini, baytlarning mantiqiy rishtalar bilan aynan o'z o'rnida bog'lanishini kuzatish mumkin. Shunday mohirlik tufayli g'azalda parchalanib bo'lmas butunlik, baytlarning bir-biriga tasodifiy emas, balki mantiqiy munosabatlar bilan bog'lanishi hosil bo'ladi.

Albatta, Shayxzoda tasvirlangan "voqea" deganda real sodir bo'lgan yoki lirik to'qima sanalgan aniq, hayotiy-epizod hodisani emas, dastavval misralarda, baytlarda bayon qilingan ma'no-mazmunlarning yagona mavzu ichidagi hamohangligi va mushtarakligini, "syujet" deganda esa, nasrdagi shu nomli yoki "fabula" deb atalgan tushunchalarni emas, ko'proq o'sha yaxlit mavzu doirasidagi fikr, ma'no, obrazlilikning izchilligini, fikr tashuvchi baytlarning nihoyatda to'g'ri, o'z o'rnida joylashtirilishini nazarda tutadi. Shu zayl nozik kuzatuvlari natijasida olim qat'iy to'xtamga va xulosaga keladiki, g'azallarda keng ma'nodagi ma'lum bir voqeani yarata bilish, baytlarni ma'nan, fikran va suratan bog'lash u yoki bu darajada Navoiy lirikasiga xos bo'lgan juda san'atkorona badiiy usuldir.

Bu – mutafakkir shoir Alisher Navoiyning she'rshunoslik maktabidan olingan sanoqsiz saboqlardan birining olim Shayxzoda tomonidan qilingan ilmiy kashfi. Bu – lirikaga xos syujet masalasiga shubhali qarashlarga, she'riyatdagi syujet va kompozitsiyani idrok etmaslikka qarshi daliliy ilmiy tadqiq. Bu – shoirlarni mantiqiy voqebandlikdek yuksak san'atkorlikka undov va chorlovdir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002.

1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.

2. Фитрат. Адабиёт қондалари. – Т.: Ўқитувчи., 1995.

3. Матёқуб Қўшжонов. Ҳаёт ва нафосат. – Т., 1970.

4. Каримова С. Композицион мукамаллик йўлида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1991. № 6. – Б. 54-58.

5. Турдиева К. Асар сюжети ва композицияси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2001. № 3. – Б. 23-27.

6. Матёқуб Қўшжонов. “Кеча ва кундуз” романида образлар тизмаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. № 3-4. – Б. 56-59.

7. Каромат Муллаҳўжаева. Алишер Навоий ғазалиётида тасвувий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Т.: Akademnashr, 2019.

8. Успенский Б. Поэтика композиции. – М., 1970.

9. Шкловский В. О теории прозы. – М., 1983.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishib, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

2. Alisher Navoiyning “Xamsa”siga kiruvchi dostonlardan birini mavzu yuzasidan tahlil qiling.

3. Gulxaniyning “Zarbulmasal” va Asqad Muxtorning “Chinor” romani misolida qoliplash usulini tahlil eting.

DARS REJASI:

- Badiiy adabiyot ko'rinishlarining tarixan barqarorligi.
- Adabiy-nazariy qarashlar tarixida ijod va vazn ta'limotlari.
- Adabiyotni tur va janrlarga maxsus tasniflab o'rganish asoslari.
- Adabiy ijodchilikda turlarning sobitligi.
- Adabiy turlarning janriy ko'lami, ularning yangilanish imkonlari.

Adabiy tur tushunchasining, badiiy ijodkorlikning insoniyatda turlicha ko'rinishlarda yuzaga chiqishining hislanishi eng qadimgi zamonlarda ham mavjud bo'lgan. G'arb va Sharq xalqlarining eramizdan avvalgi asrlarida ham so'z ijodkorligining xilma-xil yo'sinlarda sodir bo'lishini muayyan bitiglar, xalq og'zaki ijodi yo'nalishida to'qilgan erkin namunalar dalillab turgan. Ularga oid ta'lim va talqinlar asrlar osha kengayib borib, ijodiy mahoratga yetaklovchi nazariy qoidalar amal qilib borish jarayoni kechgan.

G'arbda adabiyot nazariyasining eng qadimgi, dunyodagi birinchi qo'llanmasi deb qaraladigan, eramizdan uch ming yil oldin yaratilgan Aristotelning **"Poetika"** asari adabiy ijod mohiyati, sirlarini o'rgatishga oiddir. Asar to'liq holda yetib kelmagan: qisqa, ayrim sahifalari, jumladan, lirika qismi yo'q hisobi, g'aliz jumalari bor. Bu kabi kemtikliklarning sabablarini hozirgi olimlar har xil ilmiy talqin etishadi. Ayrimlar buni zamonlar to'foni bilan bog'lashsa, boshqalar buni Aristotel o'qigan ma'ruzaning shogirdi tomonidan yozib olingan matni deb ham taxmin qiladi. Shunga qaramay, **"Poetika"** adabiy ijodning eng muhim g'oyaviy-badiiy muammolari borasida qator barqaror fikrlarni ilgari surganligi bilan qadrlanib keladi.

Aristotel o'z adabiy-estetik qarashlarini ko'proq epos, dramaturgiya namunalari orqali dalillaydi. Bu tabiiy hol edi. Uning davrida qator ilm-

fanlar bir rivoj bosqichiga chiqqan, ko'plab olimlar mashhurlashgan, teatr, dramaturgiya, notiqlik, mantiq, ritorika kamol topgan edi. Aristotel ijodiy mahorat sirlaridan bahs yuritadi, san'atkorlikning qator yo'llarini bayon qiladi, mavzu, mazmun, syujet, voqea birligi, ta'sirdorlik masalalarida muhimdan nomuhimni ajratish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi, lekin adabiyotni tur va janrlarga qat'iy ajratib qaramaydi.

O'rta asrlarning barcha allomalari adabiyot xosliklariga munosabatlarini maxsus kitoblarida, mantiqshunoslikka, tasnif ilmiga doir asarlarining alohida bo'limlarida keng yoritganlar. Forobiyning "Kitobash-she'r" risolasi, "Shoirlar san'ati qonunlari haqida" kitobi, Ibn Sino, Ibn Ro'shd, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va boshqalarning shu sohaga doir bitiglari keyingi davrlar adabiy tafakkuri taraqqiyotiga ulkan turtki berdi.

Forobiy Aristotelning boshqa asarlari qatorida uning "Poetika"sini ham sharhlab tarjima qildi, o'zi shunga o'xshash kitoblar bitdi. Yunon she'riyati (adabiyoti) navlarining barchasini tavsifladi, navlarning Sharqdagi shakllarini, ularning har biridagi ma'naviy va vazniy xususiyatlarni bayon qildi. Uning so'z ijodkorligiga mansub iqtidor, shoirlikning har xil turlari, bo'lajak shoirlarni tarbiyalash, ijod jarayoniga ta'sir qiluvchi ichki-tashqi omillar, mulohazakorlik, shoirlikning tanlanishi haqidagi qarashlari ham ko'p jihatdan adabiyot navlarini tushuntirish jarayonida kechgan.

Adabiy-nazariy ilmlar, qarashlar sirasida adabiyot shakllariga oid mulohazalar dunyoda hamisha davomli bo'lib keldi. G'arb va Sharqning har biri o'z adabiyoti tarixi, tajribalari, davrlaridagi ijodiy jarayon asosida turlar, janrlar mohiyatlarini yoritdi. 17-asr fransuz madaniy hayotida shakllangan **klassitsizm** oqimi adibi va olimi Nikola Deperes Bualo o'zining "Poetik san'at" deb nomlangan, mazkur adabiy oqimning g'oyaviy-ijodiy qoidalarini bayon qilgan risolasini nazmiy shaklda bitdi. Unda ham turlar, janrlar, ularning o'ziga xos tomonlari talqin qilinadi. Ammo bu risolada ham turlar, janrlar umumiy tasnif etilmaydi.

Adabiy turlar va janrlar nazariyasi 19-asr adabiyotshunosligida chuqur tadqiq etilishi bilan xarakterlanadi. Rus adabiyotshunosi va munaqqidi V. Belinskiy o'zining bir necha maqolalarida bu masalaga alohida e'tibor

qaratdi. "Poeziyaning tur va xillarga bo'linishi" nomli salmoqdor maqolasi masalaning chuqur tahliliga bag'ishlangan. Unda ilk bor adabiyotning turlariga qat'iy aniqlik kiritiladi: adabiyotning lirik, epik, dramatik turlari mavjud; bu turlarning o'z ichida ba'zi xossalari bilan farqlanuvchi janrlari bor; turlar o'rtasidagi tafovut nisbiy bo'lib, biriga xos belgi-alamatlar boshqasida ham ishtirok etishi mumkin; turlar nisbatan o'zgarmas, barqarordir; janrlar muayyan ma'noda o'zgaruvchan, yangilanishga moyil, adabiy taraqqiyotda yangi janrlar paydo bo'lishi mumkin; shuningdek, epik asar lirikaning, lirik asar eposning elementlaridan xoli bo'lmasligi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, olim "poeziya" deganda hamma turdagi badiiy adabiyotni nazarda tutgan. Ma'no torayishi tufayli hozirda ko'pchilik bu so'zni lirika o'rnida qo'llaydi. Belinskiy adabiyotning uch turiga teran, chuqur ta'rif beradi:

1. "Poeziya ideyaning ma'nosini tashqi ko'rinishda ifodalaydi va ma'naviy olamni butunlay aniq, plastik obrazlarda uyishtiradi. Bunda hamma ichki ma'no yuzaga chiqadi va bu ikki tomon – ichki va tashqi tomonlar bir-biridan ayrim holda ko'rinmaydi, biroq bevosita jam holida olganda ular aniq reallikni – voqeani gavdalantiradi. Bu yerda shoir (yozuvchi – T. Sh.) ko'rinmaydi; plastik muayyan dunyo o'z-o'zidan taraqqiy etadi, shoir esa o'z-o'zidan bujudga kelgan hodisaning faqat hikoyachisi bo'lib qoladi. **Bu epik poeziyadir**".

2. "... poeziya voqelikning...ichki tomoniga – bu kuchlarning tub negiziga kirib boradi, tashqi reallik, voqea va xatti-harakat ana shu kuchlardan o'sib chiqadi, bunda poeziya yangi va qarama-qarshi turda ko'rinadi. Bu – subyektivlik saltanati, bu ichki dunyo o'z ichida qolguvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki elementda, tuyg'u ong doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib yashirinadi, tashqi olamni o'zida aks etdirgan ichki hayotning mislsiz jilvalarini poeziyaga hadya qiladi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz. **Bu lirik poeziyadir**".

3. "Nihoyat, bu ikki xil turkum ajralmas bir butun bo'lib birlashadi: ichki hodisa o'z ichida qolishdan to'xtaydi va tashqariga chiqadi, amalda

o'zini ko'rsatadi: ichki ideal (subyektiv) hodisa tashqi real (obyektiv) hodisa bo'lib qoladi... Bu poeziyaning yuqori darajasi va san'atning guldastasidir, **bu dramatik poeziyadir**" (Oybek tarjimas).

Epik tur barcha nasriy badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Uning hikoya, novella, povest, qissa singari shakllari kichik, roman, roman-epopeya, roman-diologiya, roman-trilogiya kabi shakllari esa katta nasr (proza) sifatida e'tirof etib kelinadi. Hozirgi dunyo romanchiligida bu janrning yuzdan ortiq ko'rinishlari bor.

Dramatik turning asosiy janrlari drama, komediya, tragediya bo'lib, bu janrlardagi asarlar adibi dramaturg deb sifatlanadi. Ular asarlari birinchi navbatda keng kitobxonlar ommasining o'qishini emas, asarining teatr sahnasida aktyorlar tomonidan ijro etilishini mo'ljallab yoziladi. Muayyan hikoya, qissa yoki roman asosida senariy tayyorlansa, mazkur asarning sahna varianti – dramatik turga mansub adabiyotning muqobil shakli yaratilgan bo'ladi.

Hozirgi jahon adabiyotshunosligida ana shu uch turning sobitligiga, barqarorligiga ittifoq qilingan. Ya'ni, inson so'z vositasida ijod qilar ekan, uning yozgan asari albatta ushbu turlarning biriga mansublik kasb etadi. Adabiy turning har biriga kiruvchi janrlar qamrovi dunyo milliy adabiyotlarining o'z mavjud borlig'idan, tajribasidan, ilmi e'tirof etgan an'analardan kelib chiqadi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyotining butun tarixida epik turga qaraganda nazm – she'riyat sezilarli darajada faol bo'lgan va unda janrlarning ko'lami katta, rang-barang bo'lgan. 20-asr 30-yillaridan boshlab, sho'roning yovuz va botil siyosati, mafkurasi tufayli mazkur aruziy she'r tizimiga hamda uning janrlariga nopisandlik ro'y bergan bo'lsa-da, ulkan va beqiyos ayni meros, undagi janriy an'analari hamon e'zozlanadi, ularda ijod qilinadi.

Mumtoz lirik turimizning janrlar miqdorini ularning har xil sifatlariga ko'ra tasniflash mumkin. Chunonchi, mazmuni, musiqiylikiga ko'ra, og'zaki va yozma adabiyotda baravar mavjudligiga ko'ra, misra soni va kompozitsiyasiga ko'ra, ham mazmun, ham tuzilishiga ko'ra va hokazo. Muhimi, ularning har biri o'ziga xos mazmuniy, shakliy talablarga, joziba darajalariga ega. G'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, fard, tarkibband, tarjiband, musallas, murabba, muxammas, musaddas, musabba,

musamman, mutassa, muashshar, marsiya, qasida, hasbi hol, soqiynoma, mustahzod, muvashshah kabi o'nlab lirik janrlar mumtoz adabiyotning ziynatlari bo'lib kelgan.

Barmoq she'r tizimi ham janrlar ko'lamiga ko'ra boy she'r sistemalaridan sanaladi. Aruzda mavjud janrlarning barchasi unda o'zgacha nomlar va vazniy talablar bilan namoyon bo'ladi: ikkilik, uchlik, to'rtlik, beshlik kabi.

Umuman olganda, adabiy turlar ichida janrlarga eng boy tur lirikadir. Uning doston, poema, manzuma, ballada, she'riy qissa yoki roman singari shakllarini keyingi asrlar adabiyotshunosligi nisbiy va shartli ravishda alohida – **liro-epik tur** sifatida ham talqin etadi.

Adabiyotning har bir turi o'z tabiatiga yarasha ijodkorning poetik tafakkur tarzini taqozo etadi. Nosir – epik yo'nalishda ijod etuvchi o'z mushohadasini ko'proq tashqi olam voqea-hodisalariga qaratsa, shoir inson ruhiyatining beadoq hislari, kechinmalarini ko'p tafakkur qiladi. Ijodkorlikda insondagi shoirlikka xos zavqu shavq boshqacha, nosirlikka xos zavq, kayfiyat boshqacha bo'ladi.

Janrlar xususida mulohaza yuritganda she'r, she'riyat, poeziya, lirika, nazm so'zlarini sinonimlar tarzida qo'llab, birining o'rnida boshqasini ishlatish ommalashgan urfdir. Biroq nazm va she'r tushunchalarini farqlab qo'llash talab etiladigan nozik o'rinlarga ham duch kelinadi. Ibn Sinoning jahon tibbiyot ahli haligacha e'tirof etadigan, tibbiyotga kirishning boshlang'ich qo'llanmasi deb biladigan, aruzning rajaz bahrida yozilgan "Urjuza" kitobi, nazmiy bitilgan ilmiy sohaga oid boshqa risolalari, Bualoning "She'riy san'at"i kabi asarlar nazm namunalari bo'lib, ular bevosita she'riyat sifatida o'rganilmaydi. Ularga – ilmiy mavzular va masalalarni she'riy shakllarda bayon qilingan asarlarga nazmiy namunalari sifatida qaraladi. Ularda barcha talablarga rioya etilgan, javob bera oladigan she'riyatga da'vogarlik hissi va maqsadi bo'lmaydi. She'riy shakldan muddao ularda ilmni chiroyli, qiziqtirib yetkazish uchundir.

Alloma Alibek Rustamov shu zavqning shoirga xos bo'lgan qirralari va she'rning muvaffaqiyatini ta'minlashdagi ahamiyatiga, **nazm va nozimlik bilan she'r va shoirlik** tushunchalarining mohiyatan farqlanishiga, shuningdek, shoirlikning boshqa umumiy talablariga

muxtasar to'xtaladi. Bu yo'riqlar ham g'oyat ibratli bo'lganligi sababli ayni yo'riq-xulosalarni to'lig'icha ko'chiramiz: "She'r shoir zavqining maxsus qoidalariga bo'ysungan nutqiy ifodasidir. Shoir o'z zavqini badiiy so'z bilan ifodalash san'atini egallagan zavq ahlidir. She'rni nazmdan farq qilish kerak. Nazm vazn va qofiyali nutq bo'lib, u she'r xususiyatlaridan xoli bo'lishi mumkin. Masalan, vazn va qofiyaga solingan ilmiy risolalar hamda barcha zavq natijasi bo'lmagan bayonlar nazm, lekin she'r emas. Shu sababli (ylar shakliy jihatdan nazm ekani bois – T. Sh.) zavq talabiga javob beradigan nasriy nutqni ham ba'zi olimlar she'r sirasiga kiritadilar. O'z nutqini nazm bilan ifodalay oladigan kishi nozim deyiladi. Nozimlik xususiyatigagina ega bo'lgan kimsani shoir deb bo'lmaydi. Nozim shoir darajasiga ko'tarilishi uchun, birinchidan, zavq egasi bo'lishi lozim, ikkinchidan, o'z zavqini san'atkorona ifodalay bilishi kerak. She'r shoirning "dardi"ni o'zgalarga bildirishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Ammo ma'no ahliga mansub sog'lom zavqli shoirning bu dardi xalq dardidan iborat va inson manfaatiga qaratilgan bo'ladi. Har qanday mehnat samarasi singari shoir ijodining natijasi – badiiy asar ham xalq uchun foydali bo'lishi kerak. Badiiy asarning elga beradigan fayzi unga fitrat bilan badiiyat bag'ishlashdan iborat". Alibek Rustamov o'z mulohazalari davomida ijod namunasining g'oyaviy-badiiy qimmatini to'g'risida quyidagi fikrlarni ham bildiradi: "Inson kamolotga bilish va xayrli amal bilan erishgani uchun solim zavqli shoir tab'idan yaratilgan asar ma'rifiy, tarbiyaviy, va badiiy qiymatga ega bo'ladi. O'z navbatida solim shinavanda ham mana shu uch talabga javob berolmaydigan asardan qoniqmaydi. Asosan bilim tashnaligini asarning ma'rifiy tomoni qondiradi, amalda esa ezgu yo'lga solish vazifasini uning tarbiyaviy jihatida bajaradi va zavq talabiga uning badiiyati javob beradi".

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1991-1992.
2. Ботир Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
3. Белинский В.Г.. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбекистон, 1955.
4. Матёкуб Қўшжонов. Назарий лавҳалар. – Т.: Фан, 1980.

5. Матёкуб Қўшжонов. Ҳаёт ва нафосат. – Т., 1970.
6. Алийбек Рустамий. Сайланма. – Т.: Zilol buloq, 2022.
7. Тохир Шермуродов. Жозиб изҳор излаб. – Т., 2009.
8. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2000.
9. Абдулҳамид Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Т.: Шарқ, 2000.
10. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Т., 1992.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Abdulhamid Cho'lpon ijodining adabiy turlari va janrlarini tasniflang, "Kecha va kunduz" romanida epik va lirik tur aloqadorligining yaqqol sezilarli belgilarini aniqlang.
3. Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni" dramatik asarlarini o'qib, janrlariga oid xususiyatlarni yozib chiqing.

DARS REJASI:

- Aruz she'r tizimining o'ziga xosligi va qadimiyligi.
- Aruz ilmi taraqqiyotining muhim natijalari.
- Aruz va barmoq . Aruzga oid tushunchalar.
- She'r vaznini aniqlash usullari.

Aruz dunyodagi eng qadimiy she'r tizimlaridan biri bo'lib, uning boshlang'ich ildizlari arab xalqlarining ko'p asrlik o'tmishiga tutashib ketgan. So'nggi islomgacha bo'lgan arab olami voqeligida uning nufuzi juda baland kechgan. Unga inson madaniyatining bosh bir belgisi sifatida qaralgan. Boshqa tillar uchun ma'lum bir murakkablik xususiyatlari mavjud aruz islom bilan birgalikda ko'plab mintaqalar adabiyotiga kirib borgan. Aruziy ijodkorlik johiliyat davrlarida ham o'zining qat'iy qoidalariga, vazn talablariga rioya qilib kelgan. Aruziy she'r, asarlar bitishning qoidalarini bilish ehtiyoji u haqdagi ilmni ham vujudga keltirgan. Arab olimi Xalil ibn Ahmadning aruz ilmiga doir risolasi shunday ta'limiy kitoblardan biri bo'lgan.

Aruz arab madaniy-ma'rifiy olamida o'z mustahkam ishlangan talablariga ko'ra qanchalik musiqiy, jozibador, yetakchi usul bo'lmasin, hayotda johiliyatning kuchayishi barobarida islomgacha bo'lgan shoirlik ko'p hollarda maddohlik tusini olgan, tarafkashlik kurashlarida she'r hujum qurollaridan biriga aylangan. Shoirlikning og'ishuv yo'llariga islom ta'limotlari barham berdi.

O'rta asrlarda turkiy xalqlardan yetishib chiqqan Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino singari allomalar asarlarida ham arab aruziy she'riyatining islomdan avvalgi va keyingi mazmuniga qaratilgan tahlillarga, aruz qoidalarining tavsiflariga guvoh bo'lamiz. Forsiy va turkiy xalqlar ijodiyotiga aruz she'r tizimining hamda ilmi

aruzning kirib kelishi, ommalashuvi ana shu davrlarning olimlari, ijodkorlari nomlari bilan bog'liq. Ularning barchasi o'z davrining qator diniy va dunyoviy ilm-fanlari olimlari bo'lish bilan birga, adabiy ijod va uning ilmi sohiblari ham bo'lishgan.

O'zbek aruzshunosligi tarixida bevosita vazn o'lchovlariga bag'ishlangan asarlar sirasida ayniqsa Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Sayfiy Buxoriyning "Mezon ul-ash'or", Zahiriddin Muhammad Boburning "Risolai aruz" asarlari mashhur qo'llanmalar bo'lib kelgan. Navoiy o'zbek adabiyotshunosligi tarixida birinchi bo'lib aruz va uning qonun-qoidalarini ilmiy asosda maxsus kitob qildi. Navoiy arab, fors olimlarining aruz faniga doir risolalaridan to'la xabardor edi. Ularni o'z asarida tilga oladi va turkiy adabiyotning bu sohadagi ehtiyojini quyidagicha ifodalaydi: "G'araz bu maqolotdin va maqsad bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim, nazm voqe' bo'lubtur, anga zobitae va qonune yo'q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolae bitmaydur...bu sababdin bu ilm zobitasig'a qalam suruldi".

She'r ilmi adabiyotshunosligimiz tarixida turlicha nomlar ("nazm qoidalari", "ilm ash-she'r"...) bilan atalib, uning asosida hamisha she'riyatdagi vaznlar masalasi, ayniqsa aruz ilmi qoidalari yetakchi mavqe kasb etgan, ilmiy o'rganilgan. Xalq she'riy ijodida va qisman yozma adabiyotda namoyon bo'lib kelgan, chinakam o'lchov hisoblanmish aruzga muvofiq kelmagan she'rlar esa **vaznsiz she'rlar, hijo (bo'gin) vazni** deb hisoblangan. Bunday she'rlar keyinchalik, ya'ni, ularning aruzga daxli yo'qligi ko'proq anglashilgach, "hijo vazni", "barmoq vazni" nomi bilan atala boshlangan. Shu tariqa hozirgacha o'zbek she'riyatida ikki asosiy vazn tizimi mavjud: **barmoq vazni tizimi, aruz vazni tizimi**. Keyingi asrda barmoq vaznining mavqei juda oshdi, mustabidlik siyosatining tazyiqi, ijodkorlarning aruz ilmidan uzoqlashuvi singari sabablarga ko'ra aruziy ijodlar, asarlar kamaydi. Aruzga ehtirom va uning yuksak mahoratga eltuvchi ilmiy imkoniyatlariga nisbatan hayratlar esa saqlanib turdi. Bu davrda kam sonli shoirlar aruzda ijod qildi.

Har ikki vazn sistemasi ham so'zni, inversiyali gapni o'lchash vositasi – birligi sifatida "hijo"ga, "bo'g'in"ga tayanadi. Bugungi kunda "hijo"

atamasi mohiyatan “bo‘g‘in” tushunchasidan farqlanadi va mazkur atamalarning biri aruzga, ikkinchisi barmoqqa tegishli qo‘llaniladi.

Mabodo hijo va bo‘g‘in aynan bir xil hodisalar sifatida xato hislansa, barmoq vaznidagi so‘z va gaplarni o‘lchash aruzdagi hijo miqdori o‘lchanishi bilan farqlanmasdek tuyuladi. Hijo va bo‘g‘inda jiddiy farqlanish borligi bois she‘riy misralarning hijo-bo‘g‘in sanog‘ining belgilanishida ham ikki she‘riy tizim bir-biridan boshqacha. Shuningdek, bugunning imlosi va talaffuzi ham o‘zgacha. Ammo barmoq va aruz o‘rtasidagi asl, katta tafovut ularning o‘zga bir xosligida ko‘zga tashlanadi. Professor Fitrat shunday yozadi: “Asil ayirma hijolarning kayfiyatlarini nazar etiborga olib-olmaslikdadir”.

Ikki vaznning bir-biridan farqlanishini tushunish ham, har birining o‘ziga xos o‘lchov-xususiyatlarini idrok qilish ham, darhaqiqat, hijo yoxud bo‘g‘inning sifat jihatiga e‘tibor qaratilishi yoki qaratilmasligini anglashdan boshlanadi.

Bugungi o‘quvchi, adabiyot muxlisi aruzni o‘rganmoq istasa, bu masalaga kirishishni barmoq vazni xosliklari bilan, bo‘g‘in va hijo mohiyati bilan tanishishdan boshlagani ma‘qul. Negaki, ommaviy she‘riyati aruzdan, adabiyotining o‘rgatilayotgan ilmi aruzshunoslikdan anchayin bebahra bo‘lgan, barmoq vazni ijodlari ustuvor odimlayotgan davr o‘quvchisi uchun oson anglashiladigan bilimdan bilmaganini o‘rganish sari borish talab etiladi.

Barmoq vaznida bo‘g‘inlar sanog‘ini hisoblash va she‘r mobaynida misralardagi ular muvofiqligini ta‘minlash jarayonini shu vazndagi istalgan she‘r misolida tekshirib, bilib olish mumkin. Barmoq misralarida bo‘g‘inlarning guruhlashib turoqlanishi ancha oson, sodda bo‘lib, turoq aruzdagi rukn bilan vazifadoshdir. Turoq va ruknda shaklan, miqdoran o‘ziga xosliklar bor. Lekin ruknni o‘rganish zaruriyatini turoq orqali yoki ikkalasining qiyoslanishi orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Men ham yashayapman o‘z zamonimda,	11 bo‘g‘in (6+5)
Davrimdan qayga ham ketardim yiroq.	11 bo‘g‘in (6+5)
Va lekin bilmadim mening qonimda,	11 bo‘g‘in (6+5)
Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq.	11 bo‘g‘in (6+5)

(A. Oripov, “Genetika”)

O'zbek aruzini o'rganish uchun qadim arab aruzining she'riyatimizga kirib kelishi, arab aruzshunosligi ma'lumotlari, aruzga doir ilmiy-nazariy manbalar, shuningdek, davr va lisoniy sabablarga ko'ra arab, fors, o'zbek aruzlarining ma'lum darajalarda farqlanishi kabi masalalarni muayyan darajada o'rganish foydadan xoli emas.

Ma'lumki, bo'g'inlarga ajratish talaffuzdagi bir nafas chiqarish bilan hosil bo'ladigan to'xtashni hisobga olish bilan, shu to'xtashlar oralig'idagi tovush yoxud tovushlar birikmasini yozuvda ham xuddi shunday ifodalash mumkinligi bilan amalga oshadi. Demak, bo'g'inga ajratishda talaffuz ham, yozilish ham teng qimmatli va o'zaro muvofiq. Hijoning bosh xususiyati va bo'g'indan asosiy farqi shundaki, u muayyan vazndagi o'qilishning taqozosiga ko'ra ajratiladi. Barmoqqa xos bo'lgan ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in degan bo'linishlar aruzdagi hijo o'lchovida o'z mavqeini yo'qotib qo'yishi mumkin, ya'ni, yopiq bo'g'in ochiq bo'g'inga (hijoga) aylanib qolishi mumkin. Quyidagi so'zlarning har biri bir bo'g'in sanaladi, hijo sifatida esa o'ta cho'ziq va har biri cho'ziq hamda qisqa hijolardan tashkil topgandir:

Yoz → yoo-z She'r → shee-r

~ — V ~ — V

Yor → yoo-r Ishq → ii-shq Do'st → do'o'-st

~ — V ~ — V ~ — V

Hijo uch xil: qisqa (V), cho'ziq (—), o'ta cho'ziq (~ — misra oxirida).

1. Qisqa hijo.

Bir qisqa unli (cho'zg'i): i, a, u

u (mid), a (hil), u (ka), a (ka), i (dish)

Unli (cho'zg'i): ki, du, ba

ki (tob), ba (hor)

2. Cho'ziq hijo (to'liq hijo).

Bir cho'ziq unli (uzun cho'zg'i): i, a, u

Cho'ziq unli bilan tugagan ochiq hijo — ba, ra, ta

Qisqa unlisi bor yopiq hijo — dar, bar, sar, mur.

Ochiq cho'ziq — do-no, ze-bo, ma'-no.

Yopiq cho'ziq — gul-shan, dil-bar, jan-nat, mak-tab.

3. O'ta cho'ziq hijo.

Tarkibida cho'ziq unli kelgan yopiq hijo: δ , u, o', i, e (a – kam uchraydi): bog', dog', zor, hur, dur, nur.

Qo'sh undosh bilan tugagan yopiq hijo: subh, ayt, mast, do'st, ishq, zuhd

O'zbek aruzi fonetikasi: hijolarning tuzilishi va turlari, hijolardan asl ruknlar hamda tarmoq ruknlar – ritmik bo'laklarning hosil bo'lishi, asl va tarmoq ruknlarning turlicha muvofiqlikdagi takrorlaridan bahrlarning tashkil topishi, shu jarayondagi zihof (lug'aviy ma'nosi "sonning go'shtsiz bo'lib qolishi") – o'zgarishlarning sodir bo'lishi kabilar o'ziga xosliklarga ega, ya'ni arab, fors aruzlariga hamisha ham to'g'ri kelavermaydi.

O'zbek aruzida 19 bahrning 11 tasi bor: hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzori', mujtas, hafif, sari', muta'qorib, mutadorik, komil.

Arab she'riyatidagi vofir, tavi, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, muqtazab bahrlar she'riyatimizda qo'llanmaydi.

Biron bayt, yaxshisi va ko'pincha matla' hijolari kayfiyati aniqlanib, chizmasi chizilib, ritmik bo'laklarga – ruknlarga (asl yoki tarmoq ruknlarga) ajratiladi. Rukn ("ustun") – kichik ritmik bo'lakdir. Baytlar 4 tadan 36 tagacha rukndan tashkil topishi mumkin.

4 ruknli – murabba',

6 ruknli – musaddas,

8 ruknli – musamman...

12 tadan oshgani (16, 20, 30, 36) mutavval (ko'p ruknli) deb aytiladi.

Ruknlar baytdagi o'rniga ko'ra nomlanadi. Masalan:

sadr (rais – boshliq) – hashv – hashv – aruz

ibtido (boshlanish) – hashv – hashv – zarb

Asl (afoylu tafoyl, avzoni mavozin) ruknlar 8 ta (10 ta ham deyishadi):

fa'ulun V— —, fo'ilun —V—, mafo'iylun V— — —, fo'ilotun —
V— —, mustaf'ilun — —V—, maf'ulotu — — —V, mutafo'ilun VV—
V—, fo'ilatun V—VV—.

Shulardan beshtasi o'zbek she'riyatida keng qo'llanilgan:...

I. Faulun asli, tarmoqlari:

Faulun V — — solim

Faol V — mahzuf

Faul V ~ maqsur

Faulu V — V maqbuz

Fa'lun — — aslam

II. Mafoiylun asli, tarmoqlari:

Mafoiylun V — — — solim

Mafoiylon V — — ~ musabbag'

Mafoilun V — V — mag'buz

Mafoiylu V — — V makfuf

Mafoiyl V — ~ maqsur

Maf'ulun — — — axram

Faulun V — — mahzuf

Foilun — V — ashtar

Maf'ulu — — V axrab

Faal V — ajabb

Faul V ~ axtam

Fa' — abtar

Fo' ~ azall

III. Foilotun asli, tarmoqlari:

Foilotun — V — — solim

Foiliyion — V — ~ musabbagʻ

Foilotu — V — V makfuf

Failotun V V — — maxbun

Failotu V V — V mashkul

Foilun — V — mahzuf

Foilon — V ~ maqsur

Faʼlun — — maqtuʼ

Faʼlon — ~ maqtuʼi musabbagʻ

Failun V V — maxbuni mahzuf

Failon V V ~ maxbuni maqsur

IV. Mustafʼilun asli, tarmoqlari:

Mustafʼilun — — V — solim

Mustafʼilon — — V ~ muzol

Muftailun — V V — matviy

Mafoilun V — V — maxbun

Mafoilon V — V ~ maxbuni muzol

V. Mafʼulotu tarmoqlari:

Foilun — V — matviyi makshuf

Foilon — — V ~ matviyi mavquf

She'riyatimizda ana shu asl ruknlar va ularning tarmoqlaridan ko'p foydalanilgan, ularning turlicha takrorlaridan **9 asosiy mashhur bahrlar** paydo bo'ladi:

- **Mutaqorib** — faulun asli va tarmoqlari
- **Hazaj** — mafoiylun asli va tarmoqlari
- **Ramal** — foilotun asli va tarmoqlari
- **Rajaz** — mustaf'ilun asli va tarmoqlari
- **Muzore'** — mafoiylun va foilotun
- **Xafif** — foilotun va mustaf'ilun
- **Mujtass** — mustaf'ilun va foilotun
- **Munsarih va sari'** — mustaf'ilun, maf'ulotu

Surmadin ko'z|lar qaro, qo'l|lar xinodin | lolarang

— V — — | — V — — | — V — — | — V —

G'ozadin yuz|larda tobu | o'smadin qosh|lar tarang

— V — — | — V — — | — V — — | — V —

O'lchovlar natijasidan xulosa – vaznning nomlanishi kelib chiqadi: baytda asosiy asl ruknlar failotun bo'lgani bois bahr ismi – ramal; baytda ruknlar soni 8 ta bo'lgani bois – musamman; oxirgi rukn asl rukn emas, uning bir tarmogi bo'lgani bois tarmoqning ismi mahzuf – g'azal vazni nomi – Ramali musammanni mahzuf. Demakki, she'r vaznini aniqlashda bir necha tartibli izlanishlar olib borishga to'g'ri keladi. Xususan, quyidagilar muhim: hijolarning sifati aniqlanib (vaznni aniqlash ishida hijolar sifatini aniqlash eng qiyin, ilmtalab, zakiyliktalab jarayon bo'lib, bunda qisqa, cho'ziq, o'ta cho'ziqlik holatlarini bexato belgilash taqozo qilinadi), "hijolar sifati chizmasi" chiziladi va ruknlarga ajratiladi; baytning necha rukn ekanligi sanaladi (masalan, bayt olti rukn ekan, musaddas=3+3); bayt ruknlari tarkibi – sifati tekshirilib, chizmadan ko'rin-

gan muvofiq nomlari belgilanadi. Xuddi shu oxirgi hal qiluvchi – vaznga nom qo'yiluvchi holatda shunga amal qilish kerakki, agar bayt faqat asllardan iborat bo'lsa, "solim" atamasi qo'llaniladi, agar bayt asllardan tashqari muayyan tarmoqdan ham iborat bo'lsa, o'sha tarmoqning maxsus nomi ham "solim" atamasi o'rnida qayd etiladi. Agar baytda asllar va tarmoqlar aralash bo'lsa, "solim" atamasini qo'llash shart bo'lmaydi. Unutmaslik lozimki, asar hech qachon bir necha bahrda yozilmaydi. Deyarli barcha aruziy asarlar bir bahrda yoziladi. Ammo ikki vaznda yozilganlari ham ba'zan uchraydi. Bunda ko'pincha ikkinchi, ya'ni qo'shimcha vaznning oxirgi hijosi farqlanishi mumkin.

"Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lmoq, har bir ijodkor qalamining badiiy salohiyatini anglab yetmoq, she'rlarga xos nafis ohanglarni ham, so'z san'atining betakror nazokat-u latofatini ham his etmoq uchun ushbu bezavol obidalarga asos bo'lgan aruz she'riy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidalari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor bo'lmoq talab etiladi" (aruzshunos Anvar Hojiahmedov).

Shunday qilib, turli janrga mansub aruziy asarlar vazni tahlili-tadqiqiga kirishib boriladi. Tajriba jarayoni barcha xos tushunchalar mohiyatini, shunga doir bilimlarni mustahkamlab borishni talab etadi. Hozirgi o'zbek maorifida vaznlarni aniqlab berish talabi esa har qanday ixlosmandlar, o'quvchilar, soha oliygohlariga kiruvchilar uchun bir xil. O'quvchida bu mavzu bo'yicha yetarli tasavvur, malaka, ko'nikmalar hosil qildirish deyarli hamma yo'nalishdagi adabiyot saboqlarining, soha o'qituvchilarining muhim vazifasidir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 14 том. – Т., 1967.
2. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Т., 1985.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т.: Фан, 1971.
4. Зайниддин Восифий. Бадое ул вақое. – Т., 1979.
5. Саидбек Ҳасанов. Бобурнинг Аруз рисоласи асари. – Т.: Фан, 1981.
6. Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995.

7. Анвар Ҳожнаҳмедов. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998.
8. Анвар Ҳожнаҳмедов. Мумтоз бадият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1994.
10. Ботирхон Акрам. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони. – Т.: Ўзбекистон, 1991.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishish, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatidan uch g'azal va besh ruboiy vaznini aniqlang.
3. O'zbek aruzi lug'ati bo'yicha daftar tuting va yuzta aruziy atamalarni ta'rifi bilan qayd eting.

DARS REJASI:

- Badiiy asar – adabiy ijodning mavjudlik sharti.
- Badiiy asar – ma'naviy-ma'rifiy muloqot omili.
- Mavzu tushunchasi. Sobit, barqaror mavzular.
- G'oya va g'oyaviylikning adabiy-estetik nufuzi.
- Badiiy-axloqiy taassurot va g'oyaviy-adabiy hukmlar.

“Asar” so‘zi ijod olamida keng ma’noli umumlashtiruvchi tushunchadir. Insonning narsa-hodisalarga, tashqi va ichki voqeliklarga ijodkorona yondashib, ular mohiyati talqiniga doir qilgan yangilik muddaosi, da’vosidagi ishining mahsuli, namunasi asar deyiladi. Olimlarning ilmiy izlanishlari natijasi, kashfi, turli san’atlar, hunarlar vakillarining ijod namunalari ham shu so‘z bilan ifodalanadi. Ayni so‘z qo‘llanilganda ijod, san’at, badiiyat, jozibadorlik ma’nolari ham his qilinadi. Demak, asar deganda yaratilgan namunaning umumlashgan nomi anglashiladi va u ijod mahsulining turi, janri, biror sifatini idrok etdirmaydi.

“Badiiy asar” birikmasida so‘z san’ati yo‘nalishida yaratilgan ijod namunasini anglash, anglatish ma’nosi ustuvor. Zotan, badiiy asar adabiy ijodchining muayyan mavzu, masalada olib borgan san’atkorona faoliyatining tugallangan bir namunasidir. U shoir, yozuvchi, dramaturgning – asar bituvchining hayot, ruhoniyyat materiali asosida olib borgan, g’oyaviy-estetik mushohadasi, taammuli, taassuroti, tasavvuri kabilardan hosil bo‘lgan, ularni qayta ishlab, badiiyat vositalari yordamida ziynatlab o‘zgalar e’tiboriga havola etgan ishdir. Uning butun tasviroti, asarining barcha unsurlari endi badiiy asar tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Badiiy asar adabiyotda ham ijodchilikning namoyan bo‘lish, mavjudlik ko‘rinishi, shakli, vositasidir. Ayni vaqtda uning mavjudlik

sharti, mavjudlik dalili hamdir. Badiiy asar adabiyot olamining vakili sifatida bu olamda kechayotgan tafakkur tarzini, qalbiy hodisalarni, mahorat darajalarini, an'anaviylik hamda zamonaviy adabiy taraqqiy alomatlarini o'zida mujassam qiladi. U ko'pchilikka qaratilganlik xossasi bilan ham xarakterlanadi. O'zi bir tomon, ko'pchilik bir tomon bo'lib, badiiy asar hammaga muloqot eshigini ochadi. Bu muloqot hayotiy jarayonda aynan shunday boshqa shakli yo'q bo'lgan suhbatlashuv imkoniyatidir. Badiiy asar "nutqi" tugallangan holda muloqotda qatnashadi. Uning badiiy talqinidagi hamma narsaga oid munosabat egasi o'quvchi bo'lib qoladi.

Badiiy asar o'quvchiga ulashadigan mazmun o'z ichida xilma-xil **g'oyaviy-estetik maqsadlar** turkumini jamlashi mumkin. Ularda ma'lum bir unutilmas zavq berish, mulohazaga yo'naltirish, chuqur tafakkur tomon boshlash, ogohlikka chorlash, dard-hasrat bayoni orqali hamdardlikni barpo qilish, muayyan haqiqatlarni ta'sirchan ochiqlash kabi **falsafiy-estetik niyatlar** mavjud bo'ladi. Insoniy har qanday hol-holatlardan, qiziqishlar, g'ussay-u dard-tashvishlardan, shular qatorida taskinbaxsh va umidbaxsh, qarashlarini o'stiruvchi va boyituvchi manbalarga ehtiyojmandlikdan boshqalar ham xoli emas. Shu singari ruhoniyma'naviy ehtiyojlar inson sof fitratiga xos tabiiy mayllar bo'lib, o'z egasini jozibali san'at – badiiy adabiyot bilan bog'laydi.

Chinakam so'z san'ati talablarining avvalida badiiy asar vositasida inson ma'naviy dunyosini, uning diniy-ruhoniylarini boyitish, uni ikki dunyo saodatiga erishtiruvchi amallarga chorlash, badiiy so'z ta'siri orqali o'zga xatarli yo'llardan, tushkunlik, shirk keltirib yashashdan muhofazalash turadi. Bunday ulug'vorlik esa, ijodkordan katta diniy-dunyoviy dunyoqarash hamda favqulodda mahoratni taqozo etadi.

Badiiy asarning turli-tuman xususiyatlaridagi muvaffaqiyatlarga hamda o'quvchining qalbiy, shuuriy holati, estetik didi, mantiqiy saviyasi, farosat darajasiga bog'liq holda asar va o'quvchi muloqotidan ma'lum bir ta'sirchanlik, muayyan muammo-masalada qaysidir tomonga chorlovlanish muhiti hosil bo'ladi. Bu – badiiy asarda **g'oyaviylik** ruhining muqarrar ravishda bo'lishiga dalolatdir. G'oyaviylik mazkur ma'naviy muhitning yo'lboshchisi, hukmroniga aylanadi. Uning zamirida

nimanidir inkor etish, nimagadir hamdardlik, xayrixohlik, nimadandir tiyilish, qaysidir tomonga intilish maqsadining hosil bo'lishi bor. Hayotning o'zidagi singari adabiy namuna ham ravshan yoxud yashirin g'oyaviylik dialektikasidan xoli bo'la olmaydi. Faqat bundagi g'oyaviylik hayot materialining ijodkorona qayta tartiblashtirilgan, badiiy bo'yoqlar berilgan, har jihatiga ko'ra pardoqlangan, bir so'z bilan aytganda, badiylashtirilgan g'oyaviylikdir.

Badiiy asar g'oyasi, uning bosh g'oya atrofida uyushgan g'oyachalari jamuljam holatda bo'lgan umumiy g'oyaviylik tushunchasi sifatida anglashiladi va ularning hammasi bosh g'oyaga bo'ysundirilgan, jipslashgan, hammasi badiiy tusli bo'ladi. Ular milliy, ayni choqda, umuminsoniy ezgulik mezonlari doirasida xolisona bo'lishi, asl hikmatlar bilan yo'g'rilishi, botil – aldovchi so'zdan, adashtiruvchi talqindan musaffo, fahshlardan xoli bo'lmog'i kerak.

Arab, fors, turk adabiyotlarida, jumladan, o'zbek she'riyati, nasri, pandnomalarida eng qadimgi davrlardan boshlab g'oya ahamiyatiga juda katta falsafiy-estetik e'tibor qaratilgan. Biroq u hamma vaqt "**niyat**", "**maqsad**", "**g'araz**" singari so'zlar bilan ifoda etilgan. Ta'limotiy asoslariga ko'ra, mazkur so'zlar va ularning ma'naviy quvvatlari qur'oniylar, hadislar, ko'rsatmalarga borib bog'lanadi va ijodlarda niyatni (g'oyani) to'g'ri belgilash, Alloh o'rgatganidek pok, xolis, adolatli qilish shior qilinadi. Joiz topilsa, asarni yozishdan murod-maqsad muallifning o'zi tomonidan ochiq-oydin bayon qilinadi.

Badiiy g'oya butun badiiy tasvir mobaynida vujudga kelgan xulosalarning majmui, **badiiy hukm** kabidir. Shu ma'noda u ulug'vor sifatli bo'lishi joiz. Ulug'vorlikni ta'min etuvshi asoslardan biri mavzudir. **Mavzu** ijtimoiy-madaniy, milliy-mahalliy, g'oyaviy-siyosiy, diniy-ilohiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotdan, odamlarning dunyoqarashi, o'y-xayollari, tafakkur manzaralaridan tanlab olingan, ijodiy maqsadga yo'naltirilgan hayot materiali bo'lib, ma'lum bir so'z yoki so'zlar bilan **sarlavhalanadi**. Asar mavzusini sarlavhalashda **bosh mavzu** va **bosh g'oyaning** roli muhim o'rin tutadi, shularga katta ahamiyat beriladi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani so'zboshisidagi quyidagi fikrlari ham sarlavha qo'yishning, ham hayot materialidan voqea-hodisa,

qahramonlar tanlashning, ham goyabiy-badiiy yo'nalishni belgilashning eng yorqin va ibratli misolidir:

“Yozmoqg'a niyatlanganim ushbu “O'tkan kunlar” yangi zamon ro'monchilig'i bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong'a chiqishi, ahllarining yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim.

Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi “xon zamonlari” dan belguladim. Abdulla Qodiriy (Julqunboy)”.

Bu mashhur debocha parchasida buyuk adibga xos beg'ubor kamtarinlikning, asl e'tiqodiy va ulkan adabiy salohiyat bilan yetishib chiqajak kelajak avlod adiblarga bo'lgan umidvorlikning ifodasi ham mujassam.

Toki bu dunyo hayoti, aziz va mukarram qilingan inson zoti, uning onglilik degan ulug'liligi, murakkab ruhoniylati, ilohiyatga munosabati, uning Allohni tanishi va oxirat hayotini bu dunyodan ustun qo'yish hissi bor ekan, u bilan bog'liq hamma voqelik, ma'naviy-ma'rifiy jarayon, xayrixohlik, raddiya, ezgulik, yovuzlik, sadoqat yo xoinlik kabi hayotning bacha materiallari adabiyot uchun **abadiy mavzular** bo'lib qolaveradi.

Mashhur avar shoiri Rasul Hamzatov “Mening Dog'istonim” nomli nasriy kitobida shunday yozadi: “Mavzu – xazina solingan sandiq. Bu sandiqning kaliti – so'z. Ammo sandiqdagi xazina birovniki emas, o'zingniki bo'lishi kerak”. Hamzatov mavzuning ham izlanish, mehnat, halollik talab qilishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Mavzu o'lgan baliqqa o'xshab, suvning yuzida teskari holda qalqib turmaydi. U tirik baliqday suvning tubida, tezoqar joyida, eng tiniq suvda, girdobida. Sen uni joyida ushla, girdobdan, sharshara ostidan ushlab ol. Axir, og'ir mehnat qilib topilgan pul bilan ko'chadan topib olingan pulning o'rtasida farq bor-ku”.

Jahon falsafiy, etik-estetik, logik (mantiqiy), filologik, jumladan, adabiyotshunoslik ilmlarida badiiy ijodlarga oid **"ilhom"** tushunchasi borasida doimo huda-behuda bahslar, munozaralar ko'p. Uning behudaligi shundaki, munosabatchilar ko'p hollarda bu hodisani faqat ijodga moyil odamlar ruhiyati bilangina bog'lab tasavvur qiladilar va ilohiy ta'limotning xabarlari, o'g'itlari bilan hisoblashmaydilar. "Vahiy" tushunchasi arab tiliga mansub so'z bo'lib, tushmoq, inmoq, ilohan yuborilayotgan narsa, xabar ma'nolarini bildiradi. Barcha payg'ambarlarga nozil qilingan amrlar, mo'jizalar, sahifalar, kitoblar vahiy yo'li bilan kelgan deb tushuniladi va bunga shak yo'q. Biroq vahiylikning ilohiy ulkan qonuniyat, cheksiz va muntazam, zarradan tortib eng ulkan jismlargacha – hamma-hamma narsani ihota qilgan, qurshagan jarayon, hodisa, tiriklikning manbai ekanligi idroklardan chetda qolgani uchun **"ilhom"** hodisasining ta'rifi, talqini noto'g'ri yuzaga chiqib qolgan. Holbuki, butun olamlar vahiy (ilhom) bilan tirikdir. Vahiy ko'tarilsa, dunyo tugaydi. Butun olamlar vahiy bilan qurshalgan, ilohdan bo'lmagan yaxshilik va yomonlikning o'zi yo'q, shuningdek, bularning barchasi hikmat bilandir.

Shunday ekan, oddiy, ijodkorlik maylidan uzoq kishining ham hayoti, ongi, o'y-xayoli, his-tuyg'usi, kechinmalari bu jarayondan mosuvo emas, ilohiy tasarruf ichidadir. Ijodkorliklarga xos ilhom (vahiy) o'ta mahfiy, o'ta ajablanarli hodisa emas. U ijodga ayricha salohiyatli inson ruhiyatining o'zgalardan balandroq, jo'shqin darajadagi qalbiy holatidir. Ilhomiy holat bilan boshlangan ishning ham naqadar mehnattalab ekani borasida esa odatda hech kim bahs olib bormaydi. Chunki adabiy asar yozilishining ham hamma ishlar singari bezahmat bo'lmasligi yaxshi ma'lum.

Islom ta'limotlari bu kabi ruhoniylar ma'naviy jarayonlarning, xususan, ilhomiy hollarning ham inson tomonidan tasarruf etilish yo'l-yo'riqlarini, odob-axloqini, tadbirlarini, inson aldanishi mumkin bo'lgan bu ruhiy jarayondagi shaytoniy vasvasalardan muhafazakorlik usullarini ham o'rgatadi. Sharq adabiyotshunosligining ilmi adab, tazkiranavislik, ilmi qofiya, ilmi bade' (badiiyat ilmi) singari sohalariga oid o'nlab manbalarida, jumladan, shoirlik tarbiyasi va ta'limiga bag'ishlangan Nizomiy Aruziy Samarqandiyning **"Chahor maqola"** – **"Majmua un-**

havodir” (to’rt maqola, nodir hikoyatlar, 12-asrning o’rtalari) kabi kitoblarda shunday adabiy-nazariy nasihatlar aks etgan.

Badiiy asar o’zining mavzu, g’oya, ilhom, sarlavha, badiiyat singari talablari bilan birgalikda adabiyotshunoslikdagi barcha tushunchalar mas’uliyatiga chambarchas bog’lanib ketganki, ijodkor zimmasida hammasining oqilona majburiyati, mas’uliyati turadi. So’z san’ati maqsadi va vazifalarining haq ta’limotga muvofiq ado etilishigina o’zini mangulikka daxldor oqlaydi. Negaki, yuzaga chiqqan har qanday ilmiy yoki badiiy bitik endi muqarrar ilohiy hisob-kitobi bor amal hisoblanadi. O’zbek mumtoz adabiyotining barcha vakillari, jumladan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Qodiriy, Avloniy, Fitrat, Cho’lpon singari adiblari badiiy asar mas’uliyatini shunday e’tiqodiy his etib ijod qilishgan. Ularning o’z asarlarida ijodning imoniy mas’uliyati haqidagi fikr-mulohazalari ko’p o’rinlarda bayon qilingan.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.
4. Абдуқодир Ҳайитметов. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т.: Фан, 1959.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойи ус-санойи. – Т., 1981.
6. Умарали Норматов. Қодирий мўъжизаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
7. Расул Ҳамзатов. Танланган асарлар. – Т.: Adabiyot, 2024.
8. Тоҳир Шермуродов. Жозиб изҳор излаб. – Т., 2009.
9. Исажон Султон насри бадиияти. – Т.: Turon zamin ziyo, 2017.
10. Одил Ёкубов. Сайланма. 3 жилдлик. – Т., 1986-1987.
11. Абдулла Орипов. Йиллар армони. – Т., 1984.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma’lumotlarni o’zlashtiring.

2. Odil Yoqubov romanlarining mavzu va g'oyalari haqida maqola tayyorlang.

3. Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal" dostonlari mavzu va g'oyasini aniqlang.

DARS REJASI:

- Ijodiy metodlarning umumiylik xususiyati.
- Adabiy oqimlar xilma-xilligi.
- Uslub, o'ziga xos va betaqlid uslubning taqozaviyligi.
- Ijodda adabiy usullarning nufuzi va ahamiyati.
- Tafakkur tarzlari – uslub va usullar asosi.

Adabiy ijodni qaysi masala, muammo jihatidan o'rganilmasin, ilmiy tadqiqatlar qanday qarashlar asosida olib borilmasin, bu san'atning o'zi ham, uning ilmlari ham sohalarni g'oyaviy-badiiy insonshunoslik degan xulosaga olib boradi. Shuning uchun ham insoniyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlari, hamma el-yurtlar ijodchilarining bitiglarida umumiylik xususiyati doimo barqaror bo'lib turadi. Barcha adabiyotlarning mohiyati, maqsad-vazifalari zamirida o'z-o'zidan insonshunoslik turgani bois ular faoliyatida umumsifatlar, tabiiy xususiyatlar bo'ladi.

Umumiylik obrazlilik (badiiylik)dagina emas, demak, fikrlash, mushohadalash tarzlarida ham namoyon bo'lar ekan. Inson zoti borki, boshqa insonlarga ato etilgan hislar, hayratlar, xohish-mayllardan, hayotiy qodirlik, ojizlik, huzur, mashaqqatdan mosuvo emas. Insoniyatdagi shu kabi umumne'matlar o'zga sohalarda bo'lganidek, ijodchilik tarzlari va natijalarida ham tabiiy o'xshashliklar, yakdilliklarni keltirib chiqaradi. *Ijodiy metodlar* mohiyatan umumga, ko'pchilikka xoslikning ijod olamlaridagi ko'rinishlaridir.

G'arb adabiyotshunosligida ko'p asrlardan buyon ijodiy metodlar sifatida qaraladigan, ular tarixida har biri turlicha bosqichlarni bosib o'tgan *romantizm*, *realizm* aslida boshqa mintaqalarning ijodkorlariga yot narsalar emas. Chunki ularning asoslari inson mohiyati, tabiati, ruhoniyaatining

o'ziga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, hayotda hamma narsaning ziddi, qarama-qarshi tomoni bor. Barcha tushunchalar o'zlariga teskari sheriklariga ega. Bu biri orqali boshqasini teran anglash, qaysidir birining qadriga yetish omili hamdir. Yaxshilik va yomonlik, mehribonlik va zulmkorlik, sahiylik va xasislik, umidvorlik va tushkunlik singari o'zaro zid ma'noli tushunchalarning adog'i yo'q. Bu – ilohiy qonuniyat. Amaliy ko'rinib turgan borliqda, turmush muomala-munosabatlarida ham, ma'naviy, tafakkuriy jarayonlarda ham qarama-qarshilik ruhi sobit qilingan. Bu dialektik ikkilikni ikki tomonga ajratib, har taraf tushunchalarini yagona nom atrofida to'plab idrok etish tajribasi insoniyatda allaqachon bor, ya'ni bu – yaxshilik va yomonlik.

Hamma tafakkur tiplarining manbai ham moddiy-oshkora, ham shuuriy-pinhon ushbu hayotiy qonuniyatdir. Diqqatga sazovor joyi shundaki, yuqoridagidek umumlashtirilganda, ikki tafakkur tarzi miqyosi kengligi, tabiiyligi yuqori darajadaligi bilan inson ma'naviyatida yetakchi jarayon sifatida hamoyon bo'ladi.

Bulardan birini yaxshiliklar orzusi sari intilishda bo'lgan, hali hayotda to'la joriysini topmagan bo'lsa-da, bo'lishi mumkinligiga shubha qilmayotganlik tuyg'usi ustuvor poetik tafakkur tarzi, masalan, romantik mulahazakorlik, romantizm deb, ikkinchisini mavjud hayotning real, aniq voqeligi bilan badiiy "hisob-kitob" qilishga tarafdor, mavjud hayotning yaxshi tomonini e'tirof etib, yomon tomonlari, qusurlarini ayamay tanqid qilishga moyil poetik tafakkur tipi, masalan, real mulahazakorlik, *realistik* qarashli, yondashuvli tafakkur deb atasak bo'ladi.

Xulosa shuki, G'arb ijod dunyosida, adabiy-estetik ilmlarida romantizm, realizm deb ataladigan, ijodiy metodlar sifatida e'tirof etiladigan tushunchalar asli asoslari umuminsoniy bo'lgan, yashovchan, hayot va inson borki, turadigan tushunchalar hisoblanadi. Ilm-fanlarda ba'zan klassitsizm, modernizm, postmodernizm singari hodisalarni ham ijodiy metodlar tariqasida talqin etish hollari ham borki, bunday qarashlarga qo'shilib bo'lmaydi.

Negaki, ijodiy metod tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari bor, ular: har qanday makon va zamon adabiyotida, barcha xalqlar ijodchiligida tabiiy bardavom; asoslarining inson tafakkur tarzida tabiiy va doimiy

mavjudligi ularning alohida-alohida holda yoxud o'zaro mushtaraklashgan holda doimiy amaldaligi, sobit turish; boshqa shunga o'xshash tendensiyalarning esa hammani ergashtirishga qodir emasligi va ko'pincha vaqtinchaligi.

O'zga xilma-xil adabiy jarayon hodisalari mazkur sifatlarga ega emas. Ular odatda muayyan davr, hududlarda ro'y beradi. Lekin ulardan ma'lum bir yaxshi tajribalar, ibratlar, qolishi, shu jihatlari davomiylik kasb etishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. 17-asrda (Fransiyada) klassitsizm deb ataluvchi san'at harakat paydo bo'ldi. Bu uzoq davr tanazzulda bo'lgan Yevropaning san'at va adabiyotdagi uyg'onish tadbirlaridan biri edi. Adabiyot, san'at ahli sohalarning sha'ni, mavqeini yuksaklikka ko'taradigan yo'l izlashdi va to'g'ri yo'l ilinjida o'zlarining antik davri madaniyati, san'ati tajribalariga astoydil yuzlanishdi. Klassik donishmandlarining ijodga oid ko'rsatmalariga amalan asarlar yarata boshlashdi.

Klassitsizm deb atalgan bu ijodiy harakat boshqa mintaqalarga ham tez tarqaldi va uzoq muddat unga amal qilindi. Unda muhim, haqqoniy adabiy-esteik qoidalar bilan birga, ijod kishisining niyatidagi ba'zi rejalariga monelik qiluvchi, uni cheklab qo'yuvchi o'rgatqiqlar (masalan, vaqt birligi, syujet rivojini tavsiya qilingan, belgilangan muayyan muddatdan oshirmaslik) ham bor edi. Klassitsizm qoidalari shu davr adibi va adabiyotshunosi N. Bualoning she'riy shaklda yozgan "Poetik san'at" risolasida batafsil bayon etilgan.

Yevropa, Amerika, rus va boshqa mamlakatlar badiiy ijodchiligida, ularning sohaga oid ilmlarida bunday jarayonlar ko'p o'tdi. Simvolizm, naturalizm, futurizm, formalizm, abstraktsionizm kabi turli adabiyotlar, san'atlarda ma'lum muddat kechgan hodisalarni ijodiy metodlar sifatida talqin qilishlar ham bo'ldi. Hatto, ustuvor va og'ishmas ijodiy metodlar sanalmish romantizm, realizm tarixining o'z ichida ham bu diyorlar va sovet ittifoqi hamda unga strategik, mafkuraviy sherik Respublikalar xalqlari adabiyotlarida o'tkinchi adabiy-nazariy qoidalarni joriylash bosqichlari bo'ldi.

Yigirmanchi asrning 20-yillari o'rtalarida sho'rolar ittifoqidagi xalqlar adabiyoti ahli ikki toifaga ajralishni boshdan kechirdi. Mustamlakachilar

siyosati o'zlarining qulligidan norozi, xalqi, vataniga ozodlik istagan va to'g'ri ma'rifat tarqatib kelayotgan ziyolilarni avvalgidan ko'ra keskin ta'qib etishga, qatag'on qilishga kirishdi. Qolganlardan sovet adabiyotini shakllantira boshladi. 1934-yil adabiyotning realizm tamoyilini hiylakorona o'zgartirib, "sotsialistik realizm ijodiy metodi" degan siyosiylashgan qoidalar majmuini joriy qildi va adabiy ijodlarni uning talablariga tobelashtirdi.

Ulkan mamlakatning barcha milliy adabiyotlari asl e'tiqodiy g'oyalardan uzoqlashtirildi, dinlar qoralandi, sotsializm, kommunizm, kommunistik partiya to'xtovsiz sharaflandi. Leninnoma, stalinnoma, rus xalqiga qaratilgan "og'a"nomalar – madhiyanomalar adabiyotning eng yetakchi mavzulariga aylandi. Soxta, majburiy ijodiy metod adabiyotlarni o'z o'zanlaridan judo qilib, shirkka, yolg'onga, gunohlarga boshladi, ijodlar hamma vaqt siyosiy nazorat qilindi. Bu realizm belgilab bergan yo'l-yo'riq bo'yicha, o'tmish hayotlarimiz qashshoqlik, savodsizlik, boy-amaldorlarning tinimsiz zulmi ostida kechgan, yangi tuzum hammani teng huquqli, baxtiyor qildi, bunda adolatsizlik, jinoyat, nohaqlik aslo yo'q. Inqilobiy g'oyalar, amaliyotlarga hayotni ana shunday farovonlik tomon boshlaydi...

Adabiyotlar tarixida ro'y bergan va hozirgi zamonda ham ro'y berayotgan ijodiy metodiylikning bunday hodisalarini adabiy oqimlar sifatida qarash o'rinli bo'ladi. Bu munosabat mantiqan, ruhoniypsixologik, falsafiy jihatlariga ko'ra o'zini oqlaydi, ayni choqda, bu – mazkur oqimlarning ibratli tajribalarini, saboqlarini e'tirof etishni man qilmaydi.

Qator o'tgan adabiy oqimlarning ham o'z yo'llaridagi xatokorliklari ilohiy bilimlardan uzoqlashish, ular nasihatlariga rioyatsizlikka borib taqaladi. Bu sotsialistik realizm misolida ham ko'rildi. Islom ta'limotlari xudosizlik, shirk keltirish, maddohlikni la'natlaydi. Hamma narsaning tadbiri, yo'rig'ini, haddi, me'yorini o'rgatadi. Simvolizm ijodda ramziylik, majoziylikka, formalizm shaklbozlikka qattiq ruju qo'ydi. Boshda qiziqarli tuyulgan adabiy natijalari me'yordagi buzilishlar tufayli o'zini oqlamay qo'ydi.

Tabiiyki, ijodkorning tafakkur yo'nalishi qaysi ijodiy metodlarga, usullarga moyil bo'lishidan qat'i nazar, u mazkur alohida yoki uyg'unlashgan metodlar doirasida o'z individual, boshqalarga taqlid qilmagan, ularni takrorlamagan uslub bilan namoyon bo'lmog'i kerak bo'ladi. Adabiy ijodning muhim shartlaridan biri ham shu, shoir, yozuvchining ichdan ko'p orzulovchi dovoni ham shu bilan bog'liq. Uslubni ijodkorning o'zi yuzaga chiqaradi. Yozuvchining dunyoqarashi, hayotni qay tarz idroklashi, hayot materiallari ustidan qanday hukmlarga kelib yurishi, o'zgalar ahamiyat bermagan narsalardan ma'no-mazmun topishi, xayrixohligi, inkori, fantaziyasi, bilimi, adabiy-nazariy izlanishlari – hammasi uning xos uslubini ta'minlovchi omillardir.

Uslubni tor ma'noda tushunish ham bor. Bunda adabiyotning tasvir vositasi bo'lgan tilga, muallifning ifodalash manerasiga qarab uning uslubiga oid xulosalarga kelinadi. Holbuki, bu masala idrokining ko'p sonli tomonlaridan biri. Uslubni keng va chuqur mohiyati bilan anglamoq kerak bo'ladi. *Uslub – asar, asarlar muallifining real botiniy-zohiriy borlig'idan, didi, kechinmalaridan, tafakkurlash sifatidan, qalbidagi jarayonlardan ijodiga to'la yoki muayyan darajada ko'chgan o'zligi, qiyofasi.*

Albatta, tahlil, talqin, tanqid jarayonlarida, uslub muammosini maxsus tadqiq etishda ijodkor uslubini ta'min etgan hamma omillarini o'rganishga to'g'ri keladi. Ijodining namunalari bu jarayonda asosiy obyekt sanaladi. Uning uslubiga xos belgi-alomatlarni, fazilat-qusurlarni ham badiiy asarlarining o'zi taqdim etadi. Ayniqsa, boshqa ijodlar bilan qiyoslashlarda har ikki tomon o'ziga xosliklari ko'p qirralari bilan ravshanlashadi. Alisher Naboiy bilan Lutfiy yoki Atoiy nazmini, Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripov yoki Rauf Parfi she'riyatini, Shukur Xolmirzayev bilan O'tkir Hoshimov yoki Erkin A'zam, Nazar Eshonqul hikoyalarini uslub nuqtayi nazaridan qiyoslab ko'ring, har qaysi ijodkorning o'z tushuntirish manerasi, syujet unsurlarini odatda qanday joylashtirishi, mavzu talqiniga qaratilgan kayfiyati, salmoqdor epizodlarni, fikrlarni qachon havola etishi, ma'no tagiga yana qanday ma'nolar yuklashi, qahramonlariga zimdan munosabati, ularni sifatlashi, badiiy-psixologik talqini kabi o'nlab jihatlarida har biri farqlanuvchi tomonlari bilan anglashiladi.

“Bu kun, – deb yozgan edi Fitrat, – Elbek, Cho‘lpon, Botu, Qodiriy, Shokir Sulaymon kabi o‘zbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari albatta o‘zbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari o‘qulg‘anda ifodalarining bir-biridan o‘zgacharak bo‘lg‘ani ko‘runib turadir. Demak, bulardan har birining o‘ziga maxsus bir ifoda yo‘sini bor. Mana shul ifoda yo‘suniga uslub deyiladir”.

Demak, individual uslub hamma jihatlari bilan ijodkor shaxsning o‘z olamiga dahldor tushuncha. Uslubning rivoji, sayqal topishi, yanada manzur belgi-xususiyatlar bilan ziynatlanishi yoki aksincha yangicha holatlar bilan ko‘rinish berishi ham bevosita muallifning o‘zlik darajasi tufayli sodir bo‘ladi. She‘riyatda shoirlar bu o‘zlikni – uslub asosini “tovush”, “ovoz”, “so‘z”, “kuy” singari poetik so‘zlar bilan ham ifodalab kelishadi. Abdulla Oripovda quyidagi misralar bor:

Men shoirman, istasangiz shu,
O‘zimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg‘u,
O‘zgaga ham bermam ovozim.
Men kuylayman goh dilda kadar,
Goh sevinib she‘r to‘qiyman men.
Tinglamasa o‘zgalar agar,
O‘z-o‘zimga she‘r o‘qiyman men...

Ma‘lum bir millat adiblarining har biri ijodida uning o‘z xususiy uslubi yuzaga chiqadi. Ayni paytda, ular uslublariga umummilliy kenglikdan va chetdan razm solinsa, mushtarak tomonlar ham mavjudligi his etiladi. Mazkur umumiylik poetik tafakkurdagi milliy xususiyatlar, milliy adabiy an‘analalar, tajribalarda bardavomlik, bir til xazinasidan bahramandlik tufaylidir. Shuning uchun adabiy-ilmiy qarashlarda qadimlardan buyon uslub tushunchasini butun bir xalq adabiyotiga nisbatan qo‘llash odati ham bor va bu xato emas.

Fitrat “Adabiyot qoidolari”da uslubning bunday ma‘noda tushinilishi haqida ham fikr yuritgan: “...Alisher Navoiy o‘zining “Majolis” degan kitobida ba‘zi shoirlarning tarjimayi holini yozg‘anda “turkona” yozadir, “turkona she‘rlari bor” deb ko‘rsatadirkim, bu “turk uslubida yozadir” demakdan boshqa narsa emas”.

Yetuk adabiyotshunos Fitrat fors, Ovro'po kabi adabiyotlar uslublari bo'rligini misol keltirib, "bunlar har millatning ayricha bir uslubi borlig'ini ko'rsatadir", deydi. Shuningdek, uslubning zamon bilan o'zgarishi, mavzu hamda e'tiqod taqozasiga ko'ra ham o'zgarishi mumkinligini uqtiradi.

"Yozuvchining so'z san'atkori sifatidagi xarakterli belgilarini, – deydi 20-asrning taniqli polyak adibi Yan Parandovskiy o'zining "So'z kimyosi" asarida, – uning xayolotidan, ilhomidan, olamni juda teran bir insoniylik bilan idrok etishidan izlamoq kerak. Yozuvchining yozuvchiligi u tanlaydigan badiiy vositalarda namoyon bo'ladi – bu vositalar yozuvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan taassurotlarni imkoni bor qadar keng va teran qo'zg'atmog'i yoxud chiqarmog'i mumkin bo'lsin. Boshqacha aytganda, u estetik samaraga ega bo'lsin, bu samara emotsional, intellektual yo'nalishga ega bo'lsin. Va yana ehtimolki, yozuvchining yozuvchiligini hamma narsadan avval uning uslubidan izlamoq kerakdir".

Uslubni usuldan farqlash kerak bo'ladi. Usul badiiy adabiyotda uslubiy jarayon uchun vosita hisoblanadi. U barcha adabiyotlarda qadimdan kelayotgan an'anaviy priyomlarni anglatadi. Tasvir mobaynida muallif uzluksiz bir xil badiiy bayon o'quvchini zeriktirib qo'yishini ham, gohida ifoda manerasini boshqa tabiiy tasvirga burib turish joizligini ham, muayyan vaziyatda voqealarni o'zgacha yo'l bilan taqdim etish maqbulligini ham tushunadi. Natijada adabiy tajribalarda mavjud, boshqalar ham o'rni-o'rni bilan murojaat qiladigan qandaydir priyom (usul)larni qo'llaydi.

Asarlarda uchraydigan tush epizodlari, qahramonlarning yoki yozuvchining kundalik, xotira daftarlari, ularning yozishmalari, asar tuzilishining qoliplash ko'rinishida bo'lishi, ertaklardagi an'anaviy boshlanma va xotimalar xohlagan ijodkor zarurat bo'lgan hollarda foydalanishi mumkin bo'lgan usullardir.

Usullar ham aslida hayotiy, tabiiy, shunday bo'lishi kitobxonda e'tiroz paydo qilmaydigan vositalar, epizodlardir. Ular ijodning baholanishida taqlid sanalmaydi. Gap bu vositalarni qanchalik mohironalik bilan ishga sola bilishdadir. Uslub doirasiga kiradigan boshqa katta-kichik adabiy imkoniyatlar ko'p. Bu masaladagi imkoniyatlardan san'atkorona

foydalanish ham ijodkor uslubini yanada o'ziga xoslashtiradi, asarlari jozibasini kuchaytiradi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
3. Дилмурод Қуроноф. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Мерос, 2004.
4. Дилмурод Қуроноф ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2010.
5. Матёқуб Қўшжонов. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994.
6. Қозокбой Йўлдош. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
7. Исломжон Ёқубов. Бадиий матн ва эстетик таҳлил. – Т.: Fan va texnologiya, 2013.
8. Йўлдош Солижонов. Нутқ ва услуб. – Т.: Чўлпон, 2002.
9. Пиримқул Қодиров. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: Фан, 1973.
10. Абдулла Орипов. Йиллар армони. – Т., 1984.
11. Эркин Воҳидов. Муҳаббатнома. – Т., 1986.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov uslublariga xos qirralarni aniqlang.
3. Tog'ay Murod qissa va romanlari bilan tanishib, uning individual uslubi, qo'llagan usullari haqida adabiy-nazariy maqola tayyorlang.

DARS REJASI:

- Badiiy asarda muallif obrazining idroklanishi.
- Muallif "men"i tushunchasining mohiyati.
- "Men" – individual uslubni harakatlantiruvchi omil.
- Hasr, nazm, dramaturgiyada "men"ning o'ziga xosliklari.
- Ijodiy "men"lar va shaxsiyat mushtarakligi masalasi.

Adabiyot nazariyasining muayyan bir yangi davr adabiy jarayoni natijalari sabab bo'lib yuzaga chiqadigan vazifalaridan tashqari yana shunday doimiy dolzarb yumush-muammolari bo'ladiki, ular tadqiqotiga ham odillik, samimiyat, oydinlik, teranlik baxsh etilmasa, ma'lum tushuncha yoki tasavvur talqinida biryoqlamalik, cheklanish, chalkashish, mavhumlik kuchayib ketadi. Ommaviy tasavvurni buzadi, chalg'itadi. Tarixan san'atkorona so'zi keng jahonga yoyilgan, ovoza miqyosi o'ziga yarasha o'zbek she'riyatining lirik qahramoni, shoirlarining "men"lari bilan bog'liq talqiniy muammolar ham tamoyillari islohatalab tarmoqlardan biri bo'lib kelgan.

Adabiyotda hukmron tazyiqlar ustuvorligi zamonida uning talqin-tadqiqini ham zo'ravon mafkura majburiyati boshqargan. Tuzum adabiyotshunoslikka sho'rocha qolip yasab bergan. Avvalo, badiiy ijod shu maxsus qolipga quyilib yozilishi, so'ngra nazariy-mafkuraviy jihatdan ma'qullanmog'i uchun adabiyot ilmining o'shanday mezoniy qolipiga yana bir bor solib ko'rilmog'i joiz bo'lgan. Erksizlik hukm surgan o'sha mash'um kechmishni faqat qoralovlar bilan xulosalab qo'ya qolish yetarli emas. Uni endilikda tajriba-nadomat bilib, ro'y bergan xatoliklarga asranib ijod qilmoq joiz bo'ladi.

So'z san'ati Allohning bandalariga bergan ilohiy, bebaho ma'naviy ne'matlaridandir. Ayniqsa, ijodkor uchun uning yuki, mas'uliyati juda

og'ir va sharaflı. Bu masalada islomning mezonlarini o'rgatuvchi hamda botildan qaytaruvchi ulug' dalillari, ko'rsatmalari mavjud. Ilohiyotga daxldor bo'lmagan hech bir botiniy yoki zohiriy hodisa yo'q, inchinun, so'z ijodkorligi ham g'oyibdan keluvchi qismat. Masalan, "janobi rasululloh sallollohu alayhi vasallam der edilarki, Alloh taolo... (Hassonga) ruhul Quddus vositasi ila madad berur" (Abu Iso at-Termiziy. Ash-shamoil an-nabaviyya. Payg'ambarning alohida vasiyatlari).

Alisher Navoiy har so'z, har fikr va asar bunyodga kelishining ilohdan ekanligini biror daqiqa unutmagan. Buni ko'p hollarda she'riy e'tirof etadi. "Lison ut-tayr" dostonida shunday misralar bor:

Balki qudsi ruhining go'yo qushi,
Arsh bog'idin kelib ko'nglum tushi.

"Lirik qahramon" deyilganda asosan mavjud she'riyatining kuzatilishidan tasavvur va tafakkur qilinadigan shoir siymosi – siyrati nazarda tutiladi. Shoirning borliq hamda inson mohiyatini, voqea hamda ruhiyatni idroklash tarzi, uslubiy xosliklari, yangicha fikrlari, bularni taqdim etishdagi joziba darajasi singari zaruriy tamoyillar shu tushunchaning ma'no qamroviga kiradi.

Lirik qahramonning namoyon bo'lishi asosan uning "men"i vositasidadir. Bu I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi she'riy nutqda bevosita yo'sinda ko'proq, bilvosita yo'sinda esa kamroq faoliyat ko'rsatadi. Shu ikkiyoqlama idrok mushtarakligida o'quvchi misralar ortida turib his-tuyg'ular, kechinmalar oqimini taratayotgan shoir shaxsiyati ichki olamini beixtiyor mulohazalab boradi.

Bevosita ko'rinishdagi "men" ifodasini oshkor, bilvosita hislanadigan "men"ni yashirin adabiy hodisalar sifatida tushunilsa, xato bo'lmaydi. Har holati alohida-alohida emas, yaxlitdir va lirik qahramonnikidir. "Men" olmoshi – ko'p ma'noli. Turlicha xislatlariga qarab "biz", "siz", "sen", "u" kabi boshqa olmoshlar hissiyotini bera oladi. Bu g'aroyib jarayon she'rxonning qalbi, tafakkurini ham chetda qoldirmaydi, unga zavqni ulashadi, unda fikr uyg'otadi, taassuroti ifodalangan mazmun, g'oyalar, pafos doirasida uni o'z-o'zini taftish sari boshlaydi.

Shoir she'r syujeti talqinini to'g'ridan-to'g'ri o'z shaxsi nomidan, o'z tilidan ro'yobga chiqarsa, bundagi "men"ning mavqei albatta yaqqol,

ochiq-oydin idroklanib turadi. Ammo o'zga inson, o'zga predmet, o'zga yaratq va xilqat tili, nuqtayi nazaridan bitilgan yoki shular va boshqa qandaydir hodisa-yu kechinmalar xususida "betaraf" yozilgan tasvirlarda "men" o'zining ijoddagi mavqeini aslo yo'qotmaydi. "Men" o'zini o'quvchiga hamisha hislatib turadi. Uning kuchi, salohiyati, ta'sirchanligi, quvvati esa boshqa masaladir. Bundan ko'rinadiki, ijodkor Hamma narsa hamma tomonning sifat darajasi bilan o'z "men"iga borib xulosalanilishini esdan chiqarmasligi zarur bo'ladi.

Umuman olganda, poetik qoidalar-qonuniyatlarning, she'riyat masalalarining lirik qahramon "men"iga aloqador bo'lmagan jihati topilmaydi. Ma'lum bir she'riyatning istalgan jihati tadqiqi ham "men"ni sinchkov kuzatish, o'rganish bilan bog'liq bo'ladi. "Men"ga doir hukm-xulosalar – lirik qahramonga, demakki, shu she'riyat, uning ijodchisiga baho. "Men" bilan, uning bayon etish manerasi bilan tanishuv va muloqot, shuningdek, uni ilmiy-nazariy tadqiq etish adabiyot ilmida doimo dolzarb, ahamiyatli ish sanalgan. "Men" chuqur tekshirilganda, shoirlarning butun botiniy olami manzaralari namoyon bo'ladi. Shoirga xos barcha xislat, fazilat, zavq, hayajon, uning dunyoni qabullashi, ilg'or va faol qarashlari, cheklangan yoki xatkor tomonlari asarlari vujudga keltiruvchi uning "men"ida muhrlanib turadi.

Ayrim olimlarning ba'zi-ba'zida aytgan: "lirik qahramon shoirning o'zi emas" qabilidagi fikrlari nisbiyligi bois she'riyat muxlislari va ilmi adab ahlini hech ishontira olmagan. Keskin e'tirozlar paydo qilgan. To'g'ri, she'r "men"ini hamisha ham muallif "men"i, she'rdagi boshqa obraz hislari hamda qarashlarini, qiliq va qilg'iliklarini shoirning shaxsiy belgilari deb bo'lavermaydi. Biroq bunday vaziyatlarda ham asar uslubi, pafosi, avtor pozitsiyasi orqali botiniy namoyon bo'luvchi, hislanuvchi bavoita "men"ning yashirin mavjudligini rad etib qo'ymaslik zarur.

Adabiy tur yoki janr o'z qahramonini, qahramon o'z adabiy tur yoki janrini tanlaydi degan naql bejiz emas. "Men"ning lirika olamida o'z hukmron mavqei bilan muntazam sobit qolishiga, uning uslubga qarab rango-rang xosliklar bilan ko'zga tashlanishiga, eng muhimi, "men" adabiy turning o'z qonuniy taqozosi ekanligiga shubha yo'q. Shuning uchun har qanday adabiy tur ta'rifida uning "men"iga, har qanday "men"

ta'rifida u mansub adabiy turga xos xususiyatlar hamohang, uyg'unlikda bayon etiladi.

Ya'ni, "Har bir tashqi hodisadan avval tilak, orzu, niyat, xullas, fikr tug'iladi; har bir tashqi hodisa ichki, yashirin kuchlarning faoliyati natijasidir; poeziya voqeaning mana shu ikkinchi, ichki tomoniga, bu kuchlarning tub negiziga kirib boradi, tashqi reallik, voqea va xatti-harakat ana shu kuchlardan o'sib chiqadi... Bu – sub'yektivlik saltanati, bu ichki dunyo, o'z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki elementda, tuyg'u va ong doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib yashirinadi, tashqi olamni o'zida aks ettirgan ichki hayotning mislsiz jilvalarini poeziyaga hadya qiladi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz. Bu lirik poeziyadir" (V. Belinskiy). *Shu shaxsiyat – she'riyatdagi "men"ning asosidir.*

Badiiy adabiyotning boshqa turlarida ham ijodkor "men"i bor. Odatda nasriy asar muallifining "men"i adabiyotshunoslikda aynan she'riyatdagidek kuzatilmaydi. Masalaga boshqa tarafdin murojaat qilinadi. Bunga bir jihatdan ayni adabiy turning tabiati, xarakter-kayfiyati sababdir.

Ya'ni, "Poeziya g'oyaning ma'nosini tashqi ko'rinishda ifodalaydi va ma'naviy olamni butunlay aniq, plastik obrazlarda uyushtiradi. Bunda hamma ichki ma'no yuzaga chiqadi va bu ikki tomon – ichki va tashqi tomonlar bir-biridan ayrim holda ko'rinmaydi, biroq bevosita jam holda olinganda ular aniq reallikni – voqeani gavdalantiradi. Bu yerda shoir ko'rinmaydi; plastik muayyan dunyo o'z-o'zidan taraqqiy etadi, shoir esa o'z-o'zidan vujudga kelgan hodisaning faqat hikoyachisi bo'lib qoladi. Bi epik poeziyadir" (V. Belinskiy). *Shu shaxsiyat – nasrdagi "men"ning asosidir.*

Turlar ta'riflari bilan mualliflar "men"larining tushuntirilishlarida o'zaro muvofiqlik, munosiblik va taqozaviylikdan chetlab o'tib bo'lmasligini dramatik adabiy turga nisbatan ham bemalol aytish joizdir. Alhosil, lirik "men" o'z adabiy turining tabiati talablariga ko'ra aksariyat hollarda roviy nuqtayi nazari, g'oyalari, asar pafosi orqali botiniy qiyofalanib, aksariyat holda bevosita idrokalanadi; dramatik "men"

dramaturgning voqealarda ishtiroki va ularga munosabat bildirishi yanada (deyarli batamom) cheklanishi bois, xuddi nasrdagidek asar qa'rida yashirinib turadi, taassurotlardan anglashiladi; nasrdagi "men" hayotni badiiy aks ettirish tamoyillarining tadrijiga barobar o'zligini tanitib boradi; epik "men" va dramatik "men"lar yanada chuqur va o'ziga xos mantiqiy idroklarni talab etadi.

Masalan, roman va povestda tasvirlanayotgan kishilar avtorning yordami bilan harakat qiladi, avtor hamma vaqt ular bilan birga bo'ladi, u kitobxonga roman qahramonlarini qanday tushunish lozimligini aytib turadi, yashirin fikrlarni, odamlar harakatining mahfiy sabablarini tushuntirib boradi, kayfiyatlarini tabiat va sharoit tasvirlari bilan bo'rttiradi va umuman hamma vaqt ularning jilovi avtor maqsadiga muvofiq tutib turiladi, avtor personajlarning har bir harakati, so'zi, ishi, muomalasini bemalol va ko'pincha kitobxon sezmaydigan darajada ustalik bilan o'zicha boshqaradi. Bu bilan u romandagi kishilarning badiiy jihatdan aniq va ishonarli chiqishi uchun har taraflama g'amxo'rlik qiladi. Bu xususiyat hikoyaga ham xos.

Ilmda "men"lar muammosini fundamental, davomli kuzatish uchun masalalarni yana liro-epik "men", har xil "men"lar mohiyatining muqoyasasi, turli "men"larning bir ijodda zuhur bo'lishi tariqasida qo'yib tadqiq etish, bizningcha, qiziq, maroqli, foydalidir.

Nasr ijodkorining tasvir aro, syujet mobaynida "men" sifatida qiyofalanishi ham bivositalik hamda bevositalik yo'sinlarida yuzaga chiqadi. Albatta, nasriy asarlarda tashqi olam voqea-hodisoti, turfa qahramonlarning o'zaro munosabati aniq timsollar harakati vositasida hikoyalayotganligi sababli yozuvchi "men"i ko'pincha zimdan anglashiladi. Bevosita "men"ga esa, she'riyatdagidan farqli o'laroq, kamdan-kam namunalarda duch kelamiz. Nasriy asar agarda bosh yoxud asosiy biror qahramon (ehtimol, muallifining o'zi) tilidan hikoyalangan bo'lsa, bevosita tuyulgan bu "men" bivosita "men" bo'lib chiqishi mumkin. Ammo mantiqan razm solinsa, bunday usulda yozilgan hikoya, qissa, romanlarda ham "men" mavjud bo'ladi.

O'nlab so'z san'atkorlari bir necha adabiy turlarda, turlarning turli janrlarida ijod etishgan. Ham shoir, ham nosir bo'la olganlar tajribasidan

“men”larning namoyon bo‘lish tarzidagi aksar xususiyatlarning janrlar tabiati hamda imkoniyatlariga borib taqalishini payqash mushkul emas. Shuningdek, ikki-uch, uch-to‘rt adabiy tur adiblarida bir janrdagi mavzular, g‘oyalar, maslaklar va badiiyat borasida ko‘ringan fazilatlarining hamom boshqa janrlarda bitilgan asarlariga jozibalar ufurib turganligi ko‘zga tashlanadi.

Navoiy “Lison-ut-tayr” dostonida taxallus haqida fikrlab, forsiycha ijodiga doir “Foniy” taxallusining bu o‘zbekcha asarida qo‘llanish asoslariga lirik chekinish vositasida sharh bitar ekan, shoirning o‘z ijodida o‘z muhriga ega bo‘lishiga shunday serma’no ishora qiladi:

O‘ylakim, har kimsa nekim qilg‘usi,
Ba’zi ishta bor uning bir belgusi.

Kim o‘zi taxsisig‘a imlodur ul,
Muhri yo tavqi’ yo tamg‘odur ul.

“Men”larning turlar talablari tufayli hosil bo‘luvchi alohida xosliklariga hamda farqlanuvchan turlarda baravar ijod etgan adibning uslubidagi uyg‘unlik, mushtarakliklarga tarixiy va zamonaviy adabiyotdan istagancha misollar keltirmoq mumkin.

Bugungi kitobxon avlodlar, masalan, Navoiydan keyingi eng san’atkor adib Bobur ekanligini, uning ham nazm, ham nasrda nechog‘lik mahorat ko‘rsata olganini yaxshi his etadilar. Boburning o‘z uslubigagina xos qirralar o‘quvchiga bu ijod bilan tanishib chiqish jarayonidayoq tez ayon bo‘ladi. Ayni paytda mazkur xosliklar adabiy ilm tadqiqotlarida ko‘p bor dalillanib tahlil etilgan.

Har vaqtgi ko‘rgasen mening so‘zumni,
So‘zumni o‘qub anglag‘aysen o‘zumni.

Bobur nazmiga mansub xususiyatlardan bittasi hasbi hol ohangidagi, o‘z ahvoloti haqidagi lirik chekinishlarida bo‘lsa, yana biri qator mashhur she’rlarida aniq hayotiy hodisa, kechmishining mohiyati aks etganidir. Albatta, shoirlikda shunday yo‘l tutishlikning, o‘z voqeligi turtkilariga berilib ketishlikning mahdudlikdek, o‘zgalarga daxldorlik falsafasini yuzaga chiqara olmaslikdek inqirozga eltuvchi xavfli tomonlari bor. Bobur esa ko‘rmishlariga munosabatlaridan katta umumlashma fikrlar chiqarib,

bularni yuksak poetik mahorat bilan taqdim etadi. Bu usul va maqsad yo'lida hattoki o'z xato, qusur, armonlarini yashirmay, oshkor qalam tebratadiki, bu hol lirik qahramon "men"ining hayotiylik va joziba quvvatini oshiradi. Xususan, qator g'azal-u ruboiylarida muayyan hayotiy turtki-ilhomlarning qanchalik samarali natijalar berganligi sir emas.

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yub, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Xuddi shuning singari uslubiy xosliklar o'zbek nasri tarixining gultoj namunasiga aylangan memuar "Boburnoma"ga ko'rkam fazilatlar bo'lib ko'chadi. Asar fasohatida "men" ustuvor boshqaruvchilik mavqeida turadi. Biroq u, ya'ni "men" o'z targ'ibotini oshirishni aslo nazarda tutmaydi, kitobxon diqqatini faqat va faqat voqealar tafsilotining ro'y-rostligiga hamda ularning to'g'ri idrok etilishiga qaratadi. Shu maqsad mas'uliyati o'zligidagi insoniy qusurlarni-da fosh etishga majburiyat yuklaydi. Oqibatda "Boburnoma" "men"i o'quvchini o'ziga ohanrabodek yaqinlashtiradi. Unga darddoshlik, hamnafaslik, muhabbat uyg'otadi.

"Yakshanba kuni muharram oyining o'n oltisida isitdim, titradim, navbat-navbat bo'ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor ichdim. Oxir basit yarashti, uyqusizlig' va tashnalig'dan bisyor tashvish torttim. Bu maraz ayyomida uch-to'rt ruboiy aytili. Ul jumladin biri budur:

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin o'chadur uyqu, chu oxshom bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sayi bu ortadur, ul kam bo'ladur".

Voqealar tafsiloti mobaynida ijod xususidagi yana bir lavha keltirilib, shoirlardan birining: "har qanday noz-karashmachining muhabbatini nima qilsin kishi, sen bo'lgan joyda boshqani nima qilsin kishi" mazmunidagi bayti shoirlar suhbatiga – badihago'yiligiga sabab bo'lgani hikoya qilinadi. Tab'i nazmi bor har shoir tezkorlik bilan badiha to'qib, hazil-mutoyibani qizdiradi. Hazil tariqasida Bobur ham bir botil badiha – bayt aytib, so'ngra

o'zi ichdan pushaymon qiladi. Bir necha kundan so'ng og'ir xastalik azobini tortib, buni o'shal gunohining jazosi deb biladi:

"Mundin burun yaxshi va yomon, jidd va hazl har ne xotiraga yetsa edi, mutoyaba tariqi bila gohi manzum bo'lur edi. Har nechuk qabih va zisht nazm bo'lsa marqum edi. Bu fursattakim, "Mubayyin"ni nazm qiladur edim, xotiri fotirg'a xutur etti va hazin ko'ngulga mundoq ettikim, hayf bo'lg'ay ul tildinkim, mundoq alfozni darj qilg'ay, yana fikrini qabih so'zlarga xarj qilg'ay va darig' bo'lg'ay ul ko'nguldinkim, mundoq maoniy zuhur etg'ay, yana zisht xayollar anda xutur etg'ay.

Andin beri hajv va hazl she'r va nazmidin torik va toib edim. Bu baytni aytur mahal aslo xotirg'a yetmadi va bu ma'ni hargiz ko'ngulg'a xutur etmadi. Bir-ikki kundan so'ng Bigromda tushganda rezandoliq bo'lub isitdim. Bu rezandaliq surfağa munjar bo'ldi. Har yo'talg'anda qon tukurur edim, aksar isitma bo'ldi, bildimkim, bu isitma qondindur va bu tashvishni qilg'andindur...

Ne qilayin sening bila, ey til,
Jihatingdin mening ichim qondur.
Necha yaxshi desang bu hazl ila she'r,
Birisi fahsh-u biri yolg'ondur.
Gar desang kuymayin bu jurm bila,
Jilavingni bu arsadin yondur.

...Yana boshdin istig'for va e'tizor maqomida bo'lub, bu nav' botil andeshadin, bu yo'sinliq nolojiqlik peshadin ko'nglumni tandurub, qalamni sindurdum. Ul dargohdin osiy bandalarg'a bu nav' tanbihlar davlatedur azim, har banda hamkim, mundoqlardin mutanabbih bo'lg'ay, saodatidur jasim..."

"Boburnoma"da hikoyalanmish botil hazil-mutoyiba aralash bahr-u bayt lavhasi lirik qahramon yoxud epik qahramonning jonlilik, ishonchlilik maromini ta'minlovchi omillardan biri sifatida eslandi. Omillar esa ko'p, ijodlarning xosliklari tekshirib borilsa, ularning rang-barang tarzlariga guvoh bo'lasiz. Va lekin mazkur lavhada ham, yuksak jozibani hosil qilguvchi o'zga hamma yo'sinlarda ham masalaning o'ta muhim boshqa tomoni diqqatni tortadi.

Shuaroning sof she'riyat sarhadidan chiqib, beparda bahsga og'ishuvi voqeasidan so'ng, bunga o'zi ham sherik bo'lib, behayoroq bayt to'qiganidan so'ng shoir Boburning – nosir Boburning qattiq pushaymon bo'lishi, vijdonan qiynalishi, oqibatda vujudi azobli xastalik ko'rishi “men” sohibining iymoniy iztiroblari, so'zga mas'ullik bobida Yaratgandan qo'rquvi, hijolati edi. Bobur tilga, so'z aytishga ehtiyotsizlik qilganidan afsus qilib, bu borada e'tiqoddagi yo'riqni, mezonni, ko'zga ko'rinmas, ammo muqarrar mavjud haqqoniy sir – hikmatni chuqur hislaydi. O'z xatti-harakati sabab bo'lib, Alloh qonunining tasdig'ini yana bir bor idroklaydi. Tildan shu yo'sin nomuvofiq foydalanish – gunohi azim, uni hayoti dunyoda xayrli ishlatish – saodat. Botil so'zlar yozadigan qalam sindirishga, tindirishga loyiq. Hikoyasi orqali Bobur o'zga qalam sohiblarini ham so'z yo'lidan to'g'ri yurishga, haqiqatdan ogoh bo'lishga chaqiradi. Pokdamon she'riyat san'ati, pokdomon lirik qahramon muqaddas so'z ne'matidan o'tkinchi dilxushlik uchun, botil va harom ifoda uchun foydalanishni xushlamaydi. Ayniqsa va birinchi navbatda, badiiy so'z ijodkorligining shu jihati barcha talablarning oliysidir.

O'z “men”ini kashf etmoqda bo'lgan she'riyat yo'llarining zahmati, riyozati ko'p va mushkul. Yo'llarning barchasi ham mashaqqattalab so'qmoqlardir. Yo'lini adashmay topolgan “men” ezgulik taraqqiysiga nechog'lik ulush qo'shadi? Ovozi qay hududlar qadar etib boradi, qanchalik e'tirof etiladi? Millat nomidan jaranglay oladimi? Umuminsoniyat madaniyatining tarixiy karvoni uni o'z safiga qabul qiladimi?

“Biz yangi muallifning badiiy asarini o'qiyotgan yoki mushohada qilayotganimizda qalbimizda paydo bo'luvchi asosiy savol hamisha shunday: Qani, sen qanaqa odamsan? Va men biladigan barcha odamlardan nimang bilan ajralib turasan hamda hayotga qanday qarash kerakligi haqida menga qanaqa yangi gap ayta olasan? Agar u bizga avvaldan tanish yozuvchi bo'lsa, endi sen qanaqa odamsan deb surishtirib o'tirmay, boshqacharoq tarzda: Qani, menga sen yana qanaqa yangi gap aytasan? Hayotni sen menga qaysi tomondan ochib berasan? deymiz” (L.N. Tolstoy).

Tanilgan "men"ni ham bu yo'lda jiddiy sinovlar kutadi. Kashf etilgan yoniq "men" yo'l dovonlarida ma'naviy ehtiyojboplik darajasi, salohiyat va jozibasini bo'shashtirib qo'ymaydimi? Yoki kibr-u havo, mag'rurlik, shon-shuhrat mayliga berilmaydimi? "Men" manmanga aylanmaydimi? Quvvatini nomuhim, bevafo mavzu-g'oyalarga, botil ehtiroslarga sovurib, "umri"ni isrof etmaydimi?..

Adabiyotshunoslik ilmida lirik qahramon muammosi, aytish mumkinki, diqqat-e'tibordan hech qachon tushmagan. Bir paytlar mumtoz adabiyot namoyandalari lirik qahramonlarini tahlil etish majburiy mafkura buyrug'iga ko'ra yolg'onga yoki biryoqlamalikka, ko'zbo'yamachilikka yoki xaspo'shlashga, tushunmaslik yoki tan olmaslikka boshlagan bo'lsa, masalaga chindan yondashmoq zamoni kelib, munosabatlar o'zgardi.

Shundayin xatolardan biri "diniy" yoki "dunyoviy" degan tushunchalar bilan bog'liq. Ba'zilar bularning nisbiy ekanini unutib, dialektik tushunchalarni bir-biriga qarshi qo'ygani, bir ijodni parchalab, bunisi dunyoviy, bunisi diniy deb xulosalagani, Navoiylar shayxni qoralagan deb, shoir dindor emas, dinga qarshi, ateist deb talqin etganlari (vaholanki, Navoiy shayxlikni, shayxlarni ulug'laydi ham) ma'lum. Yoki Yassaviy qoralanib kelgani-chi? Yassaviy goh-goh zohid-shayxlarni qorolab:

Eshon, shayx, xo'ja, mullo dunyo izlar,
Ul sababdin podshohlarga yolg'on tuzar.
Oyat, hadis so'zin qo'yib, molni ko'zlar,
Haq yo'lida hargiz mehnat tortqoni yo'q, –

desa-da, bunda dinni, dindorlarning martabalarini tanqid qilishni maqsad etmaydi, balki o'z e'tiqodlarida buyurilgan tartiblarga amalda rioya qilmovchi, shaxsiy manfaatlariga berilib ketayotgan din amaldorlarinigina fosh etadi. Qolaversa, bunda she'ring o'zi mantiqan dinga itoatni targ'ib etib turibdi.

Tabiiyki, tazyiq taqozasiga bo'ysunilgan sho'ro davrida lirik qahramon tushunchasini to'la-to'g'ri idrok etib, to'g'ri talqin etib bo'lmas edi. Hatto muayyan adib ijodini, chunonchi, Yassaviy she'riyatini nisbiy ravishda diniy-islomiy deb qaralganda ham, undagi kuchli ichki dunyoviylikni unutmaslik, Navoiyga dunyoviy deb qaralganda ham undagi

qizg'in diniylikni esdan chiqarmaslik kerak. Shuningdek, diniysi ham, zakiy dunyoviylik ham Allohnik, uning yo'lidir. Bizningcha, masalani shu yo'sinda qo'yish ruhiyatga, qalb falsafasiga yo'l ochadi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining lirik, epik qahramonlari borasida ham noto'g'ri idrok va talqinlarning yuzaga chiqqani sir emas. Mustaqillikka yaqin qolgan bir necha yillar ichida va keyin Hamza, Hamid Olimjon, O'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Oybek kabi atoqli ijodkorlar asarlariga, ularning lirik qahramonlariga nisbatan biryoqlama yondashuvlar bo'ldi. Ba'zilar ularni sho'ro zamonida qanday talqin etishgan bo'lsa, shu yo'nalishga sodiq qoldilar. Ba'zilar hovliqma tanqid yo'liga o'tib, ba'zi ijodlarni so'z san'atining o'zani, doirasidan tashqariga itqitib tashlamoqchi bo'lishdi. Holbuki, ular xususida, asarlaridan ham namoyon lirik, epik qiyofalar haqida yaxshi-yomon xulosani to'g'ri, oqilona aytish kerak. Va bu xulosalar bugun hamda ertaning manfaatiga ibrat, saboq bo'lib xizmat qilishi lozim. Tanqid deymizmi, to'g'ri o'rganishga o'rgatish deymizmi, beg'azab va beg'araz bo'lmog'i shart.

Salohiddin Mamajonov Oybek ijodiyotiga bag'ishlangan "G'oya va obraz" maqolasida shunday yozadi: "Bordi-yu ijodkor bir necha janrda qalam tebratgan taqdirda ham uning obrazli tafakkurida – obrazlar olamida mushtaraklik bo'ladi. Shuning uchun turli janrlarda ijod qilayotgan yozuvchining o'ziga xosligini, o'ziga xos uslubi, ovozi, qiyofasini yoritmoqchi bo'linganda uning ijodini yaxlitligicha, bir butunligicha olish, tekshirish va baholash kerak".

"Avtor obrazi" faqatgina asar doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki u asar qaratilgan kitobxon bilan aloqada bo'lishga intiladi. Asarni kitobxon qanday qabul qiladi, qanday tushunadi va baholaydi kabi masalalar **avtor obrazi** uchun muhimdir. Agar biz badiiy asarni o'zicha yaxlit olam deb qarasak, kitobxonga shu olamni tanishtirish, uning haqqoniyligi haqida tasavvur uyg'otishda avtor obrazi kitobxon va asar o'rtasidagi vositadir. U kitobxonni nazarda tutgan holda voqelikni ma'lum nuqtayi nazardan ko'radi, ifodalaydi, har bir qahramonga tegishli badiiy vazifalar yuklaydi. Tasvirni ba'zan o'z nuqtayi nazaridan bayon qilsa, ba'zan qahramon nuqtayi nazaridan kuzatadi. Shu asosda kitobxon diqqat-e'tiborini

tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, insoniy munosabatlar, fikr va tuyg'ularga tortadi, yetaklaydi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, bayon yoki hikoya kitobxonga qaratilganligi jihatidan suhbatdir. Suhbat bo'lganda ham kitobxon o'z qarshisida kim turganligini – xolis bayonchimi, ehtirosli hikoyachimi, qahramonmi bari bir darhol anglaydigan suhbatdir. Mabodo avtor tasvirlayotgan voqea-hodisa, obrazlarga, deylik, tamomila befarq qaragan holda, ularga aralashmasdan ifodalasa-da, bu befarqlik darhol ko'zga tashlanadi, chunki kitobxon avtor unga nimani hikoya qilayotganligiga qarab hukm chiqarish bilan cheklanmaydi, uning avtori haqida ham tasavvurga ega bo'ladi. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, basharti asarda bayonchi voqeaning kuzatuvchisi sifatida namoyon bo'lsa, kitobxon uning izmi bilan tomoshabinga aylanadi. Bordi-yu bayon hikoyachi, hikoyachi-qahramon sifatida tasvirlanilayotgan voqea-hodisaning ishtirokchisi, jonli guvohi bo'lsa, bayon xarakteriga ko'ra kitobxon tinglovchiga o'tadi" (O'rol Nosirov).

"Men" lirik qahramondagina baralla, namoyishkorona sarbonlik qiladi. Bor mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Har qanday his, taassurot, falsafa va joziba u orqali o'tadi. Undan fikrchanlik, topqirlik, ehtiros, mahorat kutiladi. She'riyatning, nasrning, dramaning yutug'i ham, yutqizig'i ham uning sha'nigadir. Epik "men" mas'uliyat va javobgarlikda garchand lirika "men"idan farqlanmasa-da, tasvirot jarayoni mobaynida o'zini tez tanitmay turmog'i mumkin. To'la tasavvur sabrni, vaqtni, mutolaa nihoyasini talab etadi. "Men" epik talqinda hamma ishni o'zi bajartib tursa-da, sahifalar qa'ridan pinhona boqadi. O'zi sodir etayotgan voqealarga, o'zi harakatlantirayotgan qahramonlarga sizda munosabat shakllantirib boradi. Munosabatingiz maromini ham kuzatib, sizga g'oyibona razm solib turadi. Bularning barchasi epik "men"ning bahosini, mavqeini belgilab, uni endi oshkora tanitadi.

Kitobxon xalq o'z nafis adabiyoti "men"larining betakror, umumbashariy, donishona va benazir bo'lmo'gini, ularning eng go'zal milliy an'analarni o'zida mujassam etib, tamomiy yangicha dovrugli va hayratbaxsh yuksalmog'ini, barcha zamonlar uchun umuminsoniy qolmog'ini xohlaydi. Eng yetuk so'z san'atkorlarining "men"lari misol

hidoyatli, barkamol, millat timsollariga aylanuvchi “men”lar orzusi ijobat bo‘lgan holda ham, barkamol “men”lar orzusi yangidan yaralib turuvchi, mudom yashovchi adabiy-estetik orzudir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
3. Истиклол, адабиёт, танқид. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
4. Абу Исо ат-Термизий. Аш-шамойил ан-набавийа. – Т.: Чўлпон, 1993.
5. Салоҳиддин Мамажонов. Ойбек ижодий методи ва бадиий маҳорати. – Т.: Фан, 1985.
6. Ўрол Носиров. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Т.: Фан, 1981.
7. Исажон Султон насри бадиияти. – Т.: Turon zamin ziyo, 2017.
8. Тохир Шермурод. Очиқ осмон остида. – Т.: Ijod nashr, 2024.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Abdulla Qodiriy, Tohir Malik asarlari matnlaridagi epik chekinishlarni aniqlang va sharhlang.
3. Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Mirzo Kenjabek, Guljamol Asqarovalardan birining lirik “men”i haqida tahliliy maqola yozing.

DARS REJASI:

- Tahlil, talqin, tanqid – tabiiy, zaruriy munosabat shakllari.
- Yondashuvlar xilma-xilligining qadimiyligi.
- Adabiyot masalalariga ilmiy yondashuv afzalliklari.
- Tahlil metodlari, usullarining rang-barangligi.
- Haq ta'limotiylik – yondashuvlarning bosh axloqiy-estetik mezon.

Inson adabiy-nazariy tafakkuri ijod masalalari va muammolariga xilma-xil yo'sinlarda yondashishga moyil yashaydi. So'z san'atkorligi va uning namunalariga murojaat, munosabat bugundagi ko'plab turfa metodlarning qaysi biri asosida yuzaga chiqmasin, ularda munosabatchining shaxsiy-ijtimoiy e'tiqodi, g'oyaviy-mafkuraviy mavqei o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy-nazariy yondashuvning sohaga xos zarurat, vazifa, adabiy hayotning o'zi kabi davomiy jarayon ekanligiga shubha yo'q. Muayyan munosabat shakli va tamoyilini ko'p hollarda voqelikning, adabiy qarashlarning, badiiy asarlarning o'zlari tayin etishlari ham bor gap. Biroq, barcha zamon va makonda jarayondagi ta'limotiy to'g'rilik hamda e'tiqodiy sifatning nufuzi hamma narsadan muhimdir.

Yangi va so'nggi islomning turli xalqlar hayotiga chuqur joriylanishi mobaynida arab, fors, turk poetik tafakkur tarzlari ta'limotiy jihatdan batamom yangilandi. Ijodiy salohiyatlar haq din haqiqatlariga oshuftalik kasb etdi. Dunyo va inson mohiyatini, barcha masalalar tadbirini shu asosda mushohada qilishga o'tildi. Yagona e'tiqodni tutish, unga amalda bo'lish, unda sobit qolish, uni o'z shuuri va iqboliga rahnamo ta'limot deb bilish bu xalqlar adabiy ijod ufqlarini, imkoniyatlarini misli ko'rilmagan darajada kengaytirib yubordi. Ularni oqil insoniyatga munosib va yarashiq eng to'g'ri yo'ldan boshladi. Mahdud va buzg'un qarashlarga, ayniqsa, qadim arabiy ijodchilik, madaniyatda an'ana tusiga kirib qolgan illatlarga

– shirk, fahsh, fitna, subutsizlik, tarafkashlik, maddohlik motivlariga barham berdi.

Ajam xalqlarning islomdan oldingi tarixidagi tangrichilik, to'ra (turkiy qavmlar barcha sohada amal qilib yashagan ijtimoiy-axloqiy qoidalar majmui – og'zaki qonun), zardushtiylik, moniylik singari aqidalar, ta'limotlarda mavjud, islomga ba'zi g'oya-o'g'itlari aynan mos qadriyatlarning saqlanishiga yoxud ularning yangi e'tiqodga moslashuviga bu ta'limot izn berdi.

Xususan, turkiy falsafiy-poetik tafakkurning islomiylashuv jarayonini osonlashtirgan, yuksaltirgan ijobiy asoslar ko'lamini uning o'ziga xos to'ra qonuni, tangrichilik aqidasi kabi insoniyatning boshqa qavmlariga nisbatan ilg'or, afzal g'oyaviy-amaliy tamoyillar, "Bayt-ul-hikma" faoliyatining natijasi sifatida taralgan yunon antik davrining ilm-fanlari ta'siri bilangina chegaralab qarash ham to'laqonli ilmiy qamrov bo'la olmaydi. Mohiyatga yanada kengroq, o'zining aslicha aspektida yondashish nuqtayi nazaridan Shuhrat Sirojiddinovning "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari" nomli monografiyasi adabiyotshunoslikdagi ilk diqqatga sazovor ishlardan biridir.

Mazkur tadqiqot islom falsafasining shakllanishini yunon donishmandligi ta'siriga nisbat berish bilangina cheklanish tendensiyasiga isloh zarurati borligi haqida ham taassurot uyg'otadi. Unda islom kirib kelishidan oldingi Mavorounnahrda Hind, Eron, Iroq, Xitoy falsafiy qarashlarining ta'sirida shakllangan va umumlashgan turkiy o'ziga xos donishona tafakkur asoslari birlamchi manbalarga tayanilgan holda tadqiq etilgan.

Olim veda, tavrot, xristian adabiyotlarini, upanishadlar (ustozning shogird bilan didaktik muloqoti matnlari)ni, Iroq va Shom (tasavvufiy), Nishopur va Balx (malomatiy) mistika maktablarining xarakterli xususiyatlarini, peripatetik (yunonlashgan) falsafa mohiyatini, ularning umuminsoniy qirralari, ziddiyatli tadrijini tahlil qiladi. Islom mutlaq hukmron mafkuraga aylangan keyingi davrlarda ham avvalgi har xil falsafiy qarashlarning aholi o'rtasida uzoq muddat bardavom yashaganligini, ulardagi teran tamoyillar islomiylashganini, islom falsafasi shakllanishini faqat yunon ta'siri bilan chegaralab emas, uning butun

Sharq falsafasidan oziqlanganini e'tibordan soqit qilmay o'rganish joizligini ta'kidlaydi.

Monografiyada o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, she'riyatining islomiy falsafiy tafakkur asosidagi g'oyaviy-badiiy tamoyillariga katta ta'sir ko'rsatgan sarchashmalar – islomlashgan shakllarda uchraydigan turli qadimiy diniy-falsafiy suyujetlar, ta'limotlardan tortib haq ta'limot ko'rsatmalarigacha, qur'oniy, fiqhiy, kalomiy, aqliy, naqliy ilmlar, qator tasavvuf maktablarigacha bo'lgan barcha tarixiy asoslar ko'hna manbalarning mazmun-mohiyati orqali dalillanadi.

Arablarning 8-asr avvalidan boshlangan Movarounnahr tomon yurishi qator hududlar va yillarda keskin to'qnashuvlar, qarshiliklarga uchragan bo'lsa-da, tarixiy tafsilot hamda ma'lumotlar ushbu fathlarning nisbatan oson, qiziqarli kechganligiga ham guvohlik beradi. Arabiston yarim orolidagi butlar yasab, ularga sig'inishga, ko'p xudolik aqidasi, turli bid'atlarga ruju qo'ygan mushriklar, kofirlarga qaraganda, turkiy xalqlardagi bir xudolilik, ilohiy ilmlar idrokiga chanqoqlik tuyg'usi balandroq edi. Islom esa aynan shu bir xudolilik dini – tavhidiy ta'limot bo'lib keldi. Shuningdek, turkiylarda asrlarki to'ra qonuni hukm surar, unga itoat axloqni poklash bilan birga, ilm-ma'rifatni talab qilar edi. Turkiylarning islomni qabullashdagi samimiyati, astoydilligi shuning uchun hamma sohalarda o'z natijasini tez ko'rsatdi. Masjid, maktab, madrasalar tashkil etildi. Yangi dinning nozil bo'lgan manbalari asosida ta'limga e'tibor kuchaytirildi. Qur'on, hadis, tafsir, fiqh, aqida ilmlari dunyoviy fanlarni o'qitishga keng yo'l ochdi.

Turkiylar ruhiyati hamda turmush tarzida yangi e'tiqod sobitlanishi o'laroq qaraladigan yuksalishning sabablari chuqur o'rganiladigan va mavqelariga ko'ra ular shartli sanaladigan bo'lsa, birinchi navbatda, o'sha davrda ko'tarinki ruhda tez isloh etilgan ta'lim tizimi, barcha ilm-fanlar o'qitilishining yo'lga qo'yilishini alohida e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bundagi bardavomlikning ahamiyati misollarga juda boy.

Ma'lum bir adabiy muhit va davrni boshqa makon va zamondagi holat, an'ana, tamoyillar bilan o'zaro qiyoslaganda, nuqtayi nazar va ilmiy maqsad qanday bo'lishidan qat'iy nazar, zamirida tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy asoslari bo'lgan o'ziga xoslikka – taraqqiy, tanazzul, ijodiy

ta'sirlanish, davomiylik, yangilanish kabi hodisalarga duch kelinadi. Tabiiyki, ularning barchasida rivojga dalolat qiluvchi natijalar, tadrijning salmog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslikda ham qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy kabi tadqiq va tahlil metodlari davrlar adabiy-ma'rifiy manzarasini to'la tasavvur qilish, aniq baholash, haqqoniy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Sharqning adabiyot ilmlari qadimida bu dolzarb yondashuv usullari bevosita shu nomlar bilan qo'llanilib qilingan maxsus ilmiy-nazariy tadqiqotlar uchramasa-da, olimlarning badiiy ijod namunalariga turli maqsadga ko'ra qilgan murojaatlari mobaynida adabiyot ifodasidagi johiliyadan kelayotgan talqiniy an'analarga nisbatan tanqidiy qarashlari hamma zamonlarda e'tiqodiy asoslarda aks etgan. Jumladan, asarlarida qadimgi va o'z davridagi hind, yunon, arab, fors, turk adabiyoti namunalarini e'tibordan chetda qoldirmagan, ulardan o'z ilmining ta'sirchanligi uchun unumli foydalangan, ularni tahlil etgan Abu Rayhon Beruniy joiz o'rinlarda asarlardagi qalbaki e'tiqodga, xurofotga xos badiiy talqinlarni tanqid qiladi, fikrlarini ilmiy asoslar bilan dalillaydi. Adiblarni xurofiy odatlarni targ'ib qilmaslikka chaqiradi.

Nazariy-falsafiy jihatdan adabiy-tarixiy jarayonlarga qiyosiy murojaat tuzumlardagi ijtimoiy-siyosiy, maishiy-psixologik, ma'naviy-axloqiy tendensiyalarga bog'liq inson ijodiy salohiyatining bir-birining davomi bo'lgan, ayni paytda bir-biridan farqlanuvchan poetik tafakkurning o'zgarishlarini taqdim etadi. Hozirgi jahon filologik ilmlari ko'plab muammolar tadqiqida *tarixiy-qiyosiy metod* asosida ish yuritib kelmoqda.

Jahon xalqlarining barchasidagi adabiy-nazariy qarashlar tarixida badiiy asarga, ijod mohiyatiga yondashuvning ko'p nuqtayi nazarli kechganligi kuzatiladi. G'arbiy diyorlarda qator yondashuvlarning har biri o'zgasini inkor etmagan holda alohidalanib tushuniladigan bo'la bordi. Ya'ni tahlil, talqin etuvchining munosabati ruhida qaysi nuqtayi nazardan yondashuv ustuvorlik qilsa, uning tushinish, tushuntirish usuli o'ziga muvofiq nom bilan atalishi qoida tusiga kirdi. Asarga ijtimoiy (sotsiologik), tarixiy-qiyosiy, g'oyaviy-estetik, lingvistik, psixologik, biografik, ilohiy-funksional, tarixiy-statistik va boshqa usullarda yondashuvlarning har biri ularni o'zida umumlashtirib turuvchi tushuncha

- adabiyotshunoslik metodologiyasi doirasida tushuniladigan, tadqiq metodlari sifatida qaraladigan bo'ldi.

Badiiy asarga yondashuv metodlari juda xilma-xil va teng "huquqli". Ulardan biri boshqasidan ustun qo'yilmaydi. Sohaning ilmiy haqiqatini yoritmoqchi, tanlangan obyekt, mavzu-masalaning mavqe-mohiyatini baholamoqchi bo'lgan mutaxassis o'z niyatlari, muammo hamda tanlangan manbaning taqozosidan kelib chiqib muayyan metodda ish yuritadi. Bu uning ish jarayonida boshqacha metodlardan ham foydalanishiga monelik qilmaydi. Vujudga kelgan tadqiqotda qanday nuqtayi nazarning yetakchi ekanligiga qarab uning yondashuv metodi yoki metodlari haqida xulosaga kelish ham mumkin bo'ladi. Metodlarning barchasi ham muhim va zarurat, chunki har qaysisi o'ziga xos. Masalan:

Adabiyotni **biografik** o'rganish ijod natijasini muallif hayoti, shaxsiyatidan ma'lum bo'lgan fakt, materiallar bilan bog'lab, muqoyasalab, xulosalab talqin etish demakdir. Bunda individual, psixologik-estetik, ijodkor-taqdir ma'lumotlari qiziqarli va jiddiy qimmatga ega bo'ladi.

Adabiyotga **struktural** munosabat badiiy matnning barcha poetik-kompozitsion qurilishini, ularning o'zaro bog'lanish, uyg'unlik rishtalarini, poetik unsurlarning asar yaxlitligi, quymaligini ta'minlashdagi holatini tadqiqlash orqali mahoratni, asar mavqeini ilmiy tayin etish demakdir.

Adabiyotni **germenevtik** tahlil etish tanlangan badiiy matn qa'riga har tomonlama falsafiy, psixologik, filologik chuqur kirib borib, ma'no-mazmun va matn osti mantiq-ishoratlarni sharhlash, tushuntirishni nazarda tutadi. Ma'no qatlamlariga boy, badiiy voqeligi sertarmoq, polifonik, chuqur hikmatlarni o'zida mujassam etgan asarlar ko'pincha shunday yondashuvlarni taqozo etadi.

Adabiyotni **lingvistik** o'rganish ham bor. Bu badiiy asarning tiliga, tasvir vositalariga, so'z san'atlariga, til birliklarining ijodkor tomonidan nechog'lik poetik ishlatilishiga alohida e'tibor qaratiladigan tahlil metodidir.

Hozirgi jahon adabiyotshunosligi badiiy asarga, ijod qoida-qonuniyatlariga, adabiy jarayonlar hodisalariga kirib borishning, ilmiy

xulosalar chiqarishning metodlariga boy. Umuman esa, adabiyotga qaysi mashhur yo nomashhur metod asosida yondashilmasin, jarayonda olimning ham dunyoqarash darajasi, bilimi, tafakkuriy salohiyati, uning e'tiqodiy mavqei o'z-o'zidan namoyon bo'ladi. Bunda ilmiy xolislik, adolat, jiddiyat, halollik, e'tiqodan to'g'rilik ustuvor talablar hisoblanadi.

Alohida ijodning yoxud ma'lum adabiy muhit ijodchilarining poetik qarashlaridagi e'tiqodiy sifatlar, xosliklarni, ularning haqgo'ylik darajasini, voqelikka bo'lgan faolliklarini, san'atkorliklarini o'rganishning afzal yo'llaridan biri ham qiyosiylikdir. Albatta, bu yo'sin kuzatish, izlanish yanada xolislikni, har jihatdan ilmiy adolatni talab etadi. Bir ahvolotni boshqasiga nohaq qarshi qo'yish, birining maqtovi uchun o'zgasiga tanqidni kuchaytirish, tarixiy dialektik jarayon qonuniyatlarini hisobga olmaslik bunda to'g'ri natijalarga olib bormaydi.

Islomni qabul qilish, ta'lim-tarbiyani shu asosda yo'lga qo'yish natijasi o'laroq shakllangan yangi dunyoqarashli, turmush tarzi shu shariatga asoslangan turkiy xalqlarning ilmiy va poetik tafakkur evolyutsiyasini uning islomgacha bo'lgan ijodiga, xudolarni ko'p deb bilgan, turli-tuman narsa-hodisalar, shaxslarga – tog'utlarga sig'inib o'tgan paytdagi tasavvurlariga solishtirilsa, keyingi uning tangrichilik davri, to'ra qonuni asosida yashashi, so'ng boshlangan islomiy hayoti va ijodi bir butun najotbaxsh yo'l dialektikasini inson ko'z oldiga keltiradi.

O'rta asrlar madaniy-ma'rifiy muhitining rivoji va shukuhi arab xalifaliklari, so'ngra turkiy hukmdorliklar davrida ko'paygan ilm markazlariga intilishning keng tus olishi, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarning keng yo'lga qo'yilishi, olimlarning hamma fan navlarida olamshumul yutuqlar, kashfiyotlarga erishishi bilan xarakterlanadi.

E'tiqodga xos jiddiyat hamda ko'tarinkilikni so'z san'ati, adabiy-nazariy bilimlar, bu sohalarning tarbiyati yangilanishida, shoirlar, nazariyotchilarning dunyo ijodchilik tajribalariga-da e'tibor qaratishida, mas'uliyat va vazifalarni imoniy idrok etishlarida ko'rish mumkin. Tafakkurlar islom ta'limotlaridan quvvat oldi. Faoliyatda borliq, inson, koinot, mavjudod mohiyatlarini, ularning murabbiysi vahdoniyatini yangi shariatga taslim tafakkur bilan mushohadalash barqaror, afzal va o'zgarmas mezonga aylandi. Ilm, ijod ishlarida Yaratganning roziligini

ko'zlab faoliyat ko'rsatish bosh g'oyaviy-badiiy, axloqiy-estetik muddao bo'lib qoldi.

Ijodga doir masalalarni tadqiqlash jarayoni ham xuddi shu adabiy-nazariy tafakkur tarzini talab etadi. Unda ham hidoyat hislari bilan yo'g'rilgan fahm-u farosat taqozo etiladi. She'riyat, shoirlik va nazmiy mahoratni baholashdagi bu salohiyat ash'orfahmlik deb qaralgan. Barcha davrlarda soha bilimdonlarining qarashlaridagi ash'orfahmlik qadrlanib e'tirof etilganini kuzatish mumkin.

Poetik talablar, o'lchov-qoidalar, yetuk idrokiy tamoyillarga doir Navoiy davrining tajribalari keyingi asrlar adabiyoti, adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi uchun dasturilamal vazifasini o'tab keldi. Asrlar mobaynida u davr adabiy-nazariy bilimlarini ma'qullamagan, mazkur qarashlarga ergashmagan, mas'uliyatni o'sha salaflar singari his etmagan nafis tab', ahli ilm uchramadi. Keyingi adabiyot tarixidagi har qanday yangilanish o'sha asoslardan quvvat olgan ko'rinishlarda sodir bo'lib keldi. Bobur, Munis, Ogahiy, Feruz, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy singari yuzlab o'zbek mumtoz shoirlarining ijodiy natijalari shunga dalolat qiladi. Yigirmanchi asrning 30-yillarigacha bo'lgan o'zbek so'z san'ati haq ta'limot o'rgatgan yo'l-yo'riqlardan og'ishmadi, turli ma'naviy xavf-xatarlardan omonda bo'ldi.

Insoniyatga ilohan buyurilgan hamma narsalar, ishlar, yaxshi amallar yo'lida bo'lganidek, ijodkorlik qarshisida ham turfa moneliklar, to'siqlar, adashtirguvchi mayllar ko'p. Bu – dunyoning sinovli hayot ekanligi tufaylidir. Adabiy ijodda, uning ilmida mohiyatdan uzoqlashish jamiyat uchun tahlikadir. Bu hol odamlarning estetik didlarini buzadi. Saviyalarini tanazzul tomon boshlaydi. Natijasi xalqqa taraladigan ishlarning zarari shaxsiy turmushdagi xatkorlik oqibatidan miqyosiga ko'ra katta bo'lishini fahmlash qiyin emas.

Tuzumda zulm, adolatsizlik hukmron bo'lib, ijtimoiy-siyosiy ahvol tubanlashsa, ma'naviy-ma'rifiy jarayon izdan chiqsa, e'tiqodiy odoblar rioyatiga zid harakatlar ehtimoli kuchayadi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyo o'lkalarini ishg'ol etishi yurtlarda johiliyat muhitini vujudga keltirdi. Turkiy xalqlarni parokanda etish, aholini qo'rqituv usulida boshqarish ularning yovuz maqsadlaridan edi. Barcha jabhalarning islohini

shior qilgan jadidchilik harakati namoyandalari haq yo'ldan toyilishning ijod sohalaridagi muayyan ko'rinishlarini ham keskin tanqidlari va o'z ibratlari bilan bartaraf etishga harakat qildilar. "Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafigimiz yumuruldi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizg'a tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yinsundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashrunturdik, emgaklarimizg'a o'rab saqladik...", deb yozgan edi davrining yetuk adibi, qomusiy olimi Abdurauf Fitrat. Tamoman to'g'ri poetik mezonlar bo'ylab asrlar davomida kelayotgan o'zbek ijodchiligi va adabiyotshunosligi o'z tarixida hech qachon sovet tuzumidagidek kufroniy, qattol to'siqqa duch kelmagan edi. Yigirmanchi asr boshlarida boshlangan bu yovuz mafkuraviy siyosat hujumiga turib berish, qalqon bo'lish, qarshilik ko'rsatish va, afsuski, jisman mag'lubiyatga uchrash, ammo abadiy sharafiga sazovorlik aziz jadidchilarimiz zimmasiga tushdi. Haq e'tiqod nasihatlari asosida yaralgan adabiy-nazariy mezonlar jadidchilik harakatlari bilan birga qatag'on qilindi. Bu siyosatning xayrixohi, qo'rqog'i, xizmatchisiga aylangan ba'zi ziyolilarning adabiyotni tekshiruv zayllari, adabiy tanqidlari noxolis bo'ldi. Ular ijodlarga qaysi metodlar asosida yondashmasin, ishlari mustabid hukumatning xalqparvar adiblarini ayblashga qaratilgan dalil-hujjat bo'lib xizmat qildi.

Adabiy jarayonda haq ta'limot ko'rsatmalaridan judolik ana shunday boshlandi. U mustaqillik davrigacha davom etdi. Hozirda uchraydigan e'tiqodiy hadlardan oshishlar, nafsoniy ifodalarga berilishlar dunyoqarashlarga mash'um sho'ro mafkurasidan o'rnashgan asoratlar va g'arbona qarashlarning ta'sirlaridir.

Bu kabi barcha hol-holatlar badiiy talqinni botilga, shirkka boshlaydi, saviyalar, onglarni to'g'rilikdan chalg'itadi. Ijodiy mehnatlarni esa zoye qiladi. O'tgan asrning 30-yillaridagi mudhish qatag'ondan keyin, xalqlar adabiyoti majburiy g'oyaviy qolipga solingan, siyosatga tobelangan, maddohga aylantirilgan davrda so'z san'atida uzoq yillar aldamchi ifodaviylik tamoyillari mag'rur yashadi. Asl mas'uliyat va islomiy hadlardan toyilishning adabiy ijodchilikdagi ko'rinishlarini ham haq

ta'limot ma'naviy kasalliklardir deb qaraydi. Ruhiyatni tarbiya qilishning, qalb islohining turli o'rinli muolajalarini o'rgatadi. Ayni hunarlarda ham insonning o'z ijodlari vositasida ikki dunyo saodatiga erishmog'ini xohlaydi. Islom olamining barcha asrlardagi iste'dod sohiblari shuning uchun ham ijodda hushyorlikni mahkam tutganlar.

Adabiyotshunos Bahodir Karimning "Diniy-tasavvufiy tahlil metodi (masalaning qo'yilishiga doir)" maqolasi badiiy ijodga yondashuvning juda muhim va hamisha dolzarb talab-taqozosiga teran munosabati bilan chuqur mulohazalarga chorlaydi. Olim metodlar rang-barangligi, metodologiya muammolari borasida fikr yuritar ekan, mumtoz asarlarni islomiy ta'limot mezonlari asosida tushintirishdek allaqachonlar (istiqlol davrida) boshlangan jarayondan bosh maqsad ulardagi asl ma'no haqiqatlarini anglash, anglatish ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi bu tamoyilni qanday nomlash masalasini o'rta qo'yadi va manzur bir taklifni ilgari suradi: "O'zbek adabiyotshunosligidagi bu amaliy hodisaga – badiiy asarlarni ham islom dini, ham islomiy tasavvuf nuqtayi nazaridan muhokama qilish, izohlash va sharhlash, talqin va tahlil etish hodisasiga **diniy-tasavvufiy tahlil metodi** deb nom berish o'rinli bo'ladi".

Bahodir Karim bugungi adabiyotga ham shunday asoslarda yondashish ehtiyojini e'tibordan chetda qoldirmaydi. G'arb adabiyotshunosligida ijod namunalarini xristianlik nuqtayi nazaridan baholash allaqachonlar mavjudligini, ilm bunday yondashuvlarni ham taqozo etishini, mumtoz va zamonaviy asarlarga islom dini ahkomlari negizida yondashish orqali ular haqiqati, yaxshi-yomon tomonlari ochiqqlanishini uqtiradi.

Oxirgi va mukammal islom amr qilingandan buyon barcha makon, zamon, barcha millat va uning ijodchiligi uchun ham aslida oliy mezon, oliy tayanch bu – haq ta'limotga har jihatdan asoslanishdir, uning hadlari himoyasida bo'lish, xoh diniy, xoh dunyoviy tarzlarda bo'lsin, ilohiy hikmatlarni jozibali taratish, insonga uning tub haqiqatini shu ta'limot zaminida turib anglatish, uni chinakam hidoyat sari boshlashdir. Bu – hayotdagi singari adabiy, ilmiy ijodchilikda ham garchi muhokama, shubhaga o'rin qoldirmas ilohiy majburiyat bo'lsa-da, sinov qilingan real

dunyoda hech kim unga majbur qilinmaydi. Ayni ta'limotiylikka da'vat jarayoni esa hamma vaqt davom etadi.

Sho'ro davri nasri, she'riyati, dramaturgiyasi eng afzal e'tiqodiy ijod an'anasi – haq ta'limotiylikdan tazyiqan qanchalik uzoqlashtirilgan bo'lsa, uning adabiyot ilmlari, tahlil, talqin, had, o'lchovlari ham ilohiy asoslardan shunchalik mahrum etildi. Adabiy ijod olami va jarayonining hamma masalalariga yondashuv tor, biqiq, rasmiy bir qolipda – tuzumning g'oyaviy-siyosiy shiorlari doirasida kechdi. Adabiyotshunoslikning har qanday munosabat motivini, so'z san'atidan kutadigan mazmunini birinchi navbatda ilohan maqbul haqiqatlar, hikmatlar emas, balki botil, soxta, balandparvoz tushunchalar boshqardi.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixining jadidchilik davri nihoyasigacha bo'lgan amaldagi etik-estetik tamoyillaridan farqli o'laroq, adabiy ijod va adabiyot nazariyasining bugunida sho'ro asorati sifatida kelayotgan bir mahdudlik – oliy ta'limotiylik maqomini tarqoq, chegaralab, parokandalab qarash bor: bu – haq ta'limotga rioyatni faqat diniy-mavzularga murojaat hamda shunday ruhdagi asarlarni diniy-tasavvufiy nuqtayi nazardan baholash doirasidagina tushunish, bu – umuman ijodchilikda yetakchi dunyoviylik ifodasini, uning mantig'ini, shu yo'nalishdagi tadqiqchilikni diniy-ta'limotiy yondashuv taqozosidan xoli, alohida jarayon sifatida tushinish.

Holbuki, ta'limotiylik barcha hol, ish, niyat tadbirida ilohiy yo'l-yo'riqlarga tayanish, u bilan muhofazalanish jarayoni, shuuriy va amaliy faoliyat. Ta'limot nozil qilingan, butun moddiy, ma'naviy olamlarni ihtotalab sobit turgan qoida-qonuniyat, had va odoblarning mangu barqaror, o'zgarmas samoviy majmuidir. Uni idroklamoq, unga qo'rquv va muhabbat ila taslim bo'lmoq ijodchi, tadqiqchidan, tabiiyki, e'tiqod bilimlarini, hikmatlilikni talab etadi. Ta'limotiy tahlil mas'uliyati adabiyot hodisalarini muayyan vaziyatlardagina shartli, nisbiy ravishda mavzuiy tarmoqlarga ajratib o'rganishga izn beradi.

Hozirgi ijodkorlikning xilma-xil shakllari rivojida mumtoz imoniy-estetik tamoyillarning tiklanib borayotganligi katta umidbaxsh fazldir va bu mustaqillik davri poetik, nazariy tafakkurining bugunga xos maroqli jihatidir, kamol yo'lidir. D. Quronov, N. Jabborov, B. Karim,

U. Jo'raqulov, S. Rafiddinov, K. Mullaxo'jaeva, D. Yusupova, O. Davlatov, I. Ismoilov singari qator o'zbek adabiyotshunoslarining mumtoz va zamonaviy adabiyot masalalariga oid faoliyatlaridagi ilmiy yondashuvlar haq ta'limotiylik nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli kechmoqda.

Ta'limotga mansub mas'uliyatning mukammal idroki yuksak tafakkurtalab ma'naviy-ruhoniy yo'ldir. Ijodkorlik va tadqiqotchilikning jamiyki ko'rinishlarida oliy maqsad insoniyatni asl e'tiqod, hidoyat sari jozibador boshlash ekanligini hech bir lahza unutmaslik mazkur sarbaland maqom – haq ta'limotga mansublik va munosiblikning buyuk shartidir.

Barcha makon va zamonga salohiyatli qilingan so'nggi islom inson saodati uchun ta'limotiylik borasida o'zga asoslarga muhtojlik qoldirmagan. Islom olami xalqlari, ularning adabiy, ilmiy ijodkorligi o'zining shu muqaddas ta'limotga asoslangan an'analarida sobitqadamligi bilan boshqalardan sharaflilik ustunlik kasb etib kelgan. Har qanday ijodkorlik, tadqiqchilik, har turli uslub, usul, metod, metodologiyaning unga itoati, rioyati esa amr etilgan ilohiy taqozo va boshqa muqobili yo'q afzalliklar olamidir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 3 jild. – T.: Ma'naviyat, 2003.

2. Бегали Қосимов. Танланган асарлар. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. – Т.: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022.

3. Шухрат Сирожиддинов. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.

4. Абдуғафур Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.

5. Баҳодир Карим. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Мухаррир, 2011.

6. Сувон Мелнев. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2008. 2 сон.

7. Афтондил Эркинов. Герменевтика – матн талқини таълимоти // Жамият ва бошқарув. – Т., 1997. 1 сон.

8. Баҳодир Каримов. Диний-тасаввуфий таҳлил методи // Filologiyaning dolzarb masalalari. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami. – T.: Tafakkur, 2025. – B. 18-26.

9. Узок Жўракулов. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.

10. Исломжон Ёқубов. Бадний матн ва эстетик таҳлил. – Т.: Fan va texnologiya, 2013.

11. Гулноз Халлиева. Қиёсий адабиётшунослик. Ўқув қўлланма. – Т.: Mumtoz so'z, 2020.

12. Набижон Боқий. Қатлнома. Хужжатли қисса. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1992.

Topshiriqlar:

1. Adabiyotlar bilan tanishing, ulardagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. Nabijon Boqiyning "Qatlnoma" nomli hujjatli qissasini o'qib chiqib, taassurotlaringizni bayon qiling.
3. Uzoq Jo'raqulovning "Hududsiz jilva" kitobi maqolalari bo'yicha taqriz tayyorlang.

ILOVALAR

SHE'RIYATDA SHIRKNING SHARPASI

Aytsam – o'ldirurlar Aytmasam – o'lam...
(*"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidan*)

Bismillahir Rohmanir rohiym!

Haq subhanahu va taolo dunyoni rango-rang mo'jiza, ne'matlarga boy qilib, to'ldirib qo'yibdi. Ularning aniq miqdorini odamzod bilolmaydi. Insonga ne'matlar qadriga yetmoqlik, shukronasini ado qilmoqlik, ulardan oqilona bahramandlik va ularni nomunosib joylarga isrof etmaslik buyurilgan. **"Ey insonlar, U sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq-yaxshiroq amal qiluvchi ekanligingizni imtihon qilish uchun o'lim va hayotni yaratgan zotdir. U qudratli va mag'firatlidir"** (*Mulk surasi, 2-oyat*). **"U zot insonni yaratib, unga (dilidagi maqsadini ayon eta olishi uchun) bayonni (nutqni) ta'lim berdi"** (*Rahmon surasi, 3–4-oyatlar*) Adabiy ijod – imkoniyat miqyoslari bag'oyat keng bir ne'mat. Negaki, uning vositasi badiiy so'z. Shu bois u turmush, ko'ngil hamda shuurning barcha manzillariga chaqirilgan mehmon misol tashrif eta oladi. Iqtidor sohibi bo'lmish ijodkor uchun har asar – yangi ijodiy safar. Yo'lovchilik esa hamisha zo'r tadorik va mas'uliyat hissini taqozo etgan. Hatto yetuk so'z san'atkorlari ham har gal navbatdagi ijodiy ishini qo'lga ilk bor qalam olgan havaskorlardek hayajon bilan boshlaydi. Iste'dod nechog'lik kuchli va zakiy bo'lmasin, borliq va ilohiyotni nechog'lik hislamasin, o'zi sezmagan holda Yaratganning madadiga mudom muhtoj bo'ladi. Ayni choqda, asarning komilligi, kemtikligi, to'kisligi, noqisligi – hammasi muallifning o'ziga, ichki omillariga borib taqaladi. Ulkan san'atkorlarda ifoda dalolatining kuchayib borishi, noraso va bemantiq yozishdan saqlanish, asranish, so'z borasida Yaratuvchidan qo'rquv, Undan mag'firat so'rashlar bekorga emas.

She'riyat mulkining Navoiydek chinakam sultoni bejiz qayta-qayta nazmiy tavba-tazarru bitmagan. **"Tengri ehsoni"** – qalamning rost-u

pok yozmoq uchun berilganini chuqur idrok qilgan shoir madh uslubini beravnaq biladi. Oq qog'ozga norost yozishni og'ir gunoh sanab, "kim xudo qilg'ay oning yuzin qaro", deydi. Allohga o'zining tog'dek buyuk dard-hasratini aytadi: komil inson bo'la olmaganidan nadomat chekib, endi "tavbai komil hidoyat aylagil..." debon yolvoradi. Ijod va ilohiyot tuyg'ulari mushtarakligi quyidagi murojaat-baytida yana umid – iltijo bo'lib yo'g'riladi: Rahmat suyidin yuvmasang ul nomani, oh, Mahshar kuni netkamen mene, nomasiyoh?! So'zga munosabat maromi islomiy imon bilan nurlanib turgan bo'lsa-da, bu benazir she'riyatga ham ta'natqid bo'lgani rost. Nazmning vazifasini zamonasida g'oyat nozik fahm etguvchi Husayn Boyqaro bir gal Navoiy ash'ori xususida kutilmagan fikr aytadi (mazmuni): "Bir bino qurmoqdek savobdan ne foydaki, agar nazmining ta'siridan el oshiqlik-u sarxushlikni tilar (o'rganar) bo'lsa; din-u Islom uyiga g'avg'o sola turib, savob ishlar qilmoq ne qadar hisobga o'tadi?"

Eshittim bazmining bir nuktadoni,
Shahi sohibqiron jon darmiyoni
Demish: ne sudki, bir uyni tuzmish,
Ki, nazmi shaynidin ko'p uyni buzmish.
O'qig'an el aning she'rini payvast,
Tilar bo'lg'ay hamesha oshiqi mast.
Solib Islom-u din uyiga oshub,
Bino-yi xayr butkarmak ne mahsub?

Shoh-shoirning, umriy hamdamning, qiyomatlik do'stning e'tirozi voqeasini Navoiyning o'zi "Siroj-ul-muslimiyn" risolasida ana shu tariqa hikoya qiladi, tanqidni tan olganini quyidagicha mardona e'tirof etadi:

Tushub bu nuktadin jismim aro pech,
Chu bildim, chin ermish, dam urmadim hech.
Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,
Ki, bo'lg'ay din-u Islom uyi ma'mur.

Badiiy adabiyot uhdasini qanday anglamoq va shundan hosil bo'lmish ijodning tub manbai qalamkashning o'zida, o'zligidadir. Olamlarning barcha asrori, insonning botiniy dunyosi Allohgagina ma'lum. Birov emas, bandaning o'zi botiniy sirlarini yetarli anglolmay

o'tadi. Va lekin botinda al-Botinning o'zigagina darajasi va maqomi ayon imon, e'tiqod, gunoh, savob, imkon, xullaski, turfa his, turfa jarayon bor. Bunday ahvolot ildizlari bir jihatdan ijtimoiy muhitga chirmashib tutashgan bo'ladi.

Binobarin, ijodkor qavmga sinov dunyosining ezgu nasimlari ta'siri barobarida muayyan mafkuraning manfur quyunlari tazyiqi bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Chunonchi, dahriylik atayin avj oldirilgan, turmushga kufriy amallar bostirib kelgan va kengroq tarqalgan kezlari jasoratkor, erkparast yetakchi adabiyot ham mudhish vaziyatda qolishi tayin: kim aldanadi, kim adashadi, kim isyon qiladi, kim dardini pardalab aytadi, kim yuzaki, kim astoydil murosa qiladi... Har nechuk hol sodir bo'lmasin, sabab – manba yana o'shadir – botin. Axir ijod dilda tilaklanadi, sayqallanadi, uning nurlariga qoriladi, "tarozi"sida o'lchanadi, so'ng zohirga taqdim etiladi. Aslida hayotdan, insonlardan olamiz, deyishadi adiblar ("Odamlarning o'zidan olib, odamlarga bermoqdir ishim"). Biroq o'z hunarlarida no'noq va jasoratdan mutlaq uzoq kishiga zohir (sharoit) tayyor bahona hamdir. Har qanday holatda ham "beayb – Parvardigor", degan gap to'g'ri.

Kufrona harakat va tamoyillari ustuvor mamlakatlarga mustamlakalikdan ofatli sinov yo'qdir, ehtimol: hamma jabhaga shirk oralaydi. Shirk Alloh taologa biron bir narsani ishlarida, ibodatda, ism-u sifatlarida sherik qilmoqlikdir. Bu gunohlar ichida eng yomoni bo'lib, O'zi barchamizni asragan bo'lsin va saqlasin. **"...Albatta, shirk katta zulmdir"** (*Luqmon surasi, 13-oyat*). Buyurilgan hamma ezgu amal – ibodat. Ibodatni o'z joyidan boshqa bir joyga qo'yish zulmdir, shirkdir. Yaratgan qolib, yaratqilarga – bandasiga, narsasiga sajda – shirk. Xoliqqa xos hamd-u sanoni maxluqqa nisbatan so'zlamak, ya'ni yolg'on maqtov va aldangan maqtov ham shirkdir. Yaratganni yaratiqqa, yaratiqni Yaratuvchiga mengzamoq, Allohga nuqson, ayb taqamoq – shirk. Vaholanki, Alloh nuqsonlardan pokdir! **"Alloh shunday zotdirki, hech qanday iloh yo'q, faqat Uning O'zi bordir. U (yolg'iz) podshohdir, (barcha ayb-nuqsondan) pokdir-salomatdir, (o'zi xohlagan bandalarini dunyo balo-ofatlari va oxirat azobidan) omon qilguvchi, (bandalarning amallarini) ko'rib-kuzatib turguvchi, qudrat sohibi, bo'ysundirguvchi**

(tanho) kibr egasidir. Alloh ularning (mushriklarning) shirkalaridan pokdir” (*Nashr surasi, 23-oyat*). Amallarni, savoblarni behuda ketkazdiradigan xavf ham shirkdadir, vallohu a’lam!

Ba’zi ulamolar shirkni qorong’i uydagi tim qorong’i tosh ustida ketayotgan qop-qora qumursqaga o’xshatadi. Kufriy mustabidlikda hayotning turli ko’chalariga shirk ana shunday bilintirmay oralaydi. Oralagan shirkning sharpasi voqelikdan ilgarilab yura oluvchi kuch – so’z san’atiga-da, uning uncha-munchaga sir bermas sohasi – chin she’riyatning muqaddas sahniga-da tushadi. Baqo xayolinigina emas, fano tarannumini, dard, uqubatini, ranj, muhabbatini yolg’iz Alloh uchun, Uning rizoligi uchun deb bilgan, nazm-u inshosini islomiy mezonlardan bunyodlagan mumtoz adabiyot ibratlaridan ajralish kuchaygan sari o’sha mash’um sharpa erkinsiradi va taltaydi. Keyinchalik qutlug’ istilohga va tazarruga ba’zan ulgurildi, ba’zan yo’q. Haq taolo kechirsin. “...U qudratli va benihoya mag’firatli zotdir” (*Zumar surasi, 5-oyat*).

Ajabki, dunyoyi foniya shirkning tuslanish shakllari ko’p. Sobiq Sho’ro tuzumi hayotida uning eng ommaviy, majburiy ko’rinishlari Inqilob, Lenin, Stalin va Kommunizm degan xomxayol bo’ldi. Goh galmagal, goh birgalikda bu sharpalar butun boshli umrlarni, imkonlarni, ijodlarni, salohiyatni o’ziga qaram qilib oldi. Mahv etishlar qo’rqitib qo’ydi. Yangi tuzum go’yo “Shaytanat taxtini yerga qildi jo”. Ellarning nafasi ichiga tushdi. Shirk sharpalari ilm-fanni, o’quvni, matbuotni, romanlar, dostonlarni, o’y-fikrni, orzu-armonlarni to’xtovsiz ishg’ol etdi. Zo’ravon tarzda go’zal adabiy obidalaridan o’ziga joy-mavqe talab qildi. “Leninnoma”, “inqilobnoma”, “stalinнома” va boshqa nomalar tug’ildi, “stalinнома”ning umri kaltaroq, qolgan “sharpanoma”larniki uzunroq kechdi, salkam muborak Istiqlolgacha keldi. Ilm-u tanqid ularni quvvatlashga mahkum, imo-ishora bilan bo’lsa-da, haqiqat sohilini ko’rsatib qo’yishdan ojiz edi. “Madh uslubi” markaz va chekka o’lkalarda endi parvozanayotgan yillari rost she’riyat fig’onlari allaqachon ko’klarda o’rlar edi. Uning jahl-u jaholatga, bid’at-u xurofotga, kufron-u qulliklarga, g’aflat-u kishanlarga isyoni behad edi. U xalqning dengizligini, to’lqinligini, isyonligini, ulug’vor kuchligini barcha

zamonlardagidek his etar, shuning uchun "quchoq ochib xalq ichiga" bormoqqa da'vat qilardi. Ammo tegrasiga boqib "G'arbning qonga to'lgan ko'zidek" bo'ronlarning o'ynoqlashini, "og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek" sarg'aymish yaproqlarni, o'lka boshi uzra "quyuq bulut ko'lankasi"ni ko'rdi. "Buzilgan o'lkaga" achchiq va mahzun savol-dashnomlar yog'dirdi:

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yancharlar?

Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga?

Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka,

Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib turar ko'lanka?

Ko'lankaning zug'umi haddidan oshib bordi. Siqilgan she'riyat o'z "soz"ini goh bir necha yil qantarib qo'ydi, goh til uchida ko'lankani xiyol kuylagan bo'ldi. "Bir necha yil qantarg'ach, Yana oldim sozimni, Endi aytib yig'lamas Ko'ngildagi rozimni" deya nolindi. G'azabga kelgan ko'lanka millatning, ma'naviyatning bir quchoq gulini yanchib qo'ya qoldi. Dil rozini aytishga ashaddiy haqsizlik, erksizlik, jur'atsizlik, xunobalik boshlandi. Chin so'z aytarlar, shartakilar, dardi ichidaligi sezilganlar bir-bir tavba qildirildi. Endi sharpalar she'riyat bo'stonida bemalol sayr qilishdi. Busiz ham omma ularga suyanchiq, nuramas qoyalar, bebaho zotlar deb qaray boshlagan edi. "Ko'p eskidir olam va unda Ko'p buyuklar o'tgandir, biroq, Biroq Lenin tarix so'ngida Buyuklardan chiqdi buyukroq", deb o'ylardi ulkan mamlakatning ulkan shoiri. "Ming yillarni qiynagan jumboq uning aqli bilan" topilgandek, "Chirik, qonxo'r tuzumning eshiklari" u bois taq-taq yopilgandek tuyuldi. Go'yo Chingiz uning tirnog'iga arzimaydi, oqsoq Temur uning qarshisida tuproqqa teng, Pyotr, Napoleonlar dengizdan bir tomchidir, fotih Iskandar "chavandozga bir qamchidir, xolos". She'r ("1924-yilning 22-yanvarida Samarqand. Samarqandda o'lmagan-ku ul?") vahshatli shirkning eng katta sharpasiga bevosita bag'ishlangani uchun tavsifga ta'sirli kulminatsiya topilishi, kulminatsiya ham imkon qadar dahriyona ifodalanishi lozim bo'ldi. Shunday qilib, mavzu baland martabaga ko'tarilib, mafkuraning dahriylikka doir bosh muddaosi ham bir yo'la qondirildi:

Agar xudo bo'lgan taqdirda
Aytganiga quloq solurdi.
Orqasidan sudralib yerda,
Har kun ming-ming saboq olurdi.

“Fir’avn”ning vafoti taraqqiyot yo‘lidagi xatolarning, muammolarning tushunilishiga turtki bo‘lolmas edi hali. Chunki uning loyiq “yo‘ldosh”lari ayni siyosatni og‘ishmay davomlatish qasdida edilar. Endi “Insonlikka bo‘lib bir quyosh” Stalin she‘riyat gulzorini payhon qilardi. “Bashar quyoshiga” maqtovlar betinim yog‘ildi (Bu damlarda Katta sharpa biroz nafas rostlab turgan tuyuladi).

Milliy moziyni nechog‘lik xarob, buzg‘un, benavo, zimiston ko‘rsatilsa, Sho‘ro tuzumining shonli, shodon, sharaflı anglanishi, shaxs madhining mubolag‘asi ta’sirli kechishi tayin. Xuddi shunday shuaroning she‘riy maktublari xalqning o‘tmishdan oh-u fig‘onini markazga, yangi dohiyga eltgan bo‘ldi. Zulm go‘yoki uning nomi tufayli yo‘q bo‘ladi, uning nomi bilan ko‘llar chayqaldi, o‘lim barham topadi. U – el baxti, panohi, ishonchi, a‘moli. G‘o‘za quloq chiqarganida uni asraguvchi quyosh ham o‘sha. Dohiy nimani xohlagan bo‘lsa, albatta, bo‘ladi...

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir kishi: “Allohning va sening xohlaganing bo‘ladi”, deydi. *“Meni Allohga sherik qildingmi? Aytgin, yolg‘iz Allohning xohlagani bo‘ladi”*, deb aytadilar payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam (*Muhammad Nasoiy kitobidan sahih hadis*).

Ikkinchi sharpa ham she‘riyatning har go‘sha siga beso‘roq bosh suqdi. “Basavlat”, “murtida nim kulgi” qiyofada ajoyib she‘rning to‘riga o‘tirib oldi (“Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak”). Beg‘ubor “Vaqt”ning hukmronligini o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘ldi: “Har lahza Stalin umridek uzun”. Qoyilmaqom badiiy tafakkur jilvalari aro “Tirik Stalinning nafasdashimiz” deyishga majbur edi donishmand shoir. Qaysi mavzuga qo‘l urmasin, ro‘parasidan sharpa chiqadi uning. Ba‘zan qocholmay qoladi sharpadan. Kattakon mamlakatning bir chetida xokisor kun ko‘rayotgan, qadimdan imonli, yetimparvar millatning yuksak bolajon fazilatiga ham sharpa zo‘raki tarzda sheriklikka keladi:

Domovoy kniga Bosh sahifasi
Stalin nomi-la boshlanur bizda.
Oila boshlig'i –
Ota Stalin
Baxtli manglayingga
Bo'sa qo'ndirmish.

Sharpa go'zal, sezgir, nozikta'b badanga chumoli o'rmalagandek she'ning tanasini seskantirib, jimirlatib yuboradi. Bo'sasining maqtovi qanoatlantirmagani uchun darrov keta qolmaydi. Bo'sasi "butun yer yuzini munavvar" qilguvchi quyoshga mengzalgachgina, she'rni tinch qo'yadi. Vaqti-soati kelib, hassos shoir zo'ravon sharpani yayrab o'chirish saodatiga musharraf bo'ldi. Tug'ma iste'dod sohibi ham, zilday ortiqcha "yuk"dan qiynalib xalq bilan baravar qadam tashlab kelayotgan zabardast she'rlar ham yengil nafas oldi. Ne ofatkim, shoir o'sha yillari orzularini ham uning ishtirokisiz aytishga botina olmas edi:

G'olib kelajakni sayr qilaylik,
Mo'ysafid Stalin bilan ikkimiz. ("Sog'inish")

Allohning vaqti va makonida kamtarin shoir zamonlarga zamondosh kelayotgan holda, sharpa Alloh buyurgan she'r yo'lining qiyinchiliklariga dosh berolmadi. Shoir esa hamon el xizmatiga baholi qudrat kamarbasta, istiqlol avlodlarining og'irini yengil qilishga safarbar:

Siz axir osmonni olmoq bo'lsangiz,
Ne uchun yelkamni tutib bermayin?!

Shaxsga sig'inish qilar ishini qilib bo'lgach, Allohning irodasi bilan qoralandi. Shirk sharpasi endi o'sha "xalqlarning otasi", "xaloskori" qiyofasida tustana olmay qoldi, martabasi birmuncha pasaydi. Otdan tushsa-da, egardantushmas takabbur singari o'zga shakllarda uzoq izg'idi. Ilinji katta dohiyda, u asos solgan partiya va kommunizmda qoldi. Sharpa badiiy targ'ibi odatdagidek ko'proq she'riyat zimmasiga tushdi. Shunga qaramay, nisbatan yengilroq, yumshoqroq vaziyat paydo bo'ldi.

O'z dardi, armoni, anduhi, muhabbati tarannumini ko'rgan xalq nazmning asl mohiyatini qayta va yangicha his eta boshladi. She'rga bu davrdagi ommaviy ehtiromni balki doston qilmoq mumkindir. Alhosil,

she'riyat "onajonim" deya tabarruk ataldi. Shu yillar "sharpa she'riyati"da ehtirossiz va ehtirosli asarlar talaygina. Aksar asarlarning yengil-yelpiligi muallifning ideallashtirilgan dohiyga muhabbati yuzakiligi bilan emas, iqtidor darajalari bilan izohlanadi. Shuningdek, g'oyaviy-badiiy jozibadorlari ixlos, ishonchning o'ta zo'rligidan bo'lmay, poetik mahoratning balandligi tufaylidir. Barkamol bir she'rning lirik qahramoni "Poyoni yo'q tarixning kechmishini" maroqli umumlashtiradi, zamonlar qarshisida lol qolgan yosh idroki ila dunyo ishlarini kuzatadi:

Unda birov quradi, birov buzar bemalol,
Ba'zan yomon ot qolur yaxshi odamdan hatto.
Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun,
Nahot, deyman, dunyoda sobit narsa yo'q aslo,
Nahotki, yetuklikning timsoli yo'q bus-butun?..
Ha, sadaqa kam erur mangulik xaltasida,
Payhon bo'lur saroylar, qancha yuksak qabrlar.
Goh oddiy tasodifning oddiy bir hamlasida,
Kapalak qanotiday uchib ketar qasrlar.

Lirik qahramon "mangulikning oynai jamolida" "sevgiday abadiy va suyukli" qoladigan, "inson beminnat... tavof" qiladigan, sajda etib dilini yoradigan, haqiqat axtarganda yod aylaydigan eng buyuk zotni izlaydi. Va... faylasufona idrokning bebaho mavji, betakror qiziqarli, topishmoqli ifodasi asr boshlaridayoq "zamin darg'asi" yanglig' o'ta yuksak sifatlarda ulug'langan nomga kelib taqqa to'xtaydi. Bu mazmun, bu g'oya, bu to'xtam, bu mahorat aytilmagan gapi qolmagan mavzudagi tamoman yangi hodisa edi. Ehtimol, mavzuning Mayakovskiydek sardori ham buni ko'rib hayratdan yoqa ushlagan bo'lardi. She'r shunday yaralganki, taassurot jozibasi shu qadarki, sarlavha va so'nggi misrada keladigan bir ismgina endigi she'rxonni g'alatiroq holatda qoldiradi. She'rxon asarni adabiyotdan o'chirgisi, "itqitilayotgan" she'rlar uyumiga topshirgisi kelmaydi: sevay desa, sharpa bor, sevmay desa, betakror. Go'yo dard-u tavsifi yetuk she'r hali nomunosib ismdan voz kechib, o'z egasini topadigandek, so'ngra baxtiyor yashaydigandek. Go'yo shoir bu nomni istiqlol kunlarigacha murosasiz yuzasidan qo'yib qo'ygandek. "Ikkita so'zini

o'chirsammikin, almashtirsammikin", deydi shoir istiqlool arafasida dardnok va hazilomuz.

Adabiy munaqqidlardan biri demishki, ko'plab o'rtamiyona ijodkorlar o'n yillab qilolmagan ishlarni kuchli iste'dodlar bir zumda ro'yobga chiqaradi. Bugina emas, zo'r talantlar mavzularning favqulodda qirralarini, gaplarini topadilar. Hatto "majburiy", "buyurtma" asarlarda ham. Basharti, talab, tazyiq, majburiyat, ishonch-ixlos qanchaligidan qat'i nazar, sal kam asr oxiriga qadar kelib taqalgan leninnomada ham yangilik aytishga intilish kam bo'lgan emas. Oltmishinchi yillar she'riyati, jumladan, yana nimalar deydi: "Haddan ziyod go'zal so'zdir – Lenin", "Leninga topshiraylik yigirmanchi va undan keyingi cheksiz-cheksiz asrlarni...", "Yana ming yil, yana ming asr, insoniyat qilg'uvchi qadr", "Ilhom bergan yosh Ilichga muhabbatim zo'r xolos"... Har qandayin ideallashtirishga qarshi fikrlar har lahzada yangrab turadigan sobiq mafkura "yangi" davrida tanho dohiyning ideal obrazi yangicha poetik talqinlar qanotida ko'klargako'tarildi; bu ulug'lash "uning asli o'zi shunaqa edi" deya xaspo'shlandi; "eng buyuk odam" – "Ilich yur dedi" – yurildi, "Ilich qur dedi" – qurildi, "Ilich nur dedi" – nur bo'ldi. Bu paytda ham sharpa o'z tabiatiga xos muhim jihat – bid'at bilan qorishiq yashadi: "Ko'zimizga ishonmasak, So'zimizga ishonmasak – Leninga ishongaymiz", "Muqaddas ul koshona, Ostonsi mo'tabar, Pok etsin ruhan, qalban, Leninning ruhi bizni", "Leninning qoshiga bo'zlab boraman... Bunda u ko'zlarni tinglamoq kerak, Poklanmog'i kerak har qanday yurak".

Yorqin iste'dodlar hali dahriyligi, ateistligi keskin muhitda mangulik timsoli va hukmdorini izlar ekanlar, ko'p hollarda tavba, dard, nidolarini ona Xalq, ona Vatan, ona She'riyat, ona Tabiat kabi beshak muqaddas tushunchalarga qaratish bilan farqlandi. Bu esa ular she'riyatlarini kelajak sari eltadigan, keyingi davrlar to'fonida biroz muhofazalaydigan fazilatlaridan biri bo'ldi:

Ollohn tan olmagan Kommunistik bashariyat
Tanib oldi ilohiy deb seni, She'riyat.

Yoki:

Ey meni olamga keltirgan qismat,
Jonlar volidasi – ey oliy momo,
Charxmisan, falakmi yoki tabiat,
Shukronam ayturman senga, avvalo.

Keyinroq juda qiyinchilik bilan “mangu” obrazning idealligiga shubha uyg‘ona boshladi. Uning sharpaligi xususida, holbuki, o‘z davridayoq aytilgan, lekin tarix puchmoqlarida yashirilgan gaplar bosh ko‘tardi. Unga boshqacharoq tafakkur ila munosabat bildirish baribir oson kechmadi. Chunonchi, dinga munosabat borasida Sharpaning Gorkiyni siquvga olishi, unga dashnomlar berishi voqeasida faqat dohiy yoqlanib kelingan bo‘lsa, 80-yillar shoiri Gorkiy tomonidagi haqiqatni bir chimdim ilg‘agan bo‘ladi:

Ustoz, sen bir inson umri muqaddam
Xato qilgan eding, izlab xudovand.
Ne tong, daholarning xatolari ham
Mayda, rost yo‘llardan yuz karra baland.
Ishondim, dunyoga kelgan kunidan
Bashar izlamabdi besabab Iloh.
Men bugun qo‘rqmasman din af‘yunidan,
Xudosi yo‘qlardan qo‘rqaman biroq.
Imon deng, vijdon deng, mayli otini,
Lekin odamzodning Xudosi bo‘lsin.

Albatta, mazkur avlod vakillari bu “abadiy” mavzuga sharpanoma ustozlarichalik berilmadi, bu haqda oz yozishdi. Bir necha donadan she‘r, “Charog‘bon”ga bag‘ishlangan bir-ikki dostoncha shoirlarimizning o‘zbek adabiyotidagi baquvvat mavqelariga soya sola olmaydi. Mustaqilikka intiluv kuchaygan yillari va istiqloq kunlarida shunday masalalarga she‘riy munosabatning teranlashuvida ham ularning ilg‘or, ibratli hissalar bo‘layotir. Insonning xilma-xil ulug‘vor, murakkab, ziddiyatli falsafiy mohiyatini betakror aruziy misralarda kuylagan go‘zal she‘rning mana bu parchasini eslaylik:

Sen hilol, yulduz, salib,
Tavrot, Zaburdin yuksalib,
Boymisan yoki g‘arib,
Komron o‘zing, yakson o‘zing.

Hilol, yulduz, salib poetik ramzlari, muqaddas kitoblar nomlari bashariyat tarixining mitti, mo'jaz tavsifini, hilol – komillik aqidasiga yetmoq saodatini g'oyalantirishga qaratilgan. "Hilol"dan keyingi vergulning misra ma'nosini belgilashdagi rolini mushohada qiling. Tinish belgi "sen"dan so'ng qo'yilsa, boshqacharoq mazmun chiqar edi. Xiyol fikrlashga chorlashi, so'ng "fikr"ning topilishi, "topildiq" fikrning umuminsoniyligi, shubhasiz, o'quvchini she'riyat kuchiga ishontiradi. Zug'umi bor yillarda ustoz: "Bu yillarda rahnamo bo'la olmadi, na Zabur, na Tavrot, na Injil, "Qur'on" deb yozgan bo'lsa, endigi hilol madhi boshlanayotgan nusrat nasimining shogird-shoirlarga xush ilhom edi, ehtimol. Biroq umumiy nazar tashlanganda, she'riyatimiz shunday ulug'vor Mustaqillik sharoitida to'la kuch bilan munosib ijod qilmayotgandek tuyuladi. Xususan, Vatan, Istiqlol, Mustaqillik, bu betimsol ne'matlar qadri, shukronasi, mas'uliyati, tarannumi borasida diltortar namunalar yo'qdek. She'riyat bobida yana bir muammo – yengil-yelpi asarlar ko'payishi, ularning kuylanishi. Ularda san'atdan yiroqlik, fikriy mahdudlik, uslubiy g'alizlik, mayda gaplarga o'ralashish, hatto bid'at, behayolliklar ham ko'zga tashlanadi. Ularda ham bilinib-bilinmay nomaqbul "sharpalar" kezib yuribdi. Ular haqiqiy o'zbek she'riyati haqidagi tasavvurni buzmog'i mumkin.

Ibn Qoyyim rahimahulloh shirkni sohilsiz dengizga qiyoslab, yozadilar: "...kimki, biror amalini Allohdan boshqasi uchun qilsa, Allohga yaqinlashish uchun emas, balkim boshqa narsani ko'zlab niyat qilsa va undan mukofot kutsa, darhaqiqat u niyat ila xohishda shirk keltirgan bo'lur. Ixlos esa niyat, xohish, so'z, amalni xolis Alloh uchun qilishlikdir...". Ba'zi o'tkinchi mavzularning she'riyat tarixi sahifalarini xiralashtirgani achchiq saboq bo'lmog'i kerak. Ammo bugun o'z ilhom, iqtidorini siyqa, bachkana, behayo yalang'och ifodalarga, qofiyabozlikka, shaklbozlikka bag'ishlab, avlodlar tasavvurini, san'atga nisbatan qarashlarni buzayotganlar noxushligi o'sha ilojsizlik zamonidagidan mudhishroq. Qur'oni karimning Shuaro (shoirlar) surasidagi vaziyatga qarab tovlanadigan, noraso va besamar narsalarni yozadigan, umuminsoniy hislarni izdan chiqaradiganlarga qanday hukm mavjudligini, 227-oyatda esa qaysi toifa shoirlarning ozdirguvchi emasliklari to'g'risida

Yaratganning kalomi borligini qo'liga qalam tutgan hech bir inson unutmasligi zarur. Janobi Haqning o'z kalomida tong, kecha, yulduz, qiyomat kuni, quyosh, uning yog'dusi, burjlar egasi – osmon kabilar qatorida qalam va unda farishtalar bitadigan bitiklar bilan qasam ichishi qalam va bitikning ma'suliyatini, yukini his qildirmaydimi?

Payg'ambar alayhissalomning bir qator muborak hadislar she'riyatning ezgu vazifalaridan boxabar qiladi. Shuaro surasining oldingi oyatlaridan tashvishlanib kelgan sahoba-shoirlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam deydilar: *"Mo'min kishi ham tig'i bilan, ham tili (ya'ni qalami) bilan Alloh yo'lida jihod qilur. Yaratgan egam nomiga qasamki, sizlar otadigan o'qning tig'i o'tkirroqdir"*. Rahmli, mehribon va eng buyuk kechiruvchidan umidimiz shuki, Mustaqillik zamonida huzurida ibodat sanaluvchi ilm, ma'naviyat, madaniyat, san'at va adabiyotimizni chiroyli yo'llardan boshlasin, roziligiga munosib yuksaltirilsin. Zero, Ogahiy yozganidek, "...she'r bir ne'mati uzamodurkim, Tangri taolo oni har kishiga ato qilmomishdur va oni aytmoq hunari har kimning qo'lidan kelmamishdur va she'r shoirlarning izzat va davlat ne'matin hosil qilmog'ig'a sabab, balki ikki dunyo manzilatini saodatig'a vosil bo'lmog'ig'a boisdur".

Biz yuqorida baholi qudrat sobiq Sho'rolar davri she'riyatimizda yuz bergan noxush holatni – shirkning sharpasi haqidagi kuzatuvlarimizni bayon etdik. Mana, Istiqlol quyoshi shoirlarimiz boshi uzra soya solgan mafkuraviy ta'qib va tazyiqlarni tumanday tarqatib yubordi. Endi qalbga tug'yon solgan ehtirolarni, nurli his-hayajonlarni, e'tiqod-u imonni bemalol e'tirof etish imkoni tug'ildi. Biroq ijodkorlarda ana shunday sharoitda ham bir qadar jur'atsizlik ko'zga tashlanayotganday. Xo'sh, bu jur'atsizlikning boisi nimada, loqaydlikning sababi qayoqda? So'z erkinligiga erishilgan bir zamonda baralla kuylamasak, ko'ngildagi ehtirom-u tazarrularni, sevinch-u alamlarni oshkora aytmamak, qachon aytamiz?

Endilikda she'riyat bilib-bilmay qalamga olingan "sharpalar"ni sig'dira olmaydi. U mafkuraviy siquvlardan najot topgan. Mana shunday sharoit she'riyatimizning ertangi kuni porloq, yuksak bo'lishiga umid uyg'otadi. Maqolaga nega o'zbekning zo'r, gigant shoirlari tanlandi,

dersiz? Axir begonadan o'pkalanilmaydi. Adabiyotda ham begonaroqlar bo'ladi. Qolaversa, bu o'pkalanish, islomiy yoxud adabiy nasihat emas, mushohadadir. Kechmishni tushunmoq, xatolardan tiyilmoq, istig'for aylamoq – yo'limizdir. Tazyiqkor sobiq tuzum "darsini", "Aytsam tilim kuyar, aytnasam – dilim" holatidagi erksizlik azobini unutmagan adabiyot Istiqlol qadriga munosib kuylamoqni ham biladi. Cho'lponni, Hamid Olimjonni, G'afur G'ulomni, Erkin Vohid, Abdulla Orif va Rauf Parfilarni, ularning rango-rang, benazir adabiy fazilatlarini hayrat bilan qadrlayman. Zamondoshligim, nafasdashligimdan quvonaman.

Qolaversa, hali asl bo'y-basti, dilbar salohiyati elga to'g'ri tanitilishi zarur bo'lgan Hamzamiz aytmoqchi, "bugungi qadrli kunlar" shunday talqinlarga imkon berdi. Muddao esa hech bir o'zbekdagina, shaxsiy shon-shuhrat, xatosi bordan qochish qabilida bo'lmasligi zarur. Negaki, Vatan deb, milliy g'urur deb, ma'naviyati yuksak nasllar deb, yonib mehnat qilmoq kunlari kelgan. Yana Hamzamiz aytmoqchi: "Bu kun izzat-hurmat, daraja va martaba talab etuv kuni emasdur, anglash kuni! Bu kun har bir millatin tonuvchi, suyuvchi zotga belini ustidan bog'lab, yugurib xizmat qiladurgan kun..."

1997-yil

OSHIQONA SHE'RIYAT YOXUD BOTIL MUHABBAT

“O‘zni har mahvash uchun shiftai hol aylamangiz”

Alisher Navoiy

Muhabbatchalik she'riyatga shoh, she'riyatga quldor tuyg'u, sulton yo'q. Ibtidosi hamma hisdan qadimiy, umri hamma mavzudan uzun, jozibasi betimsol uning. Imkoni hech poyon bilmas, shu'lası tushmagan makon-u zamon bo'lmas. Nafosat va fasohat, balog'at va kamolot, matonat va musibatning muhabbat va muhabbatsizlikka dahlsiz jihati aslo uchramaydi.

She'riyatchalik ham muhabbatga shaydo, oshiq-oshufta qul yo'qdir. Yaratganning madadi ila bandasining qo'lidan keladigan ijodlar ichida muqaddas tuyg'u poetik izhoriga rangin usullar, uslublar vositasida eng yaqin boruvchi san'at navi she'riyatdir. Ishq bobida uningdek dalli devona, uningdek dili dardxona balki topilmas. She'rparastlar hech qachon o'zlarini muhabbat tarannumiga to'la-to'kis erishgan deb hisoblashmagan. Bunda badiiy so'z muddaosining intihosi bo'lmaydi. Zotan, she'riyat undan yaraladi, usiz g'arib-u nokerak narsaga aylanadi. Ammo qanday muhabbat aziz va joiz? Ammo qanday muhabbat rost va beg'ubor? Qanday Haq rizoligi sari eltadi, asl saodatga kafolat beradi? Ishqlar ichra qaysisi abadiydir, buyukdir? Buyurilganidan o'zga “muhabbat” nimadir? Qay ishqni qay yo'sin ifoda etgan yaxshiroq?..

Ilmi adabda muammoning yana sanoqsiz so'roqlari, jumboqlari bor. Bu toifa masalalar bizning kunlarda har nechuk kechmish asrdagidan ko'ra serqirra va munozarali. Taassufki, shundaydir.

Jamiki a'mol, ijod, natija insonda uning e'tiqod sifatiga mos bunyodga keladi. E'tiqoddagi egrilik, sustlik, bo'shanglik chekilgan zahmatni zoye qilmog'i mumkin. Rost yo'l bildirilgan, ko'rsatilgan, asoslab berilgan. Go'zal, komil, mukammal, umrboqiy e'tiqod Islomdadir. Tabiiy muhabbatlarning to'g'rilik hamda abadiylikda tanhosi Tangri taologa bo'lgan muhabbat sanaladi. Dunyoviylari esa ikki toifadir: biri bandani ajr-u mukofotga muyassar etguvchi, boshqasi

adashtiruvchi, gunohga botiruvchi, sinov muddatini botil ketkazguvchidir. Ya'nikim; birinchisi yaratilarni – hayot ne'matlarini, insonlarni, el-ulusni, yurt-makonni Alloh uchun sevmqlik bo'lsa, ikkinchisi nimalarnidir, kimlarnidir Alloh bilan birga, Unga teng qo'yib, Undan ustun taxmin qilib sevmqlikdir. Bu nomarg'ub muhabbatda vujudiy manfaat g'olib yuradi. So'z san'ati, binobarin, nazm islomiy imon yog'dusidan qachon chiroyli bahramand bo'lgan bo'lsa, o'shanda shunchalik yuksaklik va yashovchanlik topgan. Aksincha, undan qanchalar olislasa, yuz o'g'irsa, shakkoklik qilsa, nokerak ishvalarga uchsa, o'ziga jabr qilgan – tanazzulga uchragan. San'atkorlar o'z iqtidorlari bilan ham Yaratganning huzurida mas'uldirlar, sinovdadir. Shuningdek, umuman dunyo turmushidagi singari ijodiyot jabhasida ham xatolar ildiz otsa-yu, ularni bartaraf etmoq uchun odil mezonlarda ittifoq qilinmasa, soha ahli va bilib-eshitib jim turganlar baravar gunohga dohil bo'ladilar. E'tiqod mo'rtligida nafs balo foniy hayotning u yoki bu rohatini, narsasini, go'zalligi va shirinligini betinim xohlaydi. Qizg'anadi, to'ymaydi. Islom nafsni, hirsni, hasadni, noxolis havasni jilovlab turadi. Botil hislar tasviriga og'ib ketishi mumkin bo'lmish she'riyatni ham baquvvat imon doirasida saqllovchi, g'aliz g'oyalardan qaytaruvchi o'shadir. "To'sdi imon yo'limni, kufr sudradi olg'a" deganida Mirzo G'olib aynan shu achchiq, ammo ro'y-rost haqqoniyatni nazarda tutgan edi. Islomiyat dinni dunyodan ajratib qaramaydi. Uning ta'limotida me'yor, o'rtahollik kabi olijanob o'lchovlar bor. U yorug' olamning barcha soha va zamonlari manfaatini o'zida mujassam etgan. Sharqdan chiqqan o'nlab allomalar, daho shoirlar bu chin aqidasiz, shubhasiz, shunchalik baland dunyoviy martabalarga ko'tarila olmagan bo'lur edilar. Mazkur masalalarda shubha-yu bahslar noo'rin: islomiy imon ijodlar, ilmlar, dunyoqarashlar, hukm-xulosalarning bosh mezonlaridan ekanligi tayin.

Asrimizda odamzodning o'z-o'ziga zulmi behisob bo'ldi. Mamlakatlararo nizolar, jahoniy urushlar, mustabidliklar, ocharchilik va qatag'onlar, xullas, noxush – manfur hodisalar ko'p kechdi. Adabiyotlarda yaxshi-yomon o'zgarishlar, ta'sirlanishlar sodir bo'ldi. Sobiq Sho'ro tuzumida she'riyat ilohiy ishqdan zudlik bilan vidolashib,

uni uzoq muddat esdan chiqardi. Mafkura buyurgan chog'larda ilohiyotga qarshi dahriyona gaplarni she'r qilib hayqirtirdi. Tushunib-tushunmay, Xudoga shirk keltirish yo'liga kirdi. Qo'rqmadi. Adashdi.

Erk sari intilishlar, intilganlar tajribasi, Istiqlol muhitidagi imkonlar bois nihoyat ravshan bo'ldiki, poeziyaning katta-kichik bor qusurlari – mutelikdan, dahriylikdan, jur'atsizlik, johillik, bejihodlikdan, dangalini aytganda, imon bo'shligidan. Milliy she'riyatning alamli judoligi Xudoga muhabbatni yozishdan mutlaq mahrumligi edi. Oqibatda u faqat dunyoviy muhabbatlargagina inonib va suyanib qoldi. Butun zavq-u ovozin shularga bag'ishladi. Shundagi halovatni, visolni, hijronni, lazzatni birlamchi g'oyaviy-estetik maqsad maqomiga ko'tardi. Fanodagi yor sevgisini tavof etdi, uni yolg'iz iloh deb bildi, Xudodan ustun qo'ydi, unga sajdalar qildi. Musulmon dunyosi nazmining ildiz-ildizigacha obi hayot taratib turgan an'anadan nogahon voz kechilib, Iloh yodi – sevgisining ziddiga qarab ketildi.

Xo'sh, muslimona yo'lda majoziy ishq radetilmas ekan, asr o'zbek shuarosi uni talqin etmoqqa haqli-huquqli sanalgan ekan, klassik fasohatga xos chuqur ramziylik, yuksak seribolilik, ko'pma'nolilik kabi fazilatlar aksar ijodda nega kamaya bordi? Nega jo'n va qashshoq, soxta va beibo, mahdud va takabbur, mute va notavon oshiqlik she'riyati ham barpo bo'ldi? She'riyatimiz o'tgan yo'lning yaqqol ko'zga tashlanuvchi "madaniy sevgi" xosliklaridan ba'zilarini saboq bo'lsin degan niyatda xotirlaylik. Yigirmanchi yillarda sohibjamol qizning qandaydir cholgami, boygami, "yot unsur"gami uzatilganidan o'kinish, kelinchakni bul erdan aynitish, yovuz changaldan qutqarish, ozod turmush faoliga aylantirishga harakat tasviri siyosiy poetik majburiyat tusini oldi. Sharq qizida jaholat qa'ridan ilm-u ma'rifatga, ijtimoiy ilg'orlikka talpinish va jamiyatda bunday tamoyilga ma'lum ehtiyojlar sezilganligi yolg'on emas. Lekin shu mavzuda bitilgan qator asarlarda "tutqin" ayolning eriga, erning xotinga nomunosibliigi sira his etilmaydi. Shariat va odamgarchilik qoidalariga xilof ravishda, "begona" oila vaziyatini yetarli yoritmay turib, lirik qahramonlar oilalarni "buzishga" chog'lanadi. Aytaylik, kelinchakning chechaklar dastalab kimnidir kutishi psixologik jihatdan nahotki uning eri chol ekani, nozik

qalbi qonga to'lganidan dalolat bersa? Shoirning "notanish" juvonne "bebaho go'zalim", deya alqashga shar'iy huquqi bormidi? Yo'q joydan ayolning eri "yomon"ga chiqariladi. Birovning mahrami – kelinchak yangi turmushga, ko'plar safida o'ynab-kulishga chaqiriladi:

Gul bermoq istagan "oshig'ing" sening
Chol emasmi, erkam, yalqov, erinchak?..
Kel beri, barchamiz o'ynab kulamiz!..

O'sha davrda muayyan adabiy masalalar talqini, chunonchi, dohiylar, ideallar ta'rif-tavsifining shirk darajasiga olib chiqilishi kuchli siyosiy talab bilan bog'liq kechganini e'tirof etmay bo'lmaydi. Ammo sevgini tasvirlashda ham o'shancha majburiy g'oyaviylik taqozosi bo'lgan deyish o'zini oqlamasa kerak. Tuyg'ular tabiiy oqimini yozolmaslikning, sayoz-soxta, qaltis-g'alati kuylashga berilishning asosiy sababchisi ko'pincha shoir qavmining o'zi va buzilayotgan dunyoqarashlar ekanligi seziladi. Har qanday she'rni inson to'qiydi. Qaysi zamondagi, qaysi mavzu va janrdagi namunani kuzatmang, unda shoir o'z xulq-atvorini, ma'naviyatini sizga taqdim etib turgan bo'ladi. Xush-yoqimli ijodda ham, noxush-yoqimsizida ham. Shunday ekan, ijodlarning turfa yuksak yoki turfa ojiz siyrat-shamoyillar namoyish etmog'i turgan gap. Shoirona moyilliklarning g'alati, g'aroyib so'qmoqlari ko'p. Bunda ham adashmoqlik oson, bunda ham cho'qqilarni zabt etmoq juda mushkul.

Taqriban 30-yillarda moziy "sevgi baxtsizliklari"ga zid o'laroq, porloq ishqiy munosabatlar, visol nashidalari, sevgining sotsialistik shijoati maqtovi she'riy urf bo'la boshladi. Qator ash'or, dostonlarda Sho'ro davlati, kollektiv xo'jalik, zavodlar, fabrika va maktablar bularning ilk tanishuviga sabab, sevishib qolishiga turtki vazifasini o'taydi. Jamiyat sevishishga, visolga yetishishga, to'y qilishga ko'maklashadi. Hatto o'pishishni o'rgatadi. Ularning tuhmatona tasviricha, eski turmush muhabbatlilarni bir-biridan doimo judo qilib kelgan, eskida baxt sevgiga etagini tutqazmagan, yangi tuzum ishqni himoyaladi, sevishganlarni qovushtirdi. "Qora botir"larni yo'q qildi. Dohiy "pok sevgiga va o'rgatdi vafoga". Xuddi o'sha kunlardan "Bo'sa" poetik obrazining omadi kela boshlagan edi. Klassik she'riyat asrlar mobaynida bu hodisani

ifodalashdan uyalib kelgan, necha yuz yilda sanoqli tilga olgan, shunda ham "bo'sa"ni ramzlarga qorishtirib taqdim etgan edi. Bo'sa endi milliy so'z san'atini cho'chitib kelgan ehtiros nishonasi sifatida she'riyatga mustahkam o'rnamashdi. Asta-sekin tasvirdagi sevgini dalillaydigan, hayotiyligini isbotlaydigan "hujjat"ga aylana bordi. Inqilob bergan tuzumdagina "Labda bo'saning toti umrbod qoladi"gan bo'ldi. "Men yigitman, deydi shoir, buni ta'kidlamoqqa hojat bo'lmasa-da, – sen barkamol qiz, bo'sa berding safoli tunda". Bo'sa deyarli barcha ijodxonalarga kirib bordi. Uning shakli, hol-holati xil-xil tuslandi. Sharqiy hayot va sharqiy fasohatda misli ko'rilmagan yangichalikning boshlanishi edi bu. She'riyatning nigohi hatto ko'cha bo'salarini nazardan qochirmadi, o'zi bilmagan holda bo'sa tasvirini targ'ib etdi. "Tonggi bo'sa" (1936) she'ridan parcha:

Biri fabrikaga, biri maktabga,
Biri ketar paxtazoriga.
Yo'lda keta turib biri kular,
Biri bo'sa berar yoriga...

Xullas, oshiq she'riyat bo'saga mayl qo'ydi. Tinimsiz o'pich olaverdi. *Sevgi deganda bo'sa, bo'sa deganda esa sevgi anglana bordi.* "Lab" ila "Bo'sa" zamonaviy she'riyatda qadim hayosini, sirkorligini saqlab qola olmadi. Ularning tan muhabbatiga mansublik ma'nosi avj ohanglarda kuylandi. Baxtli o'shal zamondan hozirgacha bu ohanglar zamirida nimalar idroklanishi bilan, oqibati qanday tomonlarga olib borajagi bilan, bunday so'zonalikning javobgarligi borligi bilan deyarli hech kimning ishi bo'lgan emas. "O, bu lablar qarg'ash uchunmas, Bo'sa uchun yaralgan lablar", deydi sevgi kuychisi. Yorlar ham so'z o'yinida yoki munosabatda oshiqalar bilan teng huquqli, ulardan qolishmaydi. "Gul-u rayhon-u bodom, pista, nor-u g'unchalar yoyib, husn bozorida bizni xaridor etmadingizmi?", deguvchi g'azalnavisga yor: "Baham ko'r, neki bo'lsa, men bilan birgalikda, jonim...", deydi. U yillardan xotira – "Yangi sharoitda yangicha ishq" nomli she'r bor. Ushbu sarlavhaga hammaslak, mos-munosib keladigan yuzlab she'rlar mavjudki, ularda zamona qizlarining huquqda tengligi, go'zallikning mehnatda "namoyishkor"ligi, hijronlarning o'tmishda qolganligi bearmon

takrorlanadi: "Yozdi o'tmish shoiri hijronni ko'p, Qoldirib menga butun sharhi visol". Sovetona turmushning har bir manzarasi sevgi bo'lib, visollardan baxtiyorlik alomati bo'lib ko'rinadi: "Ana, yulduz sanab bo'g'ot labida, Qo'shnim mushugi ham kutadi yorin(?), Jonivor-u parranda... barida sevgi!(?)". Ayniqsa, bahoriy talqinlarda sevgining ommaviy uyg'onishlari va ko'rinishlari yuzaga chiqadi:

Sayri bog' aylab o'tar juft-juft bo'lib, qo'l ushlab,
Bo'yiga bo'yi munosib yor bilan yor har taraf.
Har taraf kengdir raqobatsiz muhabbat ahlig'a,
Shum raqiblarga berilmas endi yo'l, tor hartaraf.

Mavzuning o'tmish – bugun mezonlarini qarshilantirish musobaqasida zamonaviy sevgi ko'z-ko'z qilinadi. Hozirgi avlodgagina visolga g'arqlik nasib bo'lgani, bu inqilobning sharofati ekanligi, bizda jannat qurilganligiga ishontirish g'oyalari ilgari suriladi. Bunday poetik tasavvurlar kuchayib, onda-sonda ishqning bo'sadan ham "sirliroq hodisalar"i talqiniga imkoniyat ochib bordi. (Intim epizodlar borasida nasr ancha ilgarilab qadam tashlar, ayrim roman, qissa yoki hikoyani shunday lavhalarigina xarakterlab turar edi). Biroq bo'sa lirikada baland mavqeini hech qo'ldan bergani yo'q. She'riyatda u haqda ohori to'kilmagan rang-barang gaplar ketma-ket paydo bo'ldi. Oshiq ikki gilos deb o'ylab, yor labiga lab qo'yadi, labini nimadir kuydiradi, qarasa, "ikki cho'g' ekan!.." Juda mohirona, an'anaviy yozilgan. "O'p" radifli g'azal uyquda yotgan nigorning "asta gulnorini", "chashmi xummorini", "la'li shahd borini", "kiprigi xorini", "qoshi zangborini", "xoli rahdorini", boringki, borini o'pmoqni tavsiya qiladi:

Yorning uyqusi g'animat,
Sen bu tun bedor bo'l,
Bir-bir aytmayman, dilingga –
Xush nadir, borini o'p...

O'zbek she'riyati dunyoviy ishq mavzusida botil fikrlash bo'yicha hozirgidek avjlanmagan. Gohida mitti bir she'riy to'plamda o'nlab o'rinli-o'rinsiz bo'salarga duch kelmog'ingiz mumkin. "Gulob" kitobchasidan misollar keltiramiz: "Vujuding ichra turg'ay, ajib sirri nigun bo'sa", "O'zgalar qoshidakim o'pib uyaltma yorni sen", "Yor g'unchasin

men o'pgum to'yib-to'yib", "Tinch tursin olam desang, qo'y lab-la labim tugmalab", "Jon uchun bir o'ptir, sanam", "Artdim labim bilan, yor kiprigin shabnamini", "Bir bo'sa berdi yor men fidoyiga, Dedim: – qaytib qo'yayinmi joyiga", "U qulog'in tutib: – aytaqol, – dedi. O'pib, dedim: gapim shu bir muchchi-da", "Shafoat, visol uyida yor o'pib, shakkar desa...".

Davrlar nuqtayi nazari qanday bo'lmasin, muhabbat talqini lirik qahramonning o'ta hissiy munosabatinigina emas, islomiy qarashlar fahmini ham talab etadi. Aniq, tiniq, pokdomon, hirsdan xoli, iffatli tasvirgina doim yashab, ko'ngillarni doim yashnatadi. Unda xoh oniy, xoh davomiy kayfiyat bo'lsin. Hayotiy, ruhoni, ibratbaxsh kechinmalargina she'riyatning joniga hamisha oro kirgan. Asr boshi o'zbek so'z san'atini ko'p xijolatli ishqiy vaziyatlardan qutqarib, asl adabiyotga muvofiqlikni ko'rsatib turgan ijodlar yo'q emas. Qodiriyning katta nasrida, Fitrat ijodiyotida, Hamza va Cho'lponning o'nlab she'rlarida rango-rang sevgi kayfiyatlari uyg'un tajassumini topgan. Ayni ijod egalarining e'tiqod tarzlari, islomiy tarbiya va ilmlari har masala ifodasida, inchunin, ishqda ham nechog'lik to'g'ri yo'llar hamda me'yorlar belgilab berganini maroq bilan o'rgansa bo'ladi. Shu kabi fazilatlar tufayli ham ularni dunyoviylar, islomiylar, "fonatiklar" va boshqa toifalar birdek o'qishgan, yodlashgan, tan olishgan.

Bir she'rida Cho'lponning kechinmasi shunday: besh yil yonib sevib, so'ngra aldanganini anglab qoladi (1917–1922). Kimni, nimani, nega sevgan edim, deya iztiroblanadi. Butni Tangri deb, fojiali adashgan bandaga o'xshatadi o'zini. Bundagi yolg'on sevgining, adashuv ("Aldanish")ning ijtimoiy muhitdagi hodisaga borib taqalishini mushohadangiz aniqlab beradi. Aynan shu yili (1922) yozgani "Ket" she'rida esa barcha o'tkinchi sevgilarni birma-bir hayday boshlaydi shoir:

Ket, ilohiy vijdonimni bulg'ama,
Butlar bilan tegaramni chulg'ama...

Navbatdagi she'rida Cho'lpon tuyg'usi, ehtirosi yanada tiniqlashadi. Majoziy ishq tabiiy taraqqiysi mobaynida, o'z ichida ulg'ayib namoyon bo'ladi: yigitligi yashargan kezlari "Har yumshoq tovushga tutqin"

bo'lgan, "Har go'zal chehraga ko'ngil" bergan, borliqni ular uchun qurbon qilib yurgan. "Yurganda, turganda har go'zal narsa ko'zlariga sevgi bo'lib ko'ringan". Endi "Sevgi ga yot bo'lgan" o'tlar, olovlar – oniy ehtiroslar pirpirab so'nadi. Shoir anglaydiki, "Vafosiz sevgilar uchib bitdilar... sevgida har ko'ngil buzuq!". Alqissa, endigi sevgisi nurdan yorug'dir, aldov-alidanishni bilmas tuyg'udir: Endi har nafasda yana kuyaman, Faqat Majnun bo'lib elni suyaman.

O'tmish so'z san'atimizdagi Yaratganga muhabbat – munosabat ifodasidan uzilish, ilohiy-dunyoviy ishqlar uyg'unligi an'anasidan mosuvollik asrimiz oshiqona she'riyatini beqarorlikka va parishonxotirlikka anchayin moyil qilib qo'ydi. Bu holni yetakchi – ishqi ilohiy bilan ergashuvchi – ishqi dunyoviyning o'rin almashinuvi deb izohlash kamlik qiladi. Negakim, Yaratganga nisbatan sevgi bo'lishi deyarli e'tirof qilinmasdan keldi. Natijada so'zga mas'ullik bo'shashdi, adabiy farosat kamaydi, dahriylik oshdi. Talqinga ko'p yillar mafkura taqozalari zo'raki tiqishtirildi. Goh mantig'i chuqur o'ylanmagan tug'yonlar she'riyat shaklini tasarruf etdi. Ba'zi shuaro fikrlari siyqa asarlarni qalashtirib tashladi. Birovlari dunyoviy yorlarga muhabbatni ilohiylashtirish bilan shug'ullandi. Kimlardir jilvasi, chiroyi tengsiz bu tuyg'uni shuur ko'zlari bilan emas, shahvat-u ehtiros nigohi aralash kuzatayotganini, qalami qalb emas, tan muhabbatiga og'ishib ketayotganini, muxlislarini nojo'ya havaslarga qiziqtirayotganini fahmlamay qoldi. Eng muhimi, bu jarayonni endi har kim har xil tushuna boshlaydigan vaqt keldi... Bizning-da ojizona mulohazalarimiz kimgadir qoloq yoxud ilg'or, kimgadir qattiq yoxud yumshoq nuqtayi nazar bo'lib anglanishi mumkin. Yonib, entikib muhabbatni kuylovchi shuaroning bari muayyan vaqt o'tgach, vazmin va ohista navolarga o'tadi. Ba'zilar yoniq hissiyotning so'nayotgani, to'xtayotganidan nolishadi. Ajablanarli joyi yo'q. Foni dunyo ne'matlariga – yaratilqlariga bag'ishlangan jamiki sevgilarimiz oniydir. Va ularning bunday tadriji aslida fazilat bo'lib, ayni jarayon o'zini tadqiq etayotganlar uchun ilohiyot hissi tomon da'vatdir. Shuningdek, bu "o'tish" tamoman to'xtam emas, balki qonuniy sifat va holat o'zgarishidir. Insonning yosh, ruhiyat, jismoniyat jihatidan o'sib-kattarib boruvidagi tabiiy jarayondir. Mazkur

hollar shoirni tor muhabbat xususida yozish huquqidan mahrum etolmaydi. "Bu dunyoki, mening ko'nglim yarim etdi, Yarmi bilan kuylasam ham olam to'lar", deyilganidek, hech bir qonuniy rivoj chin iqtidor sohiblarining oliy teranlik sari intilishiga monelik qilmaydi, balki ularni yangi ufqlar idroki tomon boshlayveradi. Shunday kezlar shoirlar qandaydir buyuk tayanch – buyuk muhabbat izlashadi. Cho'lponning talay sevgilardan ko'ngli qolib, el sevgisini shior qilib ko'tarishi ayni holatning xayrli samarasi hamdir. Mavzuning mahzun, ammo izhori qoyilmaqom kuychisi, shuhrati yuksak kechmish boshqa shoiri ham ana shunday kayfiyatni boshdan kechirdi. U ham sevgining nimalargadir taslim bo'lishini idrok etdi. Keyin "Sokingina bo'lib qolgan" yuragini "Muhabbat" degan she'rida ayon qildi. Lirik qahramoni endi o'tgan birinchi muhabbatni qo'msashdan naf yo'qligini biladi. "Hayotimda chaqnamaysan faqat sengina, Toleimda sen bo'lmading, baxtli muhabbat", deya armon bo'lib qolgan tuyg'uni jo'shqin va ma'yus alfozda chorlaydi. Hayotni oralab, o'zga bir otash axtaradi:

Kimga shoshay, kimni qo'msab, kimga sig'inay?

Farishtam, deb, oq yuvib-u oq taray kimni?

Kimni Laylim, Shirinim, deb, baxtim, deb atay,

Hayotim, deb cho'qqilarga ko'taray kimni?!

Har holda, shu yanglig' barcha ifodalarda ko'pincha kishini o'rtovchi, ezgulikka undovchi rost dunyoviy muhabbat, yoqimli sitam, zavqli azob-iztirob, mungli diyonat balqib turadi. Sevgida aldanish, adashish, ajratilish insonni oliy va benazir muhabbat hissiga eltsagina, sevgi shu zayil yangilansagina chinakam saodatdir, hidoyat nishonasidir.

1998-yil

SHE'RIYAT-U SHARM-U SHAVQ YOXUD BOTIL MUHABBAT

Yuz havo boshima solib nafsi shum,
Hayli shayton aylabon har yon hujum...

Alisher Navoiy

Fasohat gulshanida nojo'ya va noqis qo'yilgan qadamlar ko'p hollarda zararli va imoniy maqsadlarga nomuvofiqdir. Ishqiy she'riyat qusurlarining kechagiy-u bugungi kunlarga tegishli adabiy ildizlari, hayotiy illatlardan olayotgan ta'sirlari mavjud bo'lsa-da, sabablar mualliflarning o'ziga borib taqalaveradi. Muqaddas muhabbatdan bexabar yurish, majoziy muhabbatga biryoqlama ruju qo'yish oqibatining soxtakorlik, notavonlik, sersevgilik, besharmlik, maqtov-avrash singari botil ifoda yo'sinlari ni vujudga keltirgani sir emas. O'tgan talay o'n yilliklar adabiyotida bular, afsuski, muayyan darajadagi an'ana tusini ham oldi.

Dunyoviy sevgilar toifasidagi oshiq-ma'shuqlikda "yor" timsolining ma'no ko'lami haddan ziyod kichraydi, pafosida havoyilik avj oldi. "Yor" ko'plab o'rtamiyona shoirlar ijodida oshiqning, xushtorning, jazmanning, sirti go'zalning xususiy, yalang'och atamasiga aylandi. Ularda haqiqiy jonon vasliga yetmoq juda oson, oshiqni visol lazzatidan (zavqidan emas) bahra oldirish ma'shuqaga ham cho't emas. Ba'zi she'rlardagi "yor"lar – "hammaga vafodor", muhabbatlar "yelkalari ochiq jononlar". Bunday ishq bayonlarining matnlari qa'ridan qandaydir yashirin ovoz: "Men sevgi emasman, sevgidan ko'ra boshqa narsaman", deytogandek tuyuladi. Yana bir toifa ijodda masala mudom tekis va silliq, dardsiz va hayajondan xoli. Jo'n, yolg'on, botil yozayotganini yillab, umrbod sezmaydiganlar, tabiiyki, o'z asarlaridagi o'sha pinhona ovozni – mudhish tagma'noni eshitmaydilar, tan olmaydilar. Buyuk javobgarlikdan cho'chimaydilar. Nuqtayi nazar musaffo va beg'araz bo'lmasa yoxud lahzali o'y-hislarning darajasi to'g'ri aniqlanmasa, qanchalik g'alati talqinlar ro'y bermaydi deysiz? Ko'zlarimning "jononlardan uzilgisi kelmaydi sira", deydi shoir. Boshqasi

o'z-o'ziga qarata: "...ko'zlaring to'ymas go'zallikka sira, ko'zlaring sohibjamollarning yana tannozi...", deb g'ururlanadi. Birining she'rida sevilgan qiz erga tegib ketgan. Lirik qahramon uni tinchitmaydi. Qizga shar'iy jihatdan haqqi yo'qligini his etmaydi. Oxiri, umrbod "husningni uzoqdan tomosha qilib" yuraman degan qat'iy qarorga keladi. Erlarning o'zga xotinlarga ko'z yugurtishiga qarshilik ko'rsatuvchi ayollarga o'zga shoir "soz" bahona to'qiydi: "Men agar boshqalar ko'ziga boqsam(?!), Yoki qomatiga tikilsam (?!) birpas, Bundan shubhalanma, o'rtanma, erkam. Bular begonani sevganimdanmas. Ba'zida boqaman tannozlarga (?!) ham, Nahot tushunmaysan sababin axir. Unga boqaman-u, beparдоз, ko'rkam Seni sevganimdan qilaman faxr". Albatta, ishontiruvchan asos-aldov. Mantig'ida chimdim, balki ko'proq samimiyat bordir. Ammo bu islomiy xulq nuqtayi nazaridan noshar'iy bahona, xolos. Tikilishlar mumkinligi targ'ibidan tikilishlar o'rganiladi. Buzg'unchi hislar uyg'onishining ko'paymasligiga esa hech kim kafolat bera olmaydi.

Shaytoniy vasvasa ko'zdan, nigohdan boshlanadi. Fikrat-u shuurning ahvoli tasavvur va mahliyolik sifatini belgilab beradi. Botiniy saviya – poetik tafakkur va mas'uliyatning asosi. Nigoh va tasavvurning xulosasi unda – dilda saralanadi, she'r bo'lishga yaroqli-yaroqsizligi aniqlanadi. Dil nigohiga noqobil erk berilsa, u she'rga hirsiy vasvasalarni bilintirmay boshlab keladi. Dil xiraligi boshqa g'oyaviy maqsaddagi talqinlarga ham g'alizlik olib-kiradi:

Yer jufti haloling edi-ku, inson,
Uning ham har vasli emasdi oson.
Bugun koinotning qizi – oyni ham
Kamolot kuyoving ayladi juvon.

Serma'nolik, tagma'nolar falsafiyligi she'r qimmatini baholaydigan o'lchovlardan biridir. Biroq badiiyatida badniyatlik kezib yurgan, g'oyasi birgina mahdud ma'nidan iborat bo'lgan, uyatli tasavvurlarga ishorat qiladigan she'rdan qanday qo'shimcha, zalvorli joziba kutish mumkin?

She'rda muddaoni oqilona belgilamaslik jarayoni, ustiga-ustak, sevgi deb hirsiy intilishlarni o'quvchiga taqdim etish rasmi hatto adabiy munaqqidlarni bezovtalantirmay qo'ygan. Bunday she'rlar

badiiy tahlilga ham muhtoj emas, darrov tushunarli bo'la qoladi. "Shukrona aytib..." nomli nisbatan pardaliroq besh bandli she'rga boqamiz. Birinchi band: "Malohatda yagona, munis, muloyim" guloyimni lirik qahramon izlab-izlab yurgan ekan, Xudoyim uni yetkazibdi... Ikkinchi band: "Subhidamda shabnamga(?) yor yuzini yuvsa"(?), "Shamol quvib izidan, bo'salar olsa", oshiq uning sochlarini shukrona aytib silabdi. Uchinchi band:

Nozik qaddi-bo'yiga hech ko'z tegmasin,
Beqasam yor kamzulin nuqra tugmasin –
Begona qo'l adashib zinhor uzmasin.
Erkam, seni o'ylayman shukrona aytib,
Tunni tongga ulayman shukrona aytib.

To'rtinchi bandda oshiq yor vasliga yana sog'inib talpinadi. "Qolmayin deb ishqining men uvoliga" sevgi sozin sozlaydi. Beshinchi band: muhabbatning kechi-ertasi bo'lmaydi. Hayot, ishq darsi bir umr o'qitiladi. Shoir tongda yoriga tole tilaydi. Yashirishning hojati yo'q: she'rni qayta-qayta o'qimang, u bachkana, telba-teskari tuyg'u ifodasi tuyulaveradi. Shoirga yon bosishning ilojini topolmaysiz.

Ziyrak she'rxon har qanday asardan hissiyotning sevgimi-hirsmi, samimiymi-botilmi ekanini tezda fahmlab oladi. Quyidagicha oshiqlik tarzida siz-u bizning aqlimiz yetmay turgan yana qanday g'oyalar bo'lishi mumkin?

Men yaxshiman, siz yomon, deya,
Har gapda bir tarozingiz xo'b.
Yolg'on, desak, bolishni bo'lak –
Qo'yib yotar arozingiz xo'b.
Ammo shunda to'ni yelkada –
Yo'lga tushar shahbozingiz xo'b.

Ehtimol, bir-ikki botil fikriga qarab shoirga doir keskin tanqidiy xulosalarga kelish shafqatsizlikdir. Ammo katta kitobning deyarli barcha sevgi she'rlari shu kabi narsalarni so'z san'ati deya havola etib tursa, o'zingizni, yorlarni, sevgi ne'matini haqoratlangan his etmaysizmi? Yuqoridagi "asar" muallifining yana shunday misralari ham bor: "Quchsam deyman bir o'zginam bo'yingdan to abadu, to abadu, to

abad", "Yor og'ushin sog'insang, ul pari paykarni top", "Bu kech xonamni maskan et, sumanbar, qoshi qaldirg'och... jamoling och... shamoling soch, Mahrin so'ra, bahosin och, ishorat et, ko'zi qiyg'och, Qulingdin o'zga jo'mard yo'q, narxidin qochgan nomard yo'q...". Ushbu ko'chirmalar mohiyatidan qanday umuminsoniy mo'tabar g'oya qidirmang, behuda ketadi. Yor ham, uning "narxi" ham, tannarxga da'vogar qahramon ham noxush taassurot qoldiradi.

Bunday misollarni, afsuski, yuzlab emas, minglab keltirish mumkin. Hirsga oid fikrlari bisyor ash'orning omma o'rtasidagi ishqibozlari ko'p va ular bu yanglig' ifodalarni chinakam she'riyat, shoirga xos mahorat, ajabtovur topqirlik hisoblashadi. "Ko'ngilochar" misralar muxlislari bo'lsa, siyna, og'ush, quchoq, qo'yin, bag'ir, yostiq, yostiqdosh, bolish, to'shak, ko'rpa singari ajab atamalarning beandisha-beistihola ishlatilishini kuzatishga o'zlarida ko'nikma hosil qiladilar. "Oyga yuzing chayib kel, menga bag'ring yoyib kel", "Boshidan o'tgan tabib, oyday kirgin qo'ynimga", "Siynamni siyanga bir dam qo'yib bo'lurmu?", "Yor bo'ynimdan quchgaymikin?", "Badaningni guldani yaratgan Olloh, Boshdan oyog'ingni anbar aylading", "Qo'llarim kaftingda, orom olar jon"...

Xalq og'zaki ijodi deya ataydiganimiz she'riyatda "Olmacha anoringga balli", "Ey pari yuzli yigit, sen birla o'ynashgum kelur, Kechakunduz tinmayin bo'yningga chirmashgum kelur", "Jiyagi yo'q joylaridan qo'lim solsam, bilqillaydi qo'sh anori, suyagi yo'q", "Mening yorim qalamqosh o'pay desam bo'yi past", "Atlas ko'ylak ichida, mening suygan yorim bor" singari bemaza satrlar yo'q emas. Ammo xalq ijodi degani taftish-tuzatishdan ozod ijod deganimi? Qolaversa, bular tom ma'noda butun millatning qalbidan otilib chiqqan va uning ilg'orlik saviyasini ko'rsatadigan misralarmi? Axir, ularni qachondir olomonning ba'zi ojiz havaskorlari to'qishmaganmi?

Sobiq tuzumda she'riyat ko'p adashdi, ko'p botil ketdi. Shulardan biri muxtasar va uyalib-qiynalib kuzatganimiz holat, ya'ni an'anadagi ilohiy ishq tarannumini kun tartibidan o'chirib, majoziy ishqni birinchi o'ringa ko'tarib, uni johil muhabbatga aylantirib tasvirlash bo'ldi. Endigi erkli zamonda esa ilohiy ishq ilmlarida qashshoqlik va islomiy tushunchalar

mavqeini yetarli pisand etmaslik natijasida muborak diniy kalimalarning hatto noo'rin, palapartish qo'llanilishiga tez-tez duch kelamiz: Chehralar Qur'ondir, zunnor erur soch, Bilaklar bo'yinda ham tumor, ham xoch. Muhabbat insonning yagona dini, Visol namozi ham mangu ehtiyoj.

Ilohiy muhabbatday tabiiy ma'naviy ne'matdan ayriliq she'riyatda shirkka, maddohlikka, botil ishqqa katta yo'l ochgan edi. Imon uchun imkoniyat kengaygan bugungi kunlarda, hidoyat etilgan ijodlar oliy muhabbat va maqsadlarni tanigan kezlarda talay noqis muammolarning yopirilib kelganligi tashvishlidir. Bir tomonda "o'ldim-kuydim" yalang'och she'rlar va qo'shiqlar to'foni. Bir tomonda islomiy ijod mavjlari...

Ibodati yo'lidagi ayrim yoshlarimizning "she'riyat – shaytonning azoni" qabilidagi noto'g'ri tasavvur-xulosalari ham yaxshi emas. Bunga botil muhabbatni kuylashga haddan ziyod berilishlar, uyat baytlarni olqishlash va ularni chapaklab qarshilash hollari sabab bo'lmayotganmikan? Holbuki, ibodat odamlari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning she'rni zavq ila eshitganliklarini, o'zlari baytlar aytganliklarini, nazmga rag'batlari bo'lganligini, "she'rda hikmat mavjud", deganliklarini, Qur'oni karimda Ollohning shoirlikka qanday majburiyatlar yuklaganligini biladilar.

Shuaro (Shoirlar) surasi tafsirida mufasssirlardan biri tubandagi fikrni bildiradi: "She'r faqat fisqu fujur, qandaydir kazo-kazolarning vasfi, qandaydir ma'shuqaning madhi, oh-voh va diydiyolar emas. Balki she'r ezgulik, imon, islom xizmatchisi bo'lishi zarur... She'r orqali hikmatli, imoniy, islomiy va insoniy tushunchalarni kishilarga yetkazish o'ziga xos ustunlikka egadir..."

Alloh hech bandani ibodati, namozi, toatiga muhtoj bo'lmaganidek, shoirning she'riy ibodati va tazarrusiga ham zor emas. Aksincha, har kelgulik va ko'rgilik uchun shukronali bo'lishga, Yaratganni sevishga, Alloh uchun yorga muhabbat qo'yishga, munajat-iltijolar qilishga, hamd-u sanolar izhorini aytishga ijodkor insoniyat mangu ehtiyojmanddir.

Klassik nazm tarixida bepardalik unsurlari bo'lmaganmi? Bo'lgan. Qisman. Hozirgichalik emas. Talay qadim shoirlarning ojizlik bilan xato yozib qo'yganliklaridan nadomat chekkanliklarini, she'riy tavbalar

qilganliklarini yaqqol tasdiqlovchi dalillar ham bor. Hatto Navoiy Husayn Boyqaroning shu masaladagi tanqidini to'g'ri qabul qiladi. O'z ijodidan ba'zi pushaymonliklarini va tanqidni tan olganini e'tirof etadi.

Shaxsiymi, umumga xosmi, har qanday nuqtayi nazarlardan ko'ra, boqiy va adolatli qoidalar imonda, imon ilmidadir. Siz-u bizning beg'araz maqsad-vazifamiz esa uni o'rganmoq, birgalashib idroklashish, san'atkor qalamni uning mezonlariga rostlamoqdir. Zero, imon sevgidan-da buyuk ne'matdir. Bundan ko'p yillar ilgari shoira Oydin Hojiyeva shu dilbar haqiqatni idroqlab, uni she'r qilgan edi:

Imonidan toygan kim bo'lar-
Dashnomlarga umri yem bo'lar,
Butkul hayot so'nar, gum bo'lar,
Ortiq sevma meni imondan!
Shunda jondan kechib qo'l beray,
Ta'zim, ta'zim ila yo'l beray,
Qalbim esa bir gul, gul beray,
Sen deb kechay sharafdan, shondan,
Kechma men deb, kechma imondan!

Xulosani qachondir she'riyat tili ila aytmoqqa to'g'ri kelsa, uning mazmuni taxminan budir: Yo Rab, botil muhabbatdan o'zga barcha sevgilaringni nasib et, hidoyat etar esang, imonimni baquvvat et, oshiq qilsang, samimiy oshufta qil, "shifta ahvol" qilmagin, sevdirsang, xolis sevdir, yozdirsang, ro'y-rost yozdir, adashtirsang, xayrli adashtir...

1998-yil

HIDOYATNING MASHAQQATLI YO'LI

(Tohir Malikning "Shaytanat" asari: e'tiqod va axloq)

Haq subhanahu va taolo: **"Shak-shubhasiz, hidoyat (ya'ni insonlarni to'g'ri yo'lga yo'llash) yolg'iz Bizning zimmamizdadir"** (*Layl surasi, 12-oyat*) degan. Nasib etgan istiqlolning adabiyotini-da haqbin, haqgo'y qilmoq, hidoyat yog'dusiga burkamoq Uning irodasi bilandir. Faqat barchamizdan mudom yakdil ezgu zahmatlar, o'zaro ibrat, da'vat va maslahatlar vojibdir. Yo'qsa, toki insonlar o'zlarini o'zgartirmaguncha, Alloh taolo ularni o'zgartirmasligi haqidagi olamlar Parvardigori kalomini unutgan sanalamiz. Hidoyatli kechinmalarning, ilg'or-ulug'vor o'nglanishlarning goho o'zbek nasrida ham sodir bo'layotganligi dillarni quvontiradi...

"Shaytanat"ning asosan yakunlanuvi bois ovozalamoq munosibki, o'zbekning o'zbekona, milliy detektivi shakllangani yorqin dalillandi. Detektiv bu gal muddaoga munosib namoyon bo'ldi. Oqsab, o'gay sanalib, turtkilanib, dakkilar yeb va dardini ichiga yutib yashagan ayni adabiyot to'yib nafas oldi. Yangi davrning so'z san'atidagi sharofatini "Shaytanat" misoli ayricha pafosda tasdiqlovchi, sharaflovchi, shukronalovchi unga monand boshqa asar hozircha yo'q.

"Jahon detektivi" tushunchasi zamirida yer yuzi kitobxonlari qalbini ishg'ol etgan o'ntacha millat nasri namunalari bor. Ularning umumiy hamda xususiy tarixlari mavjud. Har qaysisining tajribasi, hikoyalash maromi, behadik yaralganligi havasimizni qo'zg'ab kelgan. Lekin ularning milliy xosligidan ko'ra umumiy xosligi ko'pdek, yozuvchilarining qarashlarida bir-biriga o'xshashlik ustuvordek. Albatta, bular ma'lum ma'noda detektivning o'z shart-taqozolari tufaylidir. Ammo mazkur adabiy soha xususidagi tiniq tasavvurni loyqalashga sababkor, ichida oldi-qochdilar-u shahvoniyat g'ij-g'ij kitob oqimining jahoniy detektiv unvoniga da'vogarlik ilinjida dunyo kezib yurganligi ham hech kimga sir emas.

Bizda-chi? Sobiq mustabid tuzum milliy adabiyotlar detektiv yo'nalishining taraqqiysiga iloji boricha yo'l bermay keldi. Dahshatli illat-u fojialarning hur jamiyatda aslo "yo'q"ligini adabiyotning "qulog'i"ga tinimsiz quyib, zo'r berib uqtirib turdi. Onda-sonda bitilgan fosh etuvchan asarlar siyosat zug'umiga uchrar, sotsrealizm qolipiga loyiqlari sal-pal ardoqlanar edi. Hattoki, ulkan mamlakatning "yo'l boshchi xalqi" – ruslar prozasi shu boradagi ishtiyoqini ko'proq inqilob, urushlar, razvedka, shpionlik tarixi fonida ovutmoqqa, Sho'ro militsiyasining kafolatlangan g'olibligini tarannum etmoqqa mahkum qilingandi.

O'zbek detektiv adabiyotining rivoji, ahvol-ruhiyasi ham taqriban shu yo'sinda kechdi. Jarayon anchayin kechikib boshlandi. Sanoqli adiblarga mahfiya mavzusidan so'z ochishga botinib, jur'atlanib yurdi. Voqelik ustidan ro'y-rost badiiy hukm-xulosa chiqarishga huquq bo'lmadi. Masalani "shonli" izquvarlar tomoniga yon bosib bayonlashdan o'zga chora hali-beri ko'zga tashlanmas, jinoyatchilarning ham odamlar ekanligi adabiyotning aqliga sig'masdi. 60-yillar avvalida yozilgan "Shoxidamas, bargida..." qissasining adabiyotdan quvg'in qilingani, badiiyatining bo'shligini xolis tanqid qilish o'rniga, muallifi (Iskandar Qalandarov)ning "jannatiy jamiyat"ga "yot" illatlarni, o'g'riliklar, qotilliklar, nomusga tajovuzlar, poraxo'rliklarni yolg'ondan to'qiganlikda ayblangani adabiyot ahlining hanuz esida.

"Shaytanat"ning muallifi esa o'z qissasini dadil boshlab, qodiriyona ohangda shunday yozadi: "Hayot turfa rang. Ko'zni yashnatib, dilga quvvat berguchi chiroyli ranglar ham, ko'ngilni vayron qilguchi qora rang ham bor. Avvallari qora rangni ishlatishga bir tomondan ijozat, ikkinchi tomondan jur'at yo'q edi... Zamon bergan erkinlikdan foydalanib, turmushimizning qora ko'chalariga kirishga jazm etdim".

Muxtasar ushbu mulohaza-muqoyasalardan murod "Shaytanat"ni jahon detektiv durdonalari safiga shoshib qo'shmoq, ulardan ustun hisoblash ilinji emas. Balki uni kattakon va shiddatli adabiy to'lqin silsilasida tasavvur qilib ko'rish, yutuqlarini ta'minlagan muhim omillarni, sifatini idroklamoq, xolos. To'g'ri, asarning imkon darajada maromini topolmagan nuqtalari, juz'iy kamchiliklari bor, o'rniga

tushmagan ba'zi cho'ziqliklardan ko'z yumib bo'lmaydi. Biroq qissadan birlamchi hissa shuki, u hodisa maqomidagi detektiv asar. Serfazilatligi tufayli hatto matni qa'rida yashirinib qolgan nuqsonchalarini osonlikcha va hammaga ham sezdiravermaydi. Sezilganlarini tez fursat ichida unutdirib yubora oladi.

Inshoimiz "Shaytanat"ning bilinar-bilinmas, oshkor-nooshkor va lekin baquvvat botiniy fazilati – yozuvchisining uslubi, shar'iy nuqtayi nazari, qahramonlarining xarakter rivoji to'g'risidadir.

"Shaytanat" – san'atkorona nom-topildiq. U katta-kichik mahfiya to'dasi yoki alohida jinoyatlar dunyosinigina emas, bulardan farqli odatiy muhitdagi turfa illat, turfa qilg'iliqlarni, yaxshi-yomon deganimiz bandalar adashuvlari sababiyati va ziddiyatining noqisliklarini qamrab anglata olguvchi tushuncha. Sarguzashti ko'lamlashgani, sahifalari intihoga ilgarilagani sayin asar o'z muxlislariga sarlavha mantig'ini qoyilmaqom idroklata boradi.

Yuzaki qaraganda, bevosita yetakchi qora guruhlar ichki turmushini muslimona nigoh bilan kuzatish, shunday mushohada vositasida bayonlash qulog'i kar odamga behuda va'z – ma'ruza o'qimoqdek tuyulmog'i turgan gap. Detektivda syujet keskin kechajakligini, qiziq-qaltis vaziyatlar bisyor bo'lajagini biladigan nozik didlarga asardagi mayin ifoda dastavval g'alati ko'rinsa, ajabmas. Lekin chetdan qaraguvchilarning buyanglig' xavotir, shubhalari noo'rin. Shu ma'noda yozuvchining ham qalovini topib, qorni yoqish qasdiga tushganini, nimalarnidir majburlab kelishtirishga zo'riqishini ko'rmaysiz. Chunki nelarki chin insoniylikka ziynat va yarashiqdir – ular musulmonchilikka ham muvofiqdir. Nimaiki inson sha'niga dog'-illat va bandani aqidadan ozdirguvchi bo'lsa, illo, islomiyat aynan o'shalardan qaytarguvchi, ogohlantirguvchidir. **"...U payg'ambar ularni yaxshilikka buyuradi, yomonlikdan qaytaradi va pok narsalarni ular uchun halol qilib, nopok narsalarni ularga harom qiladi..."** (*A'rof surasi, 157-oyat*). Shunday ezguliklariga ko'ra, dunyo ahvoliga islomiyat joriysi yoxud dunyo manzaralariga islomiy munosabat ko'p zamonlarning ma'naviy-ma'rifiy takomilini

ta'minlagan. Qur'on va sunnat tarozisi ijod mahsullarining yashovchanlik salohiyatini oshirgan, yuksaltgan.

Har qandayin ish-yumush, sa'y-harakat, fasohat-ifodani Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga mos boshlash an'anasini "Shaytanat" hikoyachisi salkam yuz yil sog'ingan badiiy tilga xos diydorlashuv bilan favqulodda tiklab yuboradi. Bayonni mehribon va rahmli Alloh nomi ila boshlaydi. Unga shukronalar bildirib, Undan madadlar so'raydi. Shaytonning asl qiyofasini ochuvchi Ibrohim surasining 22-oyatini, hazrati Yassaviyning "Shayton g'olib, jon berarda shoshdim mano" satrini keltiradi. "Shaytanat" qissalari – kitoblari muqaddimalarining o'ziga xos tabiati ko'ngillarimizga go'yoki ulug'allomalarimiz hamd-u na'tlar bilan boshlagan bitiklar tarovatini olib kiradi.

"Shaytanat" ixlosmandlari aslida sahifalarga loqayd boqmayotgan bo'lsalar-da, yozuvchi ularni "tinchitmaydi". Chekinishlar qilib, o'quvchilarini zavqli zahmatga – mushohadaga chorlaydi, ularning voqealarga munosabatini so'rab-surishtiradi. Idroklarini muayyan hukm-xulosalar manziliga yo'naltirib yuboradi. Roviyy yana tinch qarab turmaydi. Dunyoviy-islomiy tafakkur tarzini baralla ifoda etadi. Shuningdek, o'quvchi birodarlari bilan har kitobda mo'minlarga xos salomlashmoqni va xayr-xo'shlashmoqni-da kanda qilmaydi. Uch kitob mobaynida "Shaytanat" shaydolari o'zlarining adib tomonidan bag'oyat ehtiromlanayotganini hislab, kayfiyatlari ko'tariladi.

Shaytoniy vasvasalarni o'z ichiga olgan hodisalar girdobi tasviriga nosir islomiy ruh, xarakter va epizodlarni allaqanday muqoyasa maqsadida ataylab kiritmaydi. Yoxud chin e'tiqod afzalliklarini bo'rttirishga, imonga oid shaxsiy dard-da'vatini taqdim etishga oshiqmaydi. Holbuki, uning shunday adabiy mubolag'aga poetik huquqi, iloji bor edi. Nosir beshafqat va jiddiy haqqoniyat ifodasini tanlagani uchun shaytanat hamda islomiyat lavhalariga, bularning o'zaro "munosabati" ahvoliga mavjud voqelikning o'zidagidek me'yorda yondashishga zo'r berib intiladi.

Uchala syujetda ham Asadbek umri va asadbeklar muhiti tadriji bosh g'oyaviy-badiiy mo'ljal ekani bois, bosh qadriyat tasviriga doir

tarmoqchalar vaqti-vaqti bilan o'sha asosiy yo'nalishga tutashadi. Zimdan ifodada muallif shar'iy qarashlarining ma'qulligi qanchalik sezilmasin, vaziyat bu ijodiy jarayon tomon tamom og'ishib ketmaydi. Bunga realizm mas'uliyati yo'l qo'ymagan. Qolaversa, hech bir g'oyani sirli qoldirmay, talqinning sirtiga chiqarib yuborish, o'quvchiga tagma'nolar, o'y-muammolar qoldirmaslik usulining o'zini oqlamasligini adabiyot tajribasi qayta-qayta isbotlagan.

“Oyatal kursi”ni yod ololmay, ikkita kichik sura bilan tirikchilik qiladi”gan Karimullaga Asadbekning toqati yo'q. Chunki chalamulla mutavallining tamagiriligini, omonatga xiyonatini Asad sezgan. Ayni paytda, Karimulla – beor va manfaat yo'lida “xira pashsha”. Asadbekdan u-bu undirishga kelib, niyatiga erishadi. Har qanday inson – murakkab. Inhunin, bu ikkalasi ham. Ammo shu voqealarda o'quvchi vahshatli kuch sardori – Asadbek mavqeini ma'qullaydi.

Asadbek – Sobitxon aloqasida kishi oldiniga (ilk qismda) ulardan qay birini yoqlashni bilolmay turadi. Ikkovidan ham qandaydir xatoliklar o'tayotganligi fahmlanadi. Munosabatning davomi qiziqtiradi. Syujetning bu tarmoqchasi taraqqiysi (ikkinchi kitob) hayotiy, ibratli va ta'sirli bo'lib, imonli shaxsning ma'nan g'olibligidan nishona beradi. Sobitxon qori Karimulladan afzal, uning teskarisi. Xalq orasida obro'yi baland, ilmi kuchli. Millatparvar va vatanparvar Sobitxon imomlik qiladigan masjidga namozxonlar sig'may ketadi. Uning: “Harom pullarga qurilayotgan masjidda men namoz o'qimayman” degan yanglish gapi Asadni g'azabga keltirgan, “olifta imomcha”ni bir egib qo'yay desa, xalqdan cho'chigan. “Xudo imomlar orasida insof va imon bobida basalommat bo'lgan Sobitxonni o'z panohiga olib, Asadbek qahrining to'lib-toshishiga yo'l qo'ymadi”.

Keyinroq ular yarashishadi. Xasta Sobitxon nojo'ya gapi uchun uzr so'raydi. Rozi-rizolik tilaydi. Ular endi samimiy suhbatlashadi. “Oллоh dilingiz qulfini o'zi ochsin”, deydi Sobitxon. Ajablangan, tag'in jahllangan Asadbekka qarata ochiq gapiradi: “...Zinoni, zulmni, harom ishlarni tark etmagan odam chin muslim bo'la olmaydi. Men sizni mana bu yo'ldan yuring, deb zo'rlamayman, menda bunday huquq yo'q. Mening vazifam – aytib qo'yish”. Suhbatda har qaysi xarakterning ichki

tabiati topib chizilgan. Qissada yetakchi mavqedagi katta qutb – shaytanat va kichik qutb – islomiyat vakillari shunday ichki idroklari ifodasiga ko'ra tabiiylik paydo qiladi.

Badiiy ro'y-rostlik – hamisha mushkul, hamisha beayov. Bu o'lchovga yozuvchi voqea, dunyoqarash, qismatlar takomili tasvirinigina emas, o'z tuyg'u, tug'yon, ehtiroslarini ham ayamay bo'ysundirishga majbur. Markaziy obraz manfur to'da boshlig'i bo'lsa-da, yashirishning hojati yo'q, yozuvchining unga nisbatan pinhona mehrli muomala-munosabati, rag'bat-nasihati bor. Ammo xarakter mantig'ining, iroda yo'nalishining tabiiy oqimi adib xayrixohligining oshkora tovlanishiga izn bermaydi. Nasriy muvaffaqiyat uchun eng avvalo ana shular kerak edi. Shuning natijasi o'laroq, Asadbekka achinish, unga xayrli ko'nikish, ba'zi masalalarda uni yoqtirish hissi kitobxonga yuqadi. Chinakam ruhiyat ko'rinishiga tugal ishontira olmoqning naqadar sirli san'at ekanligi shunda bilinadi.

Masalan, biror bandaning ikkinchi banda diliga hidoyat bag'ishlashga noqodirligi haqiqati Asadbek misolida shubha-gumonlarga o'rin qoldirmaydi. Nodon Karimullaga uning bepisandligi izohlarsiz tushunarli. Lekin u o'tkir imonli inson Sobitxon qori o'git-nasihatiga ham loqayd, beparvo. Manzura erining masjid qurdirayotganidan g'oyatda xursand. Shunga qaramay, Asadbekning fe'lida imoniy o'zgarish ko'rmaydi, xafalanadi. Manzura erining oldida ha deb Xudoni tilga olishdan hadiksiraydi. Chunki Asadbek bunday degan: "Xudodan qo'rqib bo'lganman. Xudo menga atalgan yomonlikni berib bo'lgan. Men yomon ekanmanmi, bunga Xudoning o'zi aybdor. Men ham odamlarga o'xshab ota-onamning bag'rida yashaganimda, bunaqa bo'lmasdim. Mehrga zor holda o'stirib, endi mendan mehr talab qiladimi?".

Asadbek – o'zgarmas. Asadbekni hech kim – na ilmi chuqur Sobitxon, na chapani do'sti Jalil, na xotini – xudojo'y Manzura, na xorijlik doktor Xudoyor. – na yozuvchi hidoyatga keltira oladi. Uni namozga, halol yo'lga da'vat qilishlar deyarli behuda ketadi. Nachora... Fanoda hech bir ulg'aygan kas esa haq gaplarni eshitmasdan, to'g'ri yo'l borasidagi da'vatga duch kelmasdan yashab o'tmaydi.

Taqvoga endigina kirishgan Jalil qadrdoni Asadbekni imonga keltirishga, farz amallarni bajarishga dangaliga da'vatlab ko'radi: "Puli ko'pning aqli kamroq bo'larkan. Xudo senga boylik berdimi – berdi. Obro' berdi, xullas, nimaiki xohlasang, hammasini berdi. Evaziga bittagina ish buyurdi, shuni qilmaysan, a?

– Nima ish? Namoz o'qish-da! O'qisang, o'lib qolasanmi?

– Vaqti-soati kelar.

– Masjid qurdirganing nimasi-yu, o'zing na moz o'qimaganing nimasi?

– Ishing bo'lmasin dedim".

Shaytanat girdobida yaxshilar, imonlilar nima qilib yuribdi, degan taajjublanish, shubhasiz, kitobxonda ro'y bermaydi. Imonlilar qissaga tasodifan tashrif buyurmagan kabi da'vatlash ham muallif to'qib chiqargan uydirma emas. Musulmonchilik mavjud joyda har qanday shaytoniy amal, harakat va hattoki shaytoniy o'y-fikrga nisbatan raddiya, buyurilgan ezguliklarga va maqbul e'tiqodga da'vatkorlik albatta zohir bo'ladi.

Asadbekka aytilmish pand-maslahatlar "deyarli behuda ketadi", deganimiz bir qadar nisbiy xulosa esa-da, aynan shu xususiyatning unga jiddiy haqqoniyat bag'ishlagani bag'oyat rost. "Shaytanat" roviysining bayondagi inon-ixtiyori realizm atalmish oltin qonunda emas, bil'aks bu tunlay o'zida bo'lganida, ehtimol, bosh qahramonining diyonatini darhol butlab qo'ygan bo'lar edi. Ne ajabki, turmushda kimnidir hidoyatlash, imon-u tavfiqqa keltirish bandasining qo'lida bo'lmaganidek, badiiyat ichidagi timsol ma'naviyatini istalgan kezda poklab yo o'nglab yuborish ham yozuvchining (agar u chin iqtidor sohibi bo'lsa) imkonidagi oson ish emas ekan.

Asadbek – o'zgaruvchan. Hayotda harakatdagi inson, adabiyotda harakatdagi qahramon u yoki bu tomonga o'zgarmasdan qolmaydi. Asadbek xulq-atvorining yo'nalishidan kutganimiz burilishlar kutmaganimiz sabablarga ko'ra yuz beradi. Bu jarayon banogoh emas, anchayin ohista kechadi. O'tkinchi tiriklikda har nechuk barakot, sinov, har nechuk musibat – sinov. Hamma narsa – imtihon. Imtihonlar ayni vaqtda aqidani (haq yo'lni) tanishga, imonni mustahkamlashga

chorlov hamdir. Asadbek sinov-musibatlarning juda ko'pini ko'radi. Xuddi shu hodisa-yu holatlar tuzalishining tub omillari bo'lib, xarakterga hayotiylikni muhrlagan dalillar bo'lib yuzaga chiqadi. Tabiiyki, insoniyat tajribasida uqubat imtihonlarining ba'zan da'vatlar natijasiga qaraganda samaraliroq bo'lishi tasdiqlangan.

Nihoyat, Asadbekda zimdan yetilib kelgan, ochiq ko'rinmasligi bilan ishonarli chiqqan inja bir ma'naviy tadrijni bemaol ta'kidlamoq joiz. Gap shundaki, turli-tuman vaziyatlarda: dinga doir "bahs"larda, da'vatlarga munosabatda, xayol-kechinmada, yozuvchining sharhlarida, xatti-harakatlarda xarakterning sezilar-sezilmas darajada o'zgarishga moyillashib borish jarayoni kuzatiladi. Asadbekning barcha ahvolotini tartiban ketma-ket va takroran tasavvur etilsa, tadrij chizig'ining donishona va san'atkorona belgilanganligi yaxshiroq fahmlanadi. Buni jonli qahramonda hidoyatga moyillikning tug'ilish hamda shakllanish zavqi-azobi, deya ta'birlamoq balki o'rinli bo'lar. Quyida mazkur uzundan-uzoq jarayon tasviridan ayrim misollarnigina ko'chirib, ich-ichdan kechayotgan o'zgarish lahzalarini qiyosan kuzataylik: "Xudodan qo'rqib bo'lganman... Men yomon ekanmanmi, bunga Xudoning o'zi aybdor"; "...agar bergan boyliklaring evaziga tinchligimni olgan bo'lsang, meni gado qil, ammo bolalarimning baxtini ber, bir kecha tinchgina uxlay"; "...otasiga jannatdan joy tayin etish uchun janoza o'qib qo'yish albatta zarur, degan qarorga keldi. Shunga aqli yetgan do'stini quchib olgisi keldi"; "To'yib-to'yib nafas olishga zor bo'lib o'laman... Domla aql o'rgatadi: pensiyaga chiqqandan keyin namoz o'qiymen, deb kutmanglar, mana bu birodarimiz ham pensiya yoshiga yetmabdilar, deydimi?"; "Xudo seni sinayotgan edi". "Avvallari ham azon tovushi eshitilarmidi, yo'qmi, eslolmadi. Keyingi tunlari shu tovushni orziqib kutadigan bo'ldi"; "Men... namoz o'qimasam ham Xudodan qo'rqadigan insonman..."; "Namozxonlar tursa, turdi, rukuga borsa, ruku qildi, sajdaga bosh qo'yishganda, u ham joynamozga bosh qo'ydi"...

Shundagina ko'nglida ajib o'ksinish uyg'onadi. Zoye ketgan umriga achinib, bo'zlagisi keladi. Ammo "bulutlar orasida ko'ringan quyosh"ni ushbu suratda xotimalash yoxud holatning o'sishini tezlatib

yuborish anoyilik va yolg'onchilik bo'lardi. Bunday nihoya axloqning betakror chizilgan rivojini barbod etishi mumkin edi. Odatda, ijodiy yumush yakunida gupurib keluvchi hayajonga yozuvchi go'zal sovuqqonlik ila peshvoz chiqadi: "... ibodatni ixtiyor etgan odam xastaligi chekina borgani sayin, yana asl holiga qayta boshladi"; "Uyga borgach, har kuni masjidga chiqaman", degan qarorga kelgan Asadbek ahdiga vafo qilmadi, o'z tashvishlariga berilib ketdi".

To'g'ridan-to'g'ri islomiyatga tegishli tarmoqchalar tafsiloti o'z to'xtamlarini shariatga mos hukm-sharhlardan topadi. Chunonchi, Sobitxon qori gapida yanglishdi – muslimona odob ila o'zi tuzatdi. Xuddi shunday, noshar'iy yashashlarning yechimlarini ham asarda shar'iy qoidalar ta'minlab beradi. Buning Asadbekdan keyingi yorqin misoli Elchindadir. Umrini Noilasining qasoslari qasdiga qurbon qilgan Elchin intihoda xayolan xotini ruhining beayov hukmini eshitadi: bu ne fojiaki, Noilasi minnatdor emas, aksincha, Elchin yurib bo'lgan qonli yo'ldan norozi!

"Shaytanat" muallifining shar'iy dilnigohi tasvirning barcha jabhasini qamrab oladi. Hech bir voqea, hech bir qismat, hech qaysi kechinma, mushohada, g'aybiy tasavvur, xotima-yechim bu nuqtayi nazardan chetda qolmaydi. Oyat, hadis, tushlar, rivoyatlar, she'riy parchalar ham jam bo'lib, shu ruhni asarning yagona joziba qonuniyatiga aylantiradi. Bu ruh muayyan umumlashmalarga ham ziynat, tarovat baxsh etadi: "Odam adolat qilmog'i uchun musulmon sheva bo'lishi shart. Haq yo'lida turishi kerak, yuragida imon nuri, tilida Ollohning zikri bo'lishi kerak". "Agar o'zbeklar to'planib, to'y-ma'raka oshiga oshiqqanlari kabi imonga oshiqqanlarida edi, mustaqillikka shubhasiz erishardilar. Ulug' Turkistonni faqat imon birlashtiradi". Va hokazo.

"Shaytanat"day kechagi kunning zo'ravon va sertahlaka muhitini yorituvchi qissada vazmin-andishali ohangni, qiziqarli sarguzasht-kechinmalar tizimini quyma tarzda yaratish uchun ibrat bergan milliy adabiy maktab ham bor. Asar uslubi bu holni pinhon saqlamaydi: Qodiriy tajribasidan nechog'lik bahramandligini ayon qilib turadi. Qissadagi Zaynab o'ylari, uning o'z ismi xususidagi qalb mojarolari, Kumush bo'lmoqni orzulashi, qismatida Qodiriy Zaynabiga o'xshash-noo'xshash

jihatlar ko'pligi, qiz tasvirotida uslubning qodiriyonalashuvi ijodiy ta'sirning mohirona alomatlaridir. Ayni taqqos-ifodani shartli ravishda ibratlanishning zohiriy shakli deb qabullamoq ma'qul. Eng muhimi, butun ifoda mobaynida "O'tkan kunlar" shar'iy madaniyatining, undagidek syujetga samimiy "aralashuv"ning, "aralashuv"da voqealar tabiiy oqimiga putur yetkazmaslik mahoratining yangicha xususiy uslubda ro'yobga chiqishi jozibalidir.

"Shaytanat" – serqirra syujetli ulkan milliy qissa. Kattay-u kichik talashib mutolaa etayotgan bestseller. Uning tahlil-tadqiqotga asoslar berguvchi, bahs-munozara qo'zg'atuvchi xususiyatlari anchagina. Asar pafosini yuksaltirgan aniq sifatlardan biri esa bezovta adib uslubidir, tushuntirish manerasidir.

"Shaytanat" o'zbek detektiv adabiyotidagi yangichaligi bilangina emas, mazkur fazilatlari orqali endigi nasrimiz diqqatini hidoyatli ifodalarga chorlashi bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Hidoyat sari bosilgan qadamlar zavol bilmaydilar, izlarini qoldiradilar. Izlar esa ergashtiradi va saflar kengayadi. Hidoyat yo'lidagina har turli adashuvlardan qutulib yashamoq, najot topmoq mumkin. Toki, qiyomatga qadar adabiyotga hidoyatlangan ijodkorlar suv bilan havo misoli zarur. Negaki, bunday yozuvchilar ijodi so'z san'atining ham hidoyati demakdir. Yaratganning rizoligiga, sevgisiga muyassar yashamoq saodatining benazir yo'li shudir. Hidoyatli, shar'iy niyatli, imonli istiqlool adiblari va adabiyotiga salomlar bo'lsin: vassalomu alaykum va rohmatullohi va barokatuh.

1998-yil

SHE'RSHUNOS BIR SHE'RIYAT

O'zbek adabiyotining yaqin tarixida o'zining yuksak va serjilo iste'dodi, sersamar faoliyat maqomi bilan yorqin iz qoldirgan Maqsud Shayxzoda ijodiyoti, turfa fazllarga boyligi bois, ham hayratbaxsh, ham ibratlidir. Uning she'riyati tafakkur tarzi donishona, tuyg'ulari himmatli, orzulari olam musaffoligi-yu insoniyat komilligi bo'lgan betakror lirik qahramonni namoyon qiladi.

Jahon adabiy jarayoni so'z san'atining qiziqarli, g'oyaviy-nazariy tadqiq tarmog'i – she'riyatning mohiyat va mezonlarini idroklash masalalariga doimo hamnafas yashab keladi. She'riyat nimaligi, qanday lirikaning maqbulligi, qay yo'sin poetik tafakkurning yashovchanligi haqidagi muammolarga munosabat davrga xos kun tartibida turadi. Bu boradagi bahslar, hislar, mushohadalardan hech bir adib, adabiyot olimi va hech bir she'riyat muxlisi chetda qolmagan. Shayxzoda Sharq-u G'arb adabiy merosini chuqur o'rgangan, durdona tajribalarni saralab, manzur jihatlarini o'z ijodi hamda adabiyotimiz manfaati uchun oqilona xizmat qildira olgan, ularni xolisona xulosalab bera olgan olim – adib ham edi. U Firdavsiy, Nizomiy, Shota Rustaveli, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fuzuliy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Hamza singari o'tmish shoirlar, shuningdek, o'ziga zamondosh bo'lgan ko'plab o'zbek va qardosh adiblarning ijodlari bo'yicha izlanishlar, ilmiy ishlar olib bordi.

Adabiyot, falsafa, tarix, mantiq, folklor, tilshunoslik ilmlarining puxta bilimdoni Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid maqolalaridan tashkil topgan "Genial shoir" (Toshkent, 1941-yil) to'plami va uning 1948-yilda yaratgan Navoiy lirikasiga bag'ishlangan katta ilmiy ishiga atoqli adabiyotshunos Aziz Qayumov yuqori baho beradi. Shayxzoda kuzatishlari, tahlil va xulosalarining adabiy-nazariy ahamiyati yuksak ekanini e'tirof etadi. "Navoiy she'riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqoti" barcha qimmatli ilmiy mulohazalari bilan navoiyshunoslikda hamisha alohida o'rin egallab qolajagini ta'kidlaydi. Maqsud Shayxzoda adabiyot nazariyasining hamma zamon ijodkorlari uchun zaruriy yo'l-yo'riqlari, maqsad-talablarini, adabiy aloqalar va ta'sirlarni, muayyan

ijodkorlarning xosliklari va poetik mahoratlarini, umuman, jarayonning "g'oyatda dolzarb masalalari, muammolarini teran tadqiq etadi. Mutlaq umumiy me'yor, qonuniyat hamda qarashlarni adabiy tajribalar misolida dalillaydi, ayni choqda, boshqalarga o'xshamas individual uslubiy xususiyatlar orqali adabiyotni yuksaltirish omillarini ma'qullaydi.

So'z san'ati nazariyasining barqaror qoidalari, badiiyat, vazn, qofiya, aruz, she'riy san'at kabi bilimlarni mustahkam egallashning adabiyot taraqqiysi uchun nechog'lik muhimligini uqtiradi. Ularni keng targ'ib etadi. Ijodlar, ularning munosib namunalari tadqiqi mobaynida hamma tez anglamaydigan eng nozik qirralarni, ma'no, tagma'no va san'atlarni tushunarli tahlilda ochib beradi.

Chunonchi, Navoiy g'azaliyotini qadim Sharq g'azalchiligi qamrovida, an'anaviylik, bardavomlik, novatorlik nisbatida qiyosan kuzatar ekan, ilk bora favqulodda haqqoniy ilmiy xulosalarni yuzaga chiqaradi. Shayxzoda g'azalnavislik taraqqiyotining badiiy tasvir vositalari arsenaliga Navoiy tomonidan olib kirilgan bir necha "poetik usullar"ni aniqlaydi va shunday yozadi: "Navoiy g'azalining asosiy va birinchi xislati uning mantiqiy tarzda tuzilishi, bir momentning ikkinchi momentdan tug'ilib kelishidir. Bu juda muhim xislatdir. Chunki ko'p g'azalnavis shoirlarda she'r go'zal va alohida baytlardan iborat bo'lib, mexanik ravishda tuzilgani uchun undagi baytlar oldinma-keyin almashtirilsa, o'qigan kishi bu o'zgarishning farqiga yetmasligi ham mumkin. Shu ma'noda olganimizda, bir qancha g'azalnavislarning she'rlarida syujet ko'rinmaydi".

Darhaqiqat, Navoiyga qadar yashab ijod etgan aksariyat shoirlarning nazmida yagona bir mavzu va obraz asar mobaynida ustuvorlik qilmas yoki mavzuning talqinida baytlar tartibotiga o'ta jiddiy yondashilmas, tematik jihatdan bir-biriga yaqin istioralar, tashbehtar yonma-yon tizilar, natijada nafis, biroq voqeaband bo'lmagan asarlar vujudga kelar edi. Bunday lirik she'rlar, Shayxzoda fikricha, o'zlarida subyektiv hislarning tarqoq jilvalarini namoyon qiladi. Navoiyda esa bu masaladagi mahorat juda yuksak: hatto eng kichik lirik she'rlarida ham fikriy muddaoning butunligini, obyektiv voqealarning botartib silsilasini, baytlarning mantiqiy rishtalar bilan aynan o'z o'mida

bog'lanishini kuzatish mumkin. Shunday mohirlik tufayli g'azalida parchalab bo'lmaz butunlik, baytlarning bir-biriga tasodifiy emas, balki mantiqiy munosabatlar bilan bog'lanishi hosil bo'ladi. Albatta, Shayxzoda tasvirlangan "voqea" deganda real sodir bo'lgan yoki lirik to'qima sanalgan aniq, hayotiy-epizod hodisani emas, dastavval misralarda, baytlarda bayon qilingan ma'no-mazmunlarning yagona mavzu ichidagihamohangligi va mushtarakligini, "syujet" deganda esa, nasrdagi shu nomli yoki "fabula" deb atalmish tushunchalarni emas, ko'proq o'sha yaxlit mavzu doirasidagi fikr, ma'no, obrazlilikning izchilligini, fikr tashuvchi baytlarning nihoyatda to'g'ri, o'z o'rnida joylashtirilishini nazarda tutadi. Shu zayl nozik kuzatuvlari natijasida qat'iy to'xtamga va xulosaga keladiki, g'azallarda keng ma'nodagi ma'lum bir voqeani yarata bilish, baytlarni ma'nan, fikran va suratan bog'lash u yoki bu darajada Navoiy lirikasiga xos bo'lgan birinchi badiiy usuldir.

Bu – mutafakkir shoir Alisher Navoiyning she'rshunoslik maktabidan olinadigan sanoqsiz saboqlardan birining olim Shayxzoda tomonidan qilingan ilmiy kashfi. Bu – lirikaga xos syujet masalasiga shubhali qarashlarga, she'riyatdagi syujet va kompozitsiyani idroklamaslikka qarshi daliliy ilmiy tadqiq. Bu shoirlarni mantiqiy voqeabandlikdek yuksak san'atkorlikka undov va chorlovdir. So'z san'atiga daxldor yetuk ilmlardan, dunyo adiblarining yutuqlari sirlaridan mufassal voqifligi, zukko va nozikta'b she'rshunosligi Shayxzodaning o'z she'riyatida har jihatdan tasdiqlarini topdi. U yaratgan she'riyat katta mahorat maktabi bo'lib, uning darsxonalarida badiiy ijodning xilma-xil maqsad va vazifalariga qay yo'sinda yondashuv joizligini his qilmoq, o'rganmoq mumkin. Shayxzoda adabiy merosini, xususan, lirikadagi ijodini adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo'nalishlarida shu nuqtayi nazardan alohida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, alloma adibning she'r ilmiga doir adabiy-nazariy qarashlari muayyan munosabatlar bilan bevosita she'riyatining o'zida, uning mazmunida ma'lum darajada o'z ifodasiga ega.

Ijodkorning mas'ullik tuyg'usini, uning sharaf-nomusini, so'z san'atining o'ziga xos taqozolarini, hayotning shoirga ta'sirlar

ko'lamini, shoirning olamga munosabat miqyoslarini Shayxzoda "Shoir qalbi dunyoni tinglar..." (1960-yil) she'rida "tovush" ramziy poetik obrazi orqali jo'shqin, yangroq misralarda ifoda etadi: shoirning qalbi butun dunyo hodisot va manzaralariga hamnafas, hamohang yashaydi, yer yuzining barcha ko'chalaridan, kunduz-kechalaridan uning qalbiga turli-tuman ovozlari kirib keladi, bu unlar shoir dilining hamrozlari.

Shoir qalbin darchalaridan
talay tovush kirib keladi.
Xuddi borliq parchalaridan
yaratilar dunyo surati.
Tovushlarning kichik, ulug'i,
tovushlarning hidi-bo'yi bor.
Tovushlarning sovuq, ilig'i,
tovushlarning rangi ro'yi bor.
Tovushlarning shirin-achchig'i,
bordir hatto yumshoq, qattig'i.

Oshiqlar pichiri, gulxanlar gurillashi, ehtirosli kuy-u nag'malar, "hatto rangi qora, sim-siyoh" nolalar – ovozlarning barcha-barchasi shoir qalbiga bejizat oqib kiradilar; ularni shoir bejavob qoldirsa, jabrini o'zi tortadi – nash'alardan judo bo'ladi, qalbi havo kirmas mangu berk, g'arib bir sag'anaga aylanadi. "Sohilda o'ylanishlar" she'rida Shayxzodaning olam va inson mohiyati bobidagi qarashlari yanada mantiqan yoniq, poetik jozibador namoyon bo'lgan. Yer yuzida inson uchun yaratilgan mo'jiza ne'matlar, yaratilgan naqadar ko'p. Boshqa go'shalarga nisbatan dengiz sohillari insonda falsafiy mayllarni ko'proq qo'zg'aydi, o'ylashni, tafakkurni talqin aytaydi. Sohillar faylasuflar kabi: zehnga muammolardan so'z so'ylaydi, hayot va o'lim nizosini, foniylilik va mangulik nisbatini o'ylatadi. Oq-u Qora, Qizil dengizlar, bo'g'oz, ko'rfaz, orollar, qumloq, to'lqin, tog'-u o'rmonlarga boqayotgan shoir maqsadga chinakam muvofiq yaralishni – ilohiy me'yorni, muvozanatni his qiladi. Bularning baridan bosh muddao – inson manfaati go'zallik va ezgulik yaratish. O'zi tuygan hikmatlarini shoir she'riyat zimmasidagi majburiyatlar bilan qiyoslaydi: "Xuddi shunday: shoirning yuragi ham uzoq-yaqin bashar zotiga hamdam. Xuddi shunday:

shoirning baytlari ham dunyoning dardlari va tashvishiga Zafari, kurashi, intilishiga, har joy, har rangdagi istaklariga, Rostiga, tushiga, ertaklariga ochib keng bag'ir, me'yor-ku, axir!"

Lirik qahramon ba'zan shoir sifatida qiyofalanadi. Iste'dod zimmasidagi ulkan mas'uliyatning mashaqqatli, marg'ub-nomarg'ub tomonlari haqida poetik bahs yuritadi. Vaqtning shiddatli o'tishi, davronning qizg'in yangilanishlari shoirdagi hozirjavoblik hissini orttiradi. Goh she'rga, qalamga, she'riyatga, siyohdonga murojaat usulida bu boradagi ahdini, maqsadlarini izhor qiladi. Vazifaning ko'pligi va ulgurishning qiyinligidan hayajonlanib, "qomusday so'zlik"ka ehtiyoj sezadi. "Tole yillariga negiz qo'yganlar... Zamon kutmasligin bilib..." ertani bugun o'zlashtirganlar, yo'llarda qadamni tezlashtirganlar ("Iqbol daftari"). Shoir yuraklarning baralla ovozi bilan baland pardalarda kuylamog'i, uning yuragi "go'zallik xodimi" bo'lmog'i kerak ("Yillarni kuzatib, yillarni kutib..."):

She'rim, sen yillarning savlatin kuyla!

Bilaman, bu qiyin... Bag'oyat qiyin!

She'rning o'lchovlik misrasi ila –

Mumkinmi o'lchamoq yillarning bo'yin!

Ijod talablari, so'zni qo'llash maromlari hamda bayon mezonlarini Shayxzoda she'riy shakllarda ham o'rinli, ta'sirchan uqtirolgan nazariyotchidir. Behuda qasidachilikni, nomunosib madhni, soxtalikni qoralaydi shoir ("305-betda o'ldi qahramon", "Qalam"). Yulduzlarning soni qadar shoirlar ko'p o'tgan, ular yulduzlarga bag'ishlab son-sanoqsiz nag'malar bitgan. "Tasvirlarni ustozlardan oshirmoq uchun Har qalamga qo'shmoq kerak qirq yulduz kuchin". Va lekin she'riyatda bosh mavzu va maqsad mukarram xilqat – inson bo'lishi zarur ("Sen o'zing – she'r"). "Inson, she'r va shoir" manzumasida Shayxzoda shunday misralar bitadi:

Qalbida erk bilan ko'rkni jamlagan,

Basharning iqbolin, nurin g'amlagan –

Inson sharofati she'rimga mavzu,

U bilan musharraf qo'shiq va yozuv.

Ha, bunday tarona quyoshga farzand,
Undan yulduzlar ham, gullar ham xursand.
Misraga yuklansa og'ir o'y-xayol,
Mayli, o'sha baytim atalsin hammol.

Misraga tuyg'ular bo'lsalar hamkor,
Atalsin u baytim uchag'on shunqor.

Nazm sohibi g'azalning-da qadrini avaylashi, so'zini hadeb sotishdan saqlanishi, she'r ne'matining obro'sini tushirmasligi lozim. Zero, shoir so'zning qadrini bilolmasa, o'zini ham hech qachon bila olmaydi ("Ikki she'r"). Shayxzodaning "Ruboiy haqida ruboiy"sidagi poetik so'roqlar har qanday she'rga, ijodiy namunaga yuklanuvchi talablarni chuqur idrok qilishga ham chorlaydi:

Har qanday to'rt tovush nag'ma bo'lurmi?
Ilgaksiz ko'ylakda tugma bo'lurmi?
Ruboiy – ma'nolar bahrida kema,
To'rt dona qayiqdan kema bo'lurmi?

Shoir bevosita ijodning biror masalasiga bag'ishlangan yoxud tamoman boshqa mavzularga tegishli turli janrdagi she'rlarida, muayyan mantiqiy istak-mayllar bois bo'lib, ijodkorlik zahmati ("Ayriliq"), she'riyatning yetakchi muddao, tamoyil, vazifalariga ibratli munosabatlar bildiradi. "Misraning tug'ilishi" she'rida quyidagicha yozadi:

Oqshom chog'i eshikni qoqqan
Aziz, go'zal, lekin nogahon
Kutilmagan mehmonlar kabi
Xayolimda obrazlar beson.
Har biri ham o'smoq istaydi,
Har biri ham istar navozish,
Har biri ham norasida yosh,
Qilmoq kerak uni parvarish.
Uymalangan qator tashbihlar
Karvondir, sarbon istaydi.
Shitirlagan bargdan to'qilgan

Qofiyalar meni qistaydi...
 Fikr kiyar xayol libosin,
 O'xshar suratxonaga miya.
 Ruhim ko'char she'ristonga,
 Sho'x qanot-la uchar qofiya.
 Vatan berar shoirga ishqni,
 Sho'x qofiya – unga bahona.
 Shu Vatandan shu'la nur olgan
 Misra uchun, ayt-chi, bahona!

Shayxzoda she'riyatida ilmi adab va she'rshunoslikning – tur, janr, vazn, qofiya, aruz, barmoq, uslub, shakl, mazmun kabi adabiy unsurlarning shoirona talqinlariga, ta'riflariga bot-bot duch kelasiz: “Nasr – og'ir qadam, nazm – chopag'on”, “Gul” ila “bulbul”ni juftlamoq arzon” (“Toshkentnoma”); “Qaytariq so'z nazm uyin qiladi vayron” (“Sen o'zing – she'r”); “Gap qalamda yo jinsida emasdir, Qalamkashning qalbidadir hamma sir”, “Har shoirning o'z qalami, xati bor, She'rshunos bunga qilar e'tibor” (“Qalam”); “Siyohdon, zamonga bizmiz javobgar, Yo'qsa, ikkimizga haqli gap tegar” (“Siyohdonim”) va hokazo.

Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Maxtumdul, Pushkin, Tolstoy, Hamza, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir va boshqa adiblarga bag'ishlagan manzumalari bu ijodlarga xalqlar ehtirominigina emas, Shayxzodaning adabiyotga oid ulug'vor qarashlarini ham o'z ichiga oladi. “Roziman butun yer kurramiz uchun, Bir karra men tortsam barcha dardlarni”, deydi fidokor shoir “Tovushlar” she'rida. U she'rni “kishi ruhiyatining serohang sozi”, badiiy adabiyotni dunyoni va inson qalbini pokdomon etuvchi, ruhni boyituvchi, go'zallashtiruvchi “go'zal do'stimiz”, deb biladi. She'rsiz qalblar ayanchli, achinarlidir. Bechoralar bilmaydiki, “She'r chin go'zallik singlisi ekan”:

She'riyat diyorin shoirlarimiz,
 Har uy, har ko'ngilga baytlar bo'lsin yor!
 Elga dastyor bo'lsa she'rlarimiz –
 Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor!..

Shayxzoda – ko'lamdor ma'nodagi so'z san'atkori, badiiy so'z muallimi. Ayniqsa, tadqiq maqsadida o'rganilar ekan, uning she'riyati

...nodir topilma-durdonalarni – o‘zigacha bo‘lmagan betakror qofiyalarni, yangi ixtiro so‘zlarni, hikmatona iboralarni, vaznlarning imkoniyat miqyoslarini, hatto tovushlarning maqsadga hamohang tovlanishlarini namoyish qiladi. Shayxzoda she‘riyati she‘rshunoslikning barcha mavzu-masalalaridan saboqlar beruvchi maktab hamdir.

2010-yil

YOLG'ONNING SHAR'IY VA SHE'RIY ILINJI

Baxshi bo'lsang, so'z ichra
Koring bo'ladi, bolam.
Aytganing har yolg'on so'z
Doring 'ladi, bolam.
Usmon Azim

Dunyodagi har qaysi tilning minglab xolis, beozor so'zlari bor. Yana hissiy bo'yog'i salbiy va ijobiy so'zi keragicha ko'p. So'zlarda belgi-xususiyatning darajasi, ma'naviy quvvatning salmog'i qay holatda bo'lmasin, inson omilisiz ular na yaxshilik sodir qiladi, na yomonlik. Hamma gap insonning so'zlarni saralab, jamoalab muomalaga kirituvida, qo'llovchiligidadir. Shuningdek, gap ularni tinglovchidadir. Inson botinida doimiy fikriy harakat bo'lib yashayotgan kalomlar olami – Allohning cheksiz va shomil ilmidagina ma'lum, o'zga hammaga noma'lum bir g'aybiyot. Odam mohiyatida mujassam ayni latif, g'aybiy jarayon toki tashqariga (zohirga) chiqmaguncha amal, voqelik bo'lmaydi. Alloh taolo O'z ilmidagi bilan emas, yuzaga chiqarganimiz hodisot, amallar bo'yicha hisob-kitob qiladi. Amallar esa qalblarning taqozosiga binoan namoyon bo'ladi. Navoiy aytganidek, "Ko'ngul holati so'z degach bilgurur". Har narsada sinov bor va hamma sinov insonning o'z tarkibida, muhitida mujassam. Til, nutq, bayon ne'matlari insoniyat uchun ulkan ilohiy sinov, baxt-u baxtsizlikka eltuvchi imkonlardir.

Jismoniy va ma'naviy faoliyatlarning jamiki ko'rinishlari, aloqa, munosabatlarning benazir vositasi – til bilan turli darajalarda ziynatlangan. Bu beminnat ne'mat inson zotiga xoslik qilib berilgan. Undan bahramandlikning yo'l-yo'riq, me'yor-mezonlari ko'rsatilgan. Allohning tavsiya, ko'rsatma va o'gitlari hayotiy o'lchovimizdagi oddiy narsalar emas, balki ilohiy amrlar, hukmlardir.

Alloh subhanahu va taolo Balad surasida deydi:

"Biz unga ikki ko'zni (8-oyat). Tilni va ikki labni bermadikmi? (9-oyat) Va Biz uni ikki yo'lga yo'llab qo'ymadikmi? (10-oyat)". Yaratganning O'zi har birini alohidalab zikr qilgan daqiq ne'matlarning

nomlari o'zlarida moddiy, ma'naviy ma'nolarning barchasini tasarruf etgan. Mazkur ne'matlar vasfi-yu shukronasini, oyati karimalarning hikmat-u tafsirini aytib ado qilib bo'lmaydi. Zotan, Allohning so'zlari hamma zamon-u makonlarda mislsiz qudratli, har qachon va har qayerda tamom ojiz qoldirguvchidir. Ko'rish hamda gapirish qay yo'sin bo'lmog'i shart? "Ikki yo'l"dan murod nimadir? Va ulardan qay biri haq yo'l? Yo'llab qo'yilganlik hikmati nima?.. "Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam debdurlar: *Alloh taolo aytadi: "Ey, Odam bolasi! Men senga sanog'iga yetmaydigan va shukriga toqating kelmaydigan ulkan ne'matlarni berdim. Senga bergan ne'matlarimdan biri ko'rish uchun ikki ko'zni, shu bilan birga, ikkovini yopadigan qovoq berganim. Ikki ko'zing bilan men halol qilgan narsalarni ko'r. Agar harom qilingan narsalarga ko'zing tushib qolsa, pardasini, qovoqlaringni yop. Senga til berdim va unga g'ilof ham qilib qo'ydim. Men amr qilgan narsalarni gapir. Agar harom qilingan narsalar oriz bo'lsa, tilingni tiy... Ey Odam bolasi! Mening azobimga chidamaysan va mening o'ch olishimga toqat qilolmaysan"* (Hadisi Qudsiydan).

Yolg'onni emas, haqiqatni, yaxshi, ro'y-rost so'zlarni gapirish, aks holda, sukut saqlash islomiyatda ulkan axloqiy-nafsoniy, ruhiy-ma'naviy qoidalaridan. Haq ta'limotlar, xususan, "Ruhiy tarbiya ilmi"da nutqiy odob, me'yor, mas'uliyat masalalari o'ta nozik jihatlarigacha o'rganiladi. Ahli solihlar, islomiy axloq sohiblari bu bobda katta tarixiy ibratlar merosiga ham egadirlar.

Yomon so'zlilik kufr keltirgan, turfa narsalarni iloh sanagan va tug'yonga ketgan kimsalar, mutakabbir, g'iybatchi, munofiq, masxarachi, shirkchi va tovlamachi singari tafakkurini fasod bosgan toifalarga xos xususiyatdir. Ular yomonligi botil va yolg'on ila qurshalgan. Bu amallar o'zlariga ziynatli qilingan va ular tek qo'yilgan. Holbuki, butun bashariyatga haq so'zlarni aytish, botil, yolg'on so'zlardan qaytish buyurilgan. Yaxshilarning Alloh firqasidan, yomonlarning shayton firqasidan ekanligi aytilgan.

Dunyoning bor moddiy, maishiy, axloqiy, ma'naviy, iqtisodiy, ruhoniylar masalalari sirasida hidoyat va zalolat, halol va harom, isrof va

tejam, haq va botil, yaxshi va yomon, rost va yolg'on kabi qarama-qarshi tushunchalarning haq tavsiflarini "Furqon" ("farqlovchi", "ajratuvchi") deb sifatlanmish Qur'oni karim, Sunnati sharif, ular asosidagi furqon-u vasatiy (o'rta, to'g'ri, mo'tadil, adolatli, eng yaxshi, muvozanat) shariat ta'limotlari bayon qiladi.

"Yolg'on" – mohiyatan sertarkib, ko'p ma'noli so'z. Garchand salbiy yo ijobiy jabhaga og'ishmagan, xolis, hissiy bo'yoqsiz so'z bo'lsa-da, biroq matndan tashqarida turiboq, shunchaki yakkash talaffuzdayoq u sog'lom tafakkur va sog'lom qalblarda raddiya tuyg'usini qo'zg'ay olishga qodir. Kishini daf'atan sergaklantirib, qalbg'a xiyol vahm solishga mohir.

Holbuki, yuqori taraqqiy topgan o'zbek til ilmlari sinchkov tadqiqlari natijasida "yolg'on"ning til mintaqasidagi imkoniyatlarini qat'iy "jilovlab" bo'lgan. Uning leksik, grammatik martabasini oqilona o'rniga qo'yib qo'ygan: "yolg'on" – sifat turkumiga daxldor, sinonimi uncha ko'p emas, otlashishga ancha moyil so'z, -chi nomli yasovchi qo'shimcha olsa, ehtiyot bo'lingki, o'zidan anglashilgan illatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni anglatadi: yolg'onchi, aldoqchi, munofiq... Holbuki, dinning amaliy qismini tartibga solib turuvchi, fiqh va huquqshunoslik ilmlarini ham o'zida uyg'un qamrovchi qonunshunoslik shariati Islomiya yolg'onga doir haq hukmlarini bundan o'n besh asr muqaddam chiqarib bo'lgan. Shar'iy matnlarda, ya'ni oyat va hadislarda yolg'onchilik masalalarining zikri ko'p keladi. Islomning bu boradagi ta'limotlari ham, shubhasiz, barcha davrlar va diyorlarga batamom quvvatli va salohiyatli.

Yolg'onning istilohiy ma'nolari, bu ma'nolar daqiq qirralarining sharhi, yolg'on hodisasining turmushdagi manzaralari, tovlanishlari, beboshliklari talqini lug'aviy va grammatik tadqiqdagi kabi oson kechmaydi. Negaki, yomonlikning hamma qutblarida yolg'onning o'z mavqei bor. Ayniqsa, johiliyat davrlarida u hukmron botil mafkuralarning ardoqli tamoyili bo'lib yashagan. Odamzodning butun kechmishi mobaynida u yomonliklar quroli sifatida hamqadam. Ishni uning ziddidan, unga haq munosabatdan boshlamagan tarbiya-yu ta'lim ham xavf-u xatardan xoli emas. Demakki, yolg'onga haqqoniy baho

beruvchi, uning qiyofasini fosh etuvchi, undan qaytaruvchi, qaysidir jihatini maqbullovchi vasatiy bir ta'limot, eng odil ahkom joiz edi.

Alloh taolo Haj surasida insonga xitoban: **"Bas, butlardan iborat najosatdan va yolg'on so'zdan yiroq bo'ling"** (30-oyat), deydi.

Butlar hamda tog'ut (Allohdan boshqa, ibodatga sazovor ko'rilgan hamma narsa, ba'zi ulamo fikricha, ins va jin shayton)larning ma'naviy najosatlar ekanligi ma'lum. But-u sanam, tog'-u tosh, dov-daraxt, buzg'unchi g'oya, bandalar va koinot jismlarini iloh tutish shirkdir. Niso surasida shirkdan boshqa gunohlar kechirilishi aytilgan. "Albatta, shirk ulug' zulmdir", degan oyat ham bor. Umuman, Qur'onda shirk eng katta zulm, eng katta yolg'on deb ataladi. Bundan shirkning yolg'on, yolg'oning esa shirkligi kelib chiqadi. Ular ajralmas botillik, yaxlit jinoyat ekanligi bois yuqoridagi oyatda ham yonma-yon kelib, Yaratganning O'zi ulardan yiroq bo'lishga amr qilmoqda.

Allohg'a yolg'onlar to'qigan, Uning oyatlari va payg'ambarlarni yolg'onga chiqirgan, Qur'onni she'r, payg'ambarni shoir degan qavmlar va kimsalar o'ta yolg'onchilar – zolimlar, deya hukmlanadi. Ular taxmin, gumon, shubha, yolg'on-yashiqqa sho'ng'ib, dinsiz yuradi. O'zlarini, o'zgalarni aldaydi. Allohning barcha-barcha narsadan, qalblardagi sirlardan ham mudomiy ogohligini idroklashdan ular g'ofildirlar. **"Yolg'onchilarga la'nat bo'lsin"**, deyiladi Zaariyyat (10-oyat) surasida. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Kishining yolg'onchiligiga har eshitgan narsasini gapiraverishi kifoya qiladi"** va boshqa bir hadislarida: **"Birov o'zi yolg'on deb o'ylagan gapni gapirsa, u ikki yolg'onchining biridir"**, deganlar. Alloh taolo ajib o'xshatish usulida yaxshi va yomon so'zlar ta'rifini aytadi: **"Yaxshi, haq so'z asli sobit, chuqur ildiz otgan, shoxlari osmonga ketgan mevali daraxtga; yomon, botil, yolg'on so'z ildizi yerdan uzilgan, mevasiz, xosiyatsiz daraxtga o'xshaydir"** (Ibrohim surasi, 24, 25, 26-oyatlar).

Qur'oni karimning Niso surasida:

"Alloh yomon gapni oshkor qilishni xush ko'rmas. Magar mazlumdan bo'lsa, mayli. Alloh eshitguvchi va bilguvchi zotdir" (148-oyat), deyilgan.

Ya'ni, yomon gap, uni tarqatish Islom ummati axloqiga yot amallardan. Mabodo, bu ish mazlum tomonidan o'z haq-huquqi yo'lida, haqiqat qaror topishi uchun bo'layotgan bo'lsa, uzrlidir. Chunki mazlum holidan jamiyat boxabar bo'ladi, u himoyaga olinadi, jafochidan o'zgalar hushyorlanadi, adolat ro'yobga chiqishiga asos solinadi. Mazlum ham shar'iy chegarani bilishi, saqlashi, yomon gapni asl boricha ko'tarib chiqishi lozim.

Ushbu ilohiy muayyan ijozat shar'iy ko'rsatma, hukmlarning naqadar odil, oqilona, mo'tadil, hammabop, inson toqatiga mosligiga dalolat hamdir. Alloh insonga toqatidan ortiqni ravo ko'rmaydi. Unga yengillikni xohlaydi. Inson o'z holatiga yarasha kasb qiladi va kasbiga yarasha topadi. Ilohiy adolat shunday. Yolg'onga munosabat mezonlari, uning hukmlari borasida ham shariatning osonlikka bino qilinganini, amali umumiy bu qoidaning qanchalik hayotbaxshligini tafakkur qilish mushkul emas.

Xilma-xil moddiy-ma'naviy jinoyatlar, buzg'unchiliklar, zalolatlar, g'ayriinsoniy illatlar sababchilaridan biri bo'lgan yolg'on la'natlandi. Islom haq, vasatiy din bo'lgani bois, dunyo va inson mohiyatiga muvofiq ravishda yaxshilik tomonga isloh qilish uchungina yolg'onga izn berdi. Bu zayl yolg'on voqealar rivojini, munosabatlar maromini muvozanatga keltirish, to'g'ri yo'lga solib yuborish uchundir. Nabi sollallohu alayhi vasallam: *"Odamlarning orasini isloh qiluvchi yolg'onchi emas, u yaxshilikni yetkazadi yoki yaxshilikni aytadi"*, deganlar.

Amallarni zoye etuvchi, nizolar sababchisi, fitna qo'zg'ovchi, taraqqiy to'siqchisi, zulm deb qoralangan, juz'iy holatlardagina maqbul sanalgan yolg'on fenomeni san'at va adabiyotda nega yuksak mavqe kasb etgan? Qaysi xizmatiga ko'ra yolg'on – adabiyot yuragi, qoni? Ijodlarda ustun yashashga u nechun buncha haqli, huquqli? Bu yolg'onlar oxir-oqibat barcha ijodiy zahmatlar-u sohiblari umrini isrof va botilga eltmaydimi? Nafratga uchragan yolg'on nahot ijodda muqim, qo'nimli? She'riyatning joiz yolg'oni o'sha nojoiz yolg'onmi?

Ijodda ardoqli, qadri yuksak, zavq ulashuvchi, ko'ngillarni oshufta qilib, ma'naviy-ma'rifiy go'zalliklar taqdim etuvchi yolg'onlarning

mavjudligi yolg'on emas, bag'oyat rost. She'riyatning yolg'oni hatto uning gap qurilishlarigacha hukmronlik qiladi: bundayin qurilmalar na ommaviy so'zlashuv uslubiga, na adabiy til me'yorlariga mos keladi. She'riyatning ayni xossasi gap bo'laklari tartibining rasmiy, odatiy, tabiiy tabiatini buzib havola etishiga ko'ra yolg'ondir. Muomalamunosabatlar olamidagi, ishlangan til normalaridagi har qaysisi o'z o'rniga ega bo'laklar jamoasi she'rda tartibotning yolg'oniy, ammo ajib, yoqimli, tarovatli joylashuvi – inversiyaga uchratiladi.

Sohadagi ichki xoslik, taqozo, poetiklik, bo'rttirish, ramziylik, to'qimaviylik – bular badiiy yolg'onlar, deyish bilan shar'iy hukmlarning kuchli salobati qarshisida "yolg'onchilik"ni to'la oqlab bo'lmaydi. Ayni vaqtda faqat yolg'onga doir hukmlar, isloh ma'nosida izn berilgan holatlar ham she'riy yolg'on sha'nini daqiq, biroq qisman himoyalaydi. Chunki masalaning mantig'i o'zgacha va keng qamrovlidir. Shuning uchun ham Navoiy "Mahbub ul-qulub"da chin so'zni ulug'lab, yolg'on ila yolg'onchilikni qattiq qoralab, hayotiy va nazmiy yolg'onlarning boshqa-boshqa narsaligini idroklatuvchi xulosa yasaydi: *yolg'on gapiruvchi aqlsizdir, yolg'on so'z she'rdan boshqa joyda nomaqbul:*

So'z ichraki yolg'on erur nopisand,
Chu nazm ettilar, qildi dono pisand.

To'g'ri she'riyat yolg'oni, avvalo, tub ildizlari haqiqat bo'lgan, badiiy to'qimasi ham haqiqat aytish istagiga bo'ysundirilgan, hamma amali majoz, ramz, obraz, tashbeh, mubolag'a singari san'atij vositalar bilan bezalgan, fikriy, voqeyiy izchilligi ta'minlangan, ta'sirchan bo'yoqdorlik bilan yo'g'rilgan hodisadir. She'riyatda haqiqat va "yolg'on" mushtarakligining idroki Navoiyning nazmiy vasfi bilan aytganda, *"Ajab yolg'ondur, ammo rostmonand"*. Uning mantiqiy omillari, yaralish jarayoni, niyat-muddaosi, ta'sir tarzlari, hayotiy yolg'onlarga qiyoslari qancha chuqur mulohaza qilinsa, shariatda man etilgan yolg'onlardagi alomatlarining asl she'riyat bo'stonida aslo yo'qligi shunchalik oydinlasha boradi. Tadqiqiy taammul, tasavvurdan bartaraf etayotgan botil yolg'on gumonlarining har biri o'rniga ularga mutlaqo zid: jozib rostlik, mo'tadil beg'uborlik, xolisona niyat,

donishona o'git, umidbaxsh taskin, yorqin ibrat yanglig' qator-qator sifat-fazilatlar qalb-u shuuringizni ishg'ol etib boradi. Shoir deydi: "Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon. Ul shirin yolg'onga mendek Aldanib qolg'on yomon. Umrimiz aldoq jahonda Aldanib o'tgay, va lek, So'nggi qiynalg'on yomon" (Erkin Vohidov). Lirik qahramon, kechroq bo'lsa-da, achchiq haqiqatning yaxshiligini angladi. Nechog'lik shirin bo'lmasin, yolg'on toydiradi, adashtiradi, chunki u qabohatdir. Uning tuzog'iga tushish – musibat, zavol. Shusiz ham bu yolg'on dunyoda umrning aldanib o'tish xavfi katta. Oqibatdagi nadomat, qiynalish esa hammasidan badtarin yomon. Bu – hayotiy tajribalar sabog'i, umuminsoniy iqrar va ogohnoma. Xullas, bunda gap manfur yolg'on hamda mo'tabar haqiqat xususidadir. She'r – Alloh insonni qaytargan narsalarga, dunyoning aldamchi, arzimas matohlariga qarshi jozibalashtirilib bitilgan haqqoniy so'z, yolg'onlarga ro'y-rost raddiya. Ham "dunyoviy", ham shar'iy ehtirom qozonuvchan baytlar.

Xo'sh, she'riyat yolg'oni ilohiy amrlarda taqiqlangan katta-kichik yomon yolg'onlarga mutlaq begona, g'aroyib ijobiy fazilatlarga boy, borliq, banda, tafakkur, qalb haqiqatlarini to'g'ri, ta'sirchan taratishning noyob vositasi – shunchaki bir insoniy san'at ekan, mashhur bu xoslikni "yolg'on" deb atash va so'zga qitmir ma'no yuklash urfi nega shu qadar ommaviylashdi? Bunga talay sabablar bor va ular qisman moziy, ko'proq keyingi asr she'riyati ahvolotiga tegishli: ayniqsa, Sho'ro siyosati tazyiqi bois asl o'zanlardan, ta'limotlardan uzoqlashildi; majburiy g'oyalar, mavzular, tanqid, maqtovlarga ruju qo'yildi; didlar, tasavvurlar, qarashlar chalg'itildi; chetlardan beparda adabiy ta'sirlar keldi; dunyoga dahriyona munosabat, tiriklikni boshqa, dinni boshqa deb tushunish ustunlik qildi; adabiyot ko'p hollarda zug'umkor mafkuraning xizmatchisiga aylandi.

"Mahbub ul-qulub"ning nazm ahliga oid faslida turli toifa shoirlar ta'rifi bor. Ba'zisi (saodat asrining ilk musulmon shoirlar avlodi) ilohiy ma'rifat xazinasidan nazm ipiga javohirlar teradi; ba'zisi (Attor, Rumi)ning muddaosi – ilohiy sirlarni bayon qilmoq, cheksiz ma'rifat tarqatmoq; ba'zi shuaro (Sa'diy, Dehlaviy) haqiqat sirlariga majoz asrorini uyg'unlashtirib ziyo sochadi. Navoiy nazdida bular ijodi "shunday tabarruk

kalomlarki, hurmat yuzasidan, ularni she'r deyishga ham elning tili bormaydi". Taassufki, yana qo'llaridan yaxshi, to'g'ri yozish kelmaydigan, o'zlarining shu hollariga zo'r e'tiqod qo'ygan, shoirlikka da'vogarligi juda baland bo'lgan toifa ham bor.

Mohiyatda din-u dunyoni ajratmay, bularni buyuk mushtaraklik bilib, manfaatlar yagonaligini ko'zlab qadam tashlash kasb-u amallarda, ijodlarda aqidaning oqilona qoidasidir. O'tmish adabiy-nazariy tafakkuri shu yo'l marg'ubligini, boshqasi adashuvligini ko'p bayon qiladi. Allomalar merosi ijodiy mehnatning zoye ketadigani qanaqa-yu, ikki dunyo saodatiga doxil qiladigani qanaqaligidan shar'iy ta'limlar beradi.

Darhaqiqat, Islom inson hayotini diniy va dunyoviy bo'laklarga bo'lmaydi. Bugunni oxiratdan, oxiratni bugundan ajratib qaramaydi. Hammasini davomiy jarayon, bir butun hayot deb biladi. Tarkidunyochilikni ham, dunyoparastlikni ham, dinda haddan oshishni ham, dinni pisand qilmaslikni ham qoralaydi. Islomda biryoqlamalik yo'q. Unda u yoki bu tomonga shar'iy chegaralardan chiqish haqiqatga zid, botil, yolg'on, zavolga ketish sanaladi. Islom, uning ta'limotlari, shariat, uning ahkomlari – vasatiy. Vasatiya – Islom. Barcha sohalar qatorida she'riyat ham vasatiylikka mas'ul hisoblanadi.

Ayrim adabiyot ahlining so'z san'ati ishini dunyoviy bilishi, ayrim taqvo ahlining she'riyatga bepisand qarashi to'g'ri emas. Xatoliklarning boshi dunyoni o'z qarichlarimiz bilan o'lchamog'imizdadir. Aslida hamma-hamma narsalar o'z o'lchovi bilan yaratilgan va dunyoning o'lchovlari batamom o'rgatilgan. She'riyatni tamom dunyoviy amal sanash uning mavqeini ko'tarmaydi, pasaytiradi. She'riyatga faqat ilohiy kuylash talabini qo'yish uni sobitlikka boshlamaydi, haddan oshishga olib keladi. Unday nazariyalar bir taraflamalik hamda vasatiasizlikning ko'rinishlaridir. Masalalarga munosabatda ham vasatiylik taqozo etilgan. O'z mavzu, voqeasini hayotdan oladimi, ilohiyotdan oladimi, she'riyat haq ta'limotlar doirasida poetik tafakkur qilishi, barcha xilqat, yaratilardagi oyat-mo'jizalarni his qilishi, vazifalarini ado etishda shar'iy chegaralarni saqlashi, kelayotgan ilhomni, iste'dodning kuch-imkoniyatlarini shar'iy ilmlar, mezonlarga munosib tasarruf etmog'i matlub. Vasat yo'ldagi ijodlar og'ishmaydi,

toymaydi. Adolatli, mo'tadil, eng to'g'ri, eng yaxshi yozadi. Mudom himoya, muhofaza, omonlik mintaqasi – vasatiyada yashaydi.

Demakki, gap mavzularda emas, balki shuaroning niyati, mavqei, nuqtayi nazari, haqni oqillik ila idroklashi, g'oyaviy-estetik shuuridadir. Sirdan qaraganda, biron lafzida din-u ruhoniylikka daxldorligi yo'q sof "dunyoviy" asarlar ayni vaqtning o'zida g'oyaviy, nafis qimmat, tarovati bilan sof "islomiy" badiiy namunalar bo'la olsa, ajablanarli hol emas.

Sharq adabiyotining jahonshumul ijodlari, nodir namunalarining ko'lamdor yutuqlarini hamisha haq e'tiqod, uning ilmlari, qoidalarini ta'minlagan. Mustaqiym manbalarni adiblar umr bo'yi e'tirof etishib, begumon yashashgan. Qachonki, jamiyat haqiqatning ilm-u amalidan chetlansa, barcha sohalari taraqqiyoti zaiflashgan, adabiyotida ham tanazzullar kechgan, yutqiziq ko'p bo'lgan. Zero, sohibining g'ofilligi zo'r iqtidorni bora-bora barbod etadi, zahmatini zoye qiladi. Ulkan adashuvlardan tashqari, yig'ilib qoladigan kichik xatolar ham katta behudalikni keltirib chiqaradi. Avvalgi asrlarning ko'proq shunday vaziyatlaridagina chin (to'g'ri) va yolg'on (noto'g'ri) shoirlik bobida fikrlashuv qo'zg'algan, boshqa kezlarda bunga ma'naviy ehtiyoj sezilmagan. Bizning davrlarda u yana dolzarblashdi.

Holbuki, bu xil muammolar yechimini, to'g'ri va egri, rost va yolg'on, halol va harom, haq va botil ijodkorlik qoidalarini, ijozatli, ijozatsiz holatlarni Furqon sifatli Qur'oni karim Islomga da'vatning ilk bosqichidayoq hal qilib bergan. Insonga aqlni ishlatish, taammul yuritish va ularning amalida bo'lishdan boshqa huda-behuda tortishuvlar uchun hojat qoldirmagan. Dastlab nozil bo'lgan surai karimalardan biri Shuaro (227 oyat)ning so'nggi to'rt oyati bevosita shoirlar-u shoirlik to'g'risidadir va umuman so'z san'atining yashash yo'lini, shartini belgilab bergan ilohiy dalillardir.

Alloh subhanahu va taolo aytadi:

“Va shoirlarga gumrohlar ergashur (224-oyat).

Ularning har vodiya daydishini (225- oyat).

Va o'zlari qilmaydigan ishlarni aytishini ko'rmadingmi?” (226-oyat).

Mushriklar Hazrati Muhammad alayhissalomni shoir, Qur'onni she'r, "uni shaytonlar olib tushadi", degan uydirma, tuhmatlar tarqatishardi. Qur'on she'r ham, nasr ham emas, Alloh kalomi. Yolg'onchilarning niyati – Islomni, vahiyni, vahiy qabul qiluvchini tan olmaslik, dushmanlik, qiyomatgacha bitmas-tuganmas bo'lgan mo'jizalarni – oyatlarni inkor etish, ob ro'sizlantirish. Qachon qay bir payg'ambar shoir bo'lib yoki qay bir shoir payg'ambar bo'lib inson zotini hidoyatga chorlagan? Undaylarga kim ergashadi? – Gumrohlar! Shaytonlar esa gunohlarga sho'ng'uvchilarga, g'o'fillarga, yolg'onchilarga, gumrohlarga tushadi.

Johiliyat davrida shuaroning ham johiliy toifasi she'rda ustun edi. Ular besubut, tuturuqsiz, betayin: manfaati borga – maddoh, foydasi yo'qqa – masxarachi. Fisq-u fasod, ichkilik, behayolik targ'ibi odatiy hol. Bunday shoirlar har maqomga yo'rg'alaydi, xayoloti har qayerda daydiydi – betayin she'r to'qiydi. Yanada yomoni, ular yaxshi o'git-nasihat, hikmatli gap aytishi mumkin-u, biroq bunga turmushda o'zlari amal qilmaydi. Shundaylar odam farzandini hidoyatga boshlay oladimi? – Yo'q! Mazkur oyatlar insoniyat tarixida eng katta, mudhish yolg'onlarni to'qigan bo'htonchilar va ularga xayrixoh qavmlarga javob-raddiyadir.

Alloh taolo suraning so'nggi oyatida:

“Magar, imon keltirib, solih amallar qilganlar, Allohni ko'p zikr etganlar va mazlum bo'lganlaridan keyin nusrat qozonganlar (unday emaslar). Zulm qilganlar esa tezda qaysi ag'darilish joyiga ag'darilishlarini bilurlar” (227-oyat), deydi. Shuaroning hammasi ham ishonchsiz, beqaror, badbin niyatli emas. Yaratganni ko'p eslovchi, zikrlovchi, haqni tarannum-targ'ib etuvchi, zulmni qoralovchi, zalolatdan qaytaruvchi, to'g'ri she'r bituvchi hidoyatli shoirlar bor. Ular har so'z, har fikrda Alloh roziligini ko'zlashadi. Eng muhimi, o'z shaxsiyat va iste'dodlarini xorlamaydi, beamal emaslar – Islomga amal qiladi. Ularning she'rlari taqvoga tengdir. Oyatda ana shunday shoirlar vasflanmoqda.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassalamning maqbul she'riyat bobida: she'rlarning hikmatlisi borligi, mo'min-musulmon shoirning

she'ri har qanday qurolning tig'idan, o'qidan o'tkirroq bo'lishi mumkinligi haqidagi, nojoiz she'riyat bobida: ***"Kishining qorni qusquga to'lgani she'riyatga to'lganidan yaxshiroq"***ligi to'g'risidagi va boshqa qator hadislar mashhur. Butun olamlar uchun ilohiy va'z-nasihat, ko'rsatmalar bo'lmaganida, shubhasiz, hamma jabhalar sirasida adabiyotning adashuvi johiliyat davridagidan-da badtar ahvolga tushmog'i tayinedi. Islom ta'limoti tufayli saodat asridaimonlari ulug' sahobiy shoirlar avlodi shakllandi. So'ng davrlar osha arabiy, forsiy, turkiy xalqlardan minglab yetuk musulmon adiblar yetishib turdi. Ular g'oyaviy-badiiy yuksak, barcha zamonlar ma'naviy kamolotiga kamarbasta adabiy meroslar qoldirishdi. Bu ijodlar Islom olamida hanuz katta e'tiroflarga sazovor.

Qur'onning kamma'no, nojiddiy, befoyda so'zi, kamhikmat oyati yo'q. Inchunin, yuqoridagi oyatlar tafakkurlarni larzaga soladi. Ular nafaqat she'riyat, adabiy ijod, balki ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifatga ham tegishli. Sohalarga nurli va zimiston, oq va qora, rost va yolg'on, haq va botil yo'llarni tanitadi, ogohliklar beradi. Bu yo'llar oqibatining ilohiy hukmlarini e'lon qiladi. Shuaro surasining eng oxirgi oyati, xususan, dunyo adabiyoti, she'riyati uchun Qur'ondagi eng umidbaxsh oyati karimadir.

Qur'oni karim boshdan-oxir ilohiy purhikmat kitobdir. O'tmishni bugun bilan, bugunni kelajak bilan bog'lab turgan, barcha narsalar bo'yicha barchaga yagona bayonot bo'lgan Alloh kalomida she'r va shoirlik xususidagi alohida ko'rsatmalar, amrlarning bo'lishi adabiy ijod uchun tengi yo'q ilohiy ne'matdir. Insoniyatni so'z san'atiga huquqli qiluvchi diniy dalillar, har qanday masalaga munosabatning vasatiy yo'l-yo'riqlarini taklif etuvchi Islom ta'limotlari shaxsiyat va ijodlarni beshubha, bexato yo'ldan boshlaydi. Adabiy amallar esa komil holatlarda ro'yobga chiqadi, beiz ketmaydi. Badiiy adabiyotning ulkan mas'uliyatlar saltanati ekanini Islom yanada yorqin idrok ettiradi.

Zotan, so'z san'ati hayot voqealarining, inson ma'naviy olamining rang-barang manzaralariga murojaatchi, ularning barida yaxshiliklarni jozibador yetkazishga vazifador ekan, o'z-o'zidan Islomni teran bilishga, haqiqatlarni chuqur anglashga, mezonlarini to'g'ri belgilashga

mas'uldir. Har bir soha, binobarin, she'riyat haq ta'limotlarga qaysi masala nuqtayi nazaridan murojaat qilmasin, ochiq-oydin mo'jiza-hikmatlarga ro'baro' keladi, mavzularning eng daqiq tugunlarigacha xolis yechimlar topadi.

Bularning hammasi, shuningdek, haq e'tiqod va aqida asosida she'riyat hozirgacha erishgan hamma yutuqlar ham Islom ilmlari haqligi, ilohiyligi, vasatiyligi, ojiz qoldiruvchanligi, amali hamma jabhalar, zamonlar uchun quvvatli, qudratli ekanining tasdig'idan o'zga narsa emasdir.

She'riyatda nimaiki xoslik bo'lsa, zamirida qaltis va mubham yolg'on emas, san'atga yo'g'rilgan rostlik yotadi. Bu hayotiy, shuuriy, ma'naviy mavjud jarayonlarni maroqli taqdim etish san'atidir. Badiiy taqdimot ashyolar, hodisalar, kechinmalarning aynan ifodasi, sof qaytarig'i bo'lmay, rangin ruhiy, hissiy hollarning umumlashgan, xulosalangan obrazli in'ikosidir.

Shu bosh tamoyilga mantiqan ters bayon va unsurlar sodir etilsa, yaxshimas – yomon, haqmas – botil, tavhidmas – shirk, xolismas – riyo namoyon bo'lsa, bu – dunyoning tub haqiqatidan g'ofillik, san'at talablaridan yiroqlik. Bunday kezlar sohani yomon otli qilish – nohaqlik. Bular ko'pincha shaxsiyat, iste'dodning tuban ahvoli manzarasidir. Olamning mo'jiza, ne'matlariga ilmsiz, yuzaki, sayoz qarashning, ko'zi yumuq qalb yolg'onlarining bayoni yoki shu kabilar asoratidir.

Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sizlar rostgo'ylikni lozim tutinglar. Chunki rostgo'ylik yaxshilikka boshlaydi. Yaxshilik esa jannatga boshlaydi. Kishi rost gapiraversa va rostgo'ylikni istashda bardavom bo'lsa, Allohning huzurida “siddiqlardan”, deb yoziladi.**

Sizlar yolg'ondan hazir bo'linglar. Chunki yolg'on fujurga, fujur esa do'zaxga boshlaydi. Kishi yolg'on gapiraversa va bu ishida bardavom bo'lsa, Allohning huzurida “kazzoblardan”, deb yoziladi”, dedilar”. To'rtovlari rivoyat qilishgan.

Vasatiy she'riyatda shafolat bordir: yaxshilikni go'zal izhor qiladi, haqni targ'ib etib, qiziqtiradi, loyiq-munosibni oqlaydi, noloyiqni inkor

etadi; vasatiy she'riyat islohchi hamdir: g'oyalar, qarashlar, dardlar, tuyg'ularni eng yaxshi tomonga isloh qiladi. Isloh esa Islomda buyuk amali solih, uning namoz va sadaqa darajasidaligi hadisdan ma'lum; vasatiy she'riyatda amri ma'ruf, nahyi munkar bor: yaxshilikka, haq yo'lga buyuradi, zulm-u yomonlikdan qaytaradi. Haqni nohaqdan, yaxshini yomondan, hidoyatni razolatdan farqlatadi; Vasatiy she'riyat mavjud barqaror o'lchov, vazn, tajriba, an'anani oyoqosti qilmaydi, shuningdek, yangicha usul va qarashlarni, manfaatli ta'sirlarni oqilona qabullaydi, qo'llaydi. Bu she'riyat sohiblari beamal bo'lishmaydi. Haq ta'limotga asoslanuvning fazllari yana ko'p.

Muxtasar xulosa shuki, she'riyatning yolg'oni shariat hukmi ila quvg'inlikka mahkum etilgan yomon yolg'onlar emas. Zero, botil narsalarga o'z hududidan panoj bermoqqa she'riyatning ham shar'iy haqqi-huquqi yo'q. Umuman, yolg'on sifatini so'z san'atiga nisbat berish-bermaslik, uni tamg'a yoki fazilat bilish-bilmaslik, atama maqomida qoldirish-qoldirmaslik masalasi, qay jihatdan shar'iy qaramang, lovullagan mudhish muammo bo'lib chiqmaydi.

Negaki, hamma gap ijodning hidoyatli bo'lishiga kelib taqalaveradi. She'riyatning botil, shirk, riyo, ta'ma, yolg'on, fasod, ibosizlik, beburdlik singari sanoqsiz illatlardan xoli yashashi esa uning o'zi orzulovchi saodatdir. She'riyat uchun ham og'ishmaslik, toymaslik, nojoiz yolg'on aytmaslikning shar'iy yo'ldan o'zga rost, raso hech bir yo'li yo'q.

2009-yil

SHAR'IIY NUFUZLI ONG OQIMLARI

Zamonaviy o'zbek nasrining yangichaligini tasdiqlovchi belgi-alomat, tamoyillar oz emas. Aksariyatining e'tirofi qizg'in, umidbaxsh. Yangicha yo'sinli ijodlarni xarakterlovchi fazilatlardan biri, shubhasiz, ma'naviy olam, o'y-kechinma, idroklar ahvolotining uslublarda usuliy jihatdan ustuvor mavqe-nufuz kasb etishi, chuqur badiiy tadqiqlanishidir. Soha olimlarining ko'pchiligi ushbu adabiy-estetik urfni ko'proq g'arbona metodlar, oqimlardan tashrif buyurgan ta'sir, ibrat, andozalar natijasi hisoblashadi. Milliy so'z san'atining ham bu bobdagi sobit an'analarini esdan chiqarishmaydi.

Mazkur nuqtayi nazar va xulosalarni asossiz deb bo'lmaydi. Ammo masalaga munosabatda, xususan, o'sha ta'sirlarni taratgan jahon san'atining hodisa-yu asarlarini sharhlashda ularni ziyoda ko'kka ko'tarish, shakl, usul hamda mahorat sirlarida kechayotgan mo'tadil, hikmatli o'rganishlarni ijodchilarning dunyoga qarashidagi, shundan bunyodlanuvchi uslubidagi boshqachaliklar tariqasida talqinlash, bor e'tiborni faqat shunga qaratish hollari muhim mohiyatdan anchayin yiroqlikdir. Umuman, san'atiy "izm"larning manzur tomonlarini inkor etmay va insofan aytilganda, bu jarayonda ta'sirlantiruvchi bilan ta'sirlanmishning nisbati va sifatida tafovutlanuvchi mantig'i o'zgachadir: milliy nasr ta'limotiy asoslariga ko'ra, sharaflı mashg'ullik imkonlariga ega; shirkka, botilga, tushkun kayfiyat va buzıq yo'llarga undovchilikdan hushyor, ehtiyotkor, tiyiluvchan; u tasvir tarzida fikriy, shuuriy oqim usullari hukmron bo'lgan o'sha mashhur adabiy ijodchilikka eng oliy zaruriyatni – olamlarga haq e'tiqod ila qarashni, imoniy ruh, motiv, tarovatni olib kirdi.

Birinchi navbatda, u shunday nufuzi bilan afzal. Unga doir butun ishonch hislari, yuksak adabiy taraqqiyning hamma omillari ana shu e'tiqodiy zaminga borib tutashgan. Bugungi yangicha nasrning e'tiborli asarlari, ta'sirlanishi maqomida qachonki kuzatilar ekan, bor-yo'g'i ijoddagi usuliy tadbirlar hisoblangan alomatlar sababidan muammoni tobelik, zabunlik ila mulohazalamaslik juda darkor. Shuningdek, nasrimizning shar'iy tabiati, fazllariga doimiy birlamchi mezon va talab

sifatida qarab yondashmoq joizdir. Chunki har qanday yangilik, yangichalikni qabullashning, ular tatbiqoti va baholanishining haq e'tiqodda mavjud sobit ko'rsatmalari haqqa rioyatchilikni, muqarrar mohiyat tomon yurishni, uni aytishni taqozo qiladi. Zotan, kitobxonni chinakam hikmatlarning qizg'in e'tirofi, mohiyatlarning hech og'ishilmagan, o'zlariga mos-munosib nafasleri tomon boshlay olishning uddasidan chiqilmasa, tanlangan mavzu, voqelik, xarakterlarning asl poetik hukmlarini qalb-u shuurlarga inkor qilib bo'lmaz talqin orqali taqdimlay olmasa, tamsil, ramz ishorat majozlarda, ustma'no-yu ost ma'nolarda ilohiy-voqeiy haqiqatlar, e'tiqodiy asoslar hukmronligi o'rnatilmasa, nuqtayi nazar, pafos, chorlov, yo'llovlar o'z haqqoniyati bilan hamma to'g'ri tafakkurlovchilarni taslim etuvchi salohiyat kasb etmasa, adabiyot fikriy oqimlaridagi har qanday mohirona topqirlik va toshqinlik, chuqurlik va jo'shqinlik zoye ijodiy mehnatdir.

Istiqlol yillari adabiyotining ayricha sifatlaridan biri, uning e'tiqodiy haqiqatlarni tanishi, unga yuzlanishi, u bilan ziynatlanishi bo'ldi. Albatta, o'nglanish, yangilanish tamoyillarining ta'minot manbai milliy hayot, voqelik, tafakkur takomili, o'zgarishlaridir. Mustabid tuzum qoida, cheklov, tazyiq, majburiyatlaridan xaloslik, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy islohot jarayoni ijodiy imkoniyatlar muhitini barpo etdi. Ustuvorlashgan bu afzallik sohaga doir ilmlar, ta'limlarda mazkur masalalarning adabiy-tanqidiy muolajasi ham g'oyatda dolzarblik kasb etayotganidan darak beradi. O'zbek nasrining kichik janrlardagi e'tiborli namunalarini kuzatishning o'ziyoq haq yo'lga, haq so'zga ehtirom, vasatiy munosabat hamda unga muvofiqlikka intilishning turlicha axloqiy-estetik usullardagi, uslubdagi ko'rinishlarini namoyon etadi.

Syujet qamrovidagi muayyan holat-hodisani, hayotiy kechmish yoxud detal, predmetni ishtirokchi bir necha obraz nigohi, nuqtayi nazari orqali kuzatib, bahonada ham voqealar rivoji ta'minotiga erishmoq, ham o'sha narsalarning asl mantiq-mohiyatini yuzaga chiqarmoq usuli Isajon Sultonning qator asarlari uslubiga xos. Yozuvchidagi ushbu xos usuldan bosh g'oyaviy-badiiy maqsad o'quvchini e'tibor qaratilgan obyekt bobida idroklatish, u haqdagi

ko'nikilgan mahdud qarash, tasavvurlardan voz kechdirish, kutilayotgan jozibali xulosalar, yechimlarga, asl hikmat, mohiyatlarga birgalikda intilishdir.

“Qo'riqchi” hikoyasida Isajon hayhotday dalaning qoq o'rtasida qaqqayib turgan, ustiga yirtilib, uvadasi chiqqan paxtalik kiydirilgan, uzoqdan qaralganda, tirik odamday tuyuladigan qo'riqchi hamda uning tegrasidagi manzaralar bilan qisqa tanishtiradi. So'ng qo'riqchi o'z holini, atrofida kechayotgan yaxshi-yomon hodisotni, o'zini bot-bot qo'rqitayotgan lavhalarni hikoyalaydi. Ilon, qushlar, karvon, daryoning baliqlari tasvirlanib, va nihoyat, yana qo'riqchi so'zlatilib, hikoya nihoyalanadi. Ilon har oqshom chakalakzor qoshida yigit bilan qiz uchrashib yurishlari, yigitning oy, kecha, suv, yulduzlar guvohligida qizni baxtli qilishga va'da berganlari haqida xabar beradi. Tasviriy tizimning shu joyida qavsga olinganshunday izoh-munosabat keladi:

“(...Hoy, bek yigit, qasaming ne ekanini bilmasdan nega tilingga olding. Ichgan qasamlaring ko'k toqiga ko'tarilib ketishini, u yerda shamshirga aylanib, boshing uzra osilib turishini bilmasmiding? Bir siltanib tushsa bormi... Taqdirning, rizqlarning, voqealarning iplarini kesib-uzib yuborsa-ya, deb qo'rqar edim...)”.

Masala, mushkulotning yechimi aslida haq ko'rsatmalarga murojaat, rioya, tayanilgan tadbir tarki hayotga tatbiqlash bilan bo'ladi. Ularsiz muammoli vaziyat yoki og'riq nuqtaning tuzalishi va halovatning qaror topishiga to'la ishonch yo'q. Mavridi kelganda aytilgan “Qo'riqchi”dagi qasamga munosabat ham isloh maqsadida edi. Islohiy choralar idroki va afzaliyatining butun badiiy voqelik bo'ylab taralishini Isajonning “Turmush” hikoyasida ko'rish mumkin. Odatdagidek ishdan charchab kelgan ota yerning chopilmagani uchun xotinini, so'ng o'g'lini koyiydi. Tunda xayolan o'zining uyda kutib olinish tarzidan birmuncha ranjiydi: “Aslida qanaqa bo'li shi kerak edi o'zi? Xotin degan ochiq chehra bilan kutib olsa, sen xushhol jilmayib qo'ysang-u bolalaringni bag'ringga bossang. Ishmi, ish nima, bo'ladi-da. Bugun yer chopilmasa, ertaga chopilar? Yo bo'lmasa, qopketar?... Uyingga jannatga kirganday kirsang. Unaqa bo'lmadi-ku? Gap mana shunda-da, nima uchun?” Yo o'ziga qarashga, yo bir lahza tin olishga fursati yo'q xotini ko'nglida ham

unchalik astoydil bo'lmagan shu taxlit o'ylar: "er degan ochiq chehra bilan kirib kelsa bo'lmaydimi, bir og'iz shirin so'z odamni o'ldiribdimi, qachon qarasang, qovog'i soliq, o'shqirgani o'shqirgan?"

Er tushida "Ogoh bo'linglar!" degan olislardan kelayotgan zaif qichqiriqni eshitadi, o'z xotinini malak siymosida ko'radi. Ayoli har narsada xo'jasiga muntazirligini, haqqi faqat eridaligini, erining haqi esa onasida ko'proqligini, erga itoati sabab yer-u ko'k baravar sharaflanishini, oromi ana shu itoatdaligini aytadi. "Agar shirk bo'lib qolishidan qo'rqilmasaydi, hatto eringga sajda qilish buyurilgan bo'lardi...", deydi u. Mazmunan shunga o'xshash tushni shu kecha ayoli ham ko'radi. Qizchasining tushi esa tomomila boshqacha: oyning mashhur ikkiga ajralish voqeasi (saodat asri mo'jizasi – T. Sh.), boshqalar va ota-onasi o'tirgan karvonning yo'lga tushishi, ketmasliklarini so'rab qizchaning yolvorishi, bu dunyoda tiriklayin ko'milgan qizchalarning ulkan bir daraxt ostida nuroniy bir chol (Ibrohim a.s. – T. Sh.) bilan o'ynab o'tirishi, qiyomat yaqin qolganligi haqida chaqiriqning taralayotgani. Ertalabki oilaviy nonushtada ko'rilgan tushlar elas-elas eslanadi. Endi o'zaro munosabat, haqlar, itoatlar ijrosida o'zgarish paydo bo'lgandek ko'rinadi. "Har doimgidek, oddiygina bir kun" boshlanadi.

Yaxshilik ko'zlansa, mulohazali, oqil bo'linsa, qalb xohlayotgan niyatning haq tadbirlari ruhoniyatga albatta tashrif buyuradi. Hikoyadagi mazkur voqeachalar "Aslida qanaqa bo'lishi kerak edi o'zi?" savolining e'tiqoddagi amali umumiy qoidalari, javoblaridir. Ular – "Unaqa bo'lmadiku?", "Nima uchun?" so'roqlarida izlangan sabablarga ishoratlar. Fikriy tizim tushlar bilan uyg'unlashib ketgan. Ularni shar'iy fe'l-atvorga xos tuyg'ular boshqarmoqda.

Keltirilgan epizod hamda izoh (aybni tuzatishga qaratilgan tanbeh, yo'llov) idrok va hukmlari butunlay o'quvchini o'z fahmi, zakovatiga havola etilgan ko'p sonli ishoratlar, serqatlam tagma'nolar oqimidan bir qatradir. Aqlarni qalamning haqiqati, shar'iy ta'limga, ulardan ogohlikka bu jiddiy undov qo'yishni ma'nolar yetakchisi demoqchi ham emasmiz. Lavhani misollashdan muddao – fikriy oqimli nasr tabiatidagi polifonik qamrov zaylini, kashfi o'quvchining o'zidan kutilguvchi tamsillar zalvorini, yozuvchisining har qanday voqelik,

xarakterga, hamma narsalarga munosabatidagi ta'limotiylik maromini haq asoslarga rioyati, itoatchilik nufuzini tasavvurlash uchundir. "Qo'riqchi" to'la-to'kis tushunilishi biroz qiyin kechadigan asarlar sirasidan. Tafakkurni u ishoratlarda yashirin ma'nolari qandaydir yuksak haqiqatga borib tutashayotganligi bilan qiziqtirib qo'yadi. Bir qarashda arzimaday ko'rinuvchi milliy-maishiy turmush, nobotot, maxluqotning holi, hodisasi, timsolidan unda butkul ramziy-majoziy yo'sinda va xiyol mahzun ohangda mushohada tizimi tarkiblanadi. Unda hayotning tabiiy taqozosi, borliqning ixtiyorimizdan tashqari qonuniyati bo'lib sharhlanadigan holatlar tub zamiridan ham hikoya poetik ishoratlari shakllanib, yagona maslakka birlashib boradi.

Hikoya sanoqli hayotiy ko'rinishlar vositasida yaxshilik afzalligi, farovonlik omillari, achchiq kechmishlar qayg'usi, zulmlar raddiyasi, tahlikalar tashvishini badiiy-falsafiy tahlilga tortadi. Ulardan insonning dunyo qarshisidagi, uning uch zamoni ahvol-ruhiyasi, avzoyi, kayfiyatidagi o'rni, mavqei, sababkorligiga dohil tuyg'ular balqib chiqadi. Ilohan Yaratganning yer yuzidagi o'rinbosari qilingan odam bolasining mavjud ahvoloti, insondagi faqat o'zininggina emas, balki o'zgalar turmushi, moddiy-ma'naviy rizq-ro'zining ham mohiyatida turgan burchdorlik, yomonlikdan tiyilish, yaxshilikni taratish, umuman, olamning insonga bog'liq har jihat muhofazasi, uning qo'riqlanishiga mansub insoniy mas'uliyatlar borasida kitobxonni faol fikrlatadi. Yozuvchining g'oyatda o'ziga xos "Suvdagi kosa" hikoyasida dengiz-u ummonlardan juda olis bo'lgan diyorning havaslari ushalgan farzandi sherigi bilan ko'hna, mo'jazroq yog'ochlari qorayinqiragan bir qayiqni tanlab olib, dengiz qudratiy-u dolg'alarini his etmoq uchun tush mahali ummon sari suza boshlaydi. Bu "yong'oq po'chog'iday" qayiq ostida necha ming quloch chuqurlik va unda aql bovar qilmas ulkan hayot bor. Kim ham bunday sayr chog'ida va bu taxlit o'ylov girdobida o'zini haqir va bechora his etmaydi, deysiz?

"Bizlar suv ustida turgan kosaga o'xshaymiz. Kosaning suv ustida oqishi o'z ixtiyori bilan emas, balki suvning irodasi va hukmi iladir. Xuddi shuningdek, ba'zilar suv ustida ekanliklarini biladilar, ba'zilar bilmaydilar. Agar sen suvning kosani qanday kezdirganini va bundagi

latofat-u go'zallikni ko'rsayding, unga bu umumiy sifatni berishga jasorating yetmasdi...".

Mislsiz ilohiy tasarrufotni, odamzod mohiyati, taqdiri azalni, haqdan ogohlik va g'ofillikni go'zal qiyoslar ila uqtiruvchi ushbu so'zlar halokat vaqti boshlangan paytda roviy qahramon xayoliga beixtiyor keladi. Donish so'zlarning kayfiyati, ayni choqda, hikoya g'oyaviy yo'nalishining ham batamom boshqa, biz kutmagan tomonga – qadri, ahamiyati, salobati bundagidan chandon ulkan manzilga qaratilganidan xabar bergandek bo'ladi. Dengiz sayridan xavf-xatar hissini tuya boshlagan o'quvchi uchun esa u dastlab jozib bir taskin – fikr bo'lib jaranglaydi. Lekin ko'rsatilayotgan voqelikdan maqsad-muddao o'zgachaligini ishoratlashiga ko'ra, u hikmat-istiloh qo'rquv oralagan ko'ngilga nechog'lik taskinchi bo'lsa, o'z bag'ridagi ma'nolar zalvoriga ko'ra, u tafakkurni shunchalik alg'ov-dalg'ov qilguvchi hamdir.

Ro'y berayotgan tahlikali kuzatuv, ichga tamom o'rtnashgan vahima, do'st hamda tabiat ila ziddiyat, el-yurt qadri hislanishining qalbga malhambaxsh taqqoslari, najotning ilohdan so'ralishi, botindan otilib chiqqan nidolar – butun fikriy oqimning o'shal hikmat mazmun-mantig'iga ajib, ochiq-oydin muvofiqligi hamda tasvirdagi hamma hol-u harakatning unga birdan-bir uyg'un badiiy manzara bo'lgani sababli hikmatning idroki, ta'sir quvvati favqulodda jiddiy kuchlanib boradi. Endi o'quvchi o'z mavjudiyati, umriy ahvol-ruhiyasi mulohazasi bilan ham mashg'ullana boshlaydi. O'zini bepoyon ummon ustidagi qayiq uzra ketayotgandek, eshkak eshayotgandek his etadi.

Sohilning tobora olislashuvi. Begona yurt, suv va tabiat. Begona shom, shamol va zulmat, "begona tillarda chug'urlab uchayotgan qushlar". Havoda bo'ron, atrofda po'rtana alomatlari. Qayiqning ostida bahaybat sharpa. Adashganlikning ayon bo'lishi. Doimo fikrdosh sanalgan do'stning endigi ters, yov kayfiyati. Xayollarga kelgan yomon gumonlar. Suv ko'tarilganda junbushga kelayotgan, "guvillab yuksaklarga intilayotgan va qarsillab yiqilayotgan to'lqinlar...". Barcha hollar, vaziyatlar qahramonga hamma narsa ummon oqimining ixtiyoridaligini, ulkan bir qudratni, "butun yer yuzini odam bolasiga qo'nimgoh qilib" bergan

Tangrini idroklatadi. Uning “suv ustidagi yog‘och kosa” ekaniga, o‘y-kechinmalarining ham shu cheksiz ummon misol chegarasizligiga, ummon misol dolg‘ali ekaniga hech qanday ishonchsizlik qolmaydi: “Suv ustida ekanman, qalbidagi hamma narsa g‘oyib bo‘lganini, faqat Tangrining qadar va qismatiga bo‘ysunishdan boshqa hech narsa qolmaganini, ummon uzra hech narsaga aylanganimni his qilish dahshati mana shu zulmatning bo‘ronlaridan ham battarroq bo‘lib shuurimga yopirilib kelmoqda, to‘fonlarni hosil qilmoqda...”.

Assotsiativ usul, monologik nutq asosiga qurilgan ushbu go‘zal syujetning barcha unsur va detali, undagi fikrchilik, tuyg‘uchilik boshdan-oxir ramziy, tamsiliy, ishoraviy, ayni vaqtning o‘zida, shu qadar mavhumotdan xoli, jonli, hayotiy. Undagi ramz, tamsil, ko‘chim, ishoratlar o‘zlarining zimnidagi asl ma‘no-yu haqiqatlarni juda yengil, zavqli va teran tanimadi. Har biri o‘zi borasida tafakkur qilmoq maylini barpo qiladi: suv, ummon, to‘lqin, shamol, po‘rtana, vahm, sherik, qayiq, eshkak; dengizni orzulash, ummon tomon adashtirgan oqim, qahramonning xayol ko‘zgisida bot-bot jonlanuvchi o‘z diyori, uning tanlagan va tutgan yo‘l-manzili, “yog‘och parchasi ustidagi inson bolasining adashishlari”, “qayiq ostida suzgan ulkan sharpa”, uqubatsiz aslo yetishib bo‘lmas diydor – diyor, sevgili dilorom... Qahramon ana shu diloromga butun borlig‘i, ruhi bilan tomir-tomirigacha singishib ketgan. Diloromisiz o‘z mavjudiyatining ham shu mudhish to‘fonlarga qo‘shilib, g‘arq bo‘lib ketmog‘i tayin. Ammo unda umidvorlik kuchli. Sinovlar imonlarning salobatiga qarab bo‘ladi. Ular qalbni poklash, tafakkurni o‘tkirlashtirish, haqni tanish, unga muhabbatni yanada ziyoda qilmoq uchundir: “... Bizni shu suv oqimiga solgan, meni yaxshilik ichida eslab-iltijo qilingiz, deb ogohlantirgan oliy murabbiyning o‘zi jonimni shu dolg‘alar qa‘ridan chiqarib, u sari yo‘llashini, chaqmog‘-u qasirg‘alarga o‘sha diloromning qadr-u qiymatini anglashim uchun solganini, endi suv tamomila uning hukmi ila, u istagan tomonga oqiza boshlaganini... qo‘rquvlar, vahmlar, hayqiqishlar ortidan diloromimning orombaxsh qiyofasi birdaniga ko‘rinib qolishini umidvorlik ila kutypaman, xolos”.

Hikoyadagi xarakterning ma'naviy olami toymagan, og'ishmagan sof fitratgagina xos latif hislar, qarashlar tajassumini "ikki dunyo" fonida xolis yetkazadi. Insoniyat tajribasi bo'yicha, kishi boshiga, ayniqsa, katta sinov, mashaqqat, musibat kelgan vaziyatlarda o'zni "suvdagi kosa" kabi his etishning sokin paytlarga nisbatan qizg'in kechishi mashhur. Shu nuqtayi nazardan qaralganda ham, "Suvdagi kosa" qahramoni e'tiqodan to'g'ri adabiy san'atkorlikning yangicha yo'sinli o'zbek nasridagi yorqin namunasidir.

Voqea-hodisalar silsilasi shuncha ta'sirchan bo'lsa-da, nega qahramon ruhiyatining vazmin-bosiq junbushi, po'rtanali oqimi hikoyada ustun va g'olib? Nega o'quvchi borlig'ini ham g'oyaviy-badiiy talqinning shu yo'nalishi o'ziga qat'iy og'dirib oladi? Nega aynan shu boradagi etik-estetik ifoda, yechimlar qalbni larzaga soladi?

Bu ustunlik, avvalo, tasvirdagi tashvishlardan ko'ra ham inson uchun qalb-u shuurdagi hodisalar, mohiyatlar sifati, bu oqimdagi yuksak salmoq, qiymat ahamiyatining hamma narsadan muhimligi tufaylidir. Chunki bir-birini hech rad etmaydigan ushbu ikki vaziyat-faoliyat ravishida – boshiga tushgan ko'rgilikdan jonni qutqarmoq qayg'usi bilan sof insoniy asosni, e'tiqodiy sha'n, maqomni asramoq o'rtasida ko'p hollarda osmon-u yer qadar ulkan farqlanish bor. Birinchisi ko'proq inson jism-u jonining foni dunyo uchun, ikkinchisi inson qismatining eng oliy ideali – abadiyati uchun bo'ladigan hayot-mamot kurashidir.

Biroq unutmazlik joizki, hikoyada fikriy oqim, ruhoniylar olam g'olibiyatining boshdan-oyoq ta'minotisiz tasvir ustqatlamidagi bugungi jonli hayotning, sodir bo'layotgan voqelikning o'zidir. Zero, bu dunyo intihosiz yashaladigan u dunyoning ekinzoridir. Fikriy oqimning o'quvchi qalbida ham birlamchi mavqe kasb etishi esa yaratilishda hammaning sof fitratli, hanif maylli qilinganligidan o'zimizda mavjud mo'jaz dalolat xolos.

"Do'st" hikoyasida ham bayonlovchi "men" nuqtayi nazari orqali ruhoniylarda kechayotgan daqiq taftish jarayoni tasvirlanadi. Undagi hol, his-tuyg'u, sinoat, umrning muayyan bosqichidan turtib o'tilgan kunlarni yod etish, o'zlikning ortdagi kechmishini, nafsoniy

mashaqqatni sarhisob qilish hech kimga g'alati ko'rinmaydi. O'ta sodiq, qadrdon do'st va unga murojaatchi "men"ning hamma vaqt birgaligi, ismlari bittaligi, qachon tanishgani noma'lumligidan, ota yo ona chaqirganda birga yugurishidan bir shaxsning faoliyatiga, rivojiga taalluqli ekani oydinlashadi. Ifoda manerasida fidoyi do'stni tavsiflash maqsadi yetakchilik qiladi. Tafsilot, ta'riflar do'st kim-u "men" kimligini ayonlashtirish, ravshan idroklash uchundir. Talqin mobaynida ulardan har birining inson omilidagi o'rni, mavqei, xossasi – xislat, xususiyat, muhimi, mohiyati bilan namoyon bo'ladi.

"Men" va do'st bir-biridan qanchalar farqlanmasin, ular aro qay xil zidlik, ayrichalik, ayriliq, kamol, zavol ro'y bermasin, ikkisinin mushtarak bilim hissi zehnni tark etmaydi. Ularning, ulardagi har amal, oqibatning bir-birisiz voqe bo'lolmasligi masalaga bo'lgan vasatiyona qarash, munosabat tufayli oqilona uqtiriladi. Buni "men" o'zlarining yaratq asoslarini, masdarini, dunyoga boshqa-boshqa yo'sinlarda kelishib, "ikkovlon bir vujud ichra mavjud" bo'lganini aytish, kutilayotgan shaksiz alaloqibatni eslatish ila ham ta'kidlaydi. Sakkizta nomsiz faslchaga bo'linib ifodalangan bu botiniy hayotning yettinchisida qartaygan, a'zolari birin-ketin charchayotgan, taqdir qoshida qaltirab, titrayotgan, sham kabi so'nayotgando'stga "men" abadiyan vido aytadi. So'nggi faol bor-yo'g'i "haliyam do'stimisan, ey do'st?..." degan so'roq gapdangina iborat. Bu poetik – estetik tadbirda ham inson mohiyati va tiriklik haqiqatiga ishorat, hamma narsaga yaxshi gumon, hikmat va umid bilan qarash mujassam.

Ma'lumki, yaxshi-yomonni aralash qilib yashash – Alloh huzurida xush ko'rilmaydigan, umrning isrofi, zoyeligi sanaladigan hayotchanlik. Inson o'zini bilish, isloh qilish, aslini tanish, haqiqatlar ila xulqlanish jarayonida ma'lum adashuvlarga yo'l qo'yishi turgan gap. Hikoya qahramoni boshidan ham o'zini anglash, kashf etish yo'lida shunday xatokorlik onlari o'tgan. Bundan afsusdalik obrazni yanada jonli, hayotiy qiyofalantirishga xizmat qilgan. Binobarin, ruh ila jasad yaxlit holda inson mohiyatini tashkil qiladi. Shuningdek, Yaratgan o'z ilmi- ijodi ila iroda qilgan mazkur mushtaraklikda katta sinov-mashaqqatning mujassamligi ham bor narsa. Ta'limot ushbu ilohiy tarkibotdan

qaysidir biriga ziyoda sho'ng'imoqni, shar'iy hadlardan o'tib, biriga ko'p ruju qo'yimoqni, qaysigadir nisbatan nopisand yashamoqni, u tomon yo bu tomon toymoqni qat'iyman etadi. Negaki, bundaylik – ulug' muvozanatni yakson, chilparchin qilguvchi botillik. Va hozirgi jahondagi turli-tuman halokat-u muammolarning ildizi ham ruh ila tanning noto'g'ri tasarrufotidan. Ular haqqi, e'tirofi, parvarishini faqat e'tiqodiy tavsiyalar asosida ado etish joiz bo'ladi.

Hikoya oxiridagi "Haliyam do'stimisan, ey do'st?.." jumlasida butun idrokiy oqim shartli, ramziy bo'lib, ikki siymo (do'st hamda "men")dan hech biriga bunda mensimaslik va o'z haqiqatlaridan bo'lak qarash, imtiyoz yo'qligini, bu qismat, taqozoviylikni, mushtaraklikda ilohiy sinov, hikmatlar mujassamligini ham hislatadi. Albatta, taassurotda do'stni inson vujudiga, "men"ni uning ruhiyati, shuuriy kamoli, ma'naviy salohiyatiga nisbat berish ko'proq g'olib. Ammo ayni juftlik yana boshqa ko'p tushunchalarni, jumladan, beg'ubor bolalig-u bir qadar kirlangan kattalikni, ilohan sof fitrat-u dunyoga mayldan afsusni, zaminiy zahmatlar-u samoviy tilaklarni ham tafakkur ettiradi. Eng muhimi, barcha xil mutolaaviy idrok, tasavvurdan e'tiqodiy hujjatlari bisyor va ular bilan istalgan vaqtda quvvatlaniladigan haq, ta'sirchan xulosalarga kelinadi. Hikoyaning muvaffaqiyati ana shundadir.

2014-yil

HAQ SO'ZLAR, AKSLAR POLIFONIYASI

Adabiy ijodchilikda ham dunyoga qarash tarzichalik o'ta jiddiy, ulkan ahamiyatli, ishlar oqibatini tubdan belgilovchi taqozoni uchratish qiyin. Bunda ham e'tiqod turi, salobati, darajasi qancha afzal, go'zal va yuksak bo'lsa, ijodiy amal shuncha sifat, qadriyat kasb etadi. Turli maqsadli tahlil, tadqiq, kuzatuvlarda muallifdagi voqelikka munosabat, tasvirni xulosalash, badiiy jarayonni poetik hukmlash salohiyatining muntazam ko'zda tutilib, o'rganilib borilishi juda muhim. Bu, ayni paytda, badiiy matn taqdim etgan nuqtayi nazar, dunyoqarash, kayfiyatga e'tiqodiy to'g'rilik ila, haqiqatlar ifodasini niyatlash ila yondashuv talabi ham demakdir.

Yangicha yo'sinli milliy poetik-estetik tafakkurni, xilma-xil adabiy ta'sirlar uyg'unligini baholashda, ijodiy o'zlashma ildizlarini sharhlashda, g'arbona san'atiy oqimlar nazariyasiga doir mushohadachilikda asarlardagi e'tiqodiy mavqe dalolatlarining e'tiborda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Keyingi asrlardagi jahon adabiyotining qator mashhur metod va oqimlariga mansub bo'lgan, qoyilmaqom asarlar hisoblanib, tinimsiz maqtalib kelinayotgan, uslub, usul, mahoratlari rahnamosifat tuyulayotgan talay namunalarda shu jihatdan nodurustliklar, botil talqin va undovlar borligi sir emas. E'tiqodiy asoslarga loqayd holda kechayotgan o'rganishlar bo'yicha, ular o'zga adabiy jarayonlarga ko'rsatayotgan shakliy, usuliy ta'sirlari bahonasida birato'la barcha tomonlarining maqbullanishiga sazovor bo'lishmoqda.

G'arb so'z san'atidan, xususan, modernistik tajribalardan u yoki bu miqdorda ta'sirlanishi mavjud milliy ijodlarda namoyon idrokiy afzalliklarga, dunyo-inson-ilohiyot mohiyatlarini poetik tafakkurlash xosliklariga, bizningcha, ayrica diqqat qaratmoq joiz. Hozirgi o'zbek nasrining O. Muxtor, A. Dilmurod, X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul, I. Sulton, U. Hamdam singari adiblari asarlarida ijodkor pozitsiyasining har biri o'ziga xos, ammo umume'tiqodiy ongni, tasavvurni boyituvchi turlicha natijalarini ko'rish mumkin. Bu, shubhasiz, nasrimizning eng zalvorli axloqiy-estetik talabda o'zi ta'sirlangan ijodiy omillar,

manbalardan ustun bir jihati, afzal fazli, haq e'tiqodga rioyatli tabiati. Shunday qarashlar nuqtayi nazaridan Isajon Sultonning keyingi romani – "Ozod"dagi ba'zi yetakchi xususiyatlarga murojaat etamiz.

Adabiyotshunos A. Rasulovning tushuntirishicha, "Boqiy darbadar"da xatarli kelajak qarshisida ikkilanib turgan, aql-u tafakkur hamda shaytoniy xohish-istaklar ziddiyati aro adashishlar yo'ldan ko'r-ko'rona ketib borayotgan tomoshatalab olomon orasida javdirab turgan ma'naviyat kishisining qiyofasi ham sezilar edi. Tabiiyki, globallashuv va integratsiya jarayoni tobora shiddatlanib borayotgan ushbu zamonda, qisqagina umr mobaynida "shom shafaqlari yallig'langan tomonga" qaysi yo'ldan ilgarilash kerak, deganday savollar ham paydo bo'lgan edi.

Ya'ni turli-tuman manfaatlar to'qnashayotgan, texnotronik era kelajak timsolida shiddat bilan bostirib kelayotgan, ilm-u fan misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etayotgan shu pallada insonning ruhiy kamoloti qay tarzda ro'y berishi kerak?

Ma'naviyat kishisi bu jarayon qoshida inidan boshini chiqarib qarab turgan qush holiga tushmoqda. Asrlar bo'roni shu qadar shiddatli esmoqdaki, sal o'tmay qush ini xas-cho'plari bilan sochilib ketishi hech gap emas. U holda qush tili haqida gapirishga ehtiyoj qolmasligi ochiq-ravshan".

Olim "Boqiy darbadar" romani estetik idealiga oid sifatlardan biri – "xatarli kelajak qarshisida ikkilanib turgan", adashganlar yo'lidagi "olomon orasida javdirab turgan ma'naviyat kishisining qiyofasi", endi "qaysi yo'ldan ilgarilash" tashvishlari, turli manfaatlar to'qnashayotgan va har soha taraqqiyoti tobora shiddatlanib borayotgan bugungi kunda "insonning ruhiy kamoloti qay tarzda ro'y berishi kerak"ligi muammosining talqini xususida so'z yuritadi. "Boqiy darbadar"da tasvirlangan ilmiy kashfiyot – mukammal sun'iy jonzoatning insoniyatga qarata aytgan "Men kimman?" so'rog'i, "Asrga tatigulik kun" (Ch. Aytmatov)da osmon uzra charx urib aylanayotgan to'rg'ayning Manqurtga "Oting nima?" deb qichqirishi, "Ozod"dagi egasining ortidan qolmovchi soyaning Murtadga "Esla, esla" deyishlarini misol keltiradi.

Maqola mobaynida olim bugungi insoniyat ahvolotidagi xosliklarga va jahon nasrining yangicha urinishlaridagi o'zlikni anglash, boshqacha tafakkurga muhtojlik, ma'naviy kamolot asoslarini izlash, inson hayotining haqiqiy qiymatini badiiy talqinlash tamoyiliga ayricha e'tibor qarata boradi. Keyingi yuz yillikda juda ulkan musibatlarni boshdan kechirgan odamzodning, zamonaviy dunyoning "Yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj"langanini, butun olam adabiyoti "Yangi yo'l" izlay boshlaganini o'rinli ta'kidlaydi.

Maqolaning yetakchi bir kayfiyati, mantiqiy jihatiga diqqatni ziyodaroq qaratishimizdan muddao ushbu fikrlar inkori yoxud ularga raddiya uchun emas. Hozirgi o'zbek nasrining yangicha yo'sinli ijodlari, Isajon Sultonning qator asarlari, xususan, "Boqiy darbadar", "Ozod" romanlari mazkur masalalar mulohazasi tomon boshlashiga ham, adabiy-estetik tafakkur o'zgarishlarining ijtimoiy asoslarini, allaqachon zohir tamsiliy yondashuvchanlik hamda tamoyillarni chetlab o'tib bo'lmasligiga ham shubha yo'q. Biroq, bizningcha, bugungi dunyo ishlarida ulkan bir ilohiy taqozo, mas'uliyatga e'tiborni yanada ko'proq qaratmoq joiz.

Har qanday faoliyat, narsa-hodisaning qiymati, mohiyatiga qarashda, muammolar tadbiri, yechimini topishda, amallar, ijrolarning talab-maqsad, mas'uliyatini belgilashda, ishlar tahlili, bahosi, mavqeini tayin etishda ilohan mutlaq harakat dasturi qilingan, ilohan mutlaq sobit, barcha zamon-u makonga to'la quvvatli va salohiyatli maqomda yuborilgan, insonni mudom ojiz qoldiruvchi, taslim etuvchi shunday haq o'lchov, mezonlar borki, har narsaning haqiqatini uning xuddi o'zidek aytish, tasdiqlash, faoliyatlarga tatbiq etish, boshqalarni haqqa yo'llash, ishlar komilligini ta'minlash, sharaf qozonish ularsiz aslo mumkin bo'lmaydi.

Har amalning nufuzi, yaxshi-yomon tomoni sohibining barcha ma'nolardagi nuqtayi nazari, idroklash tarzi va kuchi, pozitsiyasiga borib tutashdiki, istalgan yo'nalishdagi kuzatuv, anglash, anglatishning ham shu asoslarda kechishi maqsadga muvofiq taomildir. Ammo bu jarayonda, masalan, adabiy namunaga munosabatda e'tiqodiy asoslarning namoyonlik, undovchilik maromlarini, ijodchi mavqeining

har bir masaladagi ta'limotiylik darajasini bosh mezon tutishgina haqiqatni aynan uning o'zidek aytiruvchi tamoyil bo'la oladi. Isajon Sulton romani esa qator jihatlariga ko'ra, keyingi yillar o'zbek nasrining bunday yondashuvni o'zi ochiq-oydin taqozo etuvchi e'tiborli namunalaridan biridir.

"Ozod" romanida o'z mumtoz san'atij usullarimiz, an'analarimizning, eng muhimi, haq e'tiqod bilan yo'g'rilgan idrok tarzining zamonaviy hayotga tatbiqi, talqinlari mujassam. U o'zining sertarkib kompozitsiyasi, voqealar hududi, fabulalar ko'lami, ularning ko'p marotabali tartiboti-ishtiroki, tamsil, majoz, ishoratlari bilan, obrazlarining favqulodda mohiyatlari, ruhoniy hollari, taqdirlarining falsafiy-estetik yechimlari bilan mashhur sharqona tasavvufiy ijodlarning bugundagi mantiqiy davomidek, ularning hozirga xos yangicha badiiy manzarasidek taassurotlar hosil qiladi. Kamolotning yuksak bosqichlarini orzulagan o'spirin Ozodning o'z qavmi – elidan, ahli so'zdan ajralib chiqib, ahli ma'ni, ahli hikmat tomon qilgan safari, atrofidagi olam maxluqoti, nabototi, jamodoti, hodisotining o'z hikmatlari kashfi ko'yida unga xayrixohligi, qahramonning baxt-u saodati, Lolasi hamda Humo qushiga qadar yetib kelishi tafsiloti roman syujeti asosini tashkil etadi.

Romandagi jamiki hol, hodisa, qiyofaning har biri o'z mavjudiyatining asl zohiriy va botiniy ma'nolari ila, ba'zan kishilarning ularga bag'ishlagan sifat, hukm, ta'birlari, ba'zan esa mantiqlarining to'g'ri hamda noto'g'ri talqinlari ila kitobxon mushohada olamiga havola etiladi. Asarda tagma'nolar taqdimi muttasil, ifoda nihoyasigacha to'xtovsiz davom etadi. Aksar ma'no, mazmunlar birini boshqalarisiz komil idroklash dargumon bo'lgan serqirra sobit haqiqatlar – hikmatlardir. Bosh qahramonning harakat yo'nalishi zamin-u osmon qamrovidagi bepoyonlikning kutilgan-kutilmagan turli mintaqalari, muhit, iqlimlari bo'ylab o'tadi. Ham mashaqqatli, ham huzurbaxsh bu sayohatning realmi, norealmi, shaxsiy botingami, ahli donish dunyosigami ekanini oydinlashtirish hissi kitobxonda bora-bora o'jarlanmay qoladi.

Chunki bunda muhimlik darajalari hamma narsalardan – nom, joy, sana, raqam va shakllardan yuksak turguvchi eng latif, aziz, muqaddas mohiyatlar – imoniy tuyg‘ular, ne‘matlar idroki butun tasvir kayfiyatini o‘z tasarrufiga oladi. Ezgulik degani – Allohning bandalarga buyurgan narsalari, qabihlik degani – bandalari qaytarilgan narsalar ekan, dunyoning past-balandi, yaxshi-yomoniga, insonning imoniy holatiga, uning bo‘lishi joiz maqom-martabasiga oid asl haqiqatlar mushohadasi, muhokamasi roman voqealari talqinida g‘olib va hukmron motiv bo‘lishga hamma tamoyillardan ko‘ra ko‘proq haqlidirlar. Odam bolasining umri esa fanosi-yu baqosi yaxlit, uzluksiz qilingan yagona hayotdir. Bu – aslida bo‘linmas, abadiy bir jarayon, umr. “U dunyo”, “bu dunyo” qabilidagi tushunishlar g‘oyatda g‘arib, ojiz, o‘ta shartli, nisbiy tasavvurlardir, xolos. Holbuki, ushbu “ikkilik”chalik bir-biriga haqdor, taqozodor, mas’uldor bo‘lgan ulkan ne‘matlar olamda aslo yo‘q. Faqat sinov dunyosidagi haq ilm-u amal, shularning ajib mushtarakligi go‘zal oxiratlar kafolatidir. Asarning eng nufuzli qahramoni ruhoniyatida fano ila baqo mas’uliyatlari Yaratganning yer yuzidagi xalifasiga xos shunday bir butun mohiyat sifatida, o‘zaro uyg‘unlashgan tajassumlari bilan namoyon bo‘lib borar ekan, bu hech qanday ajabtovur hol tuyulmaydi.

“Tegrangda ro‘y berayotgan hamma narsa aslida o‘z fikrlaring, his-tuyg‘ularing, istak va tutumlaringning aksidir. Aslida dunyo sobit, o‘zgarmas va hatto, qiymatsiz bir narsa, muhimi, uning sendagi akslaridir. Ko‘zgularning xususiyatlari har xil ...”; “Haqiqatan ham, jism deb atalgan g‘ilof ichida, ruh ma‘vosida ummonlar to‘lqinlanmoqda, daryolar oqmoqda, qushlar sayrab, goho yong‘inlar ham ro‘y bermoqda, qo‘poldan qo‘pol ko‘za (“jism ham bir ko‘za kabidir”, deyilgan edi avvalroq – T. Sh.) uni qanday qilib aks ettira olsin? Ruhning vaziyatlarini yonmas-cho‘kmas, yo‘q bo‘lmas so‘zdan boshqa yana nima ham aks ettira olardi?” deyiladi “Ko‘zga ko‘rinmas muallifning so‘zboshisi”da. Roman pafosi, jozibasi, salohiyatining butun ta‘minoti uning ana shu akslar, so‘zlar mas’uliyatiga qaratilgan shar‘iy poetik tafakkur tarzidadir. Mavzu, muammo, manera, nuqtayi

nazar va boshqa jihatlarga xos fazilatlar ham asarda inson zotining dunyoviy-samoviy manfaatlarini, uning qismatidagi barcha oqibatlarni barpo etuvchi ayni masalalar talqinidan taraladi.

Zotan, bilgani, eshitgani, ko'rgani-kechirgani qalbida akslanmas biror odam yo'q. Akslar aynanligi va aniqligi ko'zguning sifatiga, ozodalik, tiniqlik darajasiga bog'liq. Qadimdan buyon va hamon bashariyatning katta qismida bu akslanish benihoya xilma-xil hamda betiyiq kechmoqda. Turli-tuman akslarning ko'pi botil xayolot, tasavvur, tafakkursizlik mahsuli. Bu ulkan kufr, zalolat, adashuvdir. Holbuki, akslanmish – borliq o'z o'rnida sobit turibdi, oy, quyosh, zamin, tog'lar, sayyoralar, kecha va kunduz buyurilgan ilohiy intizomga so'zsiz itoat ila, zarracha xato qilmay, o'z vazifalarini bajarishda bardavom. Jonli ko'zgular – insonlarning esa dunyoni "istagan maqomiga solib" akslantirib kelayotgani sir emas. Holbuki, hamma narsalar haqiqati basharga allaqachon tushirilgan. To'g'ri yo'l "juda aniq va ravshan qilib bildirilgan edi", deydi Ozodning doimiy hamrohi donishmand shamol. Haqning mavqe-martabasi mutlaq, shuning uchun sha'ni hech zamon kamaymagan, pasaymagan. U mudom g'olib, mudom muzaffar. Dunyo har tomonlama o'lchovli ekan, har kim uni o'z qarichi bilan xohlaganicha o'lchab yurmoqqa, asl ma'no-mohiyatlar chetda qolib, har kim o'zicha hukmlar chiqarmoqqa aslo haqli emas. Magar inson o'zini isloh qilib yashamas, tafakkurchan bo'lmas, borlig'ini imon nuri ila munavvar qilmas, o'zligini haq hikmatlarga taslim etmas ekan, hech qachon hech narsa unga asl haqiqatini mufassal ko'rsatmaydi: "O'zlikning ko'lankalari tevarakni buzib ko'rsatgani bois, tiniq va beg'araz aks hosil qilish g'oyat mushkul...".

Ha, qalb va aql o'ziga ortiqcha bino qo'yar bo'lsa, ular o'z ilohiy ta'limi, masdariga bo'ysunmasa, tafakkur oynasi xiralashib, ko'p narsa, jumladan, so'z ham o'z salobati, manfaatini ro'y-rost taqdim aylamaydi. "Aslida so'z hechdir. U bag'ridagi ma'nosi tufayli haybat kasb etdi. Ularga iroda jamlaguvchi Tangrimning o'zidir. Ya'ni olamda gapirmaydigan narsa yo'q, hammasi o'zining holidan xabar berib turadi, ammo odam bolasigina so'zlarga ma'no joylaydi... Unga Tangri ma'no

baxsh etgani uchun duoga aylanadi... Duo esa taqdirni o'zgartiradi. Bahaybat bir shakl olib, osmon toqiga yetib boradi, so'ng hodisaga aylanib, yana yer yuziga qaytadi", deydi romanda "ko'r" kishi – olamni qalb ko'zi bilan ko'rguvchi zot.

Yo'l boshida "O'zimizning tentak shamol" bo'lib tushunilgan, endilikda Allohning askari, amrlarining sodiq ijrochisi ekanligi, donishligi ayon bo'lgan, hikmat aytuvchi yo'ldosh sifat qiyofalangan shamol Ozodga deydi: narsalarga ma'no yuklash sening ixtiyoringda, bergan ma'nolaring bois o'zing ham qiymat topasan, yo'qsa, hechsan. Ushbu o'git, undagi "ixtiyor"ning Ozodga-tafakkurchan odamga tegishliligi va tafakkur ramzi bo'lgan obraz tilidan aytilgani mulohaza qilinar bo'lsa, inson shuuri inon-ixtiyorining faqat haqiqatlar anglanmasiga chaqirilayotganligiga shubha qolmaydi. Ya'ni, romanda baqosiz narsalar majmui bo'lmish dunyoning zuhurotiga, mavjudoti, hodisotiga har kasning o'z-o'zicha ma'no yuklashi-yu tilga istagancha erk berishiga xayrixohlik kayfiyati mutlaqo yo'q.

Aksincha, boshdan-oxir tasvirda asl ma'nolar fahmiga undov, ular kashfiga chorlov g'olib. Va bu juda marg'ub, maqbul etik-estetik pozitsiya. Zero, hozirgi insoniyat Islomning son-sanoqsiz ummatlar tillari sabab do'zaxga doxil qilinganligi haqidagi xabaridan voqif. Roman ko'p uqtiradi: so'zlar aytildimi, demak, shakl oldi, moddiylashdi – amalga aylandi, ular osmon toqiga yetib borib, qismat bo'lib yer yuziga qaytadi. E'tiqod ta'limi bo'yicha ham, so'z botindan yuzaga chiqqanda amalga aylanadi... Asar o'zini bilganni bu masalada jiddiy hushyorlikka chaqiradi. Mutolaachining botinida ko'plab xayrixoh fikrlar, romandagi poetik g'oyalarni yanada boyitishi mumkin bo'lgan qarashlar, shaxsiy tajriba va bilimning misollari uyg'onadi. Mushohadani zalvorli, eng faol harakatlantiruvchi talqin bunda akslanish, so'zlanish, ma'no kashflash hodisalariga oid tasvir tizimidadir. Va bu tizimning e'tiqodiy jihatdan to'g'riligidadir. Insonning yaratilishida uning sof tabiatiga haniflik – haqqa, ilohiyot olamiga, boqiy yashashga mayl jo etilgan ekan, imoniy yuksalish ishtiyoqi o'quvchi qalbida ham mujassam holat ekan, mazkur tafakkurlash jarayoni zinhor erish tuyulmaydi. Shubha, e'tiroz,

mashaqqat keltirib chiqarmaydi. Aksincha, bularning barchasidan vujudlanayotgan tuyg'ular asarda asoslanilayotgan e'tiqod ta'limlarining mislsiz buyukligidan, Islomning naqadar hayot, voqelik dasturi ekanidan, uning tatbiqotiga esa hamma-hammaning mas'ulligi, ehtiyojmandligidan va nihoyat, shunda ham haq ta'limotdan hayratdalik, uning qarshisida ojizmandlikning mangu sobit saqlanib qolaverishidan nishonalar bo'lib anglanadi.

Ilm-u amal, qiyomat, jannat, do'zax borasidagi, ruh, vujud, to'g'ri, egri akslar, lisoniy, ilohiy so'z singari masalalarga ijodiy-falsafiy yondashuvdagi tavsif, tamsil, dalillarda roviy nuqtayi nazari imoniy, vasatiyona. Moddiy va ruhoniyy voqelik tadrijining butun ifoda yo'siniga, ramz, ishora, ichki ma'nolarga, shulardan hosil barcha badiiy hukm-u xulosalarga boshdan-oxir ko'plab e'tiqodiy qarashlar, ko'rsatmalar singishib ketgan. Xuddi shunday, shar'iy hayot, dunyoqarash tarziga zid, to'sqin hollarning poetik muolajasida ham haq ta'limotga muvofiq taammullash ustuvor.

Binobarin, g'oyaviy-estetik muddao odam, odamzod, dunyo, dunyoqarash mantiqlarini, kamol, komillik, baxt, baxtiyorlik manzillarini talqinlashga borib taqalar bo'lsa, hech qaysi zaminiy nazariya, mafkura, tajribalarning bunda tugal haqqoniyatlarni taklif etolmasligi ayon. Bundan tashqari, mahdud, tarafkash manbalar, insoniy tashxis, bashoratlarning tasvirga shirkni, botilni yuqtirish, estetik ideal oqibatini zoyelikka boshlash xavfi ham bor. O'zga ta'limotlarning estetik manfaatlarni to'la taratishga, ideallar sha'ni-obro'sini muntazam muhofazalashga kafolat berolmasligi tayin.

Ahli donish, ahli ma'nigina haq ta'limotning insoniyatni lol, ojiz qoldiruvchi quvvatini, uning har qanday makon va zamonga salohiyatli ekanini yuksak idrok eta olganlar. Hikmatlar haqligini beshubha tasdiqlashgan, ularni "kashf" etishgan, ta'sirchan dalillashgan. Demakki, Ozodni ham shu haq yo'l haqiqatlari idroki-yu ahli ma'ni o'gitlaridan boshqa hech narsa komillikning cho'qqilari sari elta olmaydi. Inson asliyati, sof fitratining mayli, xohish-istagi ham, Yaratganning huzuridagi eng maqbul yo'l-u amal ham aslida shudir. "Bu ruh bilimga to'ymas, ko'rgan narsalarini tafakkur etib xulosalar

chiqaruvchi latif bir narsadir. Sen faqat pok va latif narsalarni xush ko'rishingni bilaman...", deydi Ozod Humo qushiga.

Isajon Sulton har hol, lavha, kayfiyat, kechmishning tub mazmunini o'quvchisi hamrohligida izlashga, kashf etishga, ular ibratini hislash, hislatishga oqilona intiladi. Matn qa'rida harakatlanayotgan tagma'nolar oqimini erkin qo'yadi. O'quvchi asar qarashlariga o'z qo'shimcha dalil, tasdiqlarini qo'shib borishga beixtiyor o'zida moyillik barpo qiladi. Zavq-shukuh xotima oxiriga qadar qizg'inlashib boradi. Ushbu parallellik roman uslubini ziynatlab, xoslantirib turgan usul sifatida diqqatni tortadi. Shu tariqa bevosita tasvir sathidagi moddiy, maishiy, qalbiy, shuuriy voqelik rivojigina emas, balki tasvir tubida turib kitobxonni tinimsiz fikr latayotgan shamaviy, ishoraviy ma'nolar tadriji ham ichki polifonik jarayon tusini oladi.

Turmushning mayda yumushlari, kishi umrining katta qismini zabt etuvchi tirikchilik tashvishlari, qay soha bo'lishidan qat'iy nazar, kasbiy faoliyatlar ko'pincha shaxsning kamolga doir mayllari, xohishlariga monelik qiluvchi majburiyatlardak tuyulishi bor gap. Ko'pchilikning nazarida, afsuski, shunday. Mabodo, badiiy voqelik ham o'quvchini shu yanglig' shumlanishga yo'llar bo'lsa, yanada yomon xatokorlikdir. Insonning azal-u abad sha'ni, sharafi, haqiqatiga, baland martabasi, bugungi ideallariga to'g'ridan-to'g'ri qaratilgan romanda, imonon tabiiyki, yashash tarzida ko'proq maishiylik, ro'zg'oriylik yetakchi bo'lganlarga nopisandlik yo'q. Bil'aks, Ozodning hidoyatli kuzatuv natijasi o'laroq, ularning ham asl akslari yuzaga chiqadi va o'z barqaror ma'nolarini bizga taqdim etadi. Qanchadan-qancha kasb-korlar dunyoviylik bilan suratlangan, ularni dunyoviy deb atashga, sifatlashga odatlanilgan. Bu urf aslida o'sha ijtimoiy zaruriyatlar mas'uliyati, manfaatlarini mahdud tushunishdan, ulardagi ulug'vor burch, vazifalarni anglamaslikdan boshqa narsa emas. Ayni masalaga e'tiqodiy munosabat esa batamom o'zgacha: har qanday "dunyoviy" faoliyat ham sohibidagi niyatning sifatiga qarab u yoki bu oqibatni topadi. Niyatlar, ularning ijrosi to'g'ri – shar'iy bo'lsa, dunyoviy ishlar shak-shubhasiz ibodat maqomini oladi, oxirat amaliga aylanadi.

“Ozod” akslari voqelikning shu jihatiga qarashdagi o‘lchov-mezonlari bilan ham e’tiborga sazovor.

Roman qamrovidagi bor zaminiy hodisalar, narsalar, xatti-harakatlar bilan inson sof tabiatining o‘zlikdan-da yuksak samoviy istak-mayllari, har oqil banda intilguvchi haqiqatlarning tasdiq-e’tiroflari hamma fasllar, sahifalarda faqat mushtarak holda namoyon bo‘ladi. Kamolning voyaga yetish, qalbning sayqal topish, ruhiyatning yuksalish, tafakkurning parvoztlanish manzillari alohida olingan yosh bir o‘g‘lon, navqiron xarakter misolida qiyofalanadi. Hammasi bir shaxs mavjudiyati, insonning chin mohiyati bo‘lib akslanadi. Yozuvchining quyidagi bir qarashda shunchaki aytilgan, loqaydroq o‘qilsa, asarning bosh xulosasi boy beriladigan umumlashma bayonida imoniy kamolot ro‘yobi va orzusi yorqin tajassumini topgan: “Elning ulug‘lari Ozodning tole qushini topganini eshitganlarida, miyig‘ida kulimsirab, bosh irg‘ab qo‘yadilar. Hayratlanmasliklaridan, bu haqiqatni avvaldan bilarmidilar, degan o‘y keladi xayolga. Ajabo, bilsalar, u ma’nolardan nega xabar bermadilar? Nega sukut saqladilar? Balki, elning bitta o‘g‘loni shu tarz kamolga yetib, bir ro‘zg‘orning boshiga kelishga tayyor bo‘lganidan qoniqish hosil qilgandirlar? Ha, elning bitta o‘g‘loni ana shunday voyaga yetadi”.

Ko‘p ma’noli, ko‘p qatlamli bu romandagi fazllar, undan olinadigan bezovta, ajoyib taassurotlar, shubhasiz, og‘ishilmay, hikmatli ravishda suyanilgan va bo‘ysunilgan ma’naviy najotning – muhofaza, munojot, rahmat, marhamatning masdari tufaylidir. Bundagi manzurliklar – Haqning “raqamig‘a mashg‘ullik” shavqidan, raqamning “xaloyiq ko‘ngliga maqbullik” istagidan, “nafsoniyat tiyraligida hidoyat shami bila” haq sari dadil ijodiy yurmoqdan taralgan. Sahv-u xatosi “o‘zluk yomonligidin” o‘zluk bila o‘ta olmaslik mashaqqatidan nishonalardir (fikrlar Navoiydan). Roman bosh qahramoni Ozod – oxirgi va abadiy ta’limotga tayanib, botil so‘zlar, akslar, yashashlarning ulkan xatarlari, hukmlaridan, haq so‘zlar, akslar, yashashlarning nihoyasiz saodati, sharaflaridan butun inson zotini jo‘shqin ogoh etuvchi, qalb-u aqllarni o‘z asliy manbai, dasturilamali tomon yuzlanishga yo‘llovchi estetik ideal. Faqat haqqa toliblik va

hayotga imoniy qarashgina har qanday jismoniy, ruhoniyl vaziyatlarda kamol kafolati bo'la olishini, inson tasarrufoti mohiyati hamda ko'lamlarini o'ziga xos uqtiruvchi, intihosiz yashash olamini, bugunning ma'naviy tanazzullarini, inson fenomenining ilohiy va'dalangan martaba, maqomini shar'iy taammul qildirguvchi, qalbiy shaffoflikka, botiniy poklanishga, vatanni, yer yuzini obod etishga poetik-falsafiy chorlaguvchi "Ozod" romani – o'zbek katta nasrining yangicha yo'nalishdagi mavzuga doir ilk polifonik adabiy-estetik hodisasidir.

2014-yil

MUNDARIJA

1-MAVZU: FANNING MOHIYATI, MAQSAD-VAZIFALARI.....	3
2-MAVZU: SO‘Z SAN‘ATI, OBRAZ VA OBRAZLILIK.....	11
3-MAVZU: MAZMUN, SHAKL VA PAFOS: MUTANOSIBLIK	18
4-MAVZU: BADIY ASAR SYUJETI VA KOMPOZITSIYASI.....	27
5-MAVZU: ADABIY TUR VA JANRLAR.....	36
6-MAVZU: ARUZ TIZIMI VA UNDA VAZNLARNI ANIQLASH .	43
7-MAVZU: BADIY ASARDA MAVZU VA G‘OYA	53
8-MAVZU: IJODIY METOD, OQIM, USLUB, USULLAR	60
9-MAVZU: ADABIY TURLARDA IJODKOR “MEN”I	68
10-MAVZU: TAHLIL METODLARI VA TA‘LIMOTIYLIK	81
ILOVALAR	93
She‘riyatda shirkning sharpasi	93
Oshiqona she‘riyat yoxud botil muhabbat.....	106
She‘riyat sharmu shavq yoxud botil muhabbat	115
Hidoyatning mashaqqatli yo‘li.....	121
She‘rshunos bir she‘riyat	131
Yolg‘onning shar‘iy va she‘riy ilinji	139
Shar‘iy nufuzli ong oqimlari	152
Haq so‘zlar, akslar polifoniyasi	162

Tohir Shermurodov

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

Uslubiy qoʻllanma

0941



Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2026.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, "Times New Roman"
garniturada raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabogʻi: 11. Adadi: 100.

"Noble Print" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100194, Toshkent shahri, Yunusobod-11, 62-uy.



ISBN 978-9910-8466-2-5



9 789910 846625